ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ МАКТАБИ

«ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ»

мавзусидаги республика анъанавий илмий-амалий конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

(IV қисм)

(2019 йил 22-23 февраль кунлари)

САМАРҚАНД – 2019

Инновацион иқтисодиётни шакллантиришда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўрни ва ролини ошириш муаммолари. / 2019 йил 22-23 февраль кунлари. Республика анъанавий илмий-амалий конференцияси материаллари (IV қисм). Самарқанд, СамИСИ, 2018. – 256 бет.

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:
М.Қ.Пардаев – иқтисод фанлари доктори, профессор

Нашр учун масъуллар:
М.М.Мухаммедов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Ж.Р.Зайналов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
И.С.Тухлиев – иқтисод фанлари доктори, профессор,
К.Б.Уразов – иқтисод фанлари доктори, профессор,
Т.С.Шарипов – иқтисод фанлари номзоди, доцент,
А.Н.Холиқулов – иқтисод фанлари номзоди, доцент в.б.

Саҳифаловчи: Ҳилола Очилова

Анъанавий илмий-амалий конференция материалларида хизмат кўрсатиш соҳасини стратегик ривожлантириш тенденцияси ва истиқболлари, соҳанинг алоҳида тармоқлари самарадорлигини ошириш муаммоларига оид масалалар ёритилган. Унда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг назарий ва методологик муаммолари, мазкур соҳада менежмент, маркетинг ва молиявий муносабатлар, бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитни такомиллаштириш, туризм соҳасини ривожлантириш, рақобатбардош кадрларни тайёрлашни такомиллаштириш ва шулар орқали аҳоли ҳаёт даражаси ва сифатини ошириш масалаларини ҳал қилиш бўйича илмий-назарий ва амалий тавсияларга бой мақолалар ўрин олган.

Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари, талабалари, магистрлар, таянч докторантура, докторантура, мустақил изланувчилар ва соҳа мутахассисларига мўлжалланган.

Мақолалар муаллифлар таҳририда босилмоқда. Уларда келтирилган рақамлар, фактлар, хулоса ва тавсияларга муаллифлар масъул. Уларнинг айрим фикрлари ташкилий гуруҳ қарашларига тўғри келмаслиги мумкин.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2019

I ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ВА АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ”

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
И.М.Пардаева – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги бошқарув академияси Самарқанд ҳудудий флиали катта ўқитувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АЙРИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Туризм соҳасининг мамлакатни иқтисодий ривожлантириш, ижтимоий барқарорлаштиришдаги аҳамиятидан келиб чиқиб, мазкур соҳага жиддий аҳамият берилиб келинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармони эълон қилинди. Ушбу фармонга мувофиқ 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси ишлаб чиқилди.

Мазкур концепцияда мамлакатимизда ва унинг ҳар бир ҳудудларида туризмни жадал ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини, юртимизнинг инвестициявий жозибадорлигини оширишни таъминловчи стратегик тармоқлардан бирига айлантириш учун намаларга аҳамият берилиши кўрсатилган. Ушбу ҳужжатда туризмни ривожлантириш масаласи бўйича бир қанча аниқ устувор вазифалар белгиланган. Ушбу вазифаларни босқичма-босқич амалга ошири бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури ҳам ишлаб чиқилган.

Мазкур ҳужжатлар миллий туризм салоҳиятини ички ва ташқи бозорларда самарали тарғиб қилиш имконини яратиш учун бир қанча давлатлар билан виза режими либераллаштирилди, чет эл фуқароларини рўйхатга олиш тартиби соддалаштирилди, туризм тармоғини ривожлантириш учун бир қанча имтиёз ва преференциялар берилиш кўзда туилди. Аммо ушбу тадбирлар туризмни ривожлантириш, халқаро туристларга туристик хизматларни кўрсатиш бўйича жаҳонда эришилган кўпгина тажрибаларга мос эмаслиги ҳам аён бўлди.

Бугунги кунда туристларга хизмат кўрсатиш соҳасида орқада қолишга ҳаққимиз йўқ. Соҳани ривожлантиришга киришдикми, энди хорижий меҳмонларга халқаро андозаларга мос сервис хизматларини кўрсата олишимиз лозим. Бунда қуйидаги вазифаларни амалга оширишни тақозо қилмоқда:

Биринчи галда, туризм тармоғини тартибга солувчи норматив-ҳуқу-

қий асосларни янада такомиллаштириш лозим. Бунда бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда, “Туризм тўғрисида”ги қонунга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш мақсадга мувофиқ.

Иккинчидан, бунда ҳам бугунги кун талабидан келиб чиқиб, алоҳида туризм хизматларини кўрсатиш қоидаларини халқаро андозалар даражасига етказиш бўйича аниқ ташкилий-иқтисодий тадбирларни такомиллаштириш чораларини кўриш. Соҳада фаолит кўрсатаётган кадрларни туристларга хизмат кўрсатиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганишни ташкил қилиш лозим.

Учинчидан, чет эл фуқароларининг тоифалари, мамлакатимизда бўлиш муддатлари ва мақсадлари бўйича дунё амалиётида кенг қўлланиладиган алоҳида виза режимларини жорий қилиш борасидаги ишларни янада такомиллаштириш.

Тўртинчидан, туристларни жойлаштириш воситалари ва инфратузилма объектларини, айниқса туризм мавсумида етарли даражада ташкил қилиш учун қўшимча меҳмонхоналар ва бошқа жойлаштириш воситаларини кўпайтиришга эришиш бўйича аниқ тадбирларни ишлаб чиқиш.

Бешинчидан, туристларга мўлжалланган турли транспорт воситаларида йўловчиларни ташиш тизимини етарли даражада мувофиқлаштириш бўйича ташкилий тадбирлар тизимини ишлаб чиқиш. Бунда туристларнинг хавфсизлигини таъминлашга алоҳида аҳамият бериш ҳам мақсадга мувофиқ.

Олтинчидан, ички туризмни ривожлантириш учун мамлакатимиз ҳудудларидаги маданий мерос объектларининг ва зиёратнинг ўзига хосликларини айнан мамлакатимиз аҳолиси учун тарғиб қилиш ишларини такомиллаштириш бўйича ҳам тегишли чораларни кўриш.

Еттинчидан, туристларни мавжуд туристик ресурслар тўғрисидаги маълумотлар билан таъминлашни турли ахборот-коммуникацион технологиялар имкониятларидан фойдаланган ҳолда ташкиллаштиришга эришишни кечиктирмасдан амалга ошириш.

Саккизинчидан, туризмни жадал ривожлантиришнинг муҳим омили бўлган туризм маркетинги ва реклама хизматларини такомиллаштиришда ҳам турли ахборот-коммуникацион технологиялар имкониятларидан фойдаланишни йўлга қўйиш тизимини яратиш.

Тўққизинчидан, туризмни ривожлантиришда хусусий секторнинг ролини ошириш ва уларга қулай шарт-шароитлар яратиш асосида кўрсатилаётган хизматларнинг рақобатбардошлигини ва сифатини оширишга эришиш.

Ўнинчидан, миллий туризм маҳсулотини дунё бозорида фаол тарғиб қилиш бўйича таъсирчан чора-тадбирларни ишлаб чиқиш масалаларини амалга ошириш вазифаларини ҳам амалга ошириш юзасидан белгиланган дастурий масалаларни ўз вақтида ижросини таъминлаш.

Булардан ташқари юқорида номи келтирилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон

Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармонига мувофиқ 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепциясида туризмни ривожлантиришга қаратилган бир қанча устувор вазифалар ҳам белгиланган. Буларга қуйидагилар киритилган:

“туризм фаолияти соҳасидаги норматив-ҳуқуқий базани такомиллаш-тириш, туризмни ривожлантириш учун қулай шароитлар яратишга қаратилган халқаро меъёр ва стандартларни имплементация қилиш;

туризм инфратузилмасини ривожлантириш ҳамда мақбул ва қулай туризм муҳитини яратиш;

транспорт логистикасини ривожлантириш, ички ва ташқи йўналишларни кенгайтириш, транспорт хизматлари сифатини ошириш;

туризм бозорининг турли сегментларига йўналтирилган туризм маҳсулоти ва хизматларини диверсификация қилиш;

республика ичида туризм хизматларига бўлган эҳтиёжни қондириш-га йўналтирилган туризм фаолияти субъектларининг фаоллигини рағбатлан-тиришни таъминловчи ички туризмни ривожлантириш;

Ўзбекистон Республикаси туризм маҳсулотини халқаро ва ички туризм бозорларида тарғиб қилиш, мамлакатнинг саёҳат ва дам олиш учун хавфсиз сифатидаги имиджини мустаҳкамлаш;

туризм тармоғи учун кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш”[1].

2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепциясида белгиланган вазифаларни бажариш учун ҳар йили алоҳида чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, унинг асосий йўналишлари ва мақсадли параметрларини амалга ошириш бўйича аниқ чоралар белгилаш мақсадга мувофиқдир. Ушбу вазифалардан келиб чиқиб, мамлакатимизда 2019 йилга мўлжалланган чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилган. Йил охирида Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривож-лантириш давлат қўмитаси жорий йилда белгиланган чора-тадбирларни сарҳисоб қилиб, янги йилга тегишли тегишли чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилади. Мазкур чора-тадбирлар Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади. Шу тариқа туризмни ривожлантириш концепциясида белгиланган вазифаларни амалга ошириб бориши таъминланади.

Концепциядаги устувор вазифаларни бажариш учун бугунги кунда туристларнинг хавфсизлигини таъминлаш барча ҳолларда тўлиқ кафолатлан-ган бўлиши лозимдир. Бундай хизматларнинг амалга оширилиши учун соҳа ходимлари етарли савияга, маълумотга ва малакага эга бўлишини талаб қилади. Туристларнинг талабларини тўлиқ қондириш

[1] 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси.// Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармонига 1-илова.

ва самарадорлигини ошириш учун туристик хизматларни амалга оширадиган ходим профессионал малакага эга бўлиши билан бирга маълум даражада руҳшунос (психолог) бўлишлигини ҳам талаб қилади. Ҳозирги шароитда, ушбу ходимлар томонидан кўрсатиладиган хизмат турларини аъло даражада бажарадиган бўлиши билан бирга муомала маданиятига, ўз кўрки ва тароватига эга, зийрак ва ҳушёр бўлишлигини, бир қанча хорижий тилларни ҳам билишлигини талаб қилади.

Маълумки, мамлакатимизда Ҳукумат қарори билан Туризмни ривожлантириш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПҚ-3217-сонли қарорига асосан ташкил этилган. Ушбу кенгаш белгиланган чора-тадбирлар режасининг самарали ташкил этилиши, ўз вақтида ва сифатли бажарилиши бўйича вазирликлар, идоралар ва бошқа ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаш-тиришга масъул. Мазкур Кенгаш хорижда Ўзбекистоннинг туризм салоҳиятини тарғиб қилиш ва хорижий туристларни жалб қилишга қаратилган қўшма тадбирларни ўтказиш бўйича "Йўл харитасини"ни тузиб, ҳар йил алоҳида тасдиқлайди. Ушбу вазифаларнинг бажарилиши юзасидан мазкур кенгаш Ўзбекистон Республи-каси Президенти Администрациясига батафсил маълумот бериб боради.

С.Н.Хамраева – ҚарМИИ, “Иқтисодиёт” кафедраси доценти,
М.Тўхтаева – ҚарМИИ магистранти

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ИННОВАЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Дунёнинг кўплаб ривожланган мамлакатларида инновацион фаолиятни рағбатлантириш, иқтисодиёт тармоқларига жорий этиш ва инновацион жараёнларнинг доимий ривожланишини таъминлаш, яъни маҳсулот ишлаб чиқаришда инновацияларнинг узлуксиз оқимини ташкил этиш ва ўзлаштириш ҳисобланади, бунинг натижасида ишлаб чиқаришни доимий равишда техник-технологик ва ижтимоий-иқтисодий янгиланиши рўй беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Биз 2018 йилга «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили» деб ном бериб, Давлат дастури доирасида 21 триллион сўм ва 1 миллиард долларга тенг 76 мингта лойиҳани амалга оширганимиз ўтган йили яхши ният билан бошлаган ишларимизнинг натижасини кўрсатиб турибди.

Саноат, қишлоқ хўжалиги, капитал қурилиш, транспорт-коммуникация, сервис ва хизмат кўрсатиш соҳаларида салмоқли ютуқлар қўлга киритилди”[1].

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевни Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 28.12.2018 йил

Жамиятнинг ривожланиши, ишчи кучларининг ошиши билан хизматлар соҳаси маълум даражада ривожланади. Бугунги кунда ушбу соҳада банд бўлганларнинг кўпайиши, меҳнатни техник жиҳозланганлигининг ўсиши, илғор технологияларни кенг жорий этилиши кўзатилмоқда. 2018 йилда ЯИМда хизматлар соҳасининг улуши 35,6%ни, шунингдек, ЯИМнинг ўсишида хизматлар соҳасининг таъсири 1,8%ни ташкил этган[1]

2019 йил 1 январь ҳолатига, 323,5 минг фаолият кўрсатаётган ташкилот ва корхоналардан 213 мингга яқини хизматлар соҳасида фаолият кўрсатмоқда. Хизмат кўрсатувчи ташкилот ва корхоналар умумий сонида 153 мингдан ортиғи кичик тадбиркорлик субъектлари ҳисобланади. 2019 йил 1 январь ҳолатига уларнинг улуши 72,2 % ни ташкил этди.

Хизмат кўрсатиш соҳасидаги бандликнинг таркибий таҳлили ижтимоий аҳамиятга эга бўлган савдо, таълим, ташиш ва сақлаш, соғлиқни сақлаш ва шу каби тармоқларнинг улуши энг юқори эканлигини кўрсатди.

Ҳозирги кунда иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири бўлган хизматлар соҳасининг ўрни жуда катта ва аҳамиятлидир. Бу ишлаб чиқаришнинг мураккаблашуви, бозорни кунлик ва шахсий талабдан келиб чиққан ҳолда товарлар билан тўлдириш, жамият ҳаётини янгиловчи илмий-технологик тараққиётнинг жадал ўсиши билан боғлиқдир. Буларнинг барчасини ахборот, молиявий, транспорт, консалтинг ва бошқа хизмат турларисиз амалга ошириб бўлмайди. Иқтисодиётни модернизациялаш ва аҳоли фаровонлигини ошириш шароитида хизматлар кўрсатиш соҳасида тадбиркорлик субъектлари самарадорлигини ошириш бугунги кунда мамлакат иқтисодиётини олдида турган муҳим масалалардан биридир. Хусусан, мулкчиликнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи деб эътироф этилаётган хизматлар кўрсатиш соҳасидаги тадбиркорлк субъектлари самарадорлигини оширишнинг истиқболини белгилаш, ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ва ушбу соҳада илмий жиҳатдан асосланган таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқиш ўта муҳимдир. Чунки бозор муносабатларини такомиллаштиришда, иқтисодиётни янада эркинлаштиришда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, унинг натижасида мамлакат бюджети барқарорлигини таъминлаш, ялпи ички маҳсулотини ишлаб чиқариш, аҳоли бандлигини таъминлаш каби долзарб муаммоларини ҳал қилишга эришилмоқда.

XXI асрда инновацион фаолиятни бошқариш, ташкил этиш, иқтисодиёт тармоқларининг турли соҳаларини инновацион ривожлантириш усуллари ва механизмларини танлаш муаммоси иқтисодчи олимларнинг диққат марказида бўлиб келмоқда**.**

Инновация, инновацион фаолият, инновацион жараён ва шу каби тушунчалар бизнинг ҳар кунги ҳаётимизда, корхона фаолиятида ва иқтисодиёт тармоқларининг турли жабҳаларида мустаҳкам ўрнашиб олмоқда. Ривожланган мамлакатларда корхоналарнинг рақобатбардошлигини

[1] w.w.w.stat.uz . Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари

оширишда, бозорда ўз мавқеини мустаҳкамлашда ва харидоргир маҳсулот ишлаб чиқаришда инновациялар муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Инновация муамоси билан шуғулланувчи республика ва чет эл олимларнинг тадқиқотларини ўрганиш натижасида инновация, инновацион жараён ва инновацион фаолиятнинг мазмуни ва моҳиятига турлича ёндошувлар борлиги аниқланди. Кўпгина иқтисодий адабиётларда биринчилардан бўлиб инновацион жараёнларнинг таърифини, турларини ва умуман инновацион фаолият назариясига муҳим ҳисса қўшган олим сифатида австралиялик иқтисодчи-олим Йозеф Шумпетерни таъкидлаб ўтишади. Бу вақтларда инновация ҳақида фикр юритилмаган, аммо иқтисодиётни ривожлантиришда "самарали усул", "янгилик", "таъсири", "қўллаш" каби тушунчалардан фойдаланилган.

Бизнинг фикримизча, инновация – бу фан ютуқлари ва илғор тажрибадан фойдаланиш, ижтимоий ишлаб чиқаришни такомиллаштириш ва ривожлантириш жараёнлари, янги истеъмол ҳусусиятларга эга бўлган маҳсулотларини (товар, маҳсулот, техника, технология, бошқа ташкилий шакл ва воситалар) шакллантириш, амалиётга жорий этишга асосланган инвестицион ва ижодий фаолиятнинг моддийлашган якуний натижаси бўлиб, бозор ва ижтимоий эҳтиёжларнинг қондирилишига кўмаклашади, харажатларни иқтисод қилади ва инсонларнинг турли хил ҳаёт ва фаолият соҳаларида турлича самара беришини таъминлайди.

Инновацион фаолият – ишлаб чиқаришда янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот турини ўзлаштириш, янги ёки такомиллаштирилган технологик жараённи амалиётга жорий этиш, истеъмолчилар учун ёки маҳсулот рақобатбардошлилигини оширувчи янада сифатли таркибга эга бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқариш жараёни.

Инновациялар ва инновацион жараёнларни туркумлаштиришда уч гуруҳ омиллари ажратиб олинди. Биринчи гуруҳга инновацияларнинг мазмунини белгиловчи омиллар, яъни унинг шаклланиши, янгилик даражаси, инновацион жараённинг ҳусусиятлари, уни такрорланиш даражаси каби белгиларига қараб классификацияга ажратиб олинган. Мисол учун, инновациялар ва инновацион жараёнларни шаклланишига қараб туркумлаштирганимизда "эндоген" ва "экзоген" шаклда вужудга келиши тушунилади, янгилик даражаси бўйича туркумлаштирганимизда инновацияларни янги, қисман янги, локал ва имитацион инновацияларга бўлиш мумкин. Инновацион жараёнларнинг ҳусусиятига қараб ажратганимизда корхона ичидаги ва корхоналараро инновацияларга бўлинади.

Инновацияларни классификацион белгиларига қараб гуруҳлаганимизда инновациялардан фойдаланиш ва ишлаб чиқиш соҳаси омиллари ва белгиларини инобатга олган ҳолда туркумлаштирилган. Бунга инновациялар предмети ва жорий этиш соҳаси, ишлаб чиқиш ва фойдаланиш даражаси, инновацияларнинг таркибий тузилмаси, инновацияларни қўллаш ва таъсир доираси киради.

Учинчи гуруҳга инновацияларнинг натижасини белгиловчи омиллар:

самарадорлиги, самарадорлик шакли, инновацияларни амалга ошириш механизмлари ва жорий этилиши даражаси, ўзгаришларнинг ўзига хослиги, уларнинг тури ва янгилик шакли, иқтисодий ўсишда инновацион имкониятлар.

Ҳозирги кунда хизматлар соғасини жадал ривожлантиришда инновацион технологияларни жорий этиш муҳим аҳамият касб этмоқда, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг маълумотларига кўра мамлакатимизда юкларни ташиш учун электрон платформа яратилади. Тошкент шаҳридаги Инҳа университети ҳамда "Ў'завтотранс" агентлиги биргаликда халқаро мультимодал транспорт-логистика марказининг электрон платформасини яратиш тўғрисидаги лойиҳани ишлаб чиқиш борасида қарор қабул қилди. Лойиҳада юкларни экспорт-импорт қилишда транспортда ташиш билан боғ лиқ маълумотларни тўплаш, ишлов бериш ва таҳлил қилиш, экспорт-импорт юкларни ташишда транспортда ташиш ва омборга жойлаштиришни қулайлаштириш, транспорт харажатларини қисқартириш, келиштириш ҳисобига етказиб бериш ва омбор операцияларининг самарадорлигини ошириш, логистика жараёнини барча иштирокчиларнинг аниқ ҳисоб-китоблар ва оқилона ҳаракатлар ягона электрон платформасини яратиш кўзда тутилган.

J.T. Aliboyev – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi
G.P.Gulyamova–O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING IQTISODIYOT VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy maqomini baholashda xizmat ko'rsatish sohasining tarkibi, miqyosi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev "milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish eng ustuvor maqsadimizdir"[1] – deb belgilagan edi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi, zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda xizmatlarining ulushi yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 2/3 dan 3/4 gachani tashkil qiladi.

Mamlakatimizda har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi. Xizmatlar sohasini rivojlanishida eng yuqori ulushni Toshkent shahri (32,1 foiz), Toshkent (7,9 foiz), Samarqand (7,1 foiz), Farg'ona (6,5 foiz),

[1] 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI

Andijon (5,7 foiz) foiz), Qashqadaryo (5,0 foiz) viloyatlari egallaydi. 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasida YAIM da xizmatlarning ulushi 46,2 % ni tashkil etdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 116795,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 8,9 foizga oshdi.[1]

Mamlakatimiz rahbari va hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni modernizatsiyalashtirish tufayli iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta’minlanmoqda, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanmoqda. Ammo bu degan so‘z, tadbir-korlikni rivojlantirishda, ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasida barcha muammolar bartaraf etildi, degani emas. Shu o‘rinda ba’zi muammolarga to‘xtalsak.

Birinchidan, respublikamiz viloyat va hududlarida sifatli xizmat ko‘rsatishga qaratilgan kadrlar tayyorlanishi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan emas. Mavjud oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining faoliyat ko‘rsatishiga qaramasdan, xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlar malakasini oshiradigan, ularni qayta tayyorlaydigan o‘quv muassasalari hamon yetarli emas. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, xizmat sohasidagi tadbirkorlar qayerda nimani o‘qishni bilmaydilar, hududlarda ularni o‘qitadigan qisqa tayyorlov kurslari yetarli darajada tashkil qilinmagan. Faoliyat ko‘rsatayotgan biznes maktablari va kasb-hunar kollejlarida alohida mutaxassislar (menejerlar, marketologlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar) emas, balki sohalar bo‘yicha tadbirkorlarni, ya’ni uy xo‘jaligi tadbirkori, fermer xo‘jaligi tadbirkori, dehqon xo‘jaligi tadbirkori, meva va sabzavotlarni qayta ishlash tadbirkori, xizmat sohasi tadbirkori kabilarni tayyorlash lozim. Bunday mutaxassislikni olgan yoshlar qayerga borishini, nima bilan shug‘ullanishini yaxshi biladigan bo‘lishlari kerak. Shuningdek, hozirgi xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘rta ma’lumotli marketologlar emas, balki xizmatning ma’lum turi bilan mukammal shug‘ullanadigan tadbirkorlar kerak. Ular tadbirkorlik sirlari bilan birga buxgalteriya hisobini, moliyaviy munosabatlarni, eng zarur bo‘lgan huquqiy masalalarni ham bilishlari lozim.

Ikkinchidan, ko‘plab xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlari juda qisqa vaqt oralig‘ida yopilib ketmoqda. Buning sabablari tadqiq qilinganida shunga amin bo‘ldikki, ularning ko‘pchiligi o‘z haq-huquqlarini yaxshi bilmaydilar. Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlar hayotini tartibga soluvchi, tez-tez o‘zgarib turayotgan qonunlar va me’yoriy hujjatlarni ularga yetkazish mexanizmini yaratish lozim. Ushbu muammoni hal etish yo‘llaridan biri mazkur sohaga malakali advokatlik institutlari yoki masofadan o‘qitish tizimini joriy etishdir.

Uchinchidan, hozirgi paytda mamlakatimiz hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan biznes maktablarida biznesmenlar emas, balki uning ayrim sohalari bilan shug‘ullanadigan marketologlar, menejerlar, buxgalterlar, hatto huquqshunos kabi kadrlar tayyorlanmoqdaki, ular biznes maktabini tugatib, ishni nimadan boshlashni bilmaydilar. Chunki, xususiy mulkdorlar shirkatida

[1] O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi tahliliy ma’lumotlari

bor-yo‘g‘i 3-5 kishi ishlasa, unga alohida buxgalter yoki marketolog kerak emas. Fikrimizcha, hududlarda xususiy mulkdorlar shirkati bo‘yicha tadbirkorlik maktablarini ochish yoki ularni shu kasbga o‘qitish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, xizmat sohasidagi xususiy mulkdorlar shirkatining moliyaviy ta’minoti bilan bog‘liq muammolar mavjud. Ushbu sohaga mamlakatimiz Birinchi Prezidentining tashabbusi bilan 2006-yildan buyon tijorat banklari tomonidan imtiyozli mikrokreditlar berib kelinmoqda, ammo bundan barcha xususiy mulkdorlar shirkatlari bir xilda manfaatdor emaslar. Chunki, ayrim hududlarda tijorat banklari kredit berishni ko‘p paysalga solganligi tufayli ba’zi tadbirkorlar ulardan bezib qolmoqda. Xizmat sohasi bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarning katta miqdordagi kredit olishlariga to‘sqinlik qilib turgan yana bir jihat xususiy mulkdorlar shirkatlarining asosiy vositalarga ega emasligi yoki kredit uchun garov mulkining mavjud emasligi.

Jahon miqyosidagi global innovatsion sferaga integratsiya qilinish, ya’ni bu innovatsion muhit bilan hamnafas bo‘lgan holda, undan respublikamiz uchun kerakli bo‘lgan barcha ijobiy innovatsion yangiliklarni o‘zlashtirib olish mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Innovatsion yangiliklarni xizmat ko‘rsatish sohasiga joriy qilishga moliyaviy ko‘mak tariqasida barcha huquqiy va jismoniy shaxslarga innovatsion homiylik imkoniyatlarini yaratib, buning uchun ularni ma’lum miqdordagi soliqlardan ozod qilish va bundan tushgan mablag‘larni to‘laligicha markaz-lashgan “Innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash fondi”ga o‘tkazish va bu mablag‘-larni innovatsiyalarni moliyaviy ta’minlashga hamda bu ishda jonkuyarlik ko‘rsatgan ilmiy-texnik xodimlar va mutahassislarga moddiy mukofot tariqasida berishni tashkil qilish mamlakatimizda nafaqat xizmat ko‘rsatish sohasi, balki butun iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga turtki bo‘lar edi.

Xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta’siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi, masalan, kredit kartalari orqali to‘lovlar, Internet-savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta’lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir. Xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda to‘siq bo‘layotgan muammolardan biri faoliyatni kredit munosabatlari asosida moliyalash masalalarida yuzaga kelayotgan muammolar tashkil etmoqda. Bu muammolar nimalardan iborat ekanligini aniqlashda kredit samaradorligining mazmun-mohiyati jihatidan jamiyatning ayni paytdagi va kelajakdagi ehtiyojini qondiruvchi umuminsiniy faoliyat uzviyligini ta’minlab, iqtisodiy o‘sishga zamin yaratuvchi vosita sifatida vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish sharti bilan qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabat obyektining ishtirokchilar faoliyatida unumli foydalanilib,

jamiyat taraqqiyoti uchun qo‘shimcha qiymat yaratib, pirovard natijada muvaffaqiyatli yakunlanishidir. Umuminsoniy faoliyat va uning shaxsiy insoniy omiliga xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini rivojlantirishda kreditlarning rolini oshirish va ular samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan mukammal amaliy takliflarni ishlab chiqish, kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning tub mohiyatini o‘rganib chiqish talab qilinadi.

Xususiy mulkdorlar shirkati moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha aniq ma’lumotlarga asoslangan hamda moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etilishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili yuzasidan iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

А.Равшанов – ҚарМИИ доценти,
С.Худойбердиев – ҚарМИИ магистранти

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификациялаш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни инновацион ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда кичик бизнес ва тадбиркорликни барқарор ривожлантириш асосида маҳсулот рақобатбардошлигини оширишга қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидлаганидек “Инвестиция билан бирга турли соҳа ва тармоқларга, ҳудудларга янги технологиялар, илғор тажрибалар, юксак малакали мутахассислар кириб келади, тадбиркорлик жадал ривожланади”[1]

Мамлакат қонунчилигида кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари яратилди. Бу даврда хусусий мулкни ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилишни кучайтириш, мамлакатимизда иқтисодиётни ривожлантириш ва инвестицияларни фаол жалб этиш, тадбиркорлик, аввало кичик бизнес фаолиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш, кенг тармоқли хизмат кўрсатувчи бозор инфратузилмасини барпо этишни кўзда тутадиган қонун ҳужжатларининг бутун бир мажмуаси қабул қилинди.

Ўзбекистоннинг яънада жадал ривожланиши, биринчи навбатда инновацион иқтисодий тизимни шакллантириш туфайли кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларнинг инновацион фаоллигини ошишига ва кичик бизнес ва тадбиркорлик корхоналарнинг техник-технологик томондан модернизациялаш даражасини ўсишини таъминлаш, миллий иқтисодиёт

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 29 декабр, №271-272 (7229-7230)

рақобатбардошлиги ўсишига ва аҳоли даромадлари ва халқ фаровонлигини узлуксиз ошириб боришига эришилади.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки мамлакат иқтисодиёти рақобатбардошлигини таъминлаш масаласи биринчи навбатда инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожланганлик даражаси билан боғликдир. Ривожланган мамлакатларда кичик тадбиркорлик фаолиятига кўплаб инновацияларни киритиш, ишлаб чиқаришни техник-технологик қайта жиҳозлаш каби жараёнларни иқтисодиёт рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омили сифатида қаралмоқда.

Инновацион тадбиркорликнинг ҳар қандай кўриниши давлат томонидан қўллаб-қувватлашни ва рағбатлантиришни талаб этади. Ўз навбатида ривожланган ғарб давлатларида ушбу масаланинг шакли ва аниқ йўллари ишлаб чиқилган. Айниқса АҚШ, Япония, Буюк Британия, Канада, Франция, Исроил каби давлатларнинг тажрибалари муҳим аҳамиятга эга бўлиб, илмий-техник муаммолар ечилиши олиб бориладиган инновацион сиёсатда давлатнинг фаол иштироки асосида ҳал этилади.

Жаҳон тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда, иқтисодиётимизни келажакда янада барқарор ривожланишини таъминлаш, уни диверсификация ва модернизация қилиш, ишлаб чиқаришни техник-технологик қайта жиҳозлаш борасидаги ишларни инновацияларга асосланган изчил давом эттиришимиз зарур.

Бозор иқтисодиётида асосан инновациялар, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишдаги муҳим масалалар ечимларини топишда кичик бизнес ва тадбиркорлик суъектлари томонидан тадбиқ этилади. Янги технологияларни, истеъмолчилар талабларини қондирадиган маҳсулотларни қидириш ва тадбиқ этиш, корхонани ривожлантириш мақсадида қўйиладиган масалалар биринчи навбатда, тадбиркорликнинг инновациявийлик, новаторлик, изланувчанлик ва хавф-хатарга тайёр туриш каби жиҳатларини амалда қўллаш орқали эриишилади.

Шунинг учун иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг муаммолари ечимини топишда биринчи навбатда давлат ва хусусий мулк асосларида инновацион ишлаб чиқаришни ташкил этиш учун зарур бўлган тадбиркорлик фаолиятига ишлаб чиқаришнинг асосий омили сифатида қаралиши лозим.

Инновацион иқтисодиёт – амалда тадбиқ этилган янгиликлар иқтисодий ўсишларнинг асосини ташкил этган ҳолда, тадбиркорлик фаолиятида инновацияларнинг кенг тадбиқ этилиши асосида ижобий натижалар беришини белгилаб берса, инновация эса тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг энг муҳим йўналишларини аниқлаб беради.

Иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификациялаш шароитида кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини инновацион ривожлантириш муаммоларини шартли равишда объектив ва субъектив муаммоларга ажратиш мумкин.

Объектив муаммоларнинг хусусиятларига:

- таклиф қилинадиган инновациялар баҳоларининг юқорилиги;
- тадбиркор маблағларининг етишмаслиги;
- инновацион фаолиятни амалга оширишда иқтисодий таваккалчилик ва хавфни юқорилиги;
- инновацияларни қоплаш муддатининг чўзилиши ёки аниқмаслиги.

Субъектив муаммоларнинг хусусиятларига:

- мавжуд муаммоли вазиятларни ечишда ишчи ва ходимларнинг малакаси етишмаслиги;
- -кичик ва йирик корхоналар учун зарур ахборотларнинг номутаносиблиги.

Юқорида таъкидлаб ўтилган барча омиллар, кичик бизнеснинг ташқи бозорда ўз вақтида ўрнини тополмаслигига сабаб бўлади, уларнинг инновацион имкониятлари пастлиги оқибатида товарлар ва хизматлар рақобатбардошлигини камайтиради, халқаро сифат стандартлари талабларига жавоб бермайди, натижада бозордаги самарали халқаро савдо ва сервис тармоқлари билан хамкорликдан маҳрум бўлишади.

Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари ва уларни ечимини топишга доир жаҳоннинг замонавий илмий мактабларида кўплаб тадқиқотлар олиб борилмоқда. Уларнинг илмий изланишлари асосида инновацион тадбиркорлик фаолиятининг ютуқ ва камчиликларини чуқур таҳлил қилиш, кичик бизнесни ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар ечимларини топишда давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашнинг асосий йўналишлари аниқланди. Бироқ жаҳонда кузатилаётган инқирозлар, рақобат муҳити шароитида мамлакат иқтисодиётини биринчи навбатда модернизациялаш, инновацион ривожлантириш каби долзарб масалалар турибди

С.А.Бабаназарова – СамИСИ ўқитувчиси,
Н.Пирманова – СамИСИ, БХ-116 гуруҳ талабаси,
С.Абдукаримов – СамИСИ, БХ-116 гуруҳ талабаси

АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ҚАТЛАМИГА КЎРСАТИЛАДИГАН ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР ВА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ, УЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ

Ҳозирги кунда аҳолининг турмуш даражасини яхшилаш - иш билан бандлигини таъминлаш, даромадини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда бу борада амалга оширилаётган ислоҳотлар мазмунидан кўриниб турибдики, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизими вақтинчалик чора-тадбирларга эмас, балки аҳолини қийин вазиятдан олиб чиқиш ва тинч -осойишта ҳаётга қайтаришга қаратилган. Ижтимоий ҳимоя қилишдаги ҳаракатлар самарадорлиги таъминланиши учун барча давлат тузилмалари ҳамда нодавлат ташкилотларининг ҳамкорлигида иш олиб

бориладиган тизимли ёндашув керак бўлади. Бу ёндашув турли ижтимоий хизматлага ажратилган маблағларнинг тақсимлаш самарадорлигини оширади.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси президенти Ш. Мирзиёев 2017 - 2021 йилларга мўлжалланган ҳаракатлар стратегиясида ижтимоий соҳани ривожлантиришни 5 та устувор йўналишларнинг бири этиб бегилади. Бунда кам таъминланган оилалар сонини камайтириш, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлами (пенсионерлар, ногиронлар, ёлғиз кексалар ва бошқалар)нинг тўлақонли ҳаёт фаолиятини таъминлаш учун уларга тиббий-ижтимоий хизматлар кўрсатиш тизимини янада ривожлантиришга алоҳида урғу берилди.

Ижтимоий ҳимоя – мамлакат аҳолисини ижтимоий муҳофаза қилинишини таъминлайдиган ва ёрдамга, кўмакка муҳтож фуқаролар тўғрисидаги ғамхўрлиги ҳисобланади. Ижтимоий ҳимоя тўғрисида сўзлар эканмиз, аввало ижтимоий ҳимояга кимлар муҳтож деган саволга дуч келамиз. Ижтимоий ҳимояга аҳолининг ваҳтинчалик ёрдамга ёки узоқ муддатли кўмакка муҳтож қатламини яъни, ўзининг тузалмас касаллиги билан ёлғиз қолган ногиронлиги бор инсонлар, меҳрибонлик уйларининг тарбияланувчилари, шу жумладан қаровчиси йўқ кексалар, оғир вазиятга тушган оилаларни киритишимиз мумкин.

Кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ва аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож бошқа қатламларини тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш соҳасидаги фаолиятга ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилишнинг асосий мақсадлари ва вазифалари белгиланди:

- аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларига тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатувчи органлар ва ташкилотлар фаолиятини самарали назорат қилиш орқали кўрсатиладиган давлат хизматларининг сифатини ошириш;

- тиббий-ижтимоий хизматлар кўрсатилаётган ва ижтимоий ёрдам олаётган кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ва аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларининг Автоматлаштирилган ягона электрон реестрини шакллантириш;

- тиббий-ижтимоий хизматлар кўрсатиш учун ажратиладиган молиявий ва бошқа ресурсларни мақсадли тақсимлаш, харажатларни самарали режалаштириш; [1]

Бугунги кунда ижтимоий хизматлар кўрсатишда давлат ташкилотлари билан бир қаторда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ўрни катта. Бундай ташкилотлар имконияти чекланган шахсларга, кам таъминланган оилаларга, кексаларга, етим болаларга ва аҳолининг ижтимоий хизматларга муҳтож бошқа қатламига турли кўринишдаги (моддий, ҳуқуқий, психологик) хизматлар кўрсатмоқда.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5270-сонли Фармони. 01.12.2017 й.

Аҳолининг ҳимояга муҳтож қатламининг ҳаёт фаровонлигини ошириш мақсадида қандай ижтимоий хизматлар кўрсатилиши лозим?

- ёлғиз яшайдиган кексалар ва ногиронларнинг яшаш ҳолати (соғлиғининг ҳолати, уй-жой шароити)дан келиб чиқиб уларга тиббий хизматлар, кексаларни қариялар уйларига эмас балки уй шароитида парвариш қилиш яъни, улар учун кундузги дам олиш масканларини барпо этиш, кечки пайт эса ўз уйларида бўлишларини таъминловчи хизматлар ҳамда уларнинг саломатлигини текшириш мақсадида уйларига келиб тиббий хизматлар кўрсатиш;

- ногиронлик, турли наслий касалликларни олдини олиш мақсадида хомиладор аёлларни тиббий кўрикдан, чақалоқларни перинатал скрининг кўригидан ўтказиш каби хизматларни кўрсатиш;

- ногиронлиги бор инсонларнинг жамият ҳаётига аралашувини оширувчи шароитлар яратилиши масалан, шаҳар худудида ногиронлар йўлакларларини барпо этиш, ногиронлар аравачалари учун махсус ешиклар бўлишини ташкил қилиш керак бўлади;

- ногирон фарзандлари бўлган ота-оналарга кўмаклашувчи гуруҳларни ташкил этиш. Бунинг натижасида бутун умри интернатда ўтадиган ногирон фарзандларнинг уйда парвариш қилинишига еришилади.

- ногирон фарзандлари билан ёлғиз қолган аёлларга бошпана беришни ташкиллаштирувчи хизматлар кўрсатиш;

- ногиронларга замонавий талабларга жавоб берадиган таълим бериш, уларни касбга йўналтириш, иш билан бандлигини таъминловчи хизматлар кўрсатиш;

- ногиронлар, кам таъминланган оилаларга туристик хизматлар кўрсатиш;

- бутунлай даволашнинг иложи бўлмаган яъни ўлим билан якунланадиган касалга чалинган болалар умуман олганда беморларнинг дардини енгиллаштириш, уларнинг қолган умрини оғриқсиз ўтказишига ёрдам берувчи хизматлар кўрсатиш;

- кам таъминланган оилаларга яшаш ҳолатидан келиб чиққан холда беғараз ёрдамлар кўрсатиш;

- ногиронларнинг индивидуал ривожланишини таъминлашга қаратилган турли хил қулайликлар яратиш, жумладан, кўриш қобилияти заиф шахсларга аудио воситалар орқали уларнинг ижтимоий хаётдаги фаоллигини ошириш.

Санаб ўтилган вазифалар жамиятнинг бир бўлаги ҳисобланган ижтимоий эътиборга муҳтож қатламга умумий кўрсатиладиган хизмат-ларга оид ҳисобланиб, мамлакат тараққиётида ўзига хос ўрин эгаллаган таълим соҳасини ҳам биологик жиҳатдан ожиз лекин шу билан биргаликда ўзлаштириш қобилиятига эга шахсларга мос ва улар учун имкони борича қулай шароит яратадиган таълим шаклини ишлаб чиқиш, кўрсатиладиган таълим хизматларини ногирон ва нуқсонли аҳоли эҳтиёжларини қайта чуқур ўраганиб чиққан ҳолда ташкил этиш каби масалалар ҳам бугунги

кунда асосий муаммолар сирасига кириши ҳақиқатдир.

Ҳозирги кунда таълим соҳасидаги хизматларни жамиятнинг барча қатламларини қоплаган ҳолда қайта ташкил этишда қуидаги таклифлар алоҳида аҳамият касб этади:

- маълумки, ҳозирги кунда нуқсонли болаларни ўқитиш, уларга таълим бериш ва шу каби ишларда уларга "уй таълим" дастурлари ишлаб чиқилган ва улардан амалиётда кенг фойдалинилмоқда. Бу эса ўзининг самарали натижасини секинлик билан кўрсатмоқда. Лекин уни янада такомиллаштириш, замонавий, инноватсион ғоялардан кенг фойдаланган ҳолда самарадорлик кўрсаткичини ошириш, жумладан ушбу дастур бўйича фаолият юритаётган ўқитувчилар учун берилаётган юқори миқдордаги иш ҳақиларни тежаган ҳолатда бу дастурни онлайн шаклга ўтказиш;

- юқори ва қуйи таълим, ахборот ва бошқа тегишли соҳа етакчилари билан ҳамкорликда жисмонан ожиз аҳоли учун таълимни етказиб бериш жараёнини тубдан ислоҳ қилиш, хусусан кўзи ожиз шахсларга аудио китоблар, қўлланмалар, дарслик, элестрон дастурлар ва бошқа шу каби қулайликлар яратиб беришга хизмат қилувчи инноватсион дастулар яратиш;

- ушбу таълим соҳасида хизмат қилаётган ишчи-ҳодимларни малака кўрсаткичларини янада ошириш, уларни зарур ҳолатларда жаҳон ва миллий андозалар асосида қайта тайёрлаш ва эътиборли хизматларини муносиб равишда тақдирлаш.

Юқоридагилардан хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, мамлакатимизда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламини ҳимоя қилиш тизимини тубдан ислох килиш ва бу борада етарли тажрибага эга ҳомийлар топиш мамалакатимиз тараққиётида катта рол ўйнайди . Зеро, ҳозирги дамда юртимизда истиқомат қилаётган ҳар бир фуқаро ижтимоий аҳволидан қатъи назар ҳуқуқий тенглигини таъминлаш келажагимиз барқарорлиги кафолатлашга қаратилган асосий вазифаларимиздан бири эканлиги инкор этиб бўлмас ҳақиқатдир.

И.И.Файзиева – СамИСИ мустақил тадқиқотчиси

МАИШИЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ МУАММОЛАРИ

2018 йил Ўзбекистон иқтисодиётида ислохотларни жадал ривожлантириш Стратегиясининг дастлабки натижалари намоён бўлиш йили десак муболаға бўлмайди. Мамлакатимизнинг ялпи ички маҳсулоти йил якунлари бўйича жами 407 514,5 млрд сўмни ташкил қилиб, 2017 йилга нисбатан 5,1%га ўсган.[1] Бундан хулоса қилсак бўладики, жаҳон бозоридаги

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика Қўмитаси расмий маълумотлари. Электрон манба. www.stat.uz

конъюнктуранинг салбий томонга ўзгаришига қарамасдан Ўзбекистонда барқарор макроиқтисодий ўсиш суръатлари сақланиб қолган.

Ушбу натижага эришишда хизматлар соҳаларининг ўрни ҳам салмоқлидир. 2018 йилда жами 146836,3 млрд сўмлик хизматлар ишлаб чиқарилган бўлиб, бу ялпи ички маҳсулотнинг 35,9% ни ташкил қилган (1-жадвал).

1-жадвал

2018 йил январ-декабр ойларида иқтисодий фаолият турлари бўйича ишлаб чиқарилган хизматларнинг асосий кўрсаткичлари[1]

т/р	Хизматлар номи	Ҳажми, млрд. сўм	Ўсиш суръати, %	Улуши, %
1	**Хизматлар, жами**	**146 836,3**	**108,4**	**100**
	Шу жумладан:			
2	Алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	9 744,1	115,6	6,64
3	Молиявий хизматлар	21 192,6	125,8	14,43
4	Транспорт хизматлари	43 329,2	103,9	29,51
	шу жумладан, автотранспорт хизматлари	21 421,3	102,4	14,59
5	Яшаш ва овқатланиш хизматлари	4 420,5	104,7	3,01
6	Савдо хизматлари	39 445,3	104,2	26,86
7	Кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	4 689,2	103,3	3,19
8	Таълим соҳасидаги хизматлар	5 422,5	110,7	3,69
9	Соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар	2 053,0	114,9	1,40
10	Ижара хизматлари	3 129,9	107,6	2,13
11	Компьютерлар ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар	2 628,0	104,1	1,79
12	Шахсий хизматлар	3 743,6	102,8	2,55
13	Меъморчилик, мухандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар	2 306,4	128,9	1,57
14	Бошқа хизматлар	4 732,0	106,9	3,22

Жадвалдан кўриниб турибдики, энг юқори ўсиш суръатлари замонавий хизматлардан бўлмиш молиявий хизматлар (125,8%), меъморчилик, мухандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар (128,9%), алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари

[1] 2018 йил январ-декабр ойларида хизматлар соҳасининг ривожланиши. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика Қўмитаси. (дастлабки маълумотлар). www.stat.uz

(115,6%) ва соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматларда (114,9%) ишлаб чиқарилган.

Аммо бизларнинг диққатимизни ўсишнинг энг паст кўрсаткичига эга бўлган шахсий хизматлар тортган. Ушбу хизматлар тури йил давомида атиги 2,8%га ўсган бўлиб жами хизматлар ҳажмида 2,55%ни ташкил қилган. Шу билан биргаликда аҳолининг ўсиш суръатлари ва шаҳар-қишлоқ нисбатининг ўзгариши ушбу хизматларнинг проорционал ўсишини таъминлаши лозим эди. Бизнинг фикримизча, бугунги кунда шахсий хизматларни ҳисобга олиш тартиби объектив жараёнларни етарлича ифодалаймайди. Бунинг сабаби шундаки, аҳолининг турмуш даражсининг ошиб бориши уй-рўзғор юритилишишида туб ўзгаришларга олиб келади. Аҳолида сарфланадиган даромадлар улуши ошган сайин уй хўжалигидаги шахсий хизматларга бўлган талаб ошиб боради. 2018 йилда аҳолининг реал даромадлари 10% ўсганлиги ва истеъмол харажатларининг ошиши уй хўжаликларида хизматларга бўлган амалдаги талаб маълумотларда келтирилган рақамлардан анча катта бўлишини тасдиқлайди. Фикримизча, ушбу тафовутнинг мавжудлиги хизматлар соҳасида, айниқса шахсий хизматлар соҳасида бир қанча назарий-услубий муаммолар билан боғлиқдир.

Биринчи ўринда бизлар шахсий хизматлар таркибини аниқлаштириш муаммосини келтириб ўтишимиз жоиздир. Аввало, хизматлар классификаторидаги шахсий хизматлар таърифи бугунги кун ҳолатини тўла акс эттирмайди деб ҳисоблаймиз. Масалан, соғлом турмуш тарзини тарғибот қилиш инсоннинг ўз соғлигига бўлган эътиборни кучайтиради ва касалликни олдини олишга қаратилган хизматларга бўлган талабнинг ошишига олиб келади. Аммо бундай хизматлар фуқаронинг шахсий ҳаёти билан боғлик бўлади, яъни унинг кундалик ҳаёт жадвалининг бир қисмига айланади. Демак бундай хизматларнинг соғликни сақлаш соҳасига киритилиши услубий жиҳатдан мунозарали ҳисобланади. Бундай мисолларни барча хизматлар турлари бўйича келтиришимиз мумкин. Шу билан биргаликда “шахсий хизматлар” тушунчасининг мазмунини ҳам назарий жиҳатдан чуқурлаштириш ва такомиллаштириш вақти етиб келган деб ҳисоблаймиз.

Шахсий хизматлар билан боғлиқ иккинчи муаммо бугунги кунда хизмат кўрсатиш корхоналарининг фаолиятини ташкил қилиш билан боғлиқ. Аввало, шахсий хизматлар кўрсатиш корхоналарининг фаолияти турлари маласини кўриб чиқамиз. Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарининг аҳолининг реал ҳаётидаги ўрни статистик маълумотларда акс эттирилмаганлиги бундай корхоналарнинг самарали фаолият кўрсатишига салбий таъсир кўрсатади. Юқоридаги жадвалда келтирилган анъанавий хизматларнинг аксарият турлари маиший хизмат корхоналари томонидан кўрсатилади. Булар қаторига маиший техникани таъмирлаш, овқатланиш хизматларининг ва савдо хизматларининг айрим турлари, бошқа хизматларнинг аксарияти ва хоказоларни мисол тариқасида келтиришимиз мумкин. Объектив жихатдан ушбу хизматлар

аҳолининг яшаш жойига боғланиши ва комплекс хизмат кўрсатиши лозим. Аммо маиший хизмат кўрсатиш корхоналарининг ташкил этилиши ва жойлашиши бугунги кунда фақат тадбиркорларнинг ташаббусига боғлиқ бўлиб колди. Бунинг натижасида жойларда маиший хизмат кўрсатиш тармоғини ривожлантириш ҳамда корхоналарининг самарадорлигини оширишга эътибор етарли бўлмаяпти.

Маиший хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятининг назарий масалалари ҳам чуқур тадқиқ қилинмаганлагини ҳам эътироф этиш лозим. “Маиший хизмат кўрсатиш корхонаси” атамаси замонавий шароитда мазмунан қанчалик тўғри? Корхоналар жойлашишининг энг самарали ёндашуви қандай мезонларга жавоб бериши керак? Комплекс хизмат кўрсатишини ташкил қилиш учун марказлаштириш ва интеграциялаш даражаси қандай бўлиш лозим? Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарида қандай ташкилий-иқтисидой механизмларни ривожлантириш керак? Бундай саволларга жавоб бериш учун жойлардаги тадбиркорлик субъектларнинг ҳаракатларини қўллаб-қувватлаш билан кифояланиш етарли эмас. Муаммонинг назарий жиҳатларини ўрганиш, илғор хорижий тажрибани ўрганиш, шахсий хизматларнинг истиқболдаги тенденцияларини аниқлаш ва баҳолаш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилиши орқали уни ҳал қилиш йўлларини топишимиз мумкин.

И.Х.Ниматов – преподаватель-ассистент, Международный университета туризма «Шёлковый Путь»
Ш.Ф. Шодмонов– студент международного университета туризма «Шёлковый Путь»

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ, В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Туризм является одной из интенсивно развивающихся и приносящих высокий доход отраслей в мире, который способствует укреплению международных социально-экономических, культурно-духовных связей. В последние годы туризм превращается в крупную экспортную про-мышленность мировой экономики, доля от мирового ВВП которой составляет в среднем 11%. За последние 40 лет число туристов, выехавших в другие государства, возросло почти в 20 раз, а доход от туризма — в 60 раз, поступления от международного туризма составляют более 1.6 трлн. долларов. Индустрия туризма обеспечивает работой более 650 млн. человек, что составляет 8 % от населения в мире. Международный туризм способствует диверсификации экономики, создавая отрасли, обслуживающие сферу туризма. В той или иной степени туризм создает рабочие места высшего среднего и низшего звена, в той или иной степени все сферы заняты в сфере туризма, начиная главным менеджером отеля и заканчивая обычным таксистом.

Принимая во внимание, что значительная часть туристических расходов потребление неторговых товаров и услуг в принимающей стране, существуют факторы, которые могут иметь либо положительную роль, либо неблагоприятное воздействие на экономические рост. Неторговые товары и услуги не экспортируются в традиционном смысле, потому что их цена не определяется на международном рынке, а в местном рынке. В последние несколько десятилетий международный туризм приобретает все большее значение во многих странах мира. Он продолжал расти во всем мире, в линии с энергичной мировой экономической экспансией, особенно в странах с высоким уровнем туристические оттоки. Число туристов во всем мире Согласно данным Всемирной туристской организации ООН (UNWTO, ЮНВТО), число туристов, пересекающих границы зарубежных стран, составило 1,322 млрд человек. в 2017 году Самое большое число туристов (671 млн человек) посетило в прошлом году Европу – соответствующий показатель вырос на 8% в сравнении с 2016 годом. Показатель туристических въездов в Африку достиг рекордных значений (62 млн), увеличившись на 8%. Количество туристов, посетивших в 2017 году Азиатско-Тихоокеанский регион, выросло на 6%, до 324 млн. Генеральный секретарь ЮНВТО Зураб Пололикашвили отметил, что количество международных путешественников перманентно растет, а сфера туризма стала одним из основных факторов развития мировой экономики. В текущем году аналитики прогнозируют рост потока туристов на 4-5 %.

За годы суверенного развития Узбекистана было сделано главное: наши исторические города Самарканд, Бухара, Хива, Термез были признаны очагами древней цивилизации, которые внесли достойный вклад в развитие мировой культуры, науки и политики, являются местом притяжения туристов. Была заложена правовая база для развития туризма и создана туристическая инфраструктур. Все это дает основания считать, что в Узбекистане есть хороший потенциал для дальнейшего развития туризма Однако, изучение и анализ этого вопроса подняло широкий пласт проблем связанным с развитием туризма. Так давайте обратимся к литературным источникам и поймем саму суть туризма.

Туризм – это динамичная, развивающаяся, ориентированная на потребителя сила и крупнейшей отраслью или коллекцией отраслей. Туризм играет основополагающую роль создавая различные услуги, которые выполняют гостиничные компании. Туризм влияет на другие отрасли промышленности, такие как общественный транспорт, продовольственный сервис, жилье, развлечений и отдыха. Кроме того, туризм оказывает второстепенное воздействие на предприятия, которые косвенно затронуты, что называется эффектом мультипликатора. От социальной и культурной точки зрения, туризм может способствовать международному пониманию и экономически улучшить принимающую сторону.

За последние десятилетия рост и развитие туризма как и экономи-

ческая деятельность, по какой-то части воображения, была замечательной. В 1970 году все мировые международные туристские прибытия составил всего 165,787 млн; к началу нового тысячелетия эта цифра поднялась до 696 миллионов, и с тех пор международный туризм продолжает расти. По данным (UNWTO) Всемирной Организации Туризма при Организации Объединенных Наций “В настоящее время в секторе туризма наблюдается непрерывный рост прибытий восемь лет подряд. Рост в 2018 году был самым высоким с 2010 года, при этом первыми регионами по темпам роста стали страны Европы и Африки, которые показали рост в 8% и 9% соответственно”, - говорится в отчете. При этом, как отмечается в статистике, туризм остается и в числе первых доходных отраслей – “туристический экспорт” растет и в 2017 году его достиг $1.6 трлн. Это сделало туризм третьим по величине экспортным сектором в мире. В целом доходы от международного туризма выросли на 5%. В качестве «побочного эффекта» международный туризм принес еще $240 млрд за объем международных пассажирских перевозок, совершенных нерезидентами. Это увеличило общий объем экспорта туризма до $1.6 трлн., или $4 млрд. в день, что соответствует 7% мирового экспорта.

При этом лидером по численности выездных турпотоков и затратам за рубежом остается Китай – на его долю приходится $258 млрд, почти пятая часть общих расходов на туризм в мире. Далее следуют США – $135 млрд и Германия – $89.1. Кстати, в первую десятку самых “тратящихся” туристов вернулась и Россия, поднявшись с 11 места на 8. Всего российские туристы потратили $31.1, при этом к прошлому году эта сумма выросла почти на 30%. Предпочтения туристов по странам таковы: первое место сохраняет Франция – 86.9 млн туристов, прирост в 5.1%; за ней Испания – 81.8 млн, +8.6% и США – 75.9 млн, правда с убылью турпотока на 3.8%. В пятерке также Китай и Италия. При этом в лидерах по темпам прироста прибытий оказалась Турция, показав прирост в 24.1% к прошлому году. В 2000 году общее количество рабочих мест, созданных непосредственно в “Путешествия и туризм” плюс косвенные и обусловленные взносы составили 788,3 млн. долл. США. В 2017 году общее число увеличилось до более 800 миллионов рабочих мест. Это значит что туризм остается одним из наиболее важных источников занятости в мире и многие развивающиеся страны представляют собой большой процент валового национального продукта и способ добиться положительного баланса торговли с другими странами.

Обстановка в Узбекистане тоже кардинально была улучшена развиваются многие аспекты туризма но к сожалению есть и некоторые нюансы которые нужно улучшить согласно информации, предоставленной узбекскими туроператорами, почти 90% туристы, прибывающие в Узбекистан, имеют средний возрость. Они в основном посещают культурные и исторические достопримечательности, совершая поездку из Ташкента в Самарканд, Бухару и Хиву(это стандартный и самый

популярный тур предоставляемый местными туристическими агентствами). В связи с тем, что большинство иностранных туристов прибывают в Узбекистан не толькос целью посещения культурных достопримечательностей Туристы ожидают высокого качества и специальных услуг, которые могут обеспечить их комфорт. Они тратят свои деньги не так легко, как их юниоры. Образ жизни , привычки, ценности, отношение к отдыху и способы познания мира сегодняшней молодежи полностью отличается от традиций старшего поколения во времена их молодость. Это означает, что мы должны уделять и должное внимание молодежи учитывать их интересы в каждом регионе.

В качестве одного из выводов из исследовательской статьи мы предлагаем использовать опыт разных развитых стран мира (США, Франция, Великобритания, Австрия, Испания).

1) сосредоточение внимания на активном туризме, вращающемся вокруг исторических мест, а также рекреационный туризм, что является преимуществом в Узбекистане; так как наши запасы этих ресурсов практические не иссекаемы примером можно привести заповедники Узбекистана, красоты Ферганской долины и также Каракалпакстан который является неким золотым жилом который можно разработать для данного вида туризма, постройка современных санаториев, лагерей, пикниковых зон несомненно увеличат потом туристов.

2) улучшение языковых навыков, например. начать занятия и по немецкому и французскому языках так как английский в нашей стране развит достаточно хорошо.

3) рекламные кампании и ссылки с международными туроператорами и турагентами, в том числе для рекламирования нашего туристического потенциала.

4) высокий акцент на развитии людских ресурсов в сфере туризма, потому что эффективное управление человеческими ресурсами в сфере туризма является одним из ключевых решений к успешному развитию туризма, причем многие новые курсы в области высшего образования внедряется в нескольких ведущих университетах и колледжах по всей стране, в том числе и в нашем Международном университете туризма “Шелковый Путь”.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по ускорению развития сферы услуг и сервиса в Республике Узбекистан в период до 2012 года».
2. Указ Президента Республики Узбекистан 05.01.2019 № УП-5611
3. Статистический сборник об основных итогах экономического и социального развития Республики Узбекистан в годы независимости и прогнозных показателях на 2011–2016 гг. — Т.: Узбекистан
4. Белая книга туризма – Узбекистан 2018.
5. Официальные статистические данные UNWTO(Всемирной Организации Туризма при Организации Объединенных Наций) 2017-2018 гг.

А.Алимов – СамИСИ ўқитувчиси,
А.Ш.Суяров– СамИСИ талабаси,
М.Х.Гадоева – СамИСИ талабаси

#BeGuest СТАРТАП ЛОЙИҲАСИ АСОСИДА ОВҚАТЛАНТИРИШ ХИЗМАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Бугунги куннинг долзарб соҳаларидан бири туризм эканининг ўзи муҳим аҳамият касб этади. Туризм соҳасига қаратилаётган эътиборни қай даражада эканини ҳозирги кунда ушбу соҳани янада ривожлантириб, мавжуд муаммоларни ҳал қилш чора тадбирлари жамланган, Президентимиз томонидан қабул қилинган қарор ва фармонларида кўришимиз мумкин. Айнан туризмнинг ривожланиши бевосита юртбошимиз ташаббуси билан амалга оширилмоқда. Ушбу соҳа ривожига ҳисса қўшиш мақсадида қабул қилинган қарор ва фармонларга қуйидагиларни келтриш мумкин [1]:

- 2016 йил 2 декабр санасида Юртбошимиз томонидан қабул қилинган ПФ-4861 сонли “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада такомиллаштиришнинг чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида туризмнинг махсус турларини ривожлантириш вазифаси қўйилди.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 июль санасида қабул қилинган “Туризм соҳасини ривожлантиришда маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг маъсулиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3129 сонли фармонида ҳудудларнинг сайёҳллик салоҳиятини дунёга кенг тарғиб қилиш, мамлакатимизга таҳриф буюриши кутилаётган сайёҳларга қулай шароитлар яратиш, соҳадаги мавжуд муаммоларни тизимли асосда бартараф этиш, ушбу вазифаларни амалга оширишда жойлардаги маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг маъсулиятини ошириш ҳамда туризм соҳасини янада ривожлантириш мақсадлари устувор вазифа этиб белгиланган.
- 2019 йил 5 январ санасида мамлакат юртбошимиз томонидан қабул қилинган “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4095 сонли фармонида туризм тармоғини ривожлантириш, шу жумладан бугунги кун стандартларига жавоб берадиган меҳмонхоналар ва жойлаштириш воситаларини қуриш бўйича инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни жадаллаштриш, республикада меҳмонхона хўжалигини ривожлантиришга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш борасида бир неча чора тадбирларни ўз ичига жамлаган [1]. Шуни айтиш жоизки ушбу қарор ва фармонлар доирасида кўплаб ишлар амалга оширилмоқда ҳамда яхшси кўрсаткичларни кўришимиз мумкин.

Бугунги кунда бутун дунё бўйлаб шу жумлада Ўзбекистонда ҳам туристларни ноанъанавий усуллар билан овқатлантришни ташкил этиш ва туризм маданиятини бутун аҳоли доирасида кенг ёйиш долзарб муаммога

айланиб бормоқда. Биз фақатгина маълум бир туризм йўналиши орқали туристларни жалб эта олмасигимиз, янада ушбу соҳадаги янги қирраларни кашф этиб, баъзи муаммоларни ҳал қилиш орқали янада юксалтириш имкониятларини вужудга келтирамиз.

Биз бу каби кўплаб муаммоларни бартараф этиш мақсадида стартап лойиҳалар ва инновацион ғоялардан кенг фойдаланишимиз мумкин.

Стартап – аввал қўлланилган давомли ҳамда даромад олиш учун мўлжалланган лойиҳалар жамланмаси ҳисобланади. У инновацион аҳамиятга эга бўлиб, кам маблағ талаб этувчи бизнес деб ҳам юритилади.

Албатта мамлакатимизда стартап лойиҳларни қўллаб, ривожлантириш учун қатор тадбирлар амалга оширилмоқда. Сабаби мувоффақиятга учраган Facebook, McDonald’s ва Apple каби стартаплар мамлакат даромадига юқори даражада ўз ҳиссаларини қўшиб келишмоқда. Биргина Facebook компаниясини олиб қарайдиган бўлсак, унинг йиллик даромади 40 млрддан ошади.[2]

Ўзбекистонда амалга оширилаётган чора-тадбирлар сифатида яқинда бўлиб ўтган “Стартап ташаббуслари” деб номланган ёшларнинг инновацион ғоя ва сатрап лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш дастурини мисол келтиршимиз мумкин. Ушбу дастурнинг мақсади инновацион ғоя ва стартап-лойиҳаларни интенсив қўллаб-қувватлаш бўлиб, ёшлар учун ўз инновацион ғояларини амалда синаб кўриш, ўзлрининг стартапларини яратиш ва тадбиркорлик соҳасида салоҳиятларини ривожлантиришлари учун имкониятлар яратиб беришдан иборатдир. [3] Дастур давомида ўз ғоялари билан қатншаётганларга махсус семинар тренинглар ташкил этилади. Ушбу семинар тренинглар орқали қатнашчилар ўз стартапларини янада ривожлантириб, мукаммаллаштиришлари учун ҳисса қўшади ва дастурда ғолиб бўлган жамоага ўз стартап лойиҳасини амалга ошириши ҳамда амалиётга тадбиқ этиши учун 40 млн сўм миқдорда маблағ тақдим этилади. Мамлакатимизда яна бу каби дастурларни кўплаб кўришимиз мумкин.

Биз ҳам юқорида келтирилган муаммоларнинг ечими сифатида яна бир стартап лойиҳани келтириб ўтмоқчимиз. Айнан гастрономик туризмни ривожлантирш ва туризм маданиятини аҳоли орасида кенг ёйиш бизнинг BeGuest номли стартап лойиҳамиз ўз ҳиссасини қўшади деб айта оламиз.

BeGuest – инновацион стартап лойиҳаси бўлиб, гастрономик туризмни инновацион технологиялар воситасида ривожлантирувчи лойиҳа бўлиб, маҳаллий аҳоли ҳамда ҳудудга ташриф буюрувчиларни бир-бири билан боғлайди. Лойиҳа онлайн тарзда андроид илова ҳамда web-сайт кўринишида тақдим этилади. Ушбу дастур орқали маҳаллий ҳамда хорижий сайёҳларга овқатлантиришда қўшимча қулайлик ҳамда хизматлар яратиш имконияти ошади. Бундан ташқари лойиҳадан кўзланган яна бир мақсад – маҳаллий туризм маркетингидир.

Ушбу иловада қуйидаги функсиялар мавжуд бўлиб, ушбу функсиялар орқали юқоридаги муаммоларни бартараф этиш мумкин:

- Асосий функционал – бу ҳудудга ташриф буюрган сайёҳларни тушлик ёки кечга овқатга хонадонга таклиф қилишни ташкил этишдан иборат;
- Қулай ва содда фойдаланиш имкониятига эга. Баъзи дастурлардан фарқли ўлароқ айнан мақсадли менюлар танланади;
- Асосий мақсад овқатлантириш хизматини ташкил этиш бўлиб, бунда сайёҳларни маҳаллий оддий хонадонларга таклиф қилиш имконияти мавжуд бўлади;
- Web-сайт ҳамда андроид иловаси орқали таклиф қилинадиган овқатлантириш хизмати билан биргаликда маҳаллий ҳудуднинг ҳамда сайёҳларни қизиқтирувчи ресурслар рекламаси ҳам олиб борилиши мумкин;
- Google Map навигатори кўмагидан фойдаланилади;
- Содда тизимдаги сотув ва харид функциясига эга (Хонадон эгаси хизматни сотади, сайёҳ харид қилади);
- Хорижий тиллардан фойдаланилган;
- Таомлар филтри мавжуд (Сайёҳнинг таъбига кўра мавжуд таомлар менюси тақдим этилади)
- Онлайн тизимда жорий ҳолат бўйича ишлаш имконияти, офлайн тизимда эса маълумотлар билан ишлаш имконияти ва бошқалар.

Юқорида санаб ўтилган муаммолар туризм соҳасида ўтказилган тадқиқотлар натижасида аниқланган. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасида инновацион технологияларни қўллаш масаласи ҳам долзарб ҳисобланади.

Юқоридагилардан хулоса қилган ҳолда биз қуйидагиларни таклиф қилишимиз мумкин:

- Мамлакатимизда инноватсион фаолиятга асосланган муҳитни қўллаб-қувватлаш;
- Ёшлар стартапларига кенг имконият яратиш;
- Турли дастурларда уларни молиявий қўллаш;
- Туризмда BeGuest каби лойиҳалардан самарали фойдаланиш ва ҳ.к.

З. Марданова– ТМИ, М-1 гуруҳи магистранти

ИНВЕСТИЦИОН МЕХАНИЗМНИНГ БОШҚАРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Институтционал муҳитнинг инвестиция ва инновация ҳолатининг таҳлилининг кўрсатишича, Ўзбекистонда инвестиция институти ўзига икки ташкил этувчи компонентни киритиб, маънавий ва жисмоний эскирган техникаларни алмаштириш учун асосий ишлаб чиқариш Фондлари (АИФ) ни инвестиция механизмига шартли равишда киритиш мумкин, шунингдек технология ва маҳсулотлар, АИФ га инновациядир.Уларнинг иккиси ҳам қуйидагиларни киритади:

- давлат томонидан иқтисодиётни инвестициялаштирувчи асосий усту-

ворликлар, янги ишлаб чиқариш ва инфратузилмаларни молия лаштириш манбаларини шакллантиришнинг муҳим йўналишларини назарда тутувчи Республика инвестицион сиёсатининг меъёрий - ҳуқуқий актлари;
- инвестиция ва инновацияни таъминловчи давлат органлари;
- давлатнинг марказлаштирилган фондларидан фойдаланиш ва шакллан тириш механизмлари;
- инновацияларни ўзлаштиришни амалга оширувчи хўжалик юритувчи субъектлар стимуллари ва имтиёзлари;
- аҳолининг инвестицион жараёнларда иштирок этиш механизми.

Инвестицион институтлар тизимининг стержини давлат инвеститция сиёсати ҳисобланади.Бошланғич босқичда бундай сиёсат инвестицион лойиҳаларни амалга оширишда, устувор соҳаларни қўллаш йўналишларини аниқлашда давлат бюджетини иштироки даражасини аниқлаш воситасида амалга оширилиб, қуйдагиларни киритади:

1) марказлаштирилган инвестициялар тартиби, нисбатан арзон ҳорижий валютага кириш шаклидаги қўлланиладиган эгри субсидиялар, субсиялаш тирилган ва кафолатлаштирилган давлат кредитлари;
2) солиқ имтиёзи ва оралиқ материалларни тартибга соладиган нарх;
3) давлат кафолати остида бевосита ҳорижий инвестицияларни жалб қилиш;
4) тарифли ва тарифсиз барьер воситасидаги протекцион савдо сиёсати.

Давлат иштироки ва назорати ташкилотни валюта операциялари ва нақдлигини тартибга солинишини қўллаб турди. Инновацион ресурсларни таъминлашда алоҳида ролни давлат инвестиция дастури ўйнай бошлади. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси инвестиция дастурини амалга ошириш ва шакллантириш бўйи ча меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонига [1]мос ҳолда Дастур ўзида капитал қўйилмаларни: табиий, хом ашё, материал, молия,меҳнат ресурслари, давлат бюджети ва Республиканинг ички ва ташқи боғлиқлиги ҳажмининг ўзаро алоқадорлигидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш; объектларни тасдиқланган молиялаштириш манбаларидан чиқариш ва кредитларни ёпиш, шунингдек қурилиш саноати қувватларини ва қурилиш материаллари саноатини балансламтириш; янги ташкилотларни иқтисодий ва экологик асосланган ҳолда жойлаштириш ва минтақаларни комплекс ривожлантириш ҳисоби билан ҳаракатдаги ташкилотларда қўшимча қувватларни яратиш ва табиий бойликлардан, ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш инфратузилмаларидан, меҳнат ресурсларидан янада самарали фойдаланишни таъминлашга мўлжалланган прогнозни тақдим этади. Марказлаштирилган капитал қўйилмалар қараб чиқилган ҳолда қуйдагиларга ажратилади: Республика иқтисодиётини ривожлантириш-

[1]Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати Фармонлари тўплами, 1999 йил №9 52

нинг устувор йўналишлари бўйича инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш; давлатнинг мақсадли дастури ва давлатлараро келишув; уй-жой облигациялари бўйича уй-жой қурилиши; суғориладиган ерларни танлашва янгиларини ўзлаштириш, сув ҳўжалиги қурилиши ва кичик гидроэнергетикани ривожлантириш; маънавият, соғлиқни сақлаш, маданият ва ижтимоий инфратузилма соҳасидаги объектлар қурилиши; давлат бошқарув, ҳуқуқни ҳимоя қилиш органлари, давлат илм-фан ташкилотлари моддий техник базасини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш; умумдавлат табиатни сақлаш чораларини амалга ошириш ва табиий офатлардан сақлаш иншоатларини қуриш.

Ўзбекистон бир қатор йирик халқаро мульти инвесторларни иқтисодиётнинг турли соҳаларига жалб қила олди. Жумладан, автомобил-созлик (Daewoo motors), қишлоқҳўжалиги машинасозлиги (Case), озиқ-овқат (Nestle, Coca-cola), тамаки саноати (British-American Tabacco) ва олтин қазиб олиш (New-mont Minig Carpation). Бундан ташқари бир қанча қўшма корхоналар, айниқса озиқ-овқат ва тўқимачилик соҳаларида ташкил этилди. Инвестициялашни қонуний чоралар билан мустаҳкамлаш ҳамда муҳим рол ўйнади.”Ўзбекистонда ҳорижий инвестициялар тўғрисида”ги Қонун чет эллик экспертлар хулосасига кўра жуда ҳам эркин. Қонун доирасида ҳам,амалиётда ҳам миллий инвесторларга қандай режим қўлланилса, ҳорижий инвесторларга ҳам шундай режим қўлланилади.

Бизнинг тахминимизча, хорижий инвестицияларни жалб этишнинг жорий даражаси ўтиш даврининг чеклашларини юзага келтириб, ҳозирги вақтгача асосан давлат корхоналари ва коммунал хизматларни фунда-ментал хусусийлаштиришга суянади. Ўзбекистон ўтиш иқтисодиётидаги мамлакат сифатида бозор иқтисодиётига ўтишда ўта эҳтиёткор позицияни танлади. Хусусан, бу 100 фоизли хорижий капитал билан фирмани очишда ҳуқуқий чегараланишга тегишли. Шуни қайд этиш лозимки, ташкилотини Ўзбекис-тонда рўйҳатдан ўтказмоқчи бўлган хорижий инвестор қўшма корхонасига миллий инвесторни жалб этиши керак.

II ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ, РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
И.Р.Бердикулова – СамИСИ катта ўқитувчиси,
А.Қ.Ғаппаров – СамИСИ ўқитувчиси

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Самарқанд вилоятнинг туристик салоҳияти ва географик жойлашувига назар солсангиз, унинг жуда кенг ва катталигига гувоҳ бўласиз. Республика туризмни ривожлантириш қўмитасининг вилоят бўлимида тўпланган маълумотларга назар ташлайдиган бўлсак, бугунги кунда вилоятда 1105 та археологик, 670 та меъморий, 37 та диққатга сазовор жой, 18 та монументал, 21 та мемориал тоифага кирувчи жами 1851 та моддий-маданий мерос объектлари мавжуд бўлиб, маҳаллий ва хорижий туристларнинг диққат эътиборига сазовар бўлиб келмоқда. Уларнинг аксарият қисми БМТнинг ЮНЕСКО ташкилоти томонидан бутунжаҳон маданий мероси рўйхатига олинган.

Бугунги кунда ушбу тарихий обидалар ва бошқа туристик салоҳиятни белгиловчи объектлардан туристик мақсадлар учун тўлиқ фойдаланилмаётганлигини инобатга оладиган бўлсак, туризмни ривожлантириш учун вилоятда ҳали жуда катта ишга солинмаган имкониятлар мавжуд.

Биргина Самарқанд шаҳрига ташриф буюрувчи сайёҳлар учун туристик маршрутлар ишлаб чиқилган. Бу маршрутларга асосан Амир Темур ва Руҳобод мақбаралари, Регистон ансамбли (Шердор, Тиллакори, Мирзо Улуғбек мадрасалари), Бибихоним ва Хазрати Хизр масжидлари, Шоҳи Зинда ёдгорлиги, Хужа Дониёр зиёратгоҳи, Мирзо Улуғбек расадхонаси киради. Шунингдек, алоҳида Нодир девонбеги комплекси ҳам туристлар учун катта маскан бўлиб ҳисобланади. Айрим тарихий обидалар туманларда жойлашган. Жумладан, Ургут туманидаги Ғавсул Аъзам, Хўжа Омон, Чор Чинор зиёратгоҳлари бўлса, Пайариқ туманидаги Имом Ал Бухорий комплекси, Оқдарё туманида Махдуми Аъзам зиёратгоҳи, Нуробод туманида Хазрати Довуд зиёратгоҳларидан фойдаланилмоқда. Аммо хорижий туристик маршрутларга асосан Самарқанд шаҳридаги тарихий обидаларгина киритилган. Туманлардаги тарихий обидалар фақат ички туризм билан чекланиб қолинган. Ушбу йўналишларда хорижий туристлар учун фақат Пайариқ туманидаги Имом Ал Бухорий комплекси

фойдаланилиб келинмоқда. Фикримизса қолган тарихий обидаларни ҳам хорижий туристлар маршрутларига киритишга эриши ва улардан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Булардан ташқари Самарқанд шаҳрида Ўзбекистон Тарихий музейи, Самарқанд тарихи – Афросиёб музейи, Улкашунослик музейлари ҳам туристик объект сифатида фойдаланиб келинмоқда. Булардан ташқари Добусия шаҳристони, Челак – Кўктепа тарихий ёдгорлиги ва бошқа зиёратгоҳлар туристик маршрутларга кирилган. Буларнинг ҳам самаранддан ташқаридагилари асосан маҳаллий туристлар учун туристик объект сифатида ташрифлар амалга оширилмоқда. Буларни ҳам хорижий туристлар учун ишлаб чиқилган маршрутларга туристик объект сифатида киритилса, ўйлаймизки, вилоятнинг туристик имконияти янада кенгайтирилган бўларди.

Шуни эътироф этиш жоизки, Самарқанд шаҳри ва вилоятининг географик жойлашуви сайёҳларнинг мазмунли дам олишини, тарихий обидаларни томоша қилиши, табиат қўйнида сайр қилишни уюштиришни, зарур ҳолларда саломатликни таклаш мақсадида ҳам фойдаланиш имкониятларини беради. Жумладан, вилоятнинг Зарафшон воҳасида жойлашганлиги юқоридаги кўп муаммоларнинг ҳал бўлишида жуда қулай имкониятлардандир. Ушбу ҳудудларда сайёҳларга мазмунли дам олиш, сайр қилиш, шарқ ширинликлари, мева сабзавот ва боғдорчилик махсулотлари билан танишиш, даволаниш ва дам олишнинг бошқа турларидан самарали фойдаланиш имконини беради. Бундай маршрутларни ҳам қайта кўриб чиққан ҳолда самарали ташкил қилиш масаласини қайта қараб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Самарқанд вилоятининг географик жойлашувининг қулайлиги шундаки, бу ҳудуд бой флора ва фаунаси, табиий ва рельеф зоналари, тарихий обидаларнинг илмий асослари ва географияси, қуёш синтези ва шамоллар туқнашуви каби хусусиятларга ҳам эга. Агар ушбу масалага ҳудудлар кесимида қарайдиган бўлсак, Самарқанд, Тайлоқ, Жомбой, Булунғур ва Ургут туманларида боғдорчилик, мева сабзавотчилик ривожланганлиги, айрим ҳудудларда (Самарқанд, Ургут, Нуробод каби) тағ ва тоғолди манзараларнинг мавжудлиги, Қўшработ ва Нуробот туманларида чўл зоналарининг мавжудлиги, вилоят ҳудудидан Катта Узбек тракти, М-37, М-39 халқаро автомагистрал йўллар ўтганлиги ҳам туризмнинг деярли барча турларини (тарихий-маданий туризм, зиёрат туризми, экологик туризм, гастрономик туризм, маданий-маърифий туризм, археологик туризм, соғломлаштириш туризми, агротуризм кабилар) ривожлантириш имкониятининг мавжудлигини ва қулайлигини билдиради.

Самарқанд вилоятида маданий мерс объектларидан анъанавий бахшичилик, фолклорлик, ўзбекона урф-одатлар сақланиб қолганлиги сайёҳлар учун туризм бозоридаги кўплаб турларни ривожлантиришда муҳим имкониятлардир.

Сайёҳларнинг Самарқанд шаҳрига кириб келишида уларга мўлжал-

ланган ташрифи пунктлари ҳам қулай жойлашган. Сайёҳлар оқими Самарқанд халқаро аэропортида, Темирйул вокзалида кутиб олинади. Кўплаб туристлар автоуловлар орқали (шахсий автомобиллари, туристик фирмалар автоуловлари, маршрут автобуслари каби) кириб келади.

Республика туризмни ривожлантириш қўмитасининг вилоят бўлимидаги маълумотлар бўйича Самарқанд шаҳрининг Темирйул вокзалидан 23 та йўналиш ўтади. Ушбу йўналишларнинг бир қисми туристлар учун жуда қулайлиги таъминланган. Ҳар куни соат 09.43 да Тошкент-Самарқанд-Бухоро (762-Ф), соат 10.16 да Тошкент-Самарқанд-Қарши (760-З) йўналишларида, шунингдек соат 17.30 да Бухоро-Самарқанд-Тошкент (761-Ф), соат 18.00 да (759-З) Қарши-Самарқанд-Тошкент йўналишида “Афросиёб” тезюрар поезди қатнови йўлга қуйилган. Бундан ташқари, “Тошкент-Самарқанд-Бухоро” ва Бухора-Самарқанд-Тошкент” йуналишида (010-Ф) “Шарқ” поезди амалга оширилмоқда. 2019 йил бошидан бошлаб уларнинг аксарият қисми Жиззах шаҳрида ҳам тўхтаб ўтадиган бўлиишди.

Бугунги кунгача Самарқанд Халқаро аэропортидан Тошкент шаҳрига маҳаллий рейс ва дунёнинг 14 та шаҳарларига (Воронеж, Екатеринбург, Казань, Краснодар, Красноярск, Лондон, Минск, Москва, Нью-йорк, Пекин, Прага, Санкт-петербург, Симферополь, Истамбул) рейслар йўлга қўйилган. Мазкур рейслар орқали айримлари йўлда тўхтаб ўтилса, айримларидан кейин бошқа мамлакатларга ҳам парвоз қилинишини инобатга олсак, мамлакатимиз ҳаво йўллари билан дунёнинг ҳамма бурчакларига бориш ва улардан ташриф буюришлари ҳам мумкин.

Том маънода, сайёҳлар учун Самарқанд шаҳрида туристларга барча қулайликлар яратилган. Шунингдек, Самарқанд Халқаро аэропорти, Самарқанд Темирйул вокзали, “Жартепа - Саразм” божхона пункти, Регистон ансамбли, Мирзо Улуғбек расадхонаси, Ислом Каримов кучасида ахборот марказлари ташкил қилиш кўзда тутилган. Буларнинг ҳаммаси туризм соҳасининг мамлакатимизда туризм иқтисодиётнинг етакчи тармоғига айналиши учун қилинган чора-тадбирларга мос келади ва мазкур соҳа иқтисодий-ижтимоий ҳаётимизнинг ўнгланишига муносиб хизмат қилади.

М.Қ. Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
У.С.Хидирова – Тошкент шаҳар педагогика коллежи ўқитувчиси

ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛИ ЭКАНЛИГИ

Ҳозирги кунда барча соҳаларни ривожлантириш учун тадбиркорликни такомиллаштиришга ҳаракат қилинмоқда. Эндиги тадбиркорлар шунчаки тадбиркор эмас, балки фаол тадбиркор бўлиши лозим. Иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулкни

ҳимоя қилиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш масаласи Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси”нинг иқтисодиёт бўлимининг тўртинчи устувор йўналиш сифатида белгиланган. Бунда туризмни ривожлантириш масаласи ҳам асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Бунга эришиш учун ҳам тадбиркорликни ривожлантириш лозим бўлади.

Бугунги кунда асосий эътибор хусусий мулк ҳуқуқи ва кафолатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга қаратилаётганини таъкидлаш лозим. Иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш учун аниқ чора-тадбирлар, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтиришга қаратилган ишлар, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш масалалари аниқ кўрсатиб берилгани билан эътиборлидир.

Юқорида айтилганлар бевосита туризм соҳаси учун ҳам муҳимдир. Бунинг муҳимлиги шундаки, ҳозирги пайтда туризмга ҳудудларни ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири сифатида қаралмоқда. Чунки, тарихий обидалар, бошқа туристик объектлар қадимдан асосан шаҳарларда тўпланиб қолган. Аммо қишлоқларимизда туристларни қизиқтирадиган нарсалар ҳам бўлиши керак. Бунда туризмнинг бир қанча қишлоққа мос турларини (агротуризм, экотуризм кабилар) ривожлантиришга аҳамият бериш мумкин.

Мамлакатимизда “Агар халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва кучли бўлади”, деган тамойилни амалга ошириш борасида ҳам таъсирчан чоралар кўрилиши кўзда тутилгани диққатга сазовор. Бунга туризм соҳасида эришиш учун хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнес ривожи йўлидаги барча тўсиқ ва чекловларни бартараф этиш ва унга тўлиқ эркинлик беришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқилмоқда. Буни амалга ошириш учун мамлакатимизнинг барча соҳа, тармоқлари ва ҳудудлари бўйича аниқ дастурлар асосида иш олиб борилмоқда. Ҳозирги кунда кирувчи туризм билан бирга ички туризмни ҳам ривожлантириш вазифаси устувор вазифалар қаторидан жой олган.

Туризм соҳасидаги белгиланган вазифалар ўз-ўзидан амалга ошиб қолмайди. Ҳар қандай киши ҳам хоҳлаган соҳасида тадбиркор бўлиб кетавермайди. Айниқса туризм соҳасида. Чунки бу мутахассис бўлиш билан бирга хорижий тилларни ҳам яхши билишлигини тақозо қилади. Шунинг учун туризм соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш мақсадида қулай ишбилармонлик муҳитини яратишга доир ишлар ҳам иқтисодиётни либераллаштиришнинг таркибий қисмидан ўрин эгаллаган. Бунда тадбиркорлик тузилмаларининг фаолиятига давлат, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат идоралари томонидан ноқонуний аралашувларнинг қатъий олдини олиш чоралари ҳам белгиланган ва булар қаттиқ назорат остида амалга оширилмоқда.

Эътироф этиш керакки, бугунги кунда Ўзбекистон Республикасининг Халқ қабулхоналарига келиб тушаётган аризалар таркибида тадбиркорликка тўсиқ бўлаётган фактлар ҳам анчагина. Аммо улар ўз вақтида ва ўз жойида ҳал қилинаётгани диққатга сазовор.Бу бевосита қишлоқ жойларда ҳам туризмни ривожлантириш имконини беради.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бири давлат мулкини хусусийлаштиришни янада кенгайтириш ва унинг тартиб-тамойилларини соддалаштириш билан боғлиқдир. Бу борадаги яна бир омил туризм соҳасида ҳам тадбиркорликни ривожлантиришга қаратилган. Шу туфайли ушбу масала ҳам 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиянинг йўналишларидан бири сифатида қайд этилган. Бунда хўжалик юритувчи субъектларнинг устав жамғармаларида давлат иштирокини камайтиришга ҳам етарли даражада эътибор берилмоқда. Чунончи, давлат мулки хусусийлаштирилган объектлар базасида хусусий тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш борасида ҳам тегишли тадбирлар амалга оширилмоқда. Уларга бўш турган объектларни “ноль” қийматда сотишдан тортиб имтиёзли кредитлар беришгача бўлган тадбирлардан кенг фойдаланилмоқда.

Буларнинг ҳаммаси мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантиришда қулай инвестиция муҳитини такомиллаштириш имконини беради. Ушбу масала ҳам туризмни ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда мамлакат иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларга, бевосита туризм соҳасига тўғридан-тўғри чет эл инвестицияларини фаол жалб қилиш масаласи бўйича кенг кўламли ишларни амалга ошириш дастури ишлаб чиқилди. Ҳозирги кунда хорижий инвестицияларни жалб қилиш бўйича янгидан ташкил қилинган Инвестициялар бўйича давлат қўмитаси билан бирга деярли барча вазирлик ва идоралар, дипломатик корпус вакиллари, хориждаги ваколотхоналаримиз ходимлари, ҳокимлар, тадбиркорлар шуғулланмоқда.

Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантиришда корпоратив бошқарув бўйича маълум тажриба тўпланган. Унинг замонавий стандарт ва усулларини жорий этиш, корхоналарни стратегик бошқаришда акциядорларнинг ролини кучайтириш борасида ҳам белгиланган чора-тадбирларни амалга ошириш масаласи ҳам ҳар бир соҳа, ҳудуд ва тармоқлар, шу жумладан туризм соҳаси бўйича ҳам аниқ қилиб белгилаб берилган.

Тадбиркорлик субъектларининг муҳандислик тармоқларига уланиши бўйича тартиб-таомил ва механизмларни такомиллаштириш ва соддалаштириш масаласи ҳам иқтисодий тараққиётимизнинг устувор вазифаларидан бири сифатида белгиланиши ҳам бежиз эмас. Шу нуқтаи назардан белгиланган чора-тадбирлар ҳам тегишли назорат остига олинган. Бугунги кунда туризм соҳасини ривожлантириш учун халқаро талабларга жавоб берадиган инқратузилмани ҳам яратиш мақсадга мувофиқдир.

Давлат бош ислоҳотчи сифатида тегишли йўналишларни белгилаб беради ва бир вақтнинг ўзида мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий

ривожланиши жараёнларини тартибга солишда давлат иштирокини камайтиришни ҳам кўзда тутади. Бунда давлат хўжалик юритувчи субъектларнинг ички ишларига деярли аралашмайди. Бунинг учун давлат бошқаруви тизимини марказлаштиришдан чиқариш лозимлиги ҳам стратегияда белгиланган. Ушбу тадбир бевосита иқтисодиётни демократлаштиришни таъминлаб беради. Шу ўринда асосий вазифа давлат хусусий шерикликни кенгайтириш билан бирга, нодавлат, жамоат ташкилотлари ва жойлардаги ўзини ўзи бошқариш органларининг ролини ошириш бўйича ишларни янада кучайтириб боради. Ушбу тадбирлар иқтисодиётни эркинлаштириш борасида яна бир қутлуғ қадам бўлиб хизмат қилади. Эркинлик бор жойда юксалиш бўлади. Аммо эркинликни ўзбошимчалик, деб тушунмаслик керак ва тартиб тамойиллардан тоймасдан фаолият кўрсатишни таъминлаш лозимдир.

В.Бердиқулов – СамИСИ, “Маркетинг” кафедраси мудири, и.ф.н.

ЎЗБЕКИСТОН: ТУРИЗМНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ ВА ЯҚИН КЕЛАЖАК УФҚЛАРИ

Кейинги икки йил мобайнида мамлакатимизнинг барча соҳаларида улкан ижобий ўзгаришлар даври бўлди десак, муболаға бўлмайди, шу жумладан туризм соҳасида ҳам жуда ҳайратланарли даражада янгиликлар содир бўлди. Биргина 2018-йилнинг ўзида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан туризмни ривожлантиришга қаратилган 11 ҳужжат, Вазирлар Маҳкамаси томонидан эса 25 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинди.

Ўтган 2018 йилнинг дастлабки якунлари эълон қилинар экан юқоридаги ҳужжатларнинг ижроси ўлароқ, сайёҳлик оқими кўрсаткичларида ижобий ўзгаришлар кўзга ташланади. Ҳусусан, ҳозир 167 давлат фойдаланаётган, сайёҳларни ҳисоблаш тизимида, етакчи бўлган ташкилот UNWTO методологиясининг натижалари билан хулоса қилиш, маркетинг коммуникацияларининг илғор усулларини қўллашга асосланган иқтисодий ҳаракатлар Ўзбекистон бу соҳада жаҳон андозаларига кириб бораётганлигидан далолат беради.

Туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг 2018 йилнинг якуний ҳисоботига асосан олиб борилган сиёсатнинг натижасида, 2018-йилда мамлакатимизга 5,3 млн дан ортиқ сайёҳ кириб келган, 2017-йилда эса бу кўрсаткич 2,69 млн. нафарга тенг бўлган эди. Йиллик ўсиш суръати 197% га бўлганлиги ҳаракатларнинг самарасини яққол кўрсатмоқда.

Мамлакатлар бўйича кириб келган сайёҳларнинг таркибининг таҳлили МДҲ давлатларидан туристлар оқими узоқ хорижий мамлакат-ларга нисбатан анча катталигидан далолат беради. Жами 5346219 нафар туристдан 5020392 таси , яъни 93,9%и ҳамдўстлик мамлакатларидан бўлса,

атиги 325827 нафари (6,1%) узоқ хорижий мамлакатлар меҳмонларидир. Қўшни мамлакатларимиздан келганлар туристларнинг аксарият қисмини ташкил қилади, яъни Қозоғистондан - 2293077 нафар, Тожикистондан - 1095505 нафар, Қирғизистондан - 1055688 нафар турист ташриф буюрган.

Узоқ хорижий мамлакатлардан туристлар оқимининг асосий қисми Туркиядан (41299 нафар), Хитойдан (32444 нафар) ва Жанубий Кореядан (27269 нафар) бўлган. Ўзбекистон туризми олдида турган бош вазифалардан бири – бу узоқ хорижий мамлакатлардан туристлар оқимини кескин кўпайтиришдир.

2018 йилдаги салмоқли ютуқларга эришиш мамлакатимизда туристик иқлимни ривожлантириш омилларига чамбарчас боғлиқдир. Чет эл фуқароларига нисбатан очиқ сиёсатни олиб бориш уларнинг энг муҳими ҳисобланади. Виза ва рўйхатга олиш жараёнларининг соддалашуви ҳам туризмнинг ривожланишига таъсир кўрсатувчи энг асосий омиллардан бири ҳисобланади, ўтган йили 9 мамлакат учун визасиз режим эълон қилинди, фуқаролари учун соддалаштирилган виза режими қўлланувчи мамлакатлар сони эса 12 тадан 50 тага оширилди. 2018-йил 15-июлидан электрон кириш визаларини расмийлаштириш ва бериш тизими фаолиятини бошлади, хорижий фуқароларни вақтинчалик рўйхатга қўйиш тўлиқ электрон форматдаги E-MEHMON тизимига ўтказилди, мамлакатимиздан транзит орқали ўтувчи 101 давлат фуқаролари учун ватанимизда вақтинчалик визасиз бўлиш тартиби киритилди.

Ўтган давр мобайнида сайёҳлик инфратузилмасини ривожлантириш мақсадида жойлашув воситалари билан боғлиқ енгилликлар киритилди, масалан, хостелларга қўйилган талаблар соддалаштирилди, жумладан уларга қўйилган 22 та талаб бекор қилинди, бундан ташқари, оилавий меҳмон уйларини ташкил қилиш тартиби соддалаштирилди, бу эса мамлакатимизда туризм маркетингининг стратегик вазифалари ҳам муваффақиятли ечим топаётганлигидан дарак беради. 2017-йилда хостеллар 23 та бўлган бўлса, 2018-йилда эса 34 тага етди, оилавий меҳмон уйлар 2017-йилда йўқ эди, 2018-йилда 81 та шундай уйлар ташкил этилди, меҳмонхоналар сони 772 тадан 914 тага етказилди.

Лицензиялаштириш жараёнлари давлат хизматлари маркази ҳамда туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг ҳудудий бўлинмалари ва департаментларига топширилди, ҳужжатларни кўриб чиқиш муддати 15 кундан 10 кунгача қисқартирилди, шунингдек, тақдим этилувчи ҳужжатлар сони ҳам камайтирилди. Туроператорлар сони 127 тадан 234 тага етди, 2018-йилда сертификацияга эга бўлган гидлар сони 660 та бўлди, 2017-йилда эса 369 та эди.

Маркетинг коммуникациялари ривожида транспорт инфратузил-масини яхшилаш ҳам катта аҳамиятга эга, бу соҳада ҳам кўп ишлар амалга оширилди, жумладан туристик автобуслар хавфсизлик талабларига жавоб берган тақдирда кузатув мажбуриятидан озод қилинди, тунги вақтда туристик автобус ҳаракатланишига нисбатан белгиланган тақиқлов бекор

қилинди, шунингдек, маҳаллий сайёҳлик гуруҳларини ташишдан олдин ички ишлар органларининг ҳудудий бўлинмалари томонидан амалга оширилган транспорт воситасини техник текширувдан ўтказиш мажбурияти бекор қилинди, 8 ва ундан ортиқ кишини ташишга мўлжалланган туристик тоифа автотранспорт воситаларини сертификациялаш жараёнлари ҳам соддаклаштирилди. 2018-йилда туристик тоифадаги автотранспортлар сони 133 тани ташкил этган бўлса, унинг 48 таси-автобус, 85 таси эса микроавтобусдир.

Маълумки туризм маркетинггини ривожлантиришда туризм хизматлари сегментларининг фаолиятлари ҳам белгиловчи омиллардан ҳисобланади, турист ва меҳмонларга лозим хизматларни кўрсатишда санитария-гигиена шаҳобчалари муҳим аҳамият кашф этади, уларнинг қурилишини рағбатлантириш мақсадида татбиқ этилган имтиёзлар натижасида ўтган йили жами 462 та санитария-гигиена шаҳобчаларининг фаолияти йўлга қўйилди, уларнинг 50 га яқини санитария-гигиена шаҳобчалари фаолиятини ташкил қилганлар учун имтиёзлар берилиши ҳақидаги хабарни кенг тарғиб натижасида барпо этилди, уларни ташкил қилган тадбиркорларга реклама ва ихчам савдо нуқталари учун жойлар тақдим этилади. Тошкент вилоятида маданий мерос объектлари атрофида биоҳожатхоналар ўрнатилмоқда. 2017-йилда жами санитария-гигиена шаҳобчаларининг сони 4285 та бўлган бўлса, 2018-йилда уларнинг сони 4747 тага етказилди.

Ўзбекистон Республика Президентининг “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” ги фармони билан ўз ҳудудида бепул Wi-Fi зонасини яратган хўжалик юритувчи субъектларга қатор имтиёзлар берилди, бунинг натижасида бепул Wi-Fi зоналари сони бир йил ичида 38 тадан (2017-йил) 230 тага (2018-йил) ошди, йўл кўрсаткичларининг республика бўйлаб сони бу йил 416 тага етди, ўтган йили уларнинг сони 43 та бўлган.

Ҳамма соҳада бўлгани каби туризм маркетинггининг келажаги ҳам кадрлар ва уларнинг салоҳиятига боғлиқ бўлади, ҳозирги кунда Самарқанд шаҳрида “Ипак йўли” халқаро туризм университети фаолият кўрсатаяпти, 137 талаба таълим олаяпти, олий таълим муассаси UNWTO логотипидан фойдаланиш ҳуқуқига эга бўлди, у Франция, Испания, Туркия, Индонезия, Хитой, Россия каби 16 та хорижий давлат олий таълим муассалари билан расмий ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйди, бу туризм соҳасига етук, билимли жаҳон андозалари талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлашга бўлган эътиборнинг биргина намунасидир.

Амалга оширилган ижобий ишларни эътироф этган ҳолда соҳада ҳали ечимини кутаётган бир қатор муаммолар борлигини ва уларни ҳал этишнинг йўлларини топиш олдимизда турган бош вазифалардан биридир, зеро туризм маркетинггининг яқин келажакдаги ривожи ана шу қуйида ҳал қилиниши керак бўлган омилларнинг ҳаракактига боғлиқ бўлади.

Логистика, инфратузилма, меҳмонхона ва тезюрар поездларда жой етишмаслиги, ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш, туризм тармоғи кадрлари салоҳиятини ошириш билан боғлиқ муаммолар ёки туризмга оид бошланган баъзи лойиҳалар ярим йўлда қолиб кетаётганлиги, ёки кластер усулларини дадил қадам билан амалиётга олиб киролмаётганимиз бу соҳадаги ҳал қилинишини кутаётган муаммоларнинг асосийлари ҳисобланади, бу муаммоларни инкор қилмаяпмиз, уларнинг ечимлари изланаяпти, қолганини вақт кўрсатади.

Кириб келган 2019- йил соҳада ислоҳотлар билан бошланди. 5-январ куни Президент Шавкат Мирзиёев “Туризмни тезкор ривожлантиришга доир чора-тадбирлар режаси тўғрисида”ги фармонга имзо чекдилар, унга кўра 1-февралдан Ўзбекистонда яна 45 та давлат фуқаролари учун 30 кунлик муддатга визасиз режим жорий қилинади, шунингдек, айни вақтда 39 мамлакат фуқаролари учун сайёҳлик визаларини олишнинг соддалаштирилган тартиби амал қила бошлади, бундан ташқари фуқаролари электрон кириш визаларини олиш ҳуқуқига эга бўлган мамлакатлар рўйхатига 76 та давлат қўшилади. 2019 йилнинг 15-мартидан эса амал қилиш муддати 30 кун бўлган икки марталик ва кўп марталик электрон кириш визалари жорий этилади, шунингдек, чет эл фуқароларининг алоҳида гуруҳлар учун Vatandosh viza, Student viza, Akademik viza, Medikai viza,Piligrim viza каби янги виза категориялари йўлга қўйилди, 109 давлат фуқаролари Ўзбекистонда уй сотиб олиш ва яшаш ҳуқуқига эга бўлишлари мумкинлиги ҳақида хабар берилди, шу йилнинг 1-мартидан эса тақиқлов белгиси бўлмаган барча ҳудудларда фото ва видео олиш мумкин бўлади.

Яқин келажакда мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва такомиллаштириш бўйича катта мақсадлар кўзланган, улардан асосийси, яқинда тасдиқланадиган 2019-2025 йиллар учун туризмни ривожлантириш концепцияси ҳисобланади, унга кўра олти йил ичида туризмнинг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2,3% дан 5% га, хорижий сайёҳлар сонини эса 9-10 млн. нафарга, жумладан узоқ хорижий мамлакатлардан келувчи туристлар сонини 2 млн. гача ошириш кўзда тутилган, шунингдек туризм экспорти ҳажмини 950 млн. доллардан 2,2 млрд. долларга ошириш мўлжалланмоқда, жойлашув воситалари сонини 850 тадан 3000 тагача чиқариш режалаштирилган, туроператорлар сонини ҳам 860 тадан икки баробарга ошиши кўзда тутилган.

Ҳозир амалда бўлган тадбир “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил” номли ички туризмни ривожлантиришга йўналтирилган дастур доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини ҳам деярли икки баробарга -14 млн. дан 25 млн. гача ошириш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Хуллас, мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва такомиллаштиришга қаратилган ишлар тўхтовсиз давом этади, туризм маркетингги соҳаси ўз хизматини такомиллаштириб бу йўлда собитқадамлик билан мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий йўналишига

хизмат қилади, бу эса мамлакатимизни туризм соҳасида дунёнинг етакчи мамлакатлари сафига албатта қўшилишига имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг 2018 йил бўйича ҳисоботи. Электрон манба. www.uzbektourism.uz
2. “Туризмни тезкор ривожлантиришга доир чора-тадбирлар режаси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси ПРезидентининг 2019 йил 5 январдаги ПҚ-4095 сонли фармони. Электрон манба. www.lex.uz.

D.A.Nasimov – Prezident huzuridagi Davlat Boshqaruv Akademiya direktori, PhD., professor,

M.Rabbimov - Prezident xuzuridagi Davlat Boshqaruv Akademiya talabasi

TURIZM SOHASINING IQTISODIYOT VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida eng serdaromad sohalaridan biri turizm hisoblanadi, aynan shu maqsadda ko‘pgina mamlakatlar mazkur sohaning rivojiga alohida e’tibor qaratadilar. Yurtimirda ham bugungi kunda turizm industiryasini yuksaltirish orqali ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, malakali kadrlarni tayyorlash, hamda ushbu sohani rivojlantirish natijasida keladigan daromadlar miqdorini oshirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotida 2016-yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 235 million sayyoh qayd etilgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2016-2017 yillarda qariyb 1,7 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2017 yilda eng ko‘p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (86,8 million), AQSh (76,9 million), Ispaniya (67,0 million), Xitoy (60,7 million) va Italiya (52,2 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o‘ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hong Kong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) vaParij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.[1]

Turizm bo‘yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi (madaniy zahiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda Qozog‘iston 85-o‘rin, Qirg‘iziston 116-o‘rin, Tojikiston 119-o‘rinni egallagan, O‘zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida eng oxirgi o‘rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentga Murojatlarida barcha sohalar qatorida turizm sa’noati borasida quyidagi fikrlarni

[1]*Izoh: www.e-untwo.orgma’lumotlari.

bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida dunyo bo‘yicha ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro‘yxatiga kiritilgan.[1]

Statistik ma’lumotlariga qaraganda birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Ma’lumotlarda mamlakatimizga 2017-yilda 2 million 700 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan, raqamlardagi tafovudni qarang. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo‘lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko‘rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past ya’ni yurtimiz bo‘yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi bu judayam past ko‘rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.

2016 yilda O‘zbekistonga 1 million 800 ming turist tashrif buyurgan va 2017 yilda bu ko‘rsatkich qariyb 2 million 700 mingga yetdi, 2018 yilda esa mamlakatimizga 5 millionga yaqin turist tashrif buyurganini ko‘rsatmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, o‘tgan yili Indoneziya, Malayziya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Isroil davlatlari fuqarolari uchun vizasiz rejim va 39 mamlakatdan keladigan sayyohlarga soddalashtirilgan viza tartibi joriy qilindi. Vizasiz kiruvchi xorijliklar safiga 2018 yilning mart oyidan tojikistonliklar, oktyabr oyidan fransiyaliklar ham qo‘shildi.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida yana 45 ta davlat fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz tartib joriy etildi, bundan tashqari 70 dan ziyod mamlakat fuqarolariga elektron viza olish imkoniyati yaratildi.

Statistikaga ko‘ra, 2018 yilda O‘zbekistonga 5 millionga yaqin sayyoh tashrif buyurgan, bu avvalgi yillarga qaraganda ko‘p, demak o‘sish katta, endilikda berilgan imtiyozlar hisobiga sayyohlar soni yanada ortadi. Bu bir tomondan soha rivojlanayotgani dalolati bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shunga yarasha tayyorgarlikni, sohada mavjud muammolarni bartaraf etishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentga murojatlarida turizm sohasi rivojlantirish borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:
«Turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib

[1]*Izoh: Prezidentmurojatnomasi 2017-yil 23-dekabr.

qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqishi va ijrosini ta’minlashi zarur. Shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga etkazish lozim».[1]

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ta’lim dasturlarini hamda o‘qitishning innovatsion shakllarini ishlab chiqish va joriy etish zarur, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etishni takomillashtirish kerak.

Zamonaviy innovatsion va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini qo‘llagan holda, turizm sohasida yuqori malakali professional kadrlarni milliy va xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq sifatli tayyorlashni ta’minlash kerak.

Gidlar- ko‘p qirrali kasb egalari, har qanday mamlakatga tashrif buyurgan sayyoh ular orqali o‘sha davlat haqida taassurotga ega bo‘ladi, baho beradi. Shuning uchun zamonaviy gidlarni har tomonlama professional kadr qilib tarbiyalashimiz zarur, ular faqat chet tillarini emas balki yurtimiz tarixi haqida juda chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozim, yurtimizdagi necha meng yillik tarixga ega bo‘lgan yodgorliklarni ko‘zni quvontiradigan inshootlarni, O‘zbekistonimizni o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida dalolat beruvchi mo‘jaz bu obidalarni, maskanlarni dunyoga tanitish, milliy urf odatlarimizni, ananalarimizni, O‘zbekistonni mehmondo‘st xalq ekanligini va albatta mamalakatda tinchlik, osoyishtalik hukimronligini, turistlarga namoyon etishimiz kerak, bu borada bir qancha ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar, turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda.

Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O‘zbekiston haqida aholida yetarlicha ma’lumotlar yo‘q. Turistik jurnallarni va saytlar yaratish va takomillashtirish, jurnallarda mehmonxonalar manzillari, sharoitlari aks etgan suratlar, to‘lovlar va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, yo‘l xaritalari, etiborga molik obektlar ko‘rsatgich yo‘nalishlari, tarjimonlik xizmatlari va favqulotda xizmatlar uchun aperator raqamlarini kiritish kerak. Ushbu jurnallarni aeroportlar va xorijdagi turistik firmalarga yuborish orqali turistlar oqimini ko‘paytirishga va xizmat ko‘rsatishda mehmonlarga qulaylik yaratamiz.

Mehmonlarga faqatgina tarixiy obidalarni emas balki Respublikamizdagi mavjud tabiat manzaralari orqali, ekosayohatlarni tashkil etish (qo‘riqxonalar ko‘llar tog‘ va tog‘ oldi hududlari, oromgohlar, sanatoriya va sihatgohlar) kerak.

[1]* Izoh: Prezident Murojatnomasi 2018-yil 27-dekabr.

Barcha turistlarga xizmat koʻrsatishda oʻzimizni milliy (zamonaviy dezayinga asoslangan milliy liboslar, atlas, adraslarda) xizmatchilar kiyimini yaratish va bundan tashqari milliy va jahon taomlarini tayyorlashni tadbiq etish zarur. Juda koʻp qulayliklarga ega boʻlgan, zamonaviy turizmni yaratish va shu asosda iqtisodiyotda turizm asosiy oʻrinni egallashi hozida zamon talabidir.

А. Н.Низомов – доцент кафедры Экономической теории СамГУ,
Ю.Муинжонов – студент Международного Университета Туризма «Шелковый путь»

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТРАНЗИТНОГО ТУРИЗМА

Как известно Узбекистан находится в Центральной Азии и имеет границы с пятью государствами. На северо-западе республика граничит с Казахстаном, с северо-востока с Киргизией, юго-восточная часть соседствует с Таджикистаном, с юго-запада Туркмения а также с Афганистаном.

По количеству древних архитектурных, религиозных и исторических достопримечательностей Республика занимает лидирующее место в Центральной Азии.

С древних времен в особенности в средневековье Узбекистан славился активной культурной и торговой жизнью, прекрасными мечетями и дворцами. Многие из них сохранились и сегодня. В свое время когда-то проходили дороги “Великого шелкового пути” и это оказало огромное влияние не только на архитектуру но и богатство страны. Республика находится на перекрестке соединения Европы с Азией. Страна известна на всем мире также благодаря своей уникальной природе. Сосредоточение огромного количества религиозных памятников и их неповторимость и уникальность манит туристов.

Количество иностранных туристов посетивших Узбекистан в 2018 году составил 5,3 млн. человек . Доля туризма в ответном году в ВВП составил 3%. Это в свою очередь доказывает о наличие внутренних резервов развития туристической индустрии.

Поэтому был принят Указ президента республики Узбекистан “ О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в республике Узбекистан “ и Постановление Президента Республики Узбекистан “ О мерах по ускоренному развитию туристической отрасли “ В этих документах подготовлены задачи перед туристической отраслью. Свою огромную лепту в развитии отрасли туризма вносят также как познавательно-развлекательный туризм, деловой этнический, религиозный , спортивный, рекреационный , учебный и образовательный, экологический, экологической и лечебно-оздоровительный туризм и другие.

Немаловажную роль в развитие туризма призвана также внести транзитный туризм и в этом направление имеются огромный потенциал.

Основная часть посетителей в отчетном году (62,7%) прибыли в Узбекистан наземным транспортом из соседних стран. Туристы, прибывшие в нашу страну воздушным путем (37,3%) в большинству случаев пользовались услугами авиакомпаний «Узбекистон хаво йуллари» (64,2%) Air Astana (11,8%), Аэрофлот (5,7%) Turkish Airlines (5,0%) Utair (4,2%)

Данная тенденция не меняется и при выезде из Узбекистана, когда основная часть туристов (63,3%) выехала из Узбекистана наземным транспортом через соседние страны. Доминирующими авиакомпаниями , услугами которых пользуются туристы при вылете из Узбекистана , также остаются «Узбекистан хаво йуллари» (58,4), Air Astana (18,0%), UtAir (5,3%) «Аэрофлот» (4,3%), Turkish Airlines (4,0%)

«Узбекистан хаво йуллари» осуществляет качественное обслуживание пассажиров. В зале повышенной комфортности, в Международном аэропорту Ташкента имени Ислама Каримова для вылетающих и прилетающих пассажиров предусмотрены услуги в которых пассажиры, регистрируются на рейс проходят таможенный и паспортный контроль отдельно от пассажиров экономического класса.

Пассажирам, имеющим авиабилеты, в первом и бизнес классе обслуживания, услуга предоставляется бесплатно.

Зал повышенной комфортности оборудованы удобный мягкой мебелью, барами и душевными кабинами.

Вегетарианское (азиатское), исключены все продукты, животного происхождения включая птицу и ракообразных. А также сало, студень, бульоны, и подливы.

Индусское-исключена говядина, телятина и экстракты.

Мусульманское –исключены блюда из свинины.

Строгое вегетарианское блюда из продуктов растительного происхождения.

Вегетарианское (молочное) – исключены блюда из мяса птицы, моллюсков, свежей рыбы.

Кошерное питание (приготавливаются в Израиле). Авиакомпания гарантирует получение специального питания в пакете, если пассажир заказал его во время покупки авиабилета, а затем подтвердит свой заказ при регистрации рейса в аэропорту.

Авиапассажиром также предлагается интерактивные услуги: информации о наличие мест, тарифы, калькулятор тарифа, калькулятор багажа, расписание рейсов, онлайн табло, проверить авиабилеты, персональный кабинет UzAirPlus.

«Узбекистон хаво йуллари» предлагает своим пассажирам различные развлечения на борту: послушать любимую музыку, посмотреть фильмы, полистать свежую прессу, найти увлекательные занятие для

своего ребенка, получить все необходимые сведения об Узбекистане, ознакомится с информацией об авиакомпании «Узбекистан хаво йуллари» совершить виртуальное путешествие по городам нашей страны, сделать необходимые покупки в SKY Shop, вкусно поесть.

Условия авиаперевозок туристов в нашу страну соответствуют международным стандартам, хотя некоторые туристические направления, инфраструктура желает более лучшего.

Следует отметить, что основная часть туристического потока прибывают в нашу страну наземным транспортом. Расстояние между крайне северной и крайне южной точкой Узбекистана составляет 925 км, между крайне западной и восточной- 1400км

Для того, чтобы добраться до туристического объекта туристу необходимо преодолевать огромные расстояние. Поэтому вне зависимости от желания туриста где-то он должен останавливаться на ночлег, питаться в день как минимум 3 раза, пользоваться услугами торговли, банки, автозаправки и т.д.

Большой резерв в увеличении туристического потока их нахождение, проживание является улучшение условии придорожного сервиса: сеть гостиниц, стоянок автомашин, мелкий ремонт автомобилей, службы информации, питании и т. д.

Немало важную роль играет оказание услуг транзитным пассажирам. Зачастую мы сталкиваемся с ситуацией, что транзитный пассажир много времени тратят в ожидание следующего рейса

-высокие цены на авиаперевозки, низкое покрытие потенциальных рынков отечественными и международными авиакомпаниями.

-визовая политика и система регистрации

-слабое развитие транспортной, социальной и инженерной инфраструктуры, труднодоступность, невысокий уровень сервиса, неразрывность объектов придорожной инфраструктуры.

-недостаток квалифицированных кадров в сфере туризма, отдаленность образовательных программ от требований рынка труда

-отсутствие налогового стимулирования для инфраструктуры туристической индустрии.

От правильной организации туристических услуг, зависит насколько турист может этим воспользоваться. Например в аэропорта, вокзалах, автостанциях в местах накопления людей в специальных туристических сайтах предлагает туристам от краткосрочных 3 часовых до одного или двухдневного туристического тура по историческим местам, а также предлагает другие вилы туризма гастрономический, паломнический, развлекательный, спортивный и т. д.

https://www.airways.uz
https://infopedia.su
tourlib.net

Р.А. Исломова– НДКИ катта ўқитувчиси

НАВОИЙ ВИЛОЯТИНИНГ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИДАГИ РОЛИ

Мамлакатимизнинг энг катта майдонларидан бирини эгаллаган, аммо вилоят сифатида унчалик узоқ тарихга эга бўлмаган бу юртнинг шаҳар ва қишлоқлари олис ўтмиш қарида қолган башарият маданияти изларидан дарак берадиган қадимий ёдгорликларига ҳам бой. Бу обидалар нафақат ислом дини тарғиботчилари саналган азизлар, авлиёлар тарихидан, балки бу ҳудуднинг умумбашарият тарихига тенгдош эканлиги ҳақида ҳам тарихий маълумотлар мавжуд.

Навоий вилоятининг ташкил этилганига қарийб 36 йил тўлди. Мазкур вилоят 1982 йил 20 апрел куни ташкил қилинган бўлиб, ундан асосий мақсад, Қизилқум чўлининг бебаҳо ер ости ва ер усти бойликларини ўзлаштиришдан иборат эди. Навоий вилояти 1992 йилнинг 20 январида мустақил Ўзбекистон Республикаси ҳудудида янгидан ташкил этилди. Навоий вилоятининг географик жойланиши бўйича ғарбдан Қорақалпоғистон республикаси билан, шимолдан Қозоғистон республитлкаси ва Жиззах вилояти билан, жанубдан Бухоро, Самарқанд ва Қашқадарё вилоятлари билан чегарадошлиги ҳам аҳамиятли. Чунки транспорт турли томондан, турли йўллар ва воситалар билан кириб келиш имкониятига эга. Мазкур вилоятнинг мамлакатимиз ичкарисидаги географик жойланиши ҳам қулай бўлиб, у Ўзбекистон Республикаси марказий қисмида жойлашган. Вилоят ҳудуди Қизилқумнинг асосий қисмини қамраб олган. Вилоятнинг умумий майдони 110,99 минг кв.км бўлиб, ҳудудининг катталиги жиҳатидан республикамизда Қорақалпоғистон республикасидан сўнг иккинчи ўринни эгаллайди.

Вилоятнинг ўзига хос хусусиятларидан бири, унинг кам сувли воҳа эканлигидир. Унинг асосий сув тармоғи Зарафшон дарёси ҳисобланади ва сунъий йўл билан Амударё суви билан кўпгина ерлари суғорилади. XX-асрда Навоий вилоятида Дамхўжа-Навоий-Бухоро сув қувури қурилиб ишга туширилди. Мазкур иншоат ҳозирги кунда мунтазам равишда ишлаб келмоқда

Вилоятнинг туристик салоҳиятини баҳолаш учун “салоҳият” сўзининг маъносини аниқлаб олишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ушбу сўзларнинг маъносига чуқур етиб бориш учун “салоҳият”[1] ва “потенциал”[2] сўзлари келтирилган. **Навоий вилоятининг туристик салоҳияти (потенциали) деганда туризмда қўлланилиши ёки фойдаланиши мумкин бўлган воситалар, яъни**

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.Ш, Н-тартибли / таҳрир ҳайати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқалар. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”давлат илмий нашриёти, 2006. 432 бет.
Ўша жойда. 301-бет.

туристик объектлар, туристик ресурслар ва имкониятлар мажмуи тушунилади.

Агар ушбу тушунчалардан келиб чиқадиган бўлсак, Навоий вилояти ҳам катта туристик салоҳиятга эга. Ушбу вилоятнинг кўпгина манзиллари, жумладан, Кармана шаҳри, Работий Малик, Нурота каби қадимий кентлари, Тошмачит, Чил устун, Кўк гумбаз, Қилич ота каби ўнлаб обидалари, Қасим шайх, Ориф Деггороний каби азиз авлиёлари туристик салоҳиятнинг таркибий қисмлари ҳисобланади. Шулар ва шу каби бир қанча муқаддас қадамжолари тарихий манба сифатида ўрганилган, улар тўғрисида аниқ маълумотлар мавжуд. Аммо ушбу обидаларга туристик объект сифатида тизимли ёндошилмаётганлиги ва улардан кам фойдаланилаётганлиги ҳали бу борада вилоятда анча ишларни амалга ошириш лозимлигидан далолат беради.

Боз устига қадимий Хитойдан Ўрта денгизни ҳамда Европа мамлакатларини боғлаб турган Буюк Ипак йўлининг ҳам вилоят худудидан ўтганлиги туризмни халқаро миқёсда ривожлантириш имкониятининг ҳам мавжудлигидан далолатдир. Чунки бу ҳудудда қадимдан савдо-сотиқ, маданият, ҳунармандчилик, меҳмондорчилик каби хизматлар ва улар тизимида туризм соҳаси ҳам ривожланган.

Навоий вилояти ўзининг қадимий маданиятига эга бўлган ҳудуд. Агар биргина Кармана мисолида гапирадиган бўлсак, манбаларда кўрсатилишича, бу ҳудуд X-XIII асрлардаёқ ўзига хос маданий марказ бўлган. Баъзи манбаларда ёзилишича, ўтмишда Карманий тахаллуси билан ижод қилган шоирлар 20 дан ортиқ бўлган. Бу ҳудудда яшаётган халқ азал-азалдан ўзига хос эстетик дунёқарашга эга бўлган. Вилоят туманларида сақланиб келинаётган фалклор материаллари, халқнинг турли маросимлари, урф-одатлари, халқ оғзаки ижодидан қадимий удум ва анъаналар мужассамлашган.

Вилоятдаги муқаддас жойлардан бири Нурота шаҳрида жойлашган Чашма зиёратгоҳидир. Уни табиатнинг бетакрор мўъжизаси сифатида баҳолаш мумкин. Чунки ундаги балиқлар бошқа сув ҳавзаларида учрамайди. Чашманинг бир тармоғи Деҳибаланд қишлоғидан келиб чиққан. Минераллар билан тўйинган бундай таркибдаги шифобахш ичимлик суви мамлакатимизнинг бошқа ҳудудларида деярли учрамайди. Нуротадаги коризлар (қудуқлар) бу ҳудудда қадимдан сув иншоатлари мавжуд бўлганлигидан далолат бериб турибди. Манбаларда таъкидланишича, бу сув иншоатларини Александр Македонский қурдирган. У Нуротада қалъа қуриб бир муддат яшаган экан. Булардан ҳам кўриниб турибдики, вилоят катта туристик салоҳиятга эга.

Вилоятда хизмат кўрсатишнинг барча турларини, улар таркибида туризмни ҳам жадал ривожлантириш имкониятларининг мавжудлигига яна бир мисол, биргина Нурота тумани марказида жойлашган қадимий чашма зиёратгоҳи ҳозирги кунда туризмнинг бир қанча турлари учун туристик объект ҳисобланади.

Демак, Навоий вилоятида туристик салоҳиятининг мавжудлиги ва унда экологик туризмни ривожлантириш, аҳолининг туристлар учун хизмат турларини яратиш билан қўшимча иш ўринларини ҳосил қилади. Бу эса, вилоятнинг ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларини яхшилашга ёрдам беради. Яъни бу биринчидан, зиёратчиларининг энг севимли маскани сифатида қадрланса, иккинчидан, маданий-тарихий обида сифатида ҳам катта аҳамиятга эга. Учинчидан ушбу маскан илмий туризм объекти ҳамдир. Ушбу зиёратгоҳнинг ҳали жуда кўп очилмаган қирралари мавжуд бўлганлиги учун илмий тадқиқот олиб бориладиган объект сифатида қаралиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.Ш, Н-тартибли / таҳрир ҳайати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқалар. ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”давлат илмий нашриёти, 2006. – 301 ва 432 бетлар.
2. Исломова Р.А.Экологик туризмни ривожлантириш муоммалари.//Монография.//.; “IQTISODIYOT”нашрёти, 2014-131б.
3.Пардаев М.Қ.. Тухлиев.И.С. Исломова Р.А. Ўзбекистонда туризм хизмат бозорини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари.//Монография.//.; “Иқтисодиёт”нашрёти, 2012-304бет..
4.Сатторов У. Навоий вилояти.- Т.: “Yangi asr avlodi” нашриёти, 2004 – 6 б.

B.O. Yo‘ldoshev – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi,
R.V.Abdullayev – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, ilmiy rahbar

XIZMATLAR BOZORI RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanib, bugungi kunda dunyo bo‘yicha xizmatlar sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish o‘sishidan ilgarilab ketmoqda. Rivojlangan davlatlarda xizmatlarining ulushi yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 2/3 dan 3/4 gachani tashkil qiladi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror o‘sishi aholi bandlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, hozirda mamlakat iqtisodiy maqomini baholash uning xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibi, ko‘lami va rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham xizmatlar sohasining roli tobora ortib bormoqda. Birgina 2017 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlarning ulushi 47,3 foizni tashkil etdi. 2017 yilda xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 116 795,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 8,9 foizga oshdi.

Xizmatlar hajmining oshishiga bir qator omillar ta’sir qilmoqda, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi (kredit kartalari orqali to‘lovlar, Internetsavdo va boshqalar) yangi savdo markazlari, ovqatlanish kor-

xonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta’lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishini misol qilish mumkin.

Xizmatlar sohasida turizm alohida ahamiyatiga ega. Bu soha katta investisiyani talab qilmasdan yuqori daromad olish imkoniyatini beradi. Soha mutaxassislarning fikriga ko‘ra, turizm XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanadi. Hozir u dunyo bo‘yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o‘rinni egallab turibdi. Turizmning rivojlanishi katta ilmiy tadqiqot xarajatlarini hamda yuqori qiymatli texnologiyalarni talab qilmaydi. Aksincha, turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa ko‘plab xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi ko‘plab tarmoqlar o‘rtasidagi aloqalarni shakillantirishga xizmat qiladi.

Dunyoda ko‘pgina mamlakatlar turistik xizmatlar eksport qilish orqali katta iqtisodiy o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Butunjahon turistik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 2017 yilda sayohat va turizm 7,9 trillion AQSH dollari, ya’ni umumiy YaIMning 10.4 %i, 1,5 trillion AQSH dollari, ya’ni umumiy eksportning 6.5 %i (bu umumiy xizmatlar eksportining 28.8%i demakdir) va 298 million ish o‘rni (har 10 dan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo‘ldi. 2017 yilda xalqaro turistlar tashrifi 1,29 mlrdga teng bo‘ldi va bu ko‘rsatkich 2027 yilga kelib 2 mlr kishidan ortiq bo‘lishi kutulmoqda. Hozirda turizm dunyo miqyosida avtomobil sanoati, moliyaviy xizmatlar va sog‘liqni saqlashga qaraganda tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. 2017 yilda global iqtisodiy o‘sish 3% bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich turizm sohasida 4.6 % ni tashkil etdi.[1]

O‘zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Hozirda O‘zbekistonda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjud bo‘lib, ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, Respublika bo‘yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi va turoperatorlar faoliyat yuritmoqda. Mintaqadagi tarixiy ob’yektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha xizmat ko‘rsatilmoqda. Yuqoridagi raqamlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu Respublikaning xalqaro turizm bozorida o‘z o‘rnini egallayotganligidan dalolatdir.

Biroq, turizm sohasida ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lsada, O‘zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. 2017 yilda jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 2,1%igina turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mehmonxonalar soni yetarli darajada emas, 2017 yilda ularning soni 676 tani tashkil qildi. Bundan tashqari, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi juda ham kam miqdorda, ya’ni 2017 yilda YaIM ning 2.8%ni tashkil qildi.[1]

Bu kabi muammolarni bartaraf etish, hamda iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli ishlar amalga oshirilishi kerak. Chunki, arzon hamda sifatli turistik xizmatlarni yaratish mamlakatga tashrif buyuruvchilar sonining ortishiga olib keladi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 5 yanvardagi PF–5611-son Farmoni olib borilayotgan islohotlarni yanada jonlantirdi. Farmonda turizm sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar nazarda tutilib, qator maqsadli vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Bundan tashqari, qabul qilingan 2019–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi sohada yangi taraqiyot yo‘lini belgilab berdi. Jumladan:

- turizmning yangi salohiyatli turlari – ziyorat qilish, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;

- turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brendlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm xizmati ko‘rsatishning ilg‘or jahon sifat standartlarini joriy etish;

- respublika mintaqalarida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob’yektlari, eng avvalo mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

- raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, mintaqalarda yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish, ularni jahon turizm bozorlariga olib chiqish va boshqalar.[2]

Umuman olganda, turizm sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar talaygina bo‘lsada, O‘zbekistonning betakror tabiati, go‘zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlari va investorlarni faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari sohani yanada rivojlantirish uchun avvalo turistik infrastrukturani shakllantirishga e’tibor qaratish, yangi mehmonxonalar qurish hamda nufuzli mehmonxona brendlarini jalb qilish, turistlar uchun qulay bo‘lgan zamonaviy transport turlarini ko‘paytirish, hududlarda turistlar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash kabi yo‘nalishlarga invistitsiyalarni yo‘naltirish zarur.

Respublikda sayyohlik infratuzilmasini mustahkamlash, malakali kadrlar tayyorlash hamda turizm sohasida ilg‘or marketing hamda menejment yutuqlaridan foydalanish turizmning rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi. Shuningdek, me’moriy obidalarni ta’mirlash va obodonlashtirish, ekoturizmni

ommaviylashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish turistik xizmatlar hajmiga hamda iqtisodiyotdagi ulushining o‘sishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Travel & Tourism Economic Impact 2018 Uzbekistan//World Travel & Tourism Council 2018 march.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. –T:.2.12.2016y.

Ш.М.Исломов – СамИСИ катта ўқитувчиси, и.ф.н.,
С.Х.Ибрагимов – СамИСИ, ИК-217 гуруҳи талабаси

МЕҲМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БОШҚАРИШДА МИЖОЗ БИЛАН ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ

Меҳмондорчилик – инсонларнинг мураккаб, касбий фаолияти соҳаси бўлиб, барча саъй-ҳаракатлар туристларнинг ҳамда маҳаллий аҳолининг турли эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган. Агарда кўрсатилган хизматлар уларнинг тасаввурига мос келмаса, мижозлар хизмат кўрсатувчи фирмаларга бўлган ишончи ва қизиқишини йўқотади, мос келган тақдирда улар бу каби хизмат кўрсатувчи фирмаларга такрор мурожаат қилишга тайёрдирлар. Анъанавий фирмаларда ташкилотга йўналтирилганлик тамойили ҳукм сурганлиги боис, барча масалаларни раҳбарият ҳал қилиши анъана тусига кирган. Масалан, раҳбарият меҳмонлар нимани ҳоҳлашлари, етказиб бериш тизимини ташкил қилиш ва таъминот масалалари. Истеъмолчига йўналтирилганлик тамойилида эса, компания ходимлари (бизнинг мисолимизда мезбонлар) мижозлар нимани ҳоҳлашлари ва уларни иш жараёнида ёки ишдан сўнг ўз тажрибаларини баҳам кўришларига жалб қилишга асосланади. Меҳмонларнинг иштироки ҳамкорликда қиймат яратиш ва иш тажрибасининг сифатини таъминлайди. Бугунги кунда исталган ахборотларга бир зумда эга бўлиш, фойдаланиш мумкин, меҳмондорчилик компаниялари махсус сайтлар ва блоглар орқали меҳмонларга боғланиши, уларнинг турли шикоят ва изоҳларини таҳлил қилиши (масалан, Marriot меҳмонхонасининг блоги. Marriot’s blogs.) ёки турли ижтимоий тармоқлар ёрдамида меҳмонларнинг мамнуниятлари ва норозиликлари ҳақида, бунинг учун нималар қилиш кераклиги тўғрисидаги фикр ва мулоҳазаларини кўришимиз мумкин. Меҳмонлар шунингдек, сайтларга ўз мулоҳазаларини ва тажрибаларини баён этиш орқали қолдиришлари, биргаликда янги тажрибалар яратиши мумкин.

Меҳмондорчилик тажрибасида раҳбарият меҳмонларни биргаликда тажриба алмашиниш, сифат ва қиймат яратишга жалб этишнинг турли стратегиялардан фойдаланишлари мумкин. Мазкур тадқиқотлар шундай стратегияларга бағишланган бўлиб, келгусида эса раҳбарият томонидан мижозларнинг мамнунлик даражасини аниқлаш, хизмат кўрсатишдаги

хатоликларни аниқлаш учун меҳмонларни жалб қилиш ўрганилади.

Бошқарув стратегияларининг машҳур вакилларидан Прахалад ва Рамасвамилар томонидан таклиф қилинган фикрга кўра мижозлар билан биргаликда яратилган қиймат технологияларнинг жадал суратлар билан ўзгаришига олиб келади, мижозлар бугун ўз тажрибаси ҳақида қачонлардир билганидан кўпроқ ва янада кўпроқ билиш имкониятига эга бўлади. Натижада мижозлар компанияларнинг веб саҳифаларига ташриф буюриш, турли ижтимоий тармоқларда ўзаро суҳбатлашиш, турли ахборотларни алмашиниш орқали компанияларнинг мижозлар билан алоқа қилишларини аниқ билиб оладилар(масалан, TripAdvisor); бунинг учун улар алоқа компанияларига маблағ сарфлайдилар ва юқори қиймат ва сифатли сервисни тақдим этадиган веб-сайтлар аукционида ҳам иштирок этадилар. Веб саҳифалар орқали меҳмонлар компания билан тўғридан-тўғри боғланишади ва меҳмонларнинг айнан нималарни ҳоҳлашлари ҳақида ахборот беришлари мумкин. Бу ишларни ташкил қилишгача бўлган жараён, бунда гестолог албатта имкон топа олади. Гап шундаки, бугунги кунда меҳмон ёки мижоз турли тажриба, яратилган қиймат ва сифатнинг ҳамкори, яратувчиси ҳамдир, шунинг учун меҳмондорчилик компаниялари уларнинг бундай талаб ва эҳтиёжларини амалга оширишлари шарт.

Айрим жараёнлар ҳам борки, уларни меҳмонлар иштирокидан олдин, биргаликда ёки меҳмон иштирокидан кейин қўллаш мақсадга мувофиқ. Айрим муаллифлар меҳмонларнинг иштирокини маркетинг, ахборот таъминоти, шунингдек ҳамкорликда ишлаб чиқариш сифатида таснифлайдилар.

Меҳмонлардан мезбон тажрибасида самарали фойдаланиш учун улар қандай иштирок этиш, хизмат кўрсатишни талаб даражасида ёки меҳмонлар кутганидек амалга ошириш учун билимга эга бўлиши лозим. Агарда меҳмонлар сизга хизмат қилиш учун келгудек бўлишсалар, бунга сабабни кўрсатишлари лозим. Шу тарзда уларнинг мезбон сифатидаги роли аниқ белгилаб берилиши лозим. Бундан ташқари айрим меҳмонлар бунга шароит яратилиб берилса, ўзлари учун нимадир қилишни ҳоҳлашади. Бундай кишилар ўз-ўзига хизмат қилиш ва вазиятни назорат қилишдан завқланадилар. Бошқа томондан, айрим одамлар уларнинг тажрибаси ташклотга ёрдам бериши мумкин бўлсада ўзлари буни ҳоҳламайдилар. Бунинг учун маълум ҳақ тўланаётган экан, нима учун қўшимча ишлашлари керак? Ташкилотлар биргаликда ишлиб чиқариш ёки хизмат кўрсатишни ташкил қилишни режалаштирар экан, ҳар доим заҳира шакллантириши шарт. Чунки айрим меҳмонлар мезбон тажрибасида иштирок этишни ҳоҳлайдилар, айримлари эса қатъий рад этадилар (1-жадвал). Меҳмонлар иштирокдан максимал даражада фойдалана оладиган ташкилотлар ўз навбатида харажатларнинг тежалишини ва биргаликда хизмат кўрсатиш орқали хизматлар сифати ва қийматининг ортишини ҳам таъминлайдилар.

1-жадвал.

Биргаликда хизмат кўрсатишнинг афзаллик ва камчиликлари

МЕҲМОНЛАР УЧУН		ТАШКИЛОТ УЧУН	
Афзалликлари	**Камчиликлари**	**Афзаллик-лари**	**Камчиликлари**
Хизмат кўрсатиш харажатларини камайтиради	Меҳмонларни ғазаблантириши мумкин	Меҳнат сарфини пасайтиради	Жавобгарлик хатарини оширади
Қизиқишни оширади	Хизмат кўрсатиш даражаси пасайиши мумкин	Сифатни яхшилайди	Меҳмонларни ўргатиш учун сарфлар ошади
Хизмат кўрсатишда вақтни тежайди	Билим, малака ва кўникмалар талаб қилинмаслиги мумкин	Хизмат кўрсатишни қисқартиради	Ходимларни ўқитишга бўлган талабни оширади
Сифатни яхшилайди	Ўқиш учун маълум вақт талаб қилинади	Янги бозор нишасини эгаллаш	Дизайн билан боғлиқ сарф-ларнинг ортиши
Хатарларни камайтиради		Ходимларнинг иш жойини бойитади	Бошқа бўлинмаларга ҳалақит бериши мумкин

Муҳим жиҳати шундан иборатки, айрим вазиятларда мемонлар ўз-ўзига хизмат кўрсатиши ёки уларнинг иштирок талаб қилиниши мумкин. Меҳмондорчилик ташкилоти ихтиёрида меҳмонлар иштирокида қандай қилиб камчиликларга йўл қўймасдан афзалликларга эга бўлиш мумкинлигини кўзда тутувчи иккита стратегия мавжуд. Биринчидан, улар барча мижозларига айрим турдаги хизматларни ўзлари бажаришлари шарт эканлигини белгилаб қўйишлари керак. Иккинчи стратегиянинг моҳияти шундан иборатки, хизмат кўрсатиш жараёнини сегментлаш, ташриф буюрувчилар хизмат кўрсатишда иштирок этиш ёки этмасликларини ўзлари белгилаб олишлари керак. Айрим ресторанларда айрим меҳмонлар ўз-ўзига хизмат кўрсатишдан завқланишларини, бошқалари эса хизмат кўрсатишни кутиш ва тайёр нарсалар учун пул тўлашни ҳоҳлашларини жуда яхши биладилар. Уларни мамнун қилиш учун меҳмонларга қарор қабул қилиш учун тавсия берилади: буюртма беришлари мумкин ёки меню асосида буфетдан танлаб олишлари мумкин.

Меҳмонлар қадр-қимматини эътиборга олиш муҳим аҳамиятга эга. Ҳатто меҳмондорчилик ташкилотлари ҳам мижозларга чекланмаган хизматлар кўрсатиш мажбуриятига эга эмас. Шу боис, мижозларнинг шубҳаси ўринли. Бундан ташқари, лозим даражада мезбон тажрибасида иштирок этишни истамайдиган, фақат хизмат кўрсатишларини талаб қилувчи мижозларга меҳмонхона маъмурияти рад жавобини бериши

мумкин. Бироқ, шундай қилиш лозим бўлсада, меҳмонларга рад жавобини бериш ва уларни чиқариб юбориш жисмоний ва маънавий зарари энг кам даражада бўлишига эътибор қаратиш лозим. Бироқ меҳмонларга рад жавобини бериш хизмат кўрсатиш жараёнидаги бирорта бир носозликлар мавжудлигини англатсада, меҳмонхона буни имконсиз деб қабул қилиши керак. Қўпол, тартибсиз мижозлар учун бу адолатли қарор, аксинча эса меҳмонхона уларнинг эҳтиёжини қондира олиш даражасида эмас тарзида тушуниш лозим.

Ш.У. Ташматов – СамИСИ ўқитувчиси,
Ш.Х. Абдуқобилов – СамИСИ, МК-317 гуруҳ талабаси

ИЖТИМОИЙ ТУРИЗМ: РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Туризмнинг ижтимоий аҳамияти замонавий жамиятининг барча соҳаларида ортиб бораётганлиги ҳақида кўпчилик тадқиқотчилар таъкидлашмоқда. Хусусан, Т.А.Фролова фикрига кўра, туризмнинг ижтимоий моҳияти жамият учун жуда муҳим бўлиб, у аҳоли бўш вақтини ташкил қилиш, жамиятдаги фарқларни юмшатиш ва низоларнинг олдини олиш, алоҳида кишилар ва гуруҳлар ўртасида янги алоқаларни шакллантириш, таълим ва аҳолининг маданий даражасини кўтариш, маданий қадриятларни тарқатишда ўз ифодасини топади[1].

Ижтимоий туризм хизматларини ташкил этиш бўйича фаолиятнинг тарихий илдизлари XIX асрга бориб тақалади. Бу даврда Европа давлатларида кам таъминланганлар учун ёзги лагерлар (1875 йил), оилавий пансионатлар (1890 йил) қурила бошланган[2]. Аҳолининг кам таъминланган қатламидан шаклланган ушбу контингентни пенсионерлар, жисмоний имконияти чекланганлар, кўпболали оилалар, ўсмирлар ташкил этган. Юртимизда туризмни мамлакат иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида жадал ривожлантириш учун улкан ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, туризмнинг мамлакатимиз учун янги бўлган йўналишларини ташкил этиш ва ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу ўринда савол туғилади. Ижтимоий туризм туризмнинг янги йўналишими ёки унинг замирида бошқа маъно ётибдими?

Ижтимоий туризмнинг халқаро бюроси (Bureau International du Tourisme Social, BITS) таърифига кўра, ижтимоий туризм жамиятнинг барча қатламлари вакиллари учун, хусусан, ёшлар, кўпболали оилалар, пенсионерлар, жисмоний имконияти чекланганлар учун сайёҳат қилиш имкониятини берувчи ҳамда аҳолининг дам олиш ҳуқуқидан самарали

[1] Фролова Т.А. Экономика и управление в сфере социально-культурного сервиса и туризма: конспект лекций. - Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2010.
[2] Социальный туризм. [Электрон манба]: http //geolike.ru/page/gl_7287.htm

фойдаланишига қаратилган дастурлар ва акциялар мажмуаси бўлиб, ташриф буюрувчилар ва қабул қилувчи ҳудуд алоҳиси ўртасидаги тенг ҳуқуқли муносабатларни таъминлайди[1].

М.Б. Биржаков ва бошқалар томонидан берилган таърифга кўра ижтимоий туризм – бу туризмнинг бир тури бўлиб, ижтимоий эҳтиёжлар учун ажратиладиган маблағлардан субсидияланадиган, мактаб ўқувчилар, ёшлар, пенсионерлар, уруш ветеранлари, меҳнат фахрийлари ва бошқа фуқароларга сайёҳат қилиш учун шароит яратиш мақсадида давлат ва нодавлат фондлар ҳамда бошқа хайрия ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган ижтимоий кўмакдир[2]. Ушбу таърифда муаллифлар жамоаси ижтимоий туризм жараёнида иштирок этувчи асосий гуруҳларни ажратиб кўрсатган ва бу гуруҳлар чегараланган маблағларга эга кишилардан ташкил топган.

О.С. Завитаева фикрича, ижтимоий туризм – бу давлат томонидан ижтимоий эҳтиёжлари учун ажратиладиган маблағлар ҳисобидан субсидияланадиган сайёҳатдир[3].

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, ижтимоий туризмга қуйидагича таъриф бериш мумкин. Ижтимоий туризм – бу туризмнинг бир тури бўлиб, унинг мақсади дам олиш, соғломлаштириш, табиат ва маданий-тарихий мерос билан таништиришдир. Туризимнинг ушбу шакли аҳолининг барча ижтимоий қатламлари ва турли ёшдаги гуруҳларини қамраб олади ҳамда фуқароларнинг ижтимоий категориясидан келиб чиқиб турли хил бюджетлар ҳисобидан субсидияланади. Ижтимоий туризм ўз ичига ҳар қандай туризм шаклини олиши мумкин (масалан, агротуризм, экотуризм, даволаш-соғломлаштириш туризми, зиёрат туризми ва бошқалар). Шундай экан, ижтимоий туризмга ижтимоий соҳа ва туризм соҳаси кесишмасидаги тушунча сифатида қараш мумкин. Чунки ижтимоий туризмнинг ривожланганлик даражаси мамлакатдаги ижтимоий соҳанинг умумий ҳолати қай аҳволда эканлигидан ҳам дарак беради.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда ижтимоий туризм ривожланиши туризмни оммавийлаштириш тадбирлари билан бирга амалга ошмоқда. Бироқ, бизнинг фикримизча, етарли даражада эмас. Мамлакатимизда ижтимоий туризм тизимини яратишга алоҳида эътибор қаратиш зарур, чунки унинг яратилиши қуйидаги ижобий натижаларга олиб келади:

- туризмнинг (айниқса, ички туризмнинг) оммалашувига кўмаклашади;
- жамиятдаги ижтимоий зиддиятларни камайтиради (аҳолининг барча қатламлари учун туристик хизматлардан фойдаланиш имконияти яратилади);
- ёшларда ватанпарварлик руҳини шакллантиради;

[1] Реализация государственной политики в области культурно-познавательного туризма в России. Федеральное агентство по туризму. [Электрон манба]: http//russiaturforum.com/upload

[2] Особенности организации и проведения социальных туров для лиц с ограниченными возможностями. [Электрон манба]: http://articlekz.com/article/8640

[3] Завитаева О.С. «Социальный туризм для граждан пожилого возраста и инвалидов»: Учебное издание для студентов вузов. Екатеринбург, 2013.

- туризм соҳасидаги мавсумий тебранишларни юмшатади;
- мультипликатор самараси орқали ёндош тармоқларда иқтисодий фаолликни рағбатлантиради ва ҳоказо.

Ижтимоий туризм тизими ўзида ижтимоий-маданий объектлар ва иштирокчилар ҳамда тамойиллар, мақсадлар, воситалар, шунингдек, аҳолининг кам таъминланган қисмига туристик хизматлардан фойдаланиш имконини берувчи имтиёзлар мажмуасини ифодалайди[1].

Бизнинг фикримизча, мамлакатимизда ижтимоий туризмнинг ривожланишига тўсқинлик қилувчи бир қатор муаммолар мавжуд ва улар қуйидагилар:

1. Ижтимоий туризмнинг ривожланиши учун давлат томонидан молиявий кўмак зарур. Чунки туризм соҳасида ижтимоий дастурларни ишга тушириш учун молиявий маблағлар дастлаб давлат томонидан ажратилиши лозим.

2. Ижтимоий туризмнинг ҳуқуқий базаси етарли даражада яратилмаган. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг "Туризм тўғрисида"ги Қонунида ва туризм соҳасига тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий хужжатларда ижтимоий туризмга алоҳида эътибор қаратилмаган.

3. Туризм соҳасида ижтимоий дастурларни амалга ошириш шакллари ишлаб чиқилмаган. Мисол тариқасида таътил чеклари амалиётини келтириш мумкин. Бундай чеклар корхона ишчиларига лойиҳада иштирок этувчи туризм саноати объектлари тармоғида дам олиш учун берилади. Шартли эмиссион марказ уларни муомилага чиқаради, корхоналар чекларни улгуржи нархларда сотиб олади, шу билан бирга, улар томонидан сарфланган маблағлар фойда солиғига тортилмайди. Сўнгра чекларни корхона ходимлари йўлланма қийматидан 30, 50 ва 70 фоизли (ижтимоий имтиёзларга боғлиқ равишда) чегирма билан сотиб олади. Санаториялар, отеллар ва ресторанлар чекларни дам олувчиларга кўрсатилган хизматлар тўлови сифатида қабул қиладилар.

4. Ижтимоий туризмга ихтисослашган кадрлар етишмовчилиги. Масалан, эшитиш қобилиятига эга бўлмаган туристларга хизмат кўрсатувчи гидлар сони жуда кам.

5. Ижтимоий туризмнинг ривожланиши унга мос инфратузилманинг ривожланганлигига ҳам боғлиқ. Тан олиш лозимки, мамлакатимизда имконияти чекланган кишиларга тур ташкил қилиш учун инфратузилма етарли даражада ривожланмаган.

Бизнинг фикримизча, ижтимоий туризмни ривожлантириш учун қуйидаги ишлар амалга оширилиши лозим:

- меъёрий-ҳуқуқий базани яратиш (қонун ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий хужжатларни ишлабчиқишни талаб этади);

- ижтимоий туризмнинг кўламини ошириш (аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламига туристик хизматлардан фойдаланиш ҳуқуқини

[1] Социальный туризм. Социология. [Электрон манба]: http://www.grandars.ru/college/sociologiya/socialnyy-turizm.html

берувчи махсус механизмни ишлаб чиқиш орқали);

- ижтимоий туризм инфратузилмасини ривожлантириш;
- ижтимоий туристлар учун транспорт хизматларининг ҳамёнбоплигини таъминлаш;
- ҳавфсизлик ошириш (туристлар ва экскурсантлар ҳавфсизлиги – бу ижтимоий туристлар учун турмаҳсулотни шакллантириш ёки экскурсиялар ташкил этишда эътиборга олиш зарур бўлган муҳим жиҳат ҳисобланади);
- ижтимоий туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш ва малакасини ошириш (туристларнинг муайян гуруҳи билан ишлашдаги ўзига хосликни инобатга олган ҳолда);
- ижтимоий туризмни тарғиб қилувчи ва ушбу йўналишни ривожлантиришдаги самарали тажрибани тарқатишга қаратилган реклама-ахборот фаолиятини амалга ошириш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ижтимоий туризмнинг ривожланиши мамлакатимизда туризмнинг оммавийлашиши ва ҳаммабоп бўлишига хизмат қилади.

Ш.Я.Абдусаидова – преподаватель Международный Университет Туризма «Шелковый Путь»

ТУРИЗМ - СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОТРАСЛЬ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Индустрия туризма в Узбекистане имеет существенный потенциал развития. Она связана как с наличием большого числа уникальных природных объектов (озер, горных вершин, речных пойменных лесов), так и богатым культурно-историческим наследием. На территории страны находится свыше 7000 памятников архитектуры и искусства разных эпох и цивилизаций, многие из которых внесены в список культурного всемирного наследия ЮНЕСКО.

Узбекистан включен в список самых надежных и безопасных стран для американских туристов. Этот вывод содержится в рекомендации Госдепа США от 10 января. Присвоенный Узбекистану первый уровень означает самые низкие из возможных рисков при посещении страны. Все это, безусловно, свидетельствует о том, что Узбекистан в ближайшем будущем войдет в число стран, которые наиболее привлекательны для туристов.

В соответствии с Указом главы государства “О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской отрасли Республики Узбекистан” от 2 декабря 2016 года, туризм определен в качестве стратегической отрасли экономики нашей страны.

В настоящий момент создаются благоприятные экономические и организационно-правовые условия для развития туризма. В Республике за

короткий промежуток осуществлен ряд последовательных мер по развитию туристской сферы. В частности, за 2018 год были подготовлены и внесены 29 проектов нормативно-правовых и других актов, направленных на комплексное развитие туристского потенциала Узбекистана, которые заложили основу новой государственной политики в сфере туризма, 21 из них приняты и реализуются, предоставляя субъектам сферы туризма значительные налоговые и таможенные льготы и преференции.

Так, были приняты три основополагающих решений Главы государства в сфере туризма, направленных на развитие внутреннего и въездного туризма, а также на развитие туристского потенциала страны. В частности, в целях обеспечения ускоренного развития внутреннего туризма как одного из важнейших факторов устойчивого социально-экономического развития регионов, ознакомления граждан с культурно-историческим наследием и природными богатствами страны от 3 февраля 2018 года был подписан указ президента Республики Узбекистан № УП-5326 «О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан». Документом предусматривается введение с 10 февраля безвизового режима сроком на 30 дней для граждан Израиля, Индонезии, Республики Корея, Малайзии, Сингапура, Турции и Японии. Тем самым общее количество стран, для граждан которых будет действовать безвизовый режим, достигнет 16.

Для либерализации визового режима приняты основные нормы по развитию туризма, расширен перечень стран до 76 стран, граждане которых с 1 февраля 2019 года имеют возможность получения электронной въездной визы. Также с 15 марта 2019 года внедряется система выдачи двукратной и многократной электронной въездной визы, которая послужит увеличению потока туристов в нашу страну.

Гражданам 109 стран предоставляется право получения вида на жительство, внедряются дополнительные категории виз, такие как «Vatandosh», «Students visa», «Academic visa», «Medical visa», «Piligrim visa» для отдельных групп иностранных граждан, посещающих Республику Узбекистан.

Впервые была утверждена Программа развития внутреннего туризма «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!», по результатам исполнения которой в течение года организовано 15,4 млн. путешествий по внутреннему туризму.

В целях повышения эффективности деятельности Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма, усиления его роли в привлечении иностранных инвестиций в туристскую отрасль, развития въездного и внутреннего туризма принято постановление Президента Республики Узбекистан от 06.02.2018 г. № ПП-3510 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма».

Также в целях коренного повышения эффективности проводимых реформ по формированию благоприятных экономических условий и предпосылок для развития национальной сферы туризма была утверждена концепция развития сферы туризма в 2019-2025 годах, предусматривающая совершенствование нормативно-правовой базы, развитие туристской инфраструктуры, развитие транспортной логистики, диверсификацию туристских услуг, развитие внутреннего туризма, продвижение туристского продукта Республики Узбекистан на международном и внутреннем туристских рынках и совершенствование системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для туристской отрасли.

Вместе с тем с учетом поэтапного становления туризма, как стратегической отрасли экономики страны, возникает объективная необходимость в подготовке высококвалифицированных и конкурентоспособных на мировом рынке туристской индустрии кадров.

Исходя из этого, Президентом Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевым, 10 июня 2018 года, на Саммите ШОС проходившем в Циндао (Китай) была выдвинута инициатива открытия в городе Самарканде Международного университета туризма «Шелковый путь», в результате чего, 28 июня 2018 года было подписано Постановление Президента Республики Узбекистан ПП № 3815 об открытии данного высшего учебного заведения.

Сегодня в университете обучаются 137 студентов по 9 направлениям бакалавриата.

Для повышения качества оказываемых услуг в сфере туризма в Учебно-консалтинговом центре туризма при Госкомтуризме прошли переподготовку и повышение квалификации 2 361 специалистов сферы туризма, из них: переподготовку – 773 человек, повышение квалификации – 1062 человек, 562 человек приняли участие в семинарах и мастер-классах.

По данным 2018 года Узбекистан посетили 5 миллиона 346 тысяч туристов, в том числе из соседних стран Центральной Азии - 4 миллиона 614 тысяч, из другиз стран СНГ- 406 тысяч, из дальнего зарубежья – 326 тысяч туристов. Перед Государственным комитетом Республики Узбекистан по развитию туризма поставлена задача обеспечить совместно с соответствующими министерствами и ведомствами увеличение количества туристов по всем перспективным направлениям туризма и объема реального экспорта туристических услуг не менее чем в два раза в ближайшие 5 лет.

Исходя из вышеперечисленных механизмов повышения эффективности туризма, можно сделать вывод, что туризм является стратегической отраслью для развития инновационной экономики государства.

Для улучшения существующего положения туризма в Республике Узбекистан предлагается осуществить следующие меры:

1. Учитывая туристический потенциала и специфику туристских ресурсов

каждого региона, разработать соответствующую стратегию развития туризма на данной территории.
2. Усовершенствовать сектор услуг в гостиничном бизнесе, рассматривая вопросы менеджмента и маркетинга.
3. В связи с планируемым увеличением потока туристов, проработать их логистику.
4. Для повышения эффективности сферы услуг усовершенствовать финансовые отношения.
5. Обратить особое внимание на развитие Digital – туризма, для формирования инновационной экономики нашей страны.

D.B.Taylakova – QarMII, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti,
A.M.Eshmamatova – QarMII, Iqtisodiyot fakulteti, KTI-162-18-guruh talabasi

O‘ZBEKISTONDA TURIZM BIZNESINI INNOVATSION LOYIHALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Mamlakatimizda tadbirkorlik, jumladan, turizm sohasini yanada rivojlantirishga oid muhim hujjatlar qabul qilinayotgani soha vakillarining samarali faoliyat yuritishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Endi ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish, mavjud mehmonxonalar faoliyati va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, katta zamonaviy mexmonxonalar va oilaviy sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi kichik motellar tashkil etish orqali sohadagi raqobatni yanada kuchaytirish lozim. Viloyatda turizm va turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirishning manzilli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra, turizm va sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, turistik xizmatlarni ichki va xalqaro sayyohlik bozorlariga taklif etish, viloyatdagi sayyohlik obyektlarini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish, xizmat ko‘rsatishning sifati va samaradorligini bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Turizm oqimi mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, valyuta kirimlari hamda tashqi savdo balansi barqarorligini ta’minlash omillaridan biridir.

Insonlar hayot darajasi va sifatini yaxshilashda xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni beqiyosdir. Shu bois ham dunyo mamlakatlari miqyosida xizmat ko‘rsatish sohasi muttasil rivojlanib bormoqda.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion modellarini ishlab chiqish soha rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion loyihalar orqali rivojlantirish, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash uchun ham modernizatsiyalash zarur.

Xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion loyihalar asosida rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar kelib chiqadi:

- Xizmat koʻrsatish sohasini innovatsion rivojlantirish natijasida xizmat koʻrsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan taʼminlash muammosi;
- Xizmat koʻrsatish sohasidagi xodimlarning bilimini, malakaviy koʻnikmasini, tajribasini oshirish muammosi;
- Xizmat koʻrsatish sohasida mehnat unumdorligini yanada oshirish muammosi.

Bunda innovatsion rivojlantirish mehnat unumdorligini oshirsada, biroq ushbu sohada band boʻlgan xodimlarning yanada koʻproq xizmat koʻrsatish uchun ragʻbatlantirishning turli usullarini ishlab chiqish muammosini qoʻyadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasida islohotlarning amalga oshirilishi natijasida belgilangan dasturlar asosida yangi sayyohlik imkoniyatlari kashf etilmoqda. Bu jarayonda, sayyohlik imkoniyati mavjud deb qaralayotgan hududlarning turistik samaradorligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi

Mazkur tizimning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat boʻladi:

- oʻrganilayotgan jarayon yuzasidan imkon qadar toʻliq hamda haqiqiy natijalarni koʻrsatish;
- indikatsiyalashda zarur boʻladigan bazani shakllantirish;
- turistik salohiyatni aniqlashda strukturalangan tizimdan keng foydalanish;
- tizimning turistik tashkilotlar, hudud, davlat rivojlanish dasturlari bilan integrasiyasini taʼminlash.

Turizm sohasida xizmat koʻrsatishni tashkil etish uchun servis xizmati turlarini baholash koʻrsatkichlari tarkibini aniqlash zarur boʻladi. Servisli xizmat koʻrsatish turlari sifatida quyidagilarni koʻrib chiqishni taklif etamiz:

- xizmat koʻrsatish servisi;
- axborot xizmatlar servisi;
- moliyaviy – kredit xizmatlar servisi.

Baholash koʻrsatkichlari tizimi tarkibini quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha oʻrganish taklif qilinadi: nomenklatura, miqdor, sifat, vaqt, narx, taʼminlash kafolati: a) hajmi boʻyicha; b) sifati boʻyicha; v) vaqti boʻyicha; g) narxi boʻyicha.

Yurtimizda turizm sohasining innovatsion rivojlanishini aniqlash asosiy masalalardan sanaladi. Ushbu maqolamizda berilgan takliflar, turli yondoshuvlar asosida quyidagilarga erishish koʻzda tutilgan:

- mamlakat turizm sohasining investitsion jozibadorlik xususiyatlari yanada ravnaq topishi;
- sohaga oid muammolarning real baholanishi hamda oqsayotgan tarmoq faoliyatini aniqlash imkoniyatlarini oshishi;
- keyinchalik mamlakat sayyohlik hududlari boʻylab alohida tarzda barqaror rivojlanishni identifikatsiyalovchi koʻrsatkichlar asosida baholash imkoniyatlari yaratilishi va pirovardida hududlar iqtisodiyotiga ijobiy taʼsir oʻtkazishi;
- mazkur tizim asnosida soha salohiyatini baholashda boshqa turli

zamonaviy strukturalangan iqtisodiy koʻrsatkichlar qoʻllanish usullari ishlab chiqilishi.

Shunday qilib, xizmat koʻrsatish va turizm sohasining murakkab tizim sifatida tadqiq etish va ushbu tizimga xos ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning tizimli xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu tizim elementlarining yaxlitlikdagi samarali faoliyatini ta'minlovchi mexanizmni innovatsiyon loyihalar asosida rivojlantirish mumkin. [1]

B.A.Djumayev – SamISI tadqiqotchisi

TURIZM SOHASIDA XALQARO MEHMONXONA BIZNESI

Xalqaro mehmonxona biznesi zamonaviy jahon iqtisodiyotida muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi oʻn yilliklarda bu eng jadal rivojlanib borayotgan va juda samarali iqtisodiy faoliyat turiga kiradi. Turizm iqtisodiyoti jahon yalpi ichki mahsulotining ayni paytda 8 foizni tashkil etadi. Xalqaro miqyosidagi eksport salohiyati bo`yicha toʻrtinchi oʻrinni egallab turibdi (sanoat, yoqilgʻi, kimyoviy moddalar va avtomobil mahsulotlari ishlab chiqarish), bu sanoat qiymati yiliga 1 trln. AQSh dollarini tashkil etadi, bu global savdo xizmatlarining 30 foizini yoki umumiy eksport hajmining 6 foizini tashkil etadi. Har yili 4 milliard nafar sayyohlar ichki turizmni amalga oshiradi va 2010 yilda 940 millionga yaqin xalqaro sayyohlar roʻyxatga olingan[2].

150 dan ortiq mamlakatda eksportdan tushgan daromadning beshta asosiy manbalaridan biri bu turizm sohasi hisoblanadi va 60 ta mamlakatda birinchi oʻrinni egallaydi. Zamonaviy turizm - murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim boʻlib, uning tarkibiy qismiga juda foydali sanoat majmuasidan biri mehmonxona biznesi hisoblanadi. Xalqaro mehmonxona biznesi – kapitalning xalqaro miqyosda yuqori darajasiga, oʻz faoliyatining xalqaro xarakteriga ega boʻlgan mehmonxona sanoatining alohida segmentidir. Shunday qilib, xalqaro mehmonxona biznesi mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashtirish va real sektorga sarmoyalarni jalb qilish muammolarini hal qilishda muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, sanoat xalqaro standartlarga moslashtiriladi [1].

Franchayzing (franchayzing – Fransuzcha franchise soʻzidan, imtiyoz ma`nosini anglatadi) biznesni yaratish va boshqarish kabi zamonaviy boshqaruv shakllari va ushbu shakllarni birlashtirib, mehmonxona korxonalari bozoriga kirish vaqtida xarajatlarni kamaytirishga, oʻz moliyaviy resurslarini boshqarishda, mavjud xarajatlarni minimallashtirishga va yanada samarali narxlar siyosatini joriy etishga muvaffaq boʻladilar. Natijada zamonaviy

[1] Тўхлиев И.С., Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик.-Тошкент, «Иқтисодиёт-молия» нашриёти. 2010.

[2] Developments and challenges in the hospitality and tourism sector. Issues paper for discussion at the Global Dialogue Forum for the Hotels, Catering, Tourism Sector. International Labour Organization. Sectoral Activities Programme. Geneva, ILO Publ., Nov. 2010. 102 p. Available at: http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_dialogue/---sector/ documents/meetingdocument/wcms_162202.pdf.

mehmonxona sektorining rivojlanishi xalqaro biznesning o‘sishi bilan ajralib turadi. Mehmonxona tarmoqlarini yaratadigan xalqaro mehmonxona tashkilotlari sayyohlarni mehmonxonalarga joylashtirishda ustunlik qiladi. Shu bilan birga, xalqaro mehmonxona biznesida konsentratsiya va markazlashtirish jarayoni nisbatan kichik bo‘lgan mustaqil mehmonxonalarni butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelmaydi.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi (EI), AQSh va Meksika o‘rtasida imzolangan Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi kabi ommaviy bloklarga bo‘linishning global iqtisodiy jarayoni mavjud. Evropa Ittifoqi faqat savdo bilan emas, balki mehnat va sarmoyaning harakatlanishida milliy cheklovlarni bekor qilgan iqtisodiy ittifoqdir. Sinergiya, barcha ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida paydo bo‘lgan, ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. AT doirasida sanoat, tijorat va turistik aloqalarni rivojlantirishdan tashqari, mehmonxona xizmatlari ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Turizmda xalqaro savdoning rivojlanishidagi mavjud tendentsiyalarni hisobga olgan holda, xalqaro mehmonxona korporatsiyalarini rivojlantirish yo‘nalishini oldindan ko‘rish osonroq [3]. Tinch okean mamlakatlarida sayyohlar oqimi so‘nggi yillarda bo‘lgani kabi, bir xil darajada o‘sishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan Indoneziya, Malayziya, Tailand, Vetnam va Meksikada kurort mehmonxonalarining rivojlanishi rejalashtirilgan. Osiyoda Gonkongning jadal rivojlanishi qo‘shni mamlakatlar iqtisodiyotining jadal o‘sishi va soliq tizimining o‘ziga xos xususiyati bilan rag‘batlantirildi. Gonkongda umumiy ulush 16,5%, daromad solig‘i 15% va soliq yoki dividendlar bo‘yicha daromad olinmaydi. Ba’zi mehmonxona korxonalari Gonkongda, ularning orasida Mandarin Oriental, Peninsula, Shangri-La kabi markazlarga ega. Bularning barchasi jahonga mashhur besh yulduzli mehmonxona. Ular Gongkongda kam korporativ soliqqa tortilishlari va boshqa davlatlardan mutaxassislarni maxsus byurokratik kechikishlarsiz boshqaruvchilar sifatida ishlatish qobiliyati tufayli tashkil etilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ular siyosiy barqarorlikka erishish bilan birga, mehmonxona biznesining rivojlanishi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishga ega. Misol tariqasida, sobiq Sharqiy Evropa bloklari, shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqining bir qismi bo‘lib, oxirgi yillarda mehmonxona korporatsiyalarini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratilgan mamlakatlardir. Turizm sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ko‘plab davlatlarning milliy sayyohlik idoralari Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan agentligi bo‘lgan va 153 mamlakatga ega bo‘lgan eng yirik hukumatlararo tashkilot bo‘lgan Jahon turistik tashkiloti (YUNVTO) tomonidan tuzilgan dunyoning turistik rivojlanish prognozini hisobga oladi. UNWTOning "Turizm - Panorama-2020" tadqiqotiga ko‘ra, jahon turistlarining 2000-2020 yillar oralig‘ida sayohat qilishi qariyb ikki barobarga ko‘paygan. 2011-yilda 996 million sayyohlar soni 2012-yilda 39 million sayyohga oshganidan so‘ng, tarixda birinchi marta xalqaro sayyohlar soni milliard belgidan (1,035 milliard) oshdi. 2016 yilda bu ko‘rsatkich 1 mrld. 235 mln. so‘mni tashkil etgan, bu esa



1-rasm. 2002-2017 yillarda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi[1]

2015 yildan 46 mln.ga ko‘p[2].

Mehmonxonalar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: ular ma’lum bir minimal darajadan oshib ketadigan, bir yo‘lboshchiga ega bo‘lgan, turli to‘shaklarni to‘ldirish bilan cheklanmagan, xonalarni va hammomlarni tozalash bilan cheklangan bo‘lmagan mehmonxona xizmatlarini taqdim etish, ular taqdim etilayotgan xizmatlarga, jihozlarga va xizmatlarga mos ravishda sinflarga va toifalarga bo‘linadi. mamlakat standartlari ixtisoslashgan muassasalar toifasiga kiritilmagan. Shu kabi muassasalar orasida pansionatlar va mebellar, turistik yotoqxonalar va boshqa turar joylar mavjud bo‘lib, ular xonadan iborat bo‘lib, chekka xonalarni kundalik to‘ldirish, xonalarni va hammomlarni tozalashni o‘z ichiga oladi. [2]. Hogg Robinson Group (HRG) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 2015 yilda Moskva eng qimmat mehmonxonalar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egallagan [3]. Rossiyaning poytaxtida o‘rtacha turmush qiymati 2015 yilda 12 831 rublni tashkil etdi, bu 2014 yilga nisbatan 5 foizga ko‘pdir. Ikkinchi o‘rinni - Nigeriyaning eng yirik shahri, Lagos, keyin Nyu-York, Gongkong va Shveytsariyaning Tsyurix shaharlaridir. Mehmonxonalarda sayyohlarni joylashtirish narxi eng yuqori darajaga ko‘tarilgan shaharlarga kelsak, Braziliya Rio-de-Janeyro va San-Paolo bu yerda mos ravishda 19 va 16 foiz ko‘rsatkichlari bo‘yicha etakchilik qilmoqda. Uchinchi o‘rinda - San-Fransisko (10%). Aksincha, narxlar bo‘yicha sezilarli pasayish Vashingtonda qayd etilgan - o‘rtacha 14%. Hindistonning Bangalor va Abu-Dabidagi

[1] O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[2] https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284419685

xonalarning o‘rtacha narxi mos ravishda 12 va 11 foizga kamaydi.

O‘zbekistonda mehmonxonalar narxlari yuqorida keltirilgan mamlakatlarnikidan birmuncha arzonroq bo‘lishiga qaramay, mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlarni to‘liq qamrab ololmaydi. 2017 yilda 676 ta mehmonxona mavjud bo‘lgan bo‘lib, 17703 nomerlar (xonalar) va 34140 ta joylarga ega. 2016 yilda esa mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni 750 tani tashkil etgan[1]. Mamlakatda mehmonxona biznesining zamonaviy infratuzilmasini takomillashtirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Butun dunyo bo‘ylab mehmonxona korporatsiyalari O‘zbekiston bozorini faol rivojlantirmoqda: ko‘plab shaharlarda, ayniqsa poytaxtda, eng katta mehmonxonalar mavjud, bu esa mazkur yo‘nalishning kelajakdagi rivojlanishidan dalolat beradi

Oxirgi 15 yillikni oladigan bo‘lsak xorij fuqarolarining O‘zbekistonga tashrifi 15,5 marta, yoki 2002 yildagi 442,1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetgan. O‘zbekiston fuqarolarining chet ellarga tashrifi 2017 yilda 5182,5 ming kishini tashkil etgan, bu 2002 yilga taqqoslanganda 6,5 marta ko‘p[2](1-rasm).

2000-2017 yillar davomida O‘zbekistonda zamonaviy mehmonxonalar va turli xil shunga o‘xshash joylashtirish vositalari bunyod etildi. O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi ma`lumotlariga ko‘ra, 2020 yilgacha O‘zbekistonda 300 ta oddiy va yuqori brendli mehmonxonalar qurlishi rejalashtirilgan. 2017 yilda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlari soni (o‘rindoshlarsiz) 7383 tani tashkil etadi. 460 ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob’ektlari mavjud. Bular 18 ta dam olish pansionati, 41 ta dam olish uylari va bazalari, 8 ta kemping, 71 ta katta yoshlilar uchun sanatoriya, 33 ta bolalar uchun sanatoriya va 289 ta boshqa joylashtirish vositalari. Jami nomerlar (xonalar) soni 15607 ta, joylar soni esa 57099 tadan iborat[3].

O‘zbekistonda turizmning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bu soha butunlay barqaror va jadal rivojlanmoqda. Ichki sayyohlik oqimining yillik o‘sishi qayd etildi. Mamlakat bo‘ylab sayyohlik xizmatlariga talabning tez o‘sishi kichik mehmonxonalar, asosan, kurort maydonlarida, shuningdek, Samarqand, Toshkent, Buxoro va mamlakatning boshqa yirik shaharlarida xalqaro mehmonxona tarmog‘i mehmonxona sonining ko‘payishiga, mahalliy mehmonxona tarmoqlarini yaratishga sabab bo‘ldi. Mehmonxona qurish bo‘yicha investitsiya takliflari hajmi xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan keskin ravishda oshdi. Shu bilan birga, asosiy takliflar mehmonxona biznesini rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. chttps://stat.uz/uploads/docs/turizm_tahlil_17_uz.pdf
[2] https://stat.uz/uploads/docs/turizm_tahlil_17_uz.pdf
[3] https://stat.uz/uploads/docs/turizm_tahlil_17_uz.pdf

- mehmonxonalarning moddiy – texnika bazasi va uning infratuzilmasining barcha elementlarining o‘zaro ta’siri va o‘zaro aloqalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, muvofiqlashtirish va yaxshilash;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda, shu jumladan o‘zaro shaxsiy aloqalar va harakatlarda yangi texnologiyalarni keng qo‘llash;
- mehmonxona xodimlarining yuqori darajadagi kasbiy mahoratlari va vakolatlarini shakllantirish va rivojlantirish, shu asosda yuqori darajadagi mehmondo‘stlik muhitini yaratish;
- xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlarini mazkur mehmonxonaning va umumiy qabul qilingan xalqaro sifat standartlari asosida tashkil etish va ularga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
2. Левченко Т.П., Янюшкин В.А. Гостиничный бизнес как составляющая современной индустрии туризма// Современные аспекты экономики. СПб., 2009. № 4.
3. Press-relis Hogg Robinson Group, January 2016 y.

U.Saydaliyeva – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti,
G.G‘ulomova – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.

TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA KLASTER AHAMIYATI

Bugungi kunda turizm sohasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida e’tirof etilmoqda. Negaki turizm yuqori daromad keltiruvchi soha bo‘lish bilan bir qatorda ekologik vaziyatni yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash kabi masalalarni hal qilishda ham muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli aksar dunyo mamlakatlarida turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda davlat tashabbusi asosida klasterlar tashkil qilinmoqda. Chunki klasterlar hududlarning daromadliligini oshirish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash kabi dolzarb masalalarni hal qilishda samarali vosita hisoblanmoqda [1]. Natijada turistik klasterlar joylashgan hududlarda aholi turmush darajasi yaxshilanmoqda [2]. N.N.Volkova va T.V. Saxnoning ta’kidlashicha, klasterlar hukumat uchun, birinchidan, iqtisodiy siyosatda eng zamonaviy, qulay vosita, ikkinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik uchun eng yaxshi muhit, uchinchidan, hududlardagi muammolarni bartaraf qilishda mahalliy hokimiyat organlariga ko‘maklashish kabi vazifalarini bajaradi. O‘z o‘rnida hukumat klasterlarni tashkil etishda innovatsion rivojlanishga halal berayotgan to‘siqlarni bartaraf etish, noqulay sharoitlarni yaxshilashni o‘z zimmasiga oladi[3].

[1] Волкова Н.Н., Сахно Т.В. Промышленный кластер. – Полтава: Асми, 2005. – 271 с.
[2] Mercer C., Urban and Regional Quality of Life Indicators. – Brisbane: Institute of Cultural Policy Studies, Griffith University. 1994, – 245 p.
[3] Iordache,C.,Cebuc,I., Hoarcr, D. (2009). Tehnica operaюiunilor de turism, Editura Independenюa Economicr,

Iqtisodiyotda klaster tushunchasi dastlab XX asrnining oxirlarida qo‘llanila boshlagan. Klasterga (inglizcha cluster - bog‘lam, to‘plam) 1998 yilda Maykl Porter tomonidan korxonalar konsentratsiyasining geografik jihatdan birlashuvi deb ta’rif berilgan[1]. Uning fikricha, biror-bir tarmoqda klaster tashkil qilish uchun quyidagilar: klaster ishtirokchilarinining yagona hududda joylashgan bo‘lishi; mazkur hududda klasterlarni shakllantira olish hamda ularni qo‘llab-quvvatlaydigan va xizmat ko‘rsatadigan korxonalarni jalb eta olish salohiyatiga ega yetakchi raqobatbardosh kompaniyalarning mavjudligi; klaster ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro aloqa yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi talab etiladi.

Grey esa o‘z tadqiqotlarida klasterga quyidagicha ta’rif beradi: “Klaster – bu umumiy manfaatlarga ega bo‘lgan korxonalarning yuqori samaradorlikka erishish maqsadida o‘z kuch va imkoniyatlarini birlashtirishidir”[2].

Klaster tarkibiga hududning ma’muriy boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari kirishi ham mumkin. Bunday tashkilotlarga korxonalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish orqali mintaqa miqyosida raqobat qilishi uchun klaster afzalliklarini mahalliy miqyosda ko‘rsatib berish vazifasi yuklatiladi.

Porterning sanoat tarmoqlari klasterlari bo‘yicha olib borgan tadqiqot-laridan keyin, klaster iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shuningdek, turizm sohasida ham, xususan, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlarning ham asosiy elementi sifatida qarala boshladi.

2010 yilda turizm va rekreatsiya bo‘yicha bo‘lib o‘tgan konferensiyada turistik klaster “geografik jihatdan qo‘shni bo‘lib, turistlar oqimini shakllantiruvchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi, hududning rekreatsion salohiyatidan foydalanuvchi hamda ijtimoiy tashkilotlar va davlat boshqaruv organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi kompaniyalar” [3]sifatida talqin qilindi.

Chotchayev fikricha, turistik klasterda turizmning turli kompaniyalari turagentliklar, turoperatorlar, mehmonxonalar kabilar birlashadi, pirovard natijada ular klaster infratuzilmasini shakllantiradi[4].

Turizmda klasterlarni shakllantirish sabablari sanoat klasterlarini yaratish sabablaridan farq qiladi. Turizmda klaster yaratishdan asosiy maqsad bu, eng avvalo, biznes va hududni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishdir. Bunda turistik korxonalar harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Quyidagilar esa turistik klaster yaratishda asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi:

- turistik mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda ixtisoslashuv;
- turistik mahsulotning geografik joylashuvi;

Pitecti

[1] Портер М. Конкуренция / Пер. с англ. яз. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2001. – 495 с.

[2] Gray B. Conditions facilitating interorganizational collaboration // Human Relations. – 1985, № 38(10). – P. 911–936.

[3] Туризм и рекреация: фундаментальные и прикладные исследования // Труды V Международной научно-практической конференции МГУ им. М.В. Ломоносова, геогр. фак-т, Москва, 28–29 апреля 2010. – СПб.: Д.А.Р.К., 2010. – 708 с.

[4] Чотчаева Ф.А.-М. Кластеризация туризма как предпосылка роста инвестиционной привлекательности регион // TERRA ECONOMICUS (Экономический вестник Ростовского государственного университета). Т. 7. – 2009, № 3.– С. 176–179.

- noyob turistik-rekreatsion resurslardan foydalanish imkoniyati;
- turistik mahsulotni yaratishda kichik va o‘rta biznes korxonalari ulushining yuqori bo‘lishi[1].

Yuqoridagi omillarning mavjud bo‘lishligi hududlarda turistik klasterlar shakllantirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Negaki, klasterlar biror-bir sohani rivojlantirishga hamda uni raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- klaster hududida joylashgan kompaniyalarning samaradorligini oshirish;
- yuqori samaradorlikka erishish uchun innovatsion yo‘nalishni tanlab olish va shu yo‘nalishda faoliyat olib borish;
- Klaster taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi biznes turlarini rag‘batlantirish[2].

Klasterlarning ushbu afzalliklaridan turizm sohasini rivojlantirishda Italiya, Germaniya, Fransiya kabi qator rivojlangan davlatlar samarali foydalanib kelmoqda. Natijada mazkur mamlakatlar iqtisodiyotida turizm yuqori naf keltiruvchi soha sifatida o‘rin egallab kelmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda ham turizm sohasini yanada jadal sur’atlarda rivojlantirish uchun turistik salohiyatga ega bo‘lgan hududlarda klasterlar tashkil etish zarur. Bu orqali mamlakatimizda “turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish”[3]ga erishish mumkin.

R.B. Kosse – SamISI o‘qituvchisi

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK SAYOHATLARNING TUTGAN O‘RNI

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlantirish va uni shakllantirishda ekologik sayoxatlarning o‘rni beqiyosdir.

Sh munosabat bilan ekologik maqsaddagi sayohatlarni, uyushtirish yurtning go‘zalligini bilmoq uchun go‘zallikka intilgan va go‘zal qalb zarur bo‘ladi. Bunday qalbni esa ona yurtga va ona tabiatga muhabbat tarbiyalaydi. Shunday qilib, ekologik turizm, ya’ni ekologik sayohatlar insoniyat o‘tmishidagi o‘simlik va hayvonot dunyosi va umuman moddiy olam ne’matlaridan tejab, asrab-avaylab foydalanish, ularni kelajak avlodlarga ham yetkazish bilan bog‘liq ijtimoiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan turmush tajribalarini keksa avlod vakillari tomonidan yosh avlodga berilishi va bu tajribalarni yosh avlod tomonidan faol o‘zlashtirib olish jarayonidir**.** Jismoniy tarbiya bilan shugullanayotgan talaba yoshlarni ekologik tarbiya berishda “Turizm” va uni

[1] Рудченко В.Н. Кластеры в туризме: особенности классификации, процесс формирования и методы оценки // Общество. Среда. Развитие. – 2016, № 4. – С. 12–18.
[2] Iordache,C.,, Ciochinr,J., Asandei,M.Clusters – Tourism Activity Increase Competitiveness Support. Theoretical and Applied Economics Volume XVII (2010), No. 5(546), pp. 99-112
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони. ПФ-5611.05.01.2019. Тошкент.

oʻqitish uslubiyati fani alohida oʻrin tutadi. Chunki turizm fani jarayonida oʻrganilgan ilmiy, nazariy maʼlumotlar va amaliy koʻnikmalar yosh mutaxassis talaba yoshlarni har tomonlama tabiatga mehr ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik sayohatni, rivojlantirishda salomatlikni saqlash yoʻlida sayohatga chiqish, havo almashtirish tadbirlaridan koʻra, koʻproq iqtisodiy foyda olish masalalarini ilgari surgan va targʻibot qilgan. Bunday adabiyotlarni oʻrgangan odamda, tabiatga sayohat qilib, vaqtni mazmunli oʻtkazish, jismoniy kamolatga intilish, Vatan sarhadlarini sezish va uning goʻzalligini his qilishdan koʻra, koʻproq iqtisodiy foyda olish maqsadida sayohat ishlarini tashkil etish bilan bogʻliq taʼsurotlarni hosil qiladi. Shunday boʻlsada ekologik sayohatchilarda iqtisodiy intilishlar negiziga asoslangan yuksak maʼnaviy boylik va vatanparvarlikni targʻibot qilish muhimdir.

Butunjahon turistik tashkiloti quyidagi vazifalarni bajarishni asosiy maqsad qilib qoʻygan:

- muhofaza qilinadigan ekologik hududga yaqin boʻlgan qishloq tumanlari aholisining turmush darajasini oshirish va iqtisodiy koʻmak berish;

- tabiatni bilish va unga ehtiyotkorona, tejab, munosabatda boʻlishni, mahalliy xalq madaniyatiga, uning iqtisodiga biologik va madaniy xilma-xillikka ijobiy munosabatni ragʻbatlantirish.

Bunday xalqaro ahamiyatga ega boʻlgan vazifalarni respublikamiz hududida ham amalga oshirish mumkin. Hozirgi tabiat korinishini kelajak avlodlarga sof tabiat manzaralari va boyliklarini meros qilib qoldirishda, Ona yer hayotining manguligini taʼminlashda muhim ahamiyatga egadir. Ekologik sayohatlar jismoniy madaniyatning oʻziga xos vositalaridan biri boʻlib, u yoshlarni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdan tashqari ularni mehnatsevar va vatanparvar, rostgoʻylik, sadoqat, oʻzaro ishonch, tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga ham katta yordam beradi. Shuningdek, ekologik sayohatlar jarayonida oʻquvchilarda mardlik, jasurlik, chidamlilik, kuchlilik, keskin vaziyatlarda zarur qarorga kelish kabi ruhiy va jismoniy sifatlarni ham tarbiyalash imkoniyati juda keng. Respublikamizda hali yaxshi oʻrganilmagan, inson oyogʻi yetmagan joylar juda koʻp. Turistik sayohatlar va ularni tashkil qilish, oʻtkazish boʻyicha respublikamizda katta tajriba toʻplangan. Bugungi kunda bu tajribalarni yanada rivojlantirish, uni zamonaviy darajaga koʻtarish zaruriyati tugʻildi. Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida” gi 2015 yil yangi qonunida (12–modda) belgilanganidek, “Sanatoriy-kurort muassasalarida, dam olish uylari va turistik markazlarda jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish ishlari” muhim ahamiyatga ega boʻlgan tadbirlardan biridir. Shu sababdan “Barcha sanatoriy–kurort muassasalarida, dam olish uylari va turistik markazlarda jismoniy tarbiya moddiy bazasi hamda yakka tartibda va guruh boʻlib oʻtkaziladigan jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish mashgʻulotlari uchun shart-sharoit yaratiladi”, - deb alohida taʼkidlangan. Buning boisi shundaki, tabiat qo`yniga ekologik sayohatlar sogʻlomlashtiruvchi jismoniy tarbiya vositalarining muhim tarkibiy qismidir.

E’tirof etish lozimki, jahondagi juda ko‘p mamlakatlarda turizmning bu shakllari bilan bir qatorda havaskorlik turizmi (piyoda yurish, toqqa chiqish, transportlarda yurish, daryo, ko‘llar va hakozolarda sayr qilish) ham asosiy hisoblanadi. O‘zbekistonda havaskorlik sayohatning shakllanishi va uning rivojlanishida kasaba uyushmalari tashkilotlari g‘amxo‘rlik qilib kelganligi yuqorida bayon etildi. Keyingi davrda havaskorlik turizmi shaklan va mazmunan o‘z kuchini qisman pasaytirdi. Ya’ni moddiy ta’minot, transport, jihozlar, xavfsizlikni saqlash, tashkiliy va xo‘jalik ishlari hamda boshqa ko‘p muammolar vujudga keldi. Shunga qaramasdan aholining salomatligini yaxshilash, talaba-yoshlarning jismoniy kamolotini o‘zgartirish yo‘lida sayohatning o‘rni va mohiyati yo‘qolgan emas. Bular axoli davlat jamoat tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Bunday ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish maqsadida “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari majmuyi ishlab chiqilib, u 2000 yil 1 martdan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. E’tiborli tomoni shundaki, bu majmuada barcha yoshdagi (6 yoshdan 60 yoshgacha) ham kishilar uchun mo‘ljallangan sinov me’yorlar tarkibida sayr-sayohatlar (piyoda yurish) o‘rin egallagan. Ularni namuna qilib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: Salomatlik maxsus testlardagi sayohat talablar va sinov me’yorlari shug‘ullanuvchi yoki qatnashchilarning yoshi, jismoniy tayyorgarligi, jinsi hamda sayohatlarga qiziqishlarini e’tiborga oladi. O‘z navbatida ularning jismoniy jihatdan rivojlanishi, salomatlikni yaxshilash, chiniqish kabi sifatlar hamda o‘zaro hamkorlik, do‘stlik, o‘lkani o‘rganish bilan Vatanga mehr-muhabbat, sadoqat, ekologik muhitni saqlashga ko‘maklashadigan nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, ularni boyitish fazilatlari ham mujassamlashtirilgan**.**

Ekologik sayohat Respublikamiz aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini yanada mustahkamlashga ma’lum darajada o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bu yo‘lda Respublikamiz Prezidenti va hukumati tomonidan olib borilayotgan turli–tuman tadbirlar, bevosita g‘amxo‘rliklar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular aholining salomatligini yaxshilash, talaba-yoshlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalashda ekologik sayohat o‘z mavqeyi va maqomiga erishmoqda. Bu jihatlar “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari majmuyida o‘z ifodasini topganligi muhim ahamiyatga egadir. Hulosa qilib aytkanimizda respublikamizning mustaqilligi tufayli va shaharlarning bugungi jamoli keskin ravishda o‘zgarib borishi tufayli aholi o‘z sayrlarini yurtimiz hududlarida o‘tkazmoqda. Shunday ekan ekologik sayohat mamlakat iqtisodini rivojlantirishda muhim omil bolib xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizning bahavo joylarini tashviqot va targibot qilish hamda koproq iqtisodiy foyda olish masalalarini ilgari surish zarur.

O‘zbekistonning geografik jihatdan joylashishi va iqlim sharoiti sayohatlarning deyarli barcha turlari uchun qulaydir.

С.Ш.Уразов – СамИСИ ассистенти,
Н.Асқарова – Гулобод ижтимоий-иқтисодий коллежи ўқитувчиси
С. **Эгамбердиев**– СамИСИ, МР-317 гуруҳ талабаси

ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Таълим хизматлари соҳасининг барқарор ривожланиши инсон капиталининг такомиллашувига, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан жадал тараққиётини таъминлашга олиб келади. Шу туфайли мазкур соҳага катта аҳамият берилиб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини эркинлаштиришни янада чуқурлаштириш, модернизация ва диверсификация қилиш, ишлаб чиқариш омилларидан оқилона фойдаланишни таъминлаш, юқори иқтисодий ўсиш суръатларига эришиш каби ижобий ўзгаришлар ҳам бевосита таълим хизматларининг сифати ва самарадорлигига боғлиқ.

Таълим хизматлари соҳасини инсоннинг камолоти, унинг шаклланиши ва ривожланиши билан боғлиқ ижтимоий соҳада кўрсатиладиган хизматлар турига киритиш мумкин[1].

Дунёда, хусусан бизнинг мамалакатимизда ҳам минглаб хизмат турлари бўлиб, уларни батафсил ўрганиш ва маълум даражада тартибга солиш ва таснифлаш лозимлигини тақоза этади. Жумладан, Бирлашган миллатлар ташкилоти (БМТ) хизматларининг 160 турини тан олади ва уларни 12 гуруҳга бўлади.

1. Ишчанлик хизмати-46 турда;
2. Алоқа хизмати-25 турда;
3. Инжиринг ва қурилиш хизмати-5 турда;
4. Дистрибъюторлик хизмати-5 турда;
5. **Умумтаълим хизматлари-5 турда;**
6. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш хизмати-4 турда;
7. Молиявий хизматлари-17 турда;
8. Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматлар-4 турда;
9. Туризм ва сайёҳлик хизмати-4 турда;
10. Дам олиш, маданий ва спорт билан боғлиқ хизматлар-5 турда;
11. Тарнспорт хизматлари-33 турда
12. Бошқа хизматлар 7-турда[2].

Хизматларни таснифлаш бўйича Халқаро валюта фонди (ХВФ) нинг фикрича, барча хизматлар иккига бўлинади: савдо қилинадиган ва савдо қилинмайдиган хизматлар. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш турлари 42 та номдан иборат бўлиб, уларнинг сони 2070 тани ташкил этади.

[1] Пардаев М.Қ. “Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари” монография Тошкент-2014 йил, 20 бет
[2] Арипов А.А. Казахстан в системе мировъх торговъх рънков. Алматъ: Университет “Туран”, 2000-с, 63

Таълим хизматлари бевосита хизмат кўрсатиш жараёнида истеъмол қилинадиган хизматлар туркумига киради. Бунинг характерли жиҳати шундаки хизмат сифатини ўша вақтнинг ўзида ҳис қилиш ва сезиш мумкин. Шуни эътироф этиш керакки, таълим хизматлари кўринмайдиган, инсон тафаккурига таъсир қиладиган хизмат турига ҳам киритиш мумкин.

Таълим хизматларини бошқаришда бошқарув усуллари тизимида умумий усуллар ажратилади. Уларга анъанавий равишда иқтисодий, маъмурий (баъзида уларни ташкилий деб атайдилар) ва ижтимоий-психологик усуллар кирадилар.

Усул-бу тадқиқот қилиш ёки таъсир кўрсатиш усулидир. Таълим хизматларига таъсир кўрсатиш нуқти назаридан эса усул деганда бошқариш функцияларини амалга ошириш учун бошқарув объектига таъсир ўтказиш усуллари тушунилади.

- функционал тизим ости объектларини бошқариш усули;
- бошқариш функцияларини бажариш усуллари;
- бошқарув қарорларини қабул қилиш усуллари.

Таълим хизматларини бошқариш усуллари бошқарув объектига таъсир кўрсатишнинг якунланган жараёнини таърифлайдилар. Таълим хизматларини бошқариш усуллари-бу қўйилган мақсадларга эришиш учун бошқарувчи тизимча-бошқарув субъектини бошқарилувчи тизимча-бошқарув объекти (ходим, жамоа, бошқарувнинг ижтимоий–иқтисодий объекти)га таъсир кўрсатиш усулларидир. Умуман олганда, таълим хизматларини бошқаришда бошқарув усуллари тизимида умумий усуллар ажратилади. Уларга анъанавий равишда иқтисодий, маъмурий (баъзида уларни ташкилий деб атайдилар) ва ижтимоий-психологик усуллар кирадилар.

Таълим хизматларини бошқаришнинг иқтисодий усуллари - бошқарув объектининг иқтисодий қонунлар талабларидан онгли равишда фойдаланишга асосланган иқтисодий манфаатларига таъсир кўрсатиш усулларининг мажмуасидан иборат бўладилар. Бундай таълим хизматларини бошқариш усуллари қўйидаги гуруҳлар бўйича тавсифланади:

- *таълим тизими ходимларни моддий рағбатлантириш тизими;*
- *таълим тизими ишининг сифати ва самарадорлиги учун жавобгарлик тизими;*

Ҳар бир таълим тизими ходим ишининг сифати ва самарадорлигини оширишига қаратилган ва шахс ва жамият муносабатларини уйғунлаштириш учун мотивация ва мувофиқлаштириш қуролларидан фойдаланиш йўли билан амалга ошириладиган ходимларни рағбатлантириш таълим хизматлари тизимини бошқаришнинг муҳим иқтисодий усули ҳисобланади.

Таълим хизматларини бошқаришнинг маъмурий усуллари меъёрий ва услубий ҳужжатлари тизимидан иборатдир. У ўз ичига қоидалар, йўриқномалар ва худди шундай узоқ вақт фойдаланадиган ҳужжатлар, ҳамда буйруқлар, фармойишлар, кўрсатмаларни олади.

Таълим хизматларини бошқаришда ташкилий-маъмурий усуллар

алоҳида ўрин тутади. Жумладан:

- таълим хизматлари тизимини функцияларини белгилайди;
- таълим тизимида кадрларни тўғри танлайди;
- таълим хизматлари тизимидаги буйруқлар, фармойишлар ишлаб чиқаради ва уларнинг бажарилишини назорат қилади;
- таълим хизматлари тизимида топшириқлар ва директив кўрсатмаларни бажармаётган структура ва шахсларга нисбатан мажбурий чораларни қўллайди.

Таълим хизматларини бошқаришда ташкилий-маъмурий усуллари ташкилий таъсир кўрсатиш ва фармойиш бериш усуллари шаклида намоён бўлади.

Таълим хизматларини бошқаришда ташкилий усулларнинг бу иккала шакли биргаликда қўлланилади, бир-бирини тўлдиради ва ривожлантиради.

Бизнинг фикримизча таълим хизматларини бошқаришда ижтимоий-психологик усуллари бошқарувга жамоадаги ижтимоий-психологик жараёнларни, ходимлар саломатлиги ва жамоадаги яхши аҳлоқий-психологик муҳитни сақлаб қолиш, қонунлар ва меъёрий ҳужжатлар талабларига риоя қилиш сифатида қўйилган мақсадларга эришиш учун қаратилган. Таълим хизматларини бошқаришда ижтимоий-рухий усулларнинг асосий мақсади таълим тизимида соғлом ижтимоий-руҳий муҳитни яратишдир. Бу усул ижтимоий-маънавий вазиятга таъсир этиш йўли билан кишиларнинг феъл-атвори, руҳиятини ҳисобга олиб уларнинг ижтимоий (социал) талабларини қондириш орқали бошқариш жараёнидир.

З.М.Базаров – СамИСИ ассистенти,
М.Х.Гадоева – СамИСИ талабаси

РЕСТОРАНЛАРДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ

Ҳозирги кунда овқатланиш корхоналарининг хизмат кўрсатиш соҳасидаги ўрни беқиёс десак адашмаган бўламиз.

Ўзбекистон жаҳоннинг хизматлар соҳаси ривожланиб бораётган етакчи мамлакатлар қаторига кириб бормоқда. Хусусан, ушбу соҳанинг барча тармоқлари юқори даражада ривожланиб, янада ўз қийматига эга бўлиб бораётгандиги бизга маълум. Дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, хизматлар соҳасининг ўсиши, замонавий иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Айни пайтда овқатланиш корхоналарининг хизмат кўрсатиш соҳасидаги ўрни беқиёс десак адашмаган бўламиз. Ушбу хизмат тури айни пайтда ривожланиб бораётган тармоқлардан бири ҳисобланиб, асосан туризмда ўзига хос ўринга эга. Жаҳоннинг гастрономик туризм

ривожланган мамлакатларида албатта овқатланиш соҳаси ҳам юқори даражада ҳисобланади. Хусусан ривожланган мамлакатлардаги сервис хизмати ўзига хос услуб ва ёндашувларга эга. Ривожланган мамлакатлар харидорларга овқатлантиришдаги хизмат кўрсатиш жараёнини қуйидаги гуруҳларга ажратади[1]:

- умумий столда хизмат кўрсатиш;
- кўмаклашувчи хизмат – қисман стол сервиси ва қисман ўз-ўзига хизмат кўрсатиш;
- ўз-ўзига хизмат кўрсатиш;
- ягона нуқта хизмати (буюртма бериш, буюртмани қабул қилиш ва тўлов);
- стулдаги хизмат ёки махсус хизмат.

Ривожланган Европа мамлакатлари рестонларида овқатлантириш сервисини ташкил этишда мижозларнинг ҳар қандай ҳатти ҳаракати асосий омил ҳисобланади.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, биз танлайдиган умумий овқатланиш корхонаси авваламбор тури ва мақсадига кўра маълум бир вақтни ҳам талаб этади. Масалан, шохона ресторанларда овқаталаниш 60-120 дақиқани талаб этар экан. Шундай экан мижозларга ушбу вақт давомида зериктирмаслик мақсадида турли хил дастурларни ишлаб чиқиш ҳам фойдадан ҳоли бўлмайди.

Ҳар бир юқорида белгиланган хизмат турига қараб унинг жойи буюртма бериш услуби ҳамда истеъмол услуби ҳам аниқланиши мумкин. Масалан, умумий столда мижоз киради ва столга ўтиради. Менюга қараб буюртма беради, фақатгина оффициант томонидан хизмат кўрсатилади, идишлар ходимлар томонидан териб олинади.

Кўмаклашувчи хизмат – бунда мижоз ташриф буюради ва одатда столга ўтиради. Меню буфетда ёки патносларда буюртма берилади. Хизмат комбинатсиялашган бўлади яъни ҳам офитсиант мижоз бир-бирларига хизмат кўрсатишади.[2]

Ўз-ўзига хизмат кўрсатиш – мижоз киритилади, таомларни танлайди ва ўз столига ўзи олиб боради ёки ташқарига олиб чиқиши мумкин. Идишларни йиғиштириш эса ҳар хил.

Ягона нуқта сервиси – мижоз киради, ягона жойда буюртма беради. Таомни ўзи олади ва хоҳласа кафеда ёки ташқарида кўчада овқатланади. Столни йиғиштириш эса ҳар хил бўлиши мумкин.

Ситудаги ёки махсуслаштирилган хизмат – мижоз қаерда бўлса таом шу ерга олиб борилади. Менюдан ёки буюртма асосида таом танланади. Мижоз жойлашган ҳудудга буюртма олиб борилади ва албатта ишчи ходим ёки мижоз томонидан тозаланади.

Умумий стол хизматига алоҳида тўхталадиган бўлсак, бунда стол атрофида ўтирган мижозларга хизмат кўрсатилади. Улар стол атрофида ўтирган ҳолда хизматни қабул қилиш имкониятига эгадир. Ушбу хизмат услубини яна бир неча турларга ажратишимиз мумкин[2]:

- Кумуш
- Инглизча
- Ликопча/Америкача
- Бутлер/Французча
- Русча
- Гуеридон (тагкурси)

Шунингдек, бу каби хизмат услубини барлар ва шунга ўхшаш тамаддихоналардан ҳам топишимиз мумкин.

Ушбу категорияда меҳмонлар маълум бир ҳудудга таклиф этилади ва қулай ўтиқизилади. Меню тақдим этилади ёки буюртма олиш учун кўрсатилади. Буюртмалар официантлар томонидан қабул қилинади. Кейин барча хизматлар столга кўрсатилади. Қуйидагилар уишбу категорияга тегишли бўлган сервис турлари:

- Инглизча сервис
- Французча сервис
- Кумуш сервис
- Америкача сервис
- Гердон сервис
- Тамаддихона сервиси
- Фақат ресторан ва барлар хизмат кўрсатиш даражаси ва кўрсатиладиган хизматлар номенклатураси бўйича люкс, олий ва биринчи классларга бўлинади. Корхоналарнинг қолган типлари классларга бўлинмайди.

Ресторан – бу озиқ-овқат маҳсулотларининг барча турларидан кенг ассортиментда мураккаб тайёрлаш технологиясига эга бўлган таомларни, шу жумладан буюртма бўйича тайёрланадиган таомларни, экзотик таомларни, ҳамирли кондитер ва булочка маҳсулотларини ишлаб чиқарадиган, кенг ассортиментда алкаголли, иссиқ ва совуқ ичимликларни, сотиб олинган маҳсулотларни, шу жумладан тамаки маҳсулотларини истемолчиларга таклиф қиладиган корхона. Ресторанларда тушликлар ва кечкурунги нонушта ташкил этилади.

Ушбу сервис турларининг ўзининг муҳим аҳамиятга эга эканлигини чет элдаги ресторанларда кўрсатиладиган хизматдан кўриниб туради.

Ресторан нафақат овқатланиш балки маданий дам олиш имконини берадиган овқатланиш обекти ҳисобланиб, унинг халқаро классда бўлиши ҳозирги кунда жуда муҳим омиллардан биридир. Ресторан секторини ривожлантиришда қуйидаги таклифларни инобатга олиш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси умумий овқатланиш соҳаси жаҳон стандартлари асосида ривожланиш учун катта имкониятларга эга ҳисобланади. Юқорида келтирилган ресторанлар ўзининг миллий брендига эга бўлиб, доимий кўплаб сонли мижозларига эга. Шунингдек, улар ўз фаолиятида мумтоз услублардан тортиб, янгича ёндашувларни ҳам амалга ошириб туришади. Бу омил ҳар бир бизнес корхонаси учун жуда муҳим ҳисобланади.

Умуман олганда ресторанлар овқатлантириш секторининг асосини ташкил этиб, юқоридаги стандартларга жавоб бериши зарур. Ўзбекистонда ягона стандардларни яратиш қуйидаги тавсиялар асосида амалга оширилиши зарур деб биламиз:

- халқаро стандардларни ўрганиш бўйича семинарлар ташкил қилиш;
- ресторанларнинг мамлакат ҳудудидаги рейтингини шакллантириш;
- ресторанлар фаолиятини тизимли йўлга қўйиш мақсадида турли қўлланмалар ҳамда видео дарсликлар яратиш;
-мамлакат умумий овқатлантириш соҳасида инновацион янгиликлардан самарали фойдаланиш;
- ресторан, кафе ва бар кабиларни жаҳон стандартлари асосида фаолиятини йўлга қўйиш;
- дунёнинг Топ ресторанлари фаолиятини таҳлил қилиш ҳамда мамлакатимизга мослаштириш;

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. www.aim.uz, [Узбекистонда умумий овқатлантириш корхоналари], (01.02.2019)
2. Ж.С Файзиев, З.М Базаров, “Сервис фаолияти”, Самарқанд 2016;
3. www.стат.уз, [2017 йилда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасининг ривожланиши], (02.01.2018).

А.Ж. Ашурова – студентка Международного Университета Туризма «Шелковый Путь»

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

В результате динамичного развития туристской индустрии, 21 век становится веком туризма. Туризм – одна из наиболее ведущих отраслей мировой экономики, и является одним из прибыльных видов бизнеса в мире. За такие быстрые темпы роста он признан экономическим феноменом столетия минувшего и ему пророчат блестящее будущее в грядущем столетии. Согласно прогнозу Всемирной Туристской Организации(ЮНВТО) рост туристской индустрии будет необратим, и в 2020году количество международных туристских посещений составит 1,6 биллиона единиц. Данная отрасль хозяйства является фундаментальной основой многих развитых и развивающихся стран мира. По данным ВТО, вклад ее в мировую экономику оценивается в 10,9% мирового валового внутреннего продукта. Путешествия и инвестиции обеспечивают свыше 11% международных инвестиций. Интерес к туризму предпринимателей объясняется рядом факторов: во-первых, для того, чтобы начать заниматься туристским бизнесом, не требуется слишком больших инвестиций; во-вторых, на туристском рынке успешно взаимодействуют крупные, средние и малые фирмы. При этом данный вид бизнеса позволяет

быстро оборачивать капитал, а также извлекать известные выгоды за счет валютных операций. Существует прямая связь между тенденциями в развитии индустрии туризма и общими экономическими, техническими и социальными достижениями. Растущий уровень жизни в развитых странах мира ведет к росту продолжительности отпусков работников и достаточно высокому уровню обеспечения, что оказывает значительное влияние на развитие туристкой отрасли, т.к. при увеличении свободного времени и роста материального благосостояния общества, возникают большие объемы спроса на турпродукты, тем самым возникает массовый туризм.

На конференции ВТО в Лиссабоне по результатам исследования «Tourism:2020 Vision» были выявлены 5 перспективных туристких направлений 21 века:

- ✓ Приключенческий туризм
- ✓ Круизы
- ✓ Экотуризм
- ✓ Культурно-познавательный туризм
- ✓ Тематический туризм

Человечество, наконец-то осознало губительное и глобальное последствия своей индустриальной деятельности. Развитие технологий, урбанизация, создание человечеством комфортных условий для жизнедеятельности, убийство природы и ее последствия, ежедневное рутинная работа, шум, загрязнение воздуха и др. негативные аспекты современной жизни заставляет людей временно, а иногда и на всю жизнь менять образ жизни, уединиться с природой, приобрести покой и отдых.

Количество «городов-миллионеров» если в середине XIX веков составил 4, в 1960 – 140, то в настоящее время их насчитывается более 300; всего лишь менее 1% пресной воды человек может использовать без дополнительной очистки. Предполагается в течении последующих 25 лет дальнейшее уменьшение пресной воды в 2 раза. Не остался в стороне и Продовольственный комплекс: на 70% снизилось содержание витаминов и микроэлементов в овощах и фруктов за последние 100 лет. Виной этому истощение почв и ГМО (генетически модифицированные организмы); Один человек создает в среднем 0,5 кг мусора в день. Слишком мало мусороперерабатывающих предприятий. Для разложения в природной среде бумаги требуется до 10 лет, консервной банки – до 90 лет, полиэтиленовый пакет до 200 лет, пластмассы до 500 лет. Для разложения фильтров сигарет требуется от 5 до 15 лет. Представленная общая статистика показывает как подвергается экология нашей страны медленному и неизбежному разрушению. Так в последние годы довольно часто встречается природно-ориентированная форма организации туризма – экологический туризм (экотуризм). Экотуризм представляет собой форму туризма, осуществляемая с целью познания дикой природы и культуры дестинации, не нарушающая при этом целостности экосистемы. Экологический туризм призван внести вклад в сохранение природных

ресурсов, охрану окружающей среды и социально-экономическое развитие туристической территории. Многие виды туризма благотворно влияют на социально-экономическое благополучие тех территорий, где развиваются, но зачастую приводят к экологическим и антропогенным проблемам. Экотуризм – это единственный вид туризма, который не приводит к изменению или ухудшению экологии и природных зон туристических территорий, а наоборот, создает условия для поддержания и сохранения природных ресурсов, что очень важно в современном мире, при существующей угрозе экологической катастрофы и безответственном отношении человека к природным ресурсам. Экотуризм существенно отличается от других форм своим положительным влиянием на устойчивое развитие природных территорий, выраженное в балансе экологический, социально-культурных и экономических воздействий туризма, которая способствует сохранению окружающей среды, имеет низкое воздействие от посетителей и обеспечивает благотворное активное участие местного населения.

Туризм само по себе является перспективным и высокодоходным отраслью экономики. Но экотуризм в настоящее время является одной из перспективных и быстро развивающихся секторов индустрии туризма, занимая одну из ведущих позиций. По оценкам многих экспертов, на долю экотуризма приходится уже более 10 -20% прибыли от всего туристического рынка. Туризм несмотря на его близость к природе и требовательность к качеству окружающей среды является индустрией, которая широко использует достаточно большое количество видов ресурсов. Поэтому быстрое развитие, характеризующееся громкими цифрами должно включить и показатели увеличения потребляемы ресурсов и выбрасываемых отходов. Именно с этих позиций, по охране окружающей среды, экотуризм является перспективным.

Останутся ли туристы довольны проведенным на курорте временем, в решающей степени будет зависеть от того, насколько условия отдыха и уровень обслуживания окажутся соответствующими ожиданиям. Поскольку первозданная природная среда – необходимое условие для приятного времяпрепровождения, ее сохранение становится важным экономическим фактором для индустрии туризма. Одним из шагов на пути к развитию экотуризма должно быть внедрение на законодательном уровне ограничений и правовых актов, чтобы предотвращать и минимизировать ущерб, который туризм наносит биологическому разнообразию. Такие меры должны включать контроль существующих действий, оценку воздействий на окружающую среду новых туристических проектов.

Например, выполнение общественных работ в качестве наказания за мелкие нарушения(ППД, нарушение общественного порядка, грабеж); строго контролировать поведение иностранных туристов, путем внесения всей информации об их деятельности в международную в базу данных; для улучшение городской экологии немалозначным было б внедрение по

республике Дня Без Транспорта, когда все жители могли б передвигаться пешком, либо на велосипедах. Для того чтобы понять насколько важным является это мероприятие , проводимое в масштабных размерах, можно привести следующие факты: средний легковой автомобиль выбрасывает в год столько углекислого газа, сколько весит сам; около 280 наименований вредных веществ содержится в выбросах автотранспорта, в результате на 4 года меньше живет средний житель мегаполиса, по сравнению с теми, кто живет в сельской местности и т.д.

Таким образом, на данный момент основными направления развития экотуризма в Узбекистане являются:

- следует поддерживать проекты индустрии туризма, которые учитывают культурные и другие особенности наследия нации и охране окружающей среды.

-подготовка высококвалифицированных кадров в этой области.

-разработка широкого ассортимента новых продуктов экотуризма, использование гибкой целевой политики

-привлечение отечественных и иностранных инвестиций в развитие экотуризма, создание отдельных экозон, заповедников.

Реализация вышеуказанных предложений и их применение способствует не только развитию экотуризма, но и в целом развитие туристкой индустрии в Узбекистане.

И.Х.Ниматов – "Ипак йўли" туризм халқаро университети ассистенти,
А.Ш.Саидов – "Ипак йўли" туризм халқаро университети талабаси

ЎЗБЕКИСТОНДА "ҲАЛОЛ ТУРИЗМ" СТАНДАРТИНИНГ ЖОРИЙ ҚИЛИНИШИНИНГ АҲАМИЯТИ

Ўзбекистон жуда катта туризм ва рекреация салоҳиятига эга, унда жами 7,4 минг маданий мерос объектлари мавжуд, улардан 209 таси тўртта музей шаҳарлар — «Хива шаҳридаги Ичан-қалъа», «Бухоро шаҳрининг тарихий маркази», «Шаҳрисабз шаҳрининг тарихий маркази», «Самарқанд шаҳри» ҳудудида жойлашган бўлиб, ЮНЕСКО бутунжаҳон мероси рўйхатига киритилган.

2010 — 2017 йиллар давомида туризм хизматлари экспорти ҳажми икки баравар ошди ва 2017 йилда 546,9 миллион АҚШ доллари, 2018 йилда эса — 1 041 миллион АҚШ долларини ташкил этди. 2016 йилгача хорижий ташриф буюрувчилар сонининг ўсиш суръати ўртача йиллик 8 фоизни, 2017 йилда — 7 фоизни ташкил қилиб, 2,69 миллион нафардан ошди. 2018 йил якунлари бўйича республикага 5,3 миллион хорижий туристлар ташриф буюрди. Хусусий секторни қўллаб-қувватлаш ва муҳофаза қилишга қаратилган чоралар кўрилгани натижасида, 2015 йилда 398 тани ташкил қилган туризм ташкилотлари сони 2018 йил якуни бўйича

950 тага, меҳмонхона хўжаликлари сони — 661 тадан 900 тага етган.[1]

Маълумотларга кўра, жаҳонда ислом динига эътиқод қилувчи 1,6 миллиард аҳоли истиқомат қилади, шундан қарийб 150 миллиони ҳар йили саёҳат қилади.

Мамлакатимизга ҳар йили 10 миллионга яқин сайҳларни қабул қилиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун эса, Ўзбекистонда сайёҳларни қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда амалий ишлар амалга оширилмоқда. Ҳамёнбоп турар жойлар ва овқатланиш шаҳобчаларини қуриш, транспорт ҳаражатларини янада камайтириш, камчиқимликни хуш кўрувчи, исроф қилишни ёмон кўрувчи мусулмон кишиларни Ўзбекистонга чорлайди.

“Ҳалол саёҳат” бўйича “Crescent Rating” [2] ташкилоти томонидан тузилган рейтингда Ўзбекистон 2017 йил 28 поғонани эгаллаган. Рейтингда мамлакатимизга “хавфсиз саёҳат” (84.0), “Ибодатхонага кириш эркинлиги” (80.0), “Овқатланиш имкониятлари ва кафолатлари” (70.0) йўналишларида юқори баҳоланган. Бироқ, “Оилавий таътил” (44.4), “Сайёҳларнинг келиши” (21.2), “Аэропорт имкониятлари” (48.3), “Яшаш шароитлари” (33.2), “Коммуникация имкониятлари” (19.0), “Виза” (50.0), “Мусулмонлар учун имкониятлар” (25.0) йўналишида эса ўрта ва қуйи даражада баҳоланган.

Ушбу рейтинг 2019 йил яхшиланишига умид бор, сабаби Ўзбекистонда 2019 йил 1 февралдан бошлаб 45 та давлат фуқаролари учун 30 кун муддатга визасиз режим жорий қилинади. Бундан ташқари, 2019 йил 1 февралдан бошлаб 76 та давлат фуқаролари электрон кириш визасини олиш имкониятига эга бўладилар.

Дунё аҳолисининг тахминан 1,8 миллиарди, яъни ер аҳолисининг 24 фоизини мусулмонлар ташкил этишига этибор берадиган бўлсак.

Ҳозирги кунда кўпгина мамлакатлар ҳалол туризм стандартига ўтиш ишларини кўчайтира бошлашган. Бу стандарт нафақат мусулмон динига эътиқот қиладиган давлатлар фуқоролари балки тиббиёт томонидан ижобий таърафлама тасдиқланганлиги билна ҳам ажралиб туради. Бунга мисол қилиб, Жанубий Кореяга Хитой мамлакатидан сайёҳлар оқими кескин пасая бошлаганлиги сабабли ҳалол туризмни ривожлантиришга катта эътибор қарата бошлаганлиги ҳақида “Religion News Service” нашри хабар бермоқда.

Янги тадқиқотга кўра, бутун дунё ёш мусулмонлари яқин йилларда туризм ва саёҳатлар харажатларини икки баробарга оширишади. Бу эса ислом туризми соҳасига ҳақиқий "бум"ни бошдан кечириш ва 300 миллиард доллар кўрсаткичга эришиш имконини беради.

Сўнгги вақтларда ҳалол туризмда ўсиш даври кузатилмоқда - аэропортлар, ресторанлар ва меҳмонхоналар мусулмонлар учун алоҳида шароитлар яратилмоқда, шу билан бирга ҳалол меню ва намоз ўқиш учун

[1] https://kun.uz/news/2018

[2] http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/5890

махсус жойлар билан таъминламоқда.

Mastercard билан ҳамкорликда тадқиқот ўтказган Halal Trip агентлиги директори Фазал Бахардиннинг сўзларига кўра, катта ёшли мусулмонлар йилда бир марта оила аъзолари билан саёҳат қилишади. 20-36 ёшдаги мусулмонлар эса йилда бир неча марта хорижга чиқади, дейилади The Daily Mail'да. Экспертларнинг фикрича, яқин 5-10 йилда бутун дунё мусулмонларнинг аксарияти ўз ҳаётининг пул топиб, сарф қиладиган босқичга келади.

Шунингдек тадқиқотда айтилишича, дам олишга чиқаётган ёш мусулмонлар орасида Индонезия, Миср ва Қозоғистон фуқаролари етакчилик қилмоқда. «Ҳалол» белгиси остида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга Европа Иттифоқи, АҚШ, Буюк Британия, Австралия, Канада, Хитой, Ҳиндистон, Лотин Америкаси давлатлари, Янги Зеландия ва Таиланд каби мамлакатларда ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бундан ташқари, дунёда мусулмон аҳлининг ортиб бориши (тахминан 1,8 млрд одам, ер аҳолисининг 24 фоизи дегани) «Ҳалол» белгиси остида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга талабнинг янада ошишини таъминламоқда.

Шунингдек, Ҳалол туризм индустрияси жадал суръатларда ривожланаётган соҳа бўлиб, бу бозорнинг йиллик ҳажми 126 миллиард АҚШ долларини ташкил этмоқда ва 2020 йилга бориб камида уч баробар ортиши кутилмоқда.

«Ўзстандарт» агентлиги томонидан «Ҳалол» стандартининг қабул қилиниши, тадбиркорларимиз томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг сифати ва хавфсизлигини юқори стандарт талаблари асосида таъминлашга замин яратади.

Бу борада Узбекистонда хам кўпгина ишлар қилинмоқда, туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси томонидан Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги билан ҳамкорликда “Ҳалол туризм” мавзуида тренинг ташкил этилди. Мазкур тренингни Ислом ҳамкорлик ташкилотининг Исломий давлатлар ижтимоий, иқтисодий, статистик тадқиқотлар ва тренинг маркази мутахассислари Ёсин Зулфиқор ўғли ва Цем Тинтин билан соҳа ходимлари билан семенар тренинг бўлиб ўтди[1].

Санкт-Петербург ва Россия Шимоли-Ғарбий минтақаси ва Ўзбекистон Республикаси Мусулмонлари идоралари томонидан “Ҳалол туризм” ривожлантиришга қаратилган ишлар, бунда Ўзбекистон аниқ йўналишлардан бири. Булар Бухоро, Самарқанд ва Ўзбекистоннинг турли шаҳарлари ҳамда аҳоли пунктлари[2].

Туркия давлати билан Турикия давлатидаги туризм соҳасида фаолият йўритаётган ташкилотлар тажрибасини урганиш борасида қилинаётган ишлар.

[1] https://kun.uz/news/2018/11/13/toskentda-alol-turizm-bujica-trening-taskil-etildi

[2] https://kun.uz/news/2018/09/29/sankt-peterburg-va-uzbekiston-musulmonlari-idoralari-alol-turizmni-rivozlantiris-niatida

Президент Шавкат Мирзиёев томонидан қабул қилинган «Мева-сабзавот маҳсулотлари, узум, полиз, дуккакли экинлар, шунингдек, қуритилган сабзавот ва меваларни маҳаллий экспорт қилувчиларни қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарори асосида «Ўзстандарт» агентлиги томонидан тадбиркорларга янада қулайлик яратиш мақсадида «Ҳалол» стандарти қабул қилиниши.

26 февраль 2018 йил санасида Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ташаббуси билан Испаниядан «Halal International Tourism» компанияси билан «Ҳалол туризм» мавзусидаги семинар-тренинг.

Бунга ўхшаш мисоллари кўблаб келтириш мумкун, айниқса Ўзбекистон Республикаси президентининг 05.01.2019 йилдаги № 5611 сонли Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида фармони.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон туризмини ривожлантириш учун замонавий услубдаги янгидан-янги туристик объектлар барпо этилмоқда. Буларга Самарканд шахрида "Samarkand City", Тошкент шахрида "Tashkent City", "Humo Arena" муз саройи ва "Amirsoy" мажмуасини қуриш жараёни олиб борилмокда. Бундан кўришимиз мумкунки мамлакатимизда яқин келажакда эндиликда нафақат маъданий-тарихий туризм балки рекреацион туризм ҳам ривожланишини кўришимиз мумкун. Бу мамлакатимиз туриз соҳаси учун янги йўналиш очилиши демакдир. Бундан ташқари мамлакатимиз бой туристик-рекреацион ресурсларга бой ҳисобланади.

Булардан хулоса килиб шуни айтиш мумкинке,

- ислом динига эътиқод қилувчи мамлакатлар аҳолиси учун туроператорлар томонидан “ҳалол туризм” стандартига ҳос тур-пакетларини тақдим қилиш;
- халқаро ва маҳаллий аҳамиятга эга бўлган аэропортлар имкониятини кенгайтириш ва уларнинг ҳар бирида намозхоналар ва ҳалол овқатланиш учун махсус жойлар ажратиш;
- жойлаштирш хизматларини кўрсатучи жойлаштириш воситаларида “ҳалол туризм” стандартларини жорий қилиш;
- овқатланиш ташкилотларини “Ҳалол” сертификатлаш тизимини жорий этиш;
- оилавий саёҳат қилиш имконитларини яратиш.

Булардан ташқари меҳмонлар бориб кўриши, хордиқ чиқариши мумкун бўлган ва мехмонларга хизмат кўрсатувчи барча объектларда “Ҳалол туризм” стандартларини жорий этишимиз лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. www.hidoyat.uz
2. “Белая книга туризма” 2018 й.
3. Ўзбекистон Республикаси президентининг № 5611 сонли фармони Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида.

III ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

Қ.Ж. Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
Б.Ш.Мусаев – СамИСИ катта ўқитувчиси,
Н.Сатторова – СамИСИ магистранти

ЗАМОНАВИЙ МЕНЕЖМЕНТ ТИЗИМИДА КАДРЛАР МАСАЛАСИ ВА РАҲБАРЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Замонавий менежмент тизимида юқори бошқарув самарадорлигига эришиш учун кадрлар масаласи долзарб масала ҳисобланади. Чунки, корхоналарда юқори натижани қўлга киритиш албатта раҳбарлар томонидан танланган малакали кадрлар орқали эришилади. Бу борада иқтисодиётимиздаги муаммо тўғрисида мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёев томонидан “Бугун оддий бир ҳақиқатни тан олишимиз керак. Давлат идораларида малакали ва етук кадрлар етишмаяпти” [1] деб таъкидлаган эдилар. Бу эса, замонавий менежмент тизимида кадрлар масаласида муаммолар мавжуд бўлиб, ушбу муаммони ҳал этиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Замонавий менежмент тизимида кадрлар масаласини ҳал этиш бу режалаштиришдан бошланади. Корхоналарда кадрларни режалаштириш уч босқичдан иборат бўлиб, улар бир-бирини тўлдириб туради. Яъни:

1) мавжуд меҳнат ресурсларини баҳолаш;
2) кадрларга бўлган талабни баҳолаш;
3) меҳнат ресурсларини балансини шакллантириш ҳамда ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш.

Замонавий менежмент тизимида кадрларни режалаштириш бир қатор босқичлардан иборат бўлиб, улар қуйидагилардан иборат. Жумладан, *биринчи босқичи* ишчининг кучли ва кучсиз томонларини таҳлил қилишни ўз ичига олади.

Меҳнат ресурсларини режалаштиришнинг *иккинчи босқичи* кадрларни баҳолаш, яъни, айнан корхона муаммоларини еча оладиган ишчиларини баҳолашни ифодалайди.

Кадрларни режалаштиришнинг *учинчи босқичида* меҳнат ресурсларини ривожлантириш бўйича аниқ режа ишлаб чиқилади ва у ишчиларни ишга ёллаш, тайёрлаш бўйича тадбирларни ўз ичига олади. Корхонанинг

[1] Мирзиёев Ш.М. Олий мажлисга мурожаатномаси. 2018 йил, 28 декабрь.

кадрлар сиёсатини режалаштириш жараёнида, унинг раҳбарлари масаланинг юридик жиҳатларига диққатларини қаратишлари керак. Масалан, уларга кўра иш куни, ижтимоий мухофаза, санитария нормалари ва техника хафвсизлиги қоидалари белгиланади. Иш таҳлилига, ишчиларнинг ҳуқуқлари, ишлаш шароитлари, ишнинг ижтимоий базаси ва бошқа саволлар киритилиши. Бунда қуйидаги асосий эҳтиёжлар акс эттирилади:

- ✓ иш турлари;
- ✓ ишнинг умумий таснифи, унинг берилиши, худди шундай ишлардан фарқи;
- ✓ ишнинг жисмоний жиҳатлари;
- ✓ кадрлар малакасига талаблар;
- ✓ кадрларнинг бандлик шартлари.

Ишчининг самарали иш бажариши учун қуйидагича талабларни аниқлаш зарур. Бу маълумотлар гуруҳига қуйидагилар киради:

- ✓ кадрларнинг билим даражаси;
- ✓ кадрларнинг жисмоний ҳолатлари;
- ✓ кадрларнинг тажрибага эгалиги;
- ✓ кадрнинг тиришқоқлиги;
- ✓ кадрнинг қизиқиши;
- ✓ кадрнинг характер белгилари (чаққонлик, мустаққиллик ва бошқалар).

Ривожланган давлатларда тойифа ва йўналиши бўйича менежерларнинг тавсифи ва сифат моделлари ишлаб чиқилади. Масалан, Англияда менежерларга қуйидаги талаблар қўйилади:

1. бошқаришнинг ташкилий тузилмалари ҳақида етарлича билимга эга бўлиши;
2. замонавий ахборот технологияларидан фойдалана олиши;
3. самарали бошқариш истеъдодига эга бўлиши;
4. ораторлик (сўзамоллик) истеъдодига эга бўлиши;
5. ходимлар орасидаги муносабатларни ўзаро мослаштириш қобилиятига эга бўлиши;
6. кадрларни тайёрлаш ва тарбиялаш билимига эга бўлиши;
7. ўз-ўзини баҳолаш истеъдодининг мавжудлиги;
8. малакасини ошириш ниятида ўқиш.

Англияда танлов ҳайъатига раҳбар ўринбосарларидан бири ёки бўлинма бошлиғи ва кадрлар хизмати ходимлари киради.

АҚШда эса менежерлардан 8 та сифат талаб қилинали:

1. бошқарув санъатига эга бўлиш;
2. тенг бўлиш;
3. илғор бўлиш;
4. низоли вазиятларни ҳал қила олишлик;
5. турли қарорларни қабул қилиш;
6. ахборотлар билан ишлаш;
7. ресурсларни тақсимлаш;

8. тадбиркор бўлиш.

Собиқ СССРда бошқарув кадрларини танлашда тўрт асосий талабга риоя қилинар эди:

1. сиёсий етуклик;
2. маънавий барқарорлик;
3. ишни билиш;
4. ташкилотчилик қобилиятининг мавжудлиги.

Кичик бизнес корхоналарида менежер бошқарув фаолиятини амалга оширади ва корхонада менежер сифатида у жамоанинг бошқа аъзоларига (ижрочиларга) таъсир кўрсатиш орқали ижобий меҳнат натижаларига эришади. Бу жараёнда бошқарувнинг бир қанча вазифаларини ҳал қилишга тўғри келади ва бунда бу вазифалар орасидан энг муҳимларини ажратиб олиш қобилиятига эга бўлиши керак. Бундай вазифалар ичида энг асосийси қуйидагилар ҳисобланади:

1. Бошқарув қарорларини тайёрлаш, қабул қилиш ва амалга ошириш. Бу менежернинг бош функциясидир. Алоҳида ҳуқуқ - бошқарув қарорлари қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган менежер, айни вақтда, уларнинг оқибатлари учун ҳам жавоб беради.

2. Ахборот билан ишлаш. Оқилона бошқарув қарори қабул қилиш учун корхонанинг ривожланиши ҳақида ишончли иқтисодий-бошқарув ахборотини олиш ва унга ишлов бериш лозим. Менежер қанча тўлиқ ахборотга эга бўлса, у зарур ахборотни ижрочиларга шунча аниқ етказиши мумкин. Менежер ишининг натижаси ана шу омилга жуда боғлиқ бўлади.

3. Раҳбар сифатида фаолият кўрсатиш. Бу ташкилот доирасида ва ундан ташқарида ишга доир муносабатларни шакллантириш, меҳнат жамоаси аъзоларини меҳнатга рағбатлантириш, уларни ташкилотнинг амалий ва стратегик мақсадларига эришишга йўналтиришни ўз ичига олади.

Оқилона раҳбарлик мавжуд муаммоларга нисбатан ўз муносабатини бошқалар билан ўртоқлашиш, уларни қўйилган мақсадларга эришишга рағбатлантириш қобилиятини, яъни одамларни эмас, балки одамлар билан бирга бошқаришни назарда тутади. Одамлар ўз раҳбари фақат ишлаб чиқариш жараёнига қараб мўлжал оладиган профессионал-технократ эмас, балки тегишли ижтимоий-психологик тайёргарликка эга, инсонпарвар раҳбар бўлишини хоҳлайди. Унинг бошқарув фаолиятида инсон омили, ходимларга эътибор биринчи ўринда туриши лозимки, бу («инсон-инсон» тизимига кирадиган) маҳсулот сифатини оширишда жуда муҳимдир.

Одамлар ҳам, вазиятлар ҳам ўзгарувчан бўлади. Шу боисдан ҳам бошқарув кадрлари уларга ўз вақтида мослашиш учун етарли даражада мослашувчан бўлиши керак. Вазиятни тушуниш ва инсон ресурсларини қандай бошқаришни билиш оқилона раҳбарликнинг муҳим унсурларидандир. Буларнинг барчаси бошқарув иши муайян шахснинг бошқарув фаолиятига касбий лаёқатини белгилайдиган ўзига хос шахсий фазилатларни тақозо этувчи инсон фаолияти турлари қаторига киришидан

далолат беради.

Бугунги кунда республикамизда бошқарув кадрларига қўйиладиган бир қанча талаблар мавжуд. Бундай талабларга қуйидагилар киради:

1. маънавий етуклик;
2. интизом ва меҳнатга бўлган муносабат;
3. билимлилик;
4. муайян шахсий фазилатларга эгалик;
5. ахлоқ қоидаларига риоя қилиш;
6. кўникмалар ва ташкилотчилик қобилияти;
7. бошқариш самарадорлигини таъминлай олиши.

Маънавий етуклик. Бу хусусияти жуда муҳим ҳисобланиб, бунда сиёсий, ҳуқуқий етукликка эга бўлиш керак. Шунингдек, юқори савия ва онглилик, ходимларни ватанпарварлик руҳида тарбиялай олишга қодирлик, топширилган иш учун шахсий жавобгарликни ҳис қилиш, ҳалоллик, виждонлилик, шахсий манфаатларни жамоа манфаатларига бўйсундира олишга қодирлик, кишиларга нисбатан меҳирли ва эътиборли бўлиш, ташаббус ва илғорликни қўллаб-қувватлаш қобилияти, принциплиликга эга бўлишлик ва бошқалар.

Интизом ва меҳнатга бўлган муносабат. Бошқарув кадрларига қўйиладиган бу талаб жуда муҳим ҳисобланиб, меҳнат унумдорлигига ва бошқарув самарадорлигига таъсири кучли ҳисобланади. Чунки, биргина раҳбарнинг беғамлиги юзлар, минглаб кишилар тақдирига, уларнинг иш қобилиятига салбий таъсир этади. Шунинг учун раҳбар меҳнатсевар, жамоа ўртасида интизомни йўлга қўя олиш, ходимларда меҳнатсеварликни тарбиялай билиш керак.

Менежернинг билимлилиги. Маълумки, менежер бошқа шахсларга таъсир кўрсатиш орқали ўз меҳнати натижаларига эришади. Шу боис у энг аввало, ижтимоий психология соҳасида билимларга эга бўлиши, шунингдек замонавий бошқариш усулларини ва ўз касбининг хусусиятларини билиши лозим. Шунингдек, иқтисодиётни билиши, техника ва технологияни билиши ҳамда истиқболни олдиндан тасаввур эта олиши керак бўлади. Раҳбар аниқ, чуқур ва кенг билимга эга бўлиши, уни доим тўлдириб ва янгилаб бориши керак. Акс ҳолда у обрў қозона олмайди ва ходимларнинг ишончига сазовор бўла олмайди.

Муайян шахсий фазилатларга эгалик. Бунда раҳбар ностандарт фикрлаши, мақсадга эришиш йўлида тиришқоқлик ва қатъиятлилик, ташаббускорлик, олган мажбуриятлари ва берган ваъдаларини бажара олиши, ақллилик, одиллик, хушмуомалалик, ўз ишини пухта бажариш, одамлар билан тил топа олиш, ҳазил-мутойиба ҳиссига ва яхши соғлиққа эга бўлиши керак.

Ахлоқ қоидаларига риоя қилиш. Энг аввало, иш муомаласи, ахлоқ қоидаларига риоя қилиш бошқарув кадрларининг иш принципига айланиши лозим. Иш муомаласи ахлоқи қоидалари қуйидагилардан иборат:

- ✓ даромадни ошириш атроф муҳитни ифлослантириш ёки вайрон қилиш ҳисобига эришилмаслиги керак;
- ✓ рақобат курашида фақат йўл қўйилган усулларни қўллаш, яъни бозор ўйини қоидаларига риоя қилиш лозим;
- ✓ ресурсларни оқилона тақсимлаш;
- ✓ ишда ва ҳаётда ахлоқ қоидаларига риоя қилишда шахсий ўрнак кўрсатиш;
- ✓ интизомлилик ва ахлоқий етуклик.

Менежернинг кўникмалари ва ташкилотчилик қобилияти. Раҳбар ахборотдан, вақтдан ва одамлардан оқилона фойдаланиб, юксак натижаларга эришишни таъминлайди ва ўзи раҳбарлик қилаётган корхонанинг рақобатбардошлигини муттасил ошириб боради. Бунда бошқарув кадрлари қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак:

- қўл остидаги ходимларнинг феъл-атвори ва ўзига хос жиҳатларини аниқлай олиш;
- жипслашган жамоани вужудга келтира олиш;
- мақсад сари интилувчанлик;
- ходимларни баҳолаш, танлай олиш улардан самарали фойдаланишни таъминлай олиш;
- ўз жамоасининг ривожланиш истиқболларини олдиндан кўриб, таъминлай олиш;
- тадбиркорлик ва ташаббускорлик;
- кутилмаган вазиятларда бошқариш қобилиятини йўқотмаслик;
- атрофдагиларга таъсир кўрсатиш, уларни ишга ғайратлантира олиш.

Бошқариш самарадорлигини таъминлай олиш. Бунда раҳбар натижадорликка эътибор қаратиб, қўйилган мақсадларга энг кам харажат (энг кам ресурс, меҳнат, вақт) сарфлаб, юқори натижаларга эришишни кўзлаш лозим.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, хулоса қиладиган бўлсак, агар бошқарув кадрлари келтирилган талабларнинг маълум қисмига жавоб бермаса, бунда раҳбарларнинг имкониятлари чекланган бўлади. Бундай шароитда раҳбарларнинг барча шахсий фазилатларининг тўла намоён бўлишига тўсқинлик қилаётган омилларни, чеклашларни аниқлаб уларни бартараф этишга эътиборни қаратиш лозим. Шунинг учун бу борада Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек “... барча даражадаги раҳбарлар ва халқ депутатлари, барча етакчилар ўз фаолиятини танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик асосида ташкил этишларини бугун ҳаётнинг ўзи талаб этмоқда”[1] деган гаплари ҳар бир раҳбар учун дастури амал бўлиши керак.

[1] Мирзиёев Ш.М. Олий мажлисга мурожаатномаси. 2018 йил, 28 декабрь.

Б.О. Турдиев– Давлат божхона қўмитаси Божхона тўловлари бошқармаси бошлиғи ўринбосари, божхона хизмати полковниги,
Ғ.Т.Хатамов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, 2-босқич тингловчиси

ТАШҚИ САВДОНИ БОЖХОНА ВОСИТАСИДА ТАРТИБГА СОЛИШНИ ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИ

"***Барча ривожланган давлатларда божхона кўриги хавф-хатардан огоҳ этиш тизими орқали амалга оширилади. Бу ҳам давлат ресурсларини, ҳам тадбиркорларнинг вақтини тежайди. Лекин бу тизим бизда ҳанузгача жорий этилмаган. Келгуси йилдан бошлаб тадбиркорлик субъектлари учун божхона кўригида хавф-хатардан огоҳ этиш тизими, яъни тадбиркорлар қанчалик ҳалол эканига қараб, уларни "яшил" ва "қизил" йўлаклар орқали ўтказишни жорий этамиз***"[1].

Ш.Мирзиёев

Ўзбекистон мустақил равишда ўтган қисқа мазмунли тарихий даврда давлат сифатида қарор топиши юзасидан улкан самарали ижобий ишлар амалга оширилди. Мустақил Ўзбекистон ташқи савдосининг ривожланиш тарихига назар ташлайдиган бўлсак, уни шартли равишда 2 босқичга бўлишимиз мумкин. Биринчи босқич дастлабки йигирма беш йилни ўз ичига қамраб олиб, унда асосий эътибор маҳаллий тадбиркорларни шакллантириш, рақобатбардошлигини ошириш ҳамда халқаро бозор конъюнктурасининг салбий таъсирларидан ҳимоялашга қаратилган бўлса, иккинчи босқичда маҳаллий тадбиркорларга бюрократик тўсиқларни олиб ташлаш, барча тадбиркорлик субъектларига тенг шарт-шароитлар яратиш бўйича жадал ислоҳотларни давом эттиришдан иборат. Ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштиришнинг дастлабки босқичида бир қатор энг муҳим масалаларни ҳал этган меъёрий база ишлаб чиқилди ва амалга киритилди. Корхоналарнинг ташқи бозорга мустақил чиқиш ҳуқуқи қонун билан мустаҳкамлаб қўйилди. Ташқи бозорларга чиқиш шартлари мулкчилик шаклидан қатъи назар, барча хўжалик юритувчи субъектлар учун бир хил қилиб белгиланди. Шу билан бирга, давлат ташқи иқтисодий фаолиятни мақбул даражада тартибга солиб боришни тақозо этади. Дунёда ташқи савдони тартибга солиш борасида бир қатор илмий қарашлар мавжуд. Шу жумладан: Россия Федерациясининг айрим мутахассисларининг фикрича, Ташқи савдони амалий жиҳатдан тартибга солиш масалалари асосан божхона тартиботларига боғлиқ. Божхона тартиботлари кўпинча тарифли ва нотариф тартибга солиш усуллари орқали амалга оширилади. Тарифли тартибга солишда божхона божлари воситасида ташқи савдога

[1] Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси www.press-service.uz

таъсир кўрсатилса, нотариф тартибга солишда 50 га яқин турдаги таъқиқлар, чекловлар, квоталар, лицензиялар каби воситалардан фойдаланилади. Дунё мамлакатларида ушбу усулларни уйғунликда қўллаган ҳолда ташқи савдо тартибга солиб турилади.

Бутунжаҳон савдо ташкилоти мутахассисларининг фикрича, божхона орқали тартибга солиш натижасида давлат бюджетига ундириладиган тушумларни ошириш, миллий иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, айрим ишлаб чиқариш соҳаларининг янада кўпроқ ривожланишига кўмаклашиш, рақобатбардошлиги паст бўлган соҳаларни ҳимоялаш каби мамлакатнинг ички масалалари ҳам ҳал қилинади.

Дунё хўжалиги ривожланишига муҳим омил сифатида таъсир қилувчи ташқи савдо фаолиятини ривожлантириш ва тартибга солиш бўйича жаҳон ҳамжамияти томонидан махсус халқаро ташкилотлар тузилган. Ушбу ташкилотлар халқаро савдо битимлари тузилиши ва бажарилиши устидан назорат қилишнинг умумқабул қилинган халқаро қоидаларга риоя этилишини ташкиллаштиради.

Юқорида билдирилган илмий ва амалий фикрлар ҳамда дунёнинг ривожланган мамлакатлари тажрибасидан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистонда ҳам “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида” қонун қабул қилинган. Унга кўра, ташқи иқтисодий фаолиятнинг йўналишлари мавжуд бўлиб, улар:

халқаро иқтисодий ва молиявий ҳамкорлик;

ташқи савдо фаолияти;

чет эл инвестицияларини жалб қилиш;

Ўзбекистон Республикасидан ташқаридаги инвестиция фаолияти. Ушбу йўналишлар ичида божхона хизматлари ташқи савдо фаолиятини тартибга солиш билан кўпроқ шуғулланади. Ташқи савдо – халқаро товарлар, ишлар (хизматлар) савдоси соҳасидаги тадбиркорлик фаолиятидир.

Тадбиркорлар томонидан амалга оширилаётган экспорт-импорт операциялари бўйича иқтисодий ҳавфсизликни таъминлаш ва давлат бюджети даромадлар қисмига тушумларни тушириш мақсадида божхона хизматлари ташқи савдони тартибга солиб туради. Ҳозирги кунда дунёда ташқи савдо ҳажми ва унинг таркиби жадал ривожланиб, ўзгариб бораётганини ҳисобга олиб ҳамда дунё мамлакатлари тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистонда ҳам божхона хизматларининг фаолиятини такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Дунёда халқаро савдони тартибга солиш бир нечта кўп томонлама тузилган халқаро ҳуқуқий – меъёрий ҳужжатлар доирасида амалга оширилади, шу жумладан:

- ГАТТ (Тарифлар ва савдо бўйича бош келишув)
- ВТО (Бутунжаҳон савдо ташкилоти)
- ГАТС (Хизматлар савдоси бўйича бош келишув)
- ТРИПС (Интеллектуал мулк ҳуқуқи савдоси бўйича келишув)

Ўзбекистон юқорида санаб ўтилган халқаро ҳужжатларнинг ҳеч бирига қўшилмаган. Ҳозирги кунга қадар мамлакатимиз иқтисодий интеграциянинг дастлабки босқичларидан бўлган МДҲ доирасидаги "Эркин савдо зонаси тўғрисида"ги келишув ҳамда 46та узоқ хорижий давлатлар билан халқаро миқёсдаги савдо иқтисодий муносабатларда "Энг кўп қулайлик яратиш тўғрисида"ги келишувларга аъзо бўлиб кирган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2017 йил 22-25 ноябрда Корея Республикасига ташрифи чоғида Жанубий Корея давлати Ўзбекистоннинг Бутунжаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш жараёнлари режасини тузишда кўмаклашиши бўйича келишиб олинган. Ўзбекистоннинг ушбу ташкилотга киришининг устунлик ҳамда ўзига хос камчилик жиҳатлари ҳам мавжуд.

Бу борада профессор Н.Сирожиддинов шундай фикр билдирган "Мен бутунжаҳон савдо ташкилотига (БЖСТ) аъзо бўлиш тарафдориман. БЖСТнинг мақсади – унга аъзо давлатлар савдо сиёсати тартибга солинади ва халқаро савдо либераллаштирилади. Унинг вазифалари эса – халқаро савдонинг умумқабул қилинган нормаларини ўрнатишдан иборат. Халқаро меҳнат тақсимотига асосланган халқаро савдо унда қатнашаётган барча давлатларга манфаат келтиради. БЖСТга аъзо бўлиш эса ушбу манфаатни янада юқорилаштиришга шарт-шаротлар яратади" [1].

Ўзбекистон ҳам жаҳондаги глобаллашув жараёнининг бир қисми ҳисобланади. Ҳеч бир мамлакат бошқа мамлакат билан ўзаро иқтисодий манфаатли алоқаларни ўрнатмасдан туриб, ривожлана олмайди. Бутунжаҳон савдо ташкилотининг айрим нормалари мамлакатимизда ҳозирги кунда тадрижий тарзда қўлланиб келинмоқда. Бизнинг фикримизча, шиддат билан ўзгариб бораётган жаҳон бозори конъюнктурасида пайдо бўлаётган ижобий имкониятларидан максимал фойдаланиш ҳамда юз бериши мумкин бўлган салбий ҳолатларга чап бериш орқали мамлакатимиз ҳам босқичма-босқич тарзда ушбу халқаро миқёсдаги ташкилотга аъзо бўлиши лозим деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун, энг аввало, ташқи савдони тартибга солишни либераллаштириш жараёнларини янада жадаллаштириш зарур.

Ташқи савдони давлат томонидан тартибга солишда бож, солиқ, валюта, преференция ва имтиёз, рухсатнома ва лицензиялар бериш каби воситалардан кўпроқ фойдаланилади. Ушбу воситалардан божхона хизматлари томонидан фойдаланишни либераллаштириш борасида амалга оширилган ислоҳотлар натижасида бир қатор ижобий натижаларга эришилмоқда.

Ташқи савдо қатнашчилари томонидан импорт қилинадиган товарлар учун белгиланган божхона божининг адвалор турдаги ўртача арифметик ставкаси 13.9%дан 6.5%га туширилди. Бу эса БЖСТнинг бож ставкалар бўйича чегараланган ставкалари меъёрларига бирмунча

[1] 15.05.2018 йил Пойтахтимиздаги «Wyndham» меҳмонхонасида "Ўзбекистон Республикасининг Жаҳон савдо ташкилотига қўшилиш жараёнини қайта йўлга қўйиш масаласи"га бағишланган семинар

мослаштирилаётганлигидан далолат беради. Ривожланган мамлакатлар тажрибасида тўловлар ставкасини пасайтириш эвазига солиққа тортиладиган базани кенгайтириш, ундириладиган тушумлар суммасини ошириш ҳамда давлат бюджетига тушаётган маблағлар улушини тобора камайтириш тажрибаси кўплаб учрайди. Мамлакатимизда ҳам ушбу тенденцияни кузатиш мумкин. Яъни, божхона тўловлари ставкаларининг мунтазам равишда мақбуллаштирилиб борилиши натижасида божхона тўловлари ундириладиган импорт ҳажми тобора ошди, сўнгги ўн йил ичида божхона тўловларидан ундирилган маблағлар суммаси кўпайиб, унинг давлат бюджетининг даромадлар қисмидаги улуши аввалги 19 фоиздан 14 фоизгача туширилди. Шунингдек, маҳаллий товар ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш, халқ хўжалигининг етакчи соҳаларини ривожлантириш, модернизация қилиш, мамлакатимизда яратилган мақбул инвестиция муҳитини таъминлаш мақсадида амалдаги қонунчиликка мувофиқ сўнгги ўн йил давомида ҳар йили берилган имтиёз ва преференциялар миқдори мутаносиб равишда ундирилган божхона тўловлари суммасига нисбатан ўртача 2,5 - 3 баравар кўпни ташкил қилмоқда.

Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича олиб борилган ислоҳотлар натижасида мамлакатимиз ҳудудида хорижий валюталарнинг миллий валютага нисбатан курслари бирхиллаштирилди ва тадбиркорлик субъектларига жорий халқаро операциялар бўйича тўловларни амалга ошириш учун тижорат банкларида чет эл валютасини чекловсиз сотиб олиш имконияти яратилди.

Божхона хизматларининг фаолиятига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, фуқаролар ва тадбиркорларга қулайлик яратиш мақсадида ҳозирги кунга қадар 43 та автоматлаштирилган ахборот тизимлари ҳамда 22 та электрон интерактив хизматлари амалиётга татбиқ этилган (*расм*).



Расм. Божхона ахборот тизимлари ва интерактив хизматларнинг ўсиш динамикаси

Манба: Давлат божхона қўмитаси маълумотлари.

Юқоридаги расмдан кўриш мумкинки, божхона хизматлари ва тадбиркорлик субъектлари орасида мавжуд муносабатларнинг камерал электрон шаклга ўтиши жадал суръат билан ўсиб бормоқда, бунинг натижасида инсон омилининг таъсири қисқартирилмоқда. Ушбу интерактив хизматлар ва ахборот тизимлари орқали божхона назорати шаффофлигини таъминлаш, расмийлаштирув ва кўрик жараёнлари вақтини қисқартиришда асосий воситага айланди. Жумладан, электрон тизимга ўрнатилган мантиқий назорат функциялари ёрдамида ҳисобот даврида республика бўйича қарийб 10 мингга яқин ҳолатда божхона қоидабузарликларининг олди олиниб, олиб борилган профилактик тадбирлар натижасида божхона тўловлари кам ҳисобланиши ҳолатлари ўз вақтида бартараф этилди. Шунингдек, божхона расмийлаштируви вақтида 4 мингдан ортиқ ҳолатда божхона тўловларидан имтиёзларни нотўғри қўллаш ҳолатларининг олди олинган. Булар мамлакатимизда божхона маъмурчилигининг такомиллашаётгани ва либераллашаётганидан далолатдир.

Республикада халқаро туризмни жадал ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида “яшил” ва “қизил” йўлак тизими 2018 йил 1 январдан Ўзбекистон Республикасининг барча халқаро аэропортларида жорий этилди. 2021 йилдан эса республикамиз чегараларидаги автомобиль ва темир йўл ўтказиш пунктларида босқичма-босқич ушбу тизимни амалиётга жорий этиш белгиланди. Ушбу тизим йўловчилар ҳамда республикамизга ташриф буюраётган туристлар ва меҳмонлар, тадбиркорларни тезкорлик билан божхона назоратидан ўтказиш имкониятини яратади.

Албатта юқорида санаб ўтилган, амалга оширилган ишлар замирида жуда катта меҳнат ва матонат ётади. Ютуқларимиз билан фахрланиб, келгусидаги бажаришимиз лозим бўлган вазифаларни ҳам унутиб қўймаслик керак. Ўтиб бораётган вақт ва жаҳон бозорида шиддат билан ўзгариб бораётган конъюнктуравий ривожланиш бизни кутиб турмайди. Шундай экан, бизга энг қимматли бўлган вақт ҳамда ривожланган мамла-катлар тажрибасидан унумли фойдаланган ҳолда, глобаллашув жараёни қўяётган талаблар ҳамда халқаро меъёрий-ҳужжатлар асосида, энг аввало, мамлакатимиз ташқи савдосининг манфаатларидан келиб чиқиб, уни тартибга солишни мақбул даражада либераллаштириш зарур деб ҳисоблаймиз.

Жаҳон иқтисодиётидаги жадал ўзгаришлар, халқаро миқёсдаги ташкилотларнинг талаблари ҳамда дунёнинг энг йирик мамлакатларининг ривожланиш тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда, мамлакатимизда ташқи савдони тартибга солишни либераллаштириш жараёнларининг навбатдаги босқичида амалга оширилиши лозим бўлган ишлар қаторида қуйидагилар бажарилишини ўринли деб, ҳисоблаймиз:

Биринчидан, 2005 йилда Брюссель шаҳрида Халқаро Божхона ташкилоти томонидан қабул қилинган “Жаҳонда савдони енгиллаштириш ва хавфсизлик стандартлари” талабларини мамлакат божхона чегараси орқали ўтаётган товарларнинг импорти - экспортини расмийлаштиришда

божхона назорати жараёнини соддалаштириш мақсадида татбиқ этиш. Яъни, бунда сўнгги йилларда божхона қоидабузарлиги ҳолатларини содир этмаган, божхона хизмати ишончини тўлақонли қозонган ташқи савдо қатнашчиларига "Ваколатли иқтисодий оператор" мавқеини бериб, уларнинг товарлари муайян давр (*масалан: ҳар чоракда*) мобайнида тақдим этилган декларациялар асосида танланма божхона назоратини амалга оширишни йўлга қўйиш. Бунинг натижасида, божхона назоратининг самарадорлиги янада юқори поғонага ошиб, расмийлаштирув жараёнларига сарфланадиган вақт ва маблағ ҳам тежалади. Пировардида, юртбошимиз таъкидлаганларидек, тадбиркорлик субъектлари учун божхона кўригида хавф-хатардан огоҳ этиш тизими яратилиб, тадбиркорларнинг қанчалик ҳалол эканлигига қараб, уларнинг товарларини "яшил" ва "қизил" йўлаклар орқали ўтказиш ишлари тўлақонли жорий этилади.

Иккинчидан, Ўзбекистон иқтисодиёти ҳамда бизнес муҳитини SWOT усулда танқидий тарзда мукаммал таҳлил қилиш орқали мамлакат халқ хўжалигини ГАТТ келишуви талабларига босқичма-босқич мослаштириб бориш натижасида Бутунжаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш. Ҳозирги кунга келиб, дунёнинг 164 мамлакати ушбу ташкилотнинг аъзосига айланган.

Юртимизнинг савдо-иқтисодий алоқаларда стратегик шеригига айланган айрим МДҲ мамлакатлари ҳам ушбу ташкилот аъзоси ҳисобланади. Шу жумладан, Россия (2012 й.), Қозоғистон (2015 й.), Украина (2008 й.). Ўзбекистон эса, ушбу ташкилотда кузатувчи сифатида иштирок этиб келмоқда.

Юқорида тавсия этилган дунё миқёсидаги ижобий тажрибаларни Ўзбекистон шароитида қўллаш орқали товарларни расмийлаштиришда божхона процедураларини соддалаштириш ва уйғунлаштиришга эришилади. Бунинг натижасида, ташқи савдони божхона воситасида тартибга солишнинг либераллаштириш жараёнлари янада янги босқичларга кўтарилади. Пировардида, маҳаллий ташқи савдо қатнашчиларига экспорт – импорт операцияларини амалга оширишга қулай бизнес муҳит ва инфратузилма яратилишига ҳисса қўшилади.

M.A. Xurmamatov – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi,
A.Isadjanov – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, i.f.d.

XIZMATLAR SOHASINING INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanib, bugungi kunda dunyo bo‘yicha xizmatlar sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish o‘sishidan ilgarilab ketmoqda. Dunyo tajribasiga ko‘ra, xizmatlar sohasining o‘sishi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, rivojlangan davlatlarda

xizmatlarining ulushi yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 2/3 dan 3/4 gachani tashkil qiladi. Shuningdek, xizmat koʻrsatish sohasining barqaror oʻsishi aholi bandlik darajasiga sezilarli ta'sir koʻrsatadi. Shuning uchun, hozirda mamlakat iqtisodiy maqomini baholash uning xizmat koʻrsatish sohasining tarkibi, koʻlami va rivojlanish darajasi bilan bogʻliq.[1]

Shu jumladan, Oʻzbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining roli tobora ortib bormoqda. Birgina 2017 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlarning ulushi 47,3 foizni tashkil etdi. 2017 yilda xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 116 795,7 mlrd.soʻmni tashkil etdi va 8,9 foizga oshdi (1-rasm).



1-rasm. Xizmatlar sohasining Oʻzbekiston YaIMdagi ulushi, % da [1]

Xizmatlar hajmining oshishiga bir qator omillar ta'sir qilmoqda, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo boʻlishi (kredit kartalari orqali toʻlovlar, Internetsavdo va boshqalar) yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishini misol qilish mumkin.

Agar mamlakat iqtisodiyotidagi xizmatlar ulushini hududlar kesimida qaraydigan boʻlsak, har bir hudud oʻzining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qilishini koʻrishimiz mumkin. Xizmatlar sohasini rivojlanishida eng yuqori ulushni Toshkent shahri (32,1 foiz), Toshkent (7,9 foiz), Samarqand (7,1 foiz), Fargʻona (6,5 foiz), Andijon (5,7 foiz) foiz), Qashqadaryo (5,0 foiz) viloyatlari egallaydi. Koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining eng kam ulushi esa Sirdaryo (1,4 foiz), Jizzax (2,1 foiz), Navoiy (2,6 foiz), Xorazm (3,1 foiz), Surxondaryo (3,8 foiz) viloyatlariga va Qoraqalpogʻiston Respublikasiga (3,0 foiz) toʻgʻri keladi.[2]

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi malumotlari. https://stat.uz/uploads/docs/Xizmatlar-uz-12-2017.
[2] Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi malumotlari. https://stat.uz/uploads/docs/Xizmatlar-uz-12-2017.

Xizmatlar bozorining tarkibining eng katta ulushi boshqa turdagi xizmatlar – 53,9 %; tashish va saqlash, axborotlashtirish va aloqa – 24,0 %; savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari -21,9 %ni egalladi (2-rasm).



2-rasm. 2017 yil YaIM dagi xizmatlar sohasinig tarmoqlar bo‘yicha tarkibi,% [1]

Hozirgi vaqtda, respublikada xizmatlar sohasida 191,2 mingta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona mavjud bo‘lib, ulardan 136 mingtadan ko‘prog‘i kichik biznes sub’ektlari (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) tashkil etadi. Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlar va korxonalari tarkibida eng katta ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanadigan (33,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatayotgan (9,0 %), tashish va saqlash xizmatlari (6,3 %) tashkilotlari va korxonalariga to‘g‘ri keladi.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga yordam bermoqa. Jumladan, 2010-2017 yillarda bozor xizmatlari hajmi 2,6 martaga o‘sdi va 118,8 trln.so‘mgacha ko‘paydi. Shu davrda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2,3 martaga o‘sdi va 3,7 mln.so‘mni tashkil etdi.

O‘zbekistonda xizmatlar bozori yuqori darajada o‘sib borayotgan bo‘lsada, jahon bozorida barqaror raqobatbardoshlikka ega emas hamda iqtisodiyotda yuqori axborot-kommunikattsiya texnologiyalari ulushi pastligicha qolmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush darajasini oshirish eng muhim masalalardan hisoblanmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha boshlangan ishlarni jadallashtirish xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish lozim. Chunki, zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo‘nalishlardan biri xizmatlar bozoridir. Xizmatlar bozorini rivojlantirishda texnik va texnologik yangilanishlar, innovatsiya hamda modernizatsiya eng muhim ta’sir qiluvchi omillardan hisoblanadi. Mintaqada xizmatlar bozorini rivojlantirish pulli xizmat

ko‘rsatishning kengayishi va unda sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, san’at, uy-kommunal xo‘jaligi va aloqa xizmatlari ulushining ko‘payishiga olib keladi.

Xizmatlar sohasini keng qamrovli rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirish va samarali ish bilan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Keyinchalik yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlash, investittsiya, soliq, pul-kredit siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikattsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bu O‘zbekistonda xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning oqilona tarkibini shakllantirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi malumotlari. https://stat.uz/uploads/docs/Xizmatlar-uz-12-2017.pdf
2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi malumotlari. http://www.uza.uz.

А.С.Суюнов – СамДАҚИ профессори, т.ф.н.,
Ш.Н.Жуманов – СамДАҚИ мустақил тадқиқотчиси,
Б.А.Суюнов – СамДАҚИ ўқитувчиси

МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Ўзбекистон Республикаси мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий соҳада катта ўзгартиришларни амалга оширди, халқнинг фаровон турмуш тарзини яратиш учун, уларни яхши турар-жой бинолари, маданий-маиший ва коммунал соҳадаги бино ва иншоатлар билан таъминлаш давлатимизнинг асосий вазифаларидан бирига айланди.

Республикамиз аҳолисининг 68% ёшлар эканлигини, ёш оилаларни сифатли, қўлай турар-жой бинолари билан таъминлаш давлатнинг асосий мақсадларидан бири эканлигини инобатга олсак, турар-жой бинолари қурилиши ва бу биноларнинг сифатига эътибор долзарб муаммолардан бирига айланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ўзида бозор иқтисодиётини жорий этар экан, бу биринчи навбатда корхоналарда ишлаб чиқаришга янгича ёндошишни, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни, ишчи ходимларни моддий ва маънавий рағбатлантиришни, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотни сифатини талаб даражасида бўлишига эришишни, ҳамда маҳсулот таннархини пасайтиришни талаб этади.

Республикамизда фаолият кўрсатаётган қурилиш корхоналарида ва саноат корхоналарида маҳсулот сифатини оширишга охирги пайтда катта эътибор берилмоқда, айниқса қурилиш ташкилотлари тендерларда қатнашиб, рақобатда ютиб чиқиши учун албатта асосий кўрсатгичларидан бири бў сифатли маҳсулот етказиб беришидир. Сифатли маҳсулот чиқариш учун ниҳоятда кўп омиллар таъсирини енгиб ўтиш зарур, масалан,

ишчиларнинг малакаси яхши бўлиши, хом-ашёлар сифатли бўлиши, назорат ўз вақтида, тўғри бўлиши, технология бузилмаслиги ва бошқа факторлар таъсирини яхши билиш зарур.

Ҳозирги кунда қурилиш маҳсулот сифати талаб даражасида эмас, айниқса бу уй-жой қурилишига тўғридан-тўғри боғлиқ. Ҳозирги пайтда хам 10-20% бинолар нуқсонлар билан ишга туширилмоқда. Қурилиш катта миқдорда хомашё, ярим фабрикатлар, конструкциялар ва материалларни талаб қилади. Аммо бу материал ресурсларнинг сифати талаб даражасида эмас.

Қурилиш индустрияси кархоналари ва заводлари томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулот анча камчиликларга эга, нуқсонлари кўп, баъзан заводларда нуқсонларни йўқотиш учун ишчилар асосий ишидан воз кечиб ремонт (таъмирлаш) билан шуғулланишига тўғри келади. Шунинг учун ҳаражатлар 1-3% ошиши, иш хақи фонди 2% гача зарар кўришига олиб келмоқда.

Шу сабабли, қурилиш конструкциялари ишлаб чиқарувчи заводларда махсус хизмат, яъни маҳсулот сифатини бошқариш тизими жорий қилинган. Сифатни бошқариш тизими назорат, режа тузиш, аттестация утказиш, рағбатлантириш каби ишларни йўлга қўймоқда. Аммо бу ҳали етарли эмас, камчилик кўп.

Охирги йилларда СамДАҚИ профессор-ўқитувчилари ва талабалари қурилиш маҳсулот сифатини ошиш муаммолари, сифатини баҳолаш, аттестация утказиш, назорат этиш ва самарали сифатни бошқариш тизимини жорий этиш соҳасида илмий тадқиқот ишларни олиб боришмоқда. Бу соҳада “Қурилишда менежмент” кафедра катта тажриба тўпланган. Талабалар билан ҳамкорликда ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, ҳозирги пайтда хар бир ташкилот сифатни бошқариш тизими деб фақат тизимни алоҳида элементларини ўзида жорий қилишмоқда, тўлиқ тизимини жорий этишга хали анча иш қилиш лозим.

Асосан темир-бетон консрукциялари заводларида Саратов маҳсулотни нуқсонларсиз тайёрлаш ва топшириш тизими элементлари кўпроқ жорий қилинган. Ҳозирги пайтда заводларда жорий этилиши мумкин бўлган сифатни бошқариш тизимлари сони ниҳоятда кўп -100 дан ортиқ.

Ўзбекистон Республикасида иқтисодий фанларнинг ўсиши, ривожланиши маҳсулот сифатини ошириш буйича муаммоларни ечиш учун чуқур илмий изланишлар олиб боришга сабаб бўлди. Ҳозирги пайтда бу сохада кўплаб назарий, амалий - услубий ва илмий ишлар пайдо бўлди.

Бу функцияларни (ишларни) техник назорат бўлими амалга оширади. Улар етарлича асбоб-ускуна, приборлар билан таъминланган бўлиши керак.

Ҳар бир заводда лаборатория назорати олиб борилади, бу назорат хом-ашё ва материаллар сифатини текшириб кўриши лозим.

Завод техник назорат бўлими (ТНБ) ва лаборатория учта турдаги назорат турини олиб боради:

1) - **Кириш назорати** - олиб келинган хамма материал, маҳсулот, ярим фабрикат ҳолатдаги маҳсулотларни талаб қилинган меъёрларга мос

келиши назорат қилинади.

2) - **Чиқиш назорати** (ёки тайёр маҳсулотни назорат қилиш) - маҳсулотни ҳамма сифат кўрсатгичларини меъёрга мос келиши назоратга олинади.

3) - **Оралиқ назорати** (ёки технологик жараёнлар назорати) - бу назорат ёрдамида хар бир технологик жараён (операция) назорат қилинади. Оралиқ назорати пайтида қайси жойларда, нима сабабли нуқсонлар пайдо бўлиши аниқланади, ҳамда камчиликларга олиб келувчи сабабалар урганилади.

Корхона яхши фаолият кўрсатиши учун ҳамма яъни учта турдаги назорат хам зарур. Аммо бўларнинг ичидан технологик жараёнлар назоратини (хар бир жараённи тезкор назорати) ўрни алоҳида ахамият касб этади.

Темир-бетон консрукциялари заводларининг маҳсулоти сифатини таҳлил қилганимизда маълум бўлдики, сифатсизлик ёки нуқсонлар кузатилган жойда пайдо бўлмайди, балки анча илгарирок олдинги технологик жараённи бажариш даврида пайдо бўлади, шу сабабли уни пайдо бўлишини “Харита-режа” кўринишида тасвирлаб олсак, унда технологик жараён, нуқсон ва нуқсонга олиб келувчи сабабалар, жавобгар шахслар осон аниқланиб олинади. “Харита-режа” қўйидаги расмда кўрсатилган.

Бундай “Харита режа”ларни заводнинг хар бир технологик линиясига қўйиш мумкин. Ҳар бир заводда бир қатор “Харита-режа”лар бўлиши керак. Бу назоратни енгиллаштиради ва камчиликларни пайдо бўлиши “мумкин бўлган жойлар” ҳақида ахборот беради. Альбом сифатида махсус стендга қўйиш хам мумкин.



Сифатни назорат қилишни тезкор (оператив) усулини жорий қилишда ушбу “Харита-режа” дан фойдаланиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, шу пайтгача қўлланиб келинаётган сифатни бошқариш тизимининг камчилиги кўп, ҳозир биз таклиф қилмоқчи бўлган

сифатни назорат қилиш ва бошқариш тизими тезкор усул ҳисобланади, у сифатни режалаштириш ва назорат қилишда катта самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. –Тошкент: “Адолат” 2017. – 112 б.
2. И.А. Каримов. “Жахон молиявий иқтисодий инқирози”, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишни йўллари ва чоралари». Тошкент. Ўзбекистон. 2009 йил.
3. Суюнов А.С. Модернизация систем управления качеством продукции в строительном комплексе Узбекистана. Монография. -Т.: “Фан ва технология”, 2013. -124с.

А.Н.Холиқулов – СамИСИ, “Менежмент ва статистика” кафедраси мудири, и.ф.н., илмий раҳбар,

Н.Бурхонова – СамИСИ магистранти

КОРХОНАДА СИФАТНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСЛУБЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

Бугунги кунда жаҳон иқтисодиётида етакчи ўрин тутадиган мамлакатлар тажрибаси шуни исботлаб бермоқдаки, рақобатдошликка эришиш ва дунё бозорларига чиқишда иқтисодиётни изчил ислоҳ этиш, таркибий жиҳатдан ўзгартириш ва диверсификация қилишни чуқурлаштириш, юқори технологияларга асосланган янги корхона ва ишлаб чиқариш тармоқларининг жадал ривожланишини таъминлаш, фаолият кўрсатаётган қувватларни модернизация қилиш ва техник янгилаш жараёнларини тезлаштириш ҳисобидан амалга оширилиши мумкин.

Бу жараёнлар Ўзбекистон иқтисодиётида муҳим тармоқлардан ҳисобланган корхоналар учун ҳам тегишли бўлиб, ишлаб чиқариш ва маҳсулотларни сотишда маркетинг тадқиқотлари асосида мувофиқлаштиришни талаб қилади. Бунинг асосий сабабларидан бири-ҳозирги шароитда маҳсулотларнинг сифатига бўлган талаб ва корхоналарнинг халқаро бозорларга чиқиш стратегияси ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлиги муҳимдир.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ҳам бу масалага катта эътибор қаратилмоқда. Чунки, мамлакат иқтисодиётида содир бўлаётган ижобий ўзгаришларда корхоналар маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши ва ишлаб чиқарилаётган товарларнинг халқаро бозорларга чиқиш стратегиясининг ортиб бориши ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу эса, ўз навбатида, республикамиз корхоналарининг маҳсулотлари бозорини ўрганиш, ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, ходимларни рағбатлантириш борасидаги ҳаракатларнинг муҳимлигидан далолат беради. Демак, истеъмол бозорини ўрганиш, маҳсулотларига бўлган талаб ва эҳтиёжларини қондириш, қўшма корхоналар фаолияти самарадорлигини

ошириш, ишлаб чиқарувчиларни рақобатбардош товарлар ишлаб чиқаришини рағбатлантириш иқтисодиётда амалга оширилаётган ислоҳотларга боғлиқ ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида иқтисодиётнинг таркибий тузилишида жиддий сифат ўзгаришлари амалга оширилди. Аввало, ёқилғи-энергетика саноатини ривожлантириш орқали энергетика мустақиллигига эришилди. Энергетика ва кейинчалик дон мустақиллигига эришиш иқтисодиёти-мизнинг ташқи таъсирларга бардошлилиги даражасини оширди.

Бугунги кунда иқтисодиётимизнинг локомотивига айланган машинасозлик ва автомобилсозлик (12,2 фоиз), кимё ва нефть-кимё саноати (9,4 фоиз), озиқ-овқат саноати (13,1 фоиз), қурилиш материаллари саноати (11,9 фоиз), фармацевтика ва мебелсозлик (18 фоиз) 2017 йилда жадал суръатлар билан ривожланди.

Ҳозирги кунда тармоқларнинг халқаро таснифида улар уч секторга бўлинади: бирламчи (қишлоқ хўжалиги, қазиб олиш саноати), иккиламчи (қайта ишлаш саноати) ва учламчи (хизматлар соҳаси ёки ижтимоий соҳа). Бугунги кунга келиб, иқтисодий адабиётларда корхоналарда сифатини бошқарувини соҳасининг чегаралари тўғрисида турли фикрлар мавжуд.

Корхоналарнинг ҳар бири бошқасидан ўзига хос хусусиятларига кўра фарқланади. Шу сабабли ишлаб чиқариш ва меҳнатни ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш ҳамда ишлаб чиқариш тузилмасини яратиш учун корхоналар таснифини билиш зарур. Корхоналар тузилмасини ўрганиш уларнинг саноат мажмуасида тутган ўрни, роли ва аҳамиятини аниқлаш имконини беради.

Ўз навбатида ишлаб чиқариш тузилмасини лойиҳалаштиришда унинг шаклланишига таъсир кўрсатувчи омилларни инобатга олиш муҳимдир. Корхона тузилмасини белгилаб берувчи омиллар таҳлили уларни мукаммаллаштириш бўйича муайян чора-тадбирлар ишлаб чиқиш имконини яратади.

Ҳар бир корхона сифатини бошқарув фаолияти ишлаб чиқариш, қайта ишлаб чиқариш ва муомала жараёнларидан иборат бўлади. Корхона сифат бошқарувининг ишлаб чиқариш соҳасидаги фаолияти - янги маҳсулотни ишлаб чиқаришга тайёрлаш ва ишлаб чиқаришни ташкиллаштиришда намоён бўлади. Қайта ишлаб чиқариш соҳасидаги фаолият - ишчи кучини ёллаш, кадрлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ишлаб чиқариш воситаларини янгилаш ва кенгайтириш жараёнларида акс этади. Муомала соҳасидаги фаолият эса ишлаб чиқаришнинг моддий-техника таъминотини ташкиллаштириш, маҳсулот (иш, хизмат)ларни сотиш ва фойдаланилган ишлаб чиқариш воситаларининг даромад шаклида қайтиб келишида кўзга кўринади.

Бугунги кунда корхонада сифатни бошқариш **фаолиятининг асосий йўналишлари** қуйидагилар деб қарайдиган бўлсак:

❖ бозор ва унинг ривожланиш истиқболларини комплекс равишда ўрганиш ёрдамида, харидорларнинг маҳсулот ва хизмат турларига мавжуд

ва юзага келиши мумкин бўлган талабларини аниқлаш;

❖ маҳсулотнинг янги моделлари ва намуналарини яратиш бўйича илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил қилиш;

❖ харидорлар талабларига мос келувчи товарларни ишлаб чиқариш;

❖ ишлаб чиқаришни режалаштириш, дастурлаш, мувофиқлаштириш ва молиялаштириш;

❖ маҳсулотни тақсимлаш ва сотиш тизимини ташкил қилиш ва уни мукаммаллаштириш;

❖ корхонанинг барча фаолиятини, жумладан, ишлаб чиқариш, сотиш, реклама, техник хизмат кўрсатиш ва ҳоказоларни бошқариш.

Албатта, замонавий корхоналардв сифатни бошқаришни кўп қиррали фаолияти юқорида санаб ўтилган йўналишлар билангина чекланиб қолмайди. Амалиётда улар фан-техника тараққиёти ва давлат томонидан амалга оширилаётган иқтисодий сиёсатнинг янги талаблари билан тўлдирилиши мумкин. Бироқ, юқорида айтиб ўтилганлардан қатъий назар, хўжалик ривожланишининг ҳар бир босқичида корхоналар фаолияти сифатни бошқариш қуйидаги вазифаларни бажаришга қаратилиши зарур:

- корхона эгасининг даромад олиши;
- истеъмолчиларни ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар билан таъминлаш;
- ходимларни иш ҳақи билан таъминлаш;
- корхонага яқин жойларда яшовчи аҳоли учун иш жойлари яратиш;
- атроф-муҳитни муҳофаза қилиш;
- корхона фаолиятида тўхтаб қолишга йўл қўймаслик;
- ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш шаклларини мукаммаллаштириш;
- ишлаб чиқаришнинг барча босқичларида тежамкорликка риоя қилиш.

Сифатни бошқариш фаолиятининг жорий ва истиқболдаги вазифаларини бажариш корхоналардан қуйидаги функцияларни амалга оширишни талаб қилади:

- ишлаб чиқариш ва шахсий истеъмол учун маҳсулотларни тайёрлаш;
- маҳсулотларни истеъмолчиларга етказиб бериш ва сотиш;
- сотувдан кейин хизмат кўрсатиш;
- ишлаб чиқаришнинг моддий-техника асосини таъминлаш;
- ходимлар меҳнатини ташкил қилиш ва бошқариш;
- солиқларни тўлаш, бюджетга тўланувчи ихтиёрий ёки мажбурий бадал ва тўловларни амалга ошириш ;
- амалдаги стандартлар, нормативлар ва давлат томонидан чиқарилган қонун-қоидаларга риоя қилиш.

Бу функциялар корхоналарнинг ҳажми, қайси тармоққа мансублиги, ижтимоий инфратузилманинг мавжудлиги, маҳаллий ҳокимият идоралари билан муносабатларга асосланиб аниқлаштирилади. Бугунги бозор иқтисодиёти шароитида ва фан-техника тараққиётида

корхоналарнинг амалга оширадиган функцияларини кенгайтириши ҳамда уларнинг фаолиятидаги ишлаб чиқариш кўрсаткичларини янада яхшилаш учун янги вазифалар белгилаб бериши мумкин.

Маълумки, ишлаб чиқаришни ривожлантиришда икки хил омил: миқдор ва сифат, экстенсив ва интенсив, яъни кенгайтирувчи (узайтирувчи) ва зўр берувчи, кўчайтирувчи омиллар ҳаракатда бўлади. Бошқача қилиб айтганда, агар ишлаб чиқариш соҳаси кенгайтирилса, экстенсив суратда кенгайган такрор ишлаб чиқариш бўлади; агар яна ҳам кўпроқ самара берадиган ишлаб чиқариш воситалари қулланиладиган бўлса, интенсив суратда кенгайган такрор ишлаб чиқариш юзага келади.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда ана шу икки йўлдан оқилона фойдаланиш натижасида ишлаб чиқаришнинг самарадорлигини босқичма-босқич ўсиб боришга замин яратилади. Бунинг учун ёш кадрларнинг иқтисодий савиясини ошириш, тармоқ иқтисодиётидаги билимини кўчайтириш бошқариш механизмининг келгусида такомиллашиши ва корхонада сифатни бошқариш самарадорлигини юксалтиришга муҳим шарт-шароитлар яратиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.
2. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти: Ўқув қўлл. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.
3. Акромов Э.А Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003.-223 б.

Ш.А.Мусаева – СамИСИ, “Маркетинг” кафедраси доценти,
Д.И.Усмонова – СамИСИ, “Маркетинг” кафедраси катта ўқитувчиси, Phd

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Саноатнинг етакчи тармоқларини модернизациялаш ва диверсификациялаш, хом-ашё ва ярим тайёр маҳсулотларни қайта ишлашнинг замонавий технологияларини жорий этиш, жаҳон бозорида юқори рақобатбардош бўлган ишлаб чиқаришларни манзилли қўллаб-қувватланиши, ишлаб чиқаришлар таркибида қайта ишлаш саноатининг улушини ошишига кўмаклашди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285-сонли Фармонига мувофиқ кадрларни тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чоралари кўрилаётганлигини таъкидлаш лозим. Тармоқ корхоналарида тор ихтисослар бўйича мавжуд эҳтиёжлар юзасидан инвентаризация ўтказилади ҳамда Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти ва тармоқ касб-ҳунар коллежлари муаллифларининг

маълумотлар базаси яратилади. Ушбу олий ўқув юрти билан ҳамкорликда тармоқ учун йигириш, тўқиш, тикиш, бўяш ва безатиш каби йўналишлар бўйича мутахассисларни етказиб бериш, шунингдек Корпоратив бошқарув корхоналарида (кадрлар менежменти, давлат ва жамоат бошқаруви) меҳнат қиладиган тажрибали техникларни тайёрлаш учун иқтисодчи-лойиҳаловчи мутахассисларни тайёрлаш учун қисқа муддатли (сиртқи ва кечки) курсларни ташкил қилиш режалаштирилмоқда.

Хусусан, жорий йили соҳада амалдаги корхоналарни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш ҳамда янги қувватларни яратишга қаратилган 34 та инвестицион лойиҳа амалга оширилди. Ушбу лойиҳаларнинг умумий қиймати 356,9 млн. долларга тенг бўлиб, экспорт салоҳияти 151,7 млн. долларни ташкил қилди.

Шу билан бирга матбуот анжуманида тармоқнинг экспорт кўрсаткичлари ҳам муҳокама қилинди. 2017 йилда 1,16 млрд. долларлик маҳсулот экспорт қилиниши кутилаётганлиги таъкидлаб ўтилди. Мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар дунёнинг 50 дан ортиқ давлатларига етказиб берилмоқда. Юқори қўшимча қийматга эга бўлган маҳсулотлар улуши 40 фоиздан ортиқни ташкил қилди. Агар 2017 йилнинг бошида юртимизда 293 та экспорт қилувчи корхоналар мавжуд бўлган бўлса, йил якунларига кўра уларнинг умумий сони 350 тага етди. Айни пайтда, дунёнинг турли мамлакатларида фаолият юритаётган 64 та савдо уйларининг саъйи-ҳаракатлари соҳанинг экспорт кўрсаткичлари янада ортишига хизмат қилмоқда.

Мамлакатимизда бозор иқтисодиёти шаклланиб, ривожланаётган бир пайтда турли даражадаги ишлаб чиқариш субъектлари томонидан эҳтиёжлар бозорини тўлдиришга, жаҳон бозорига сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқаришга катта аҳамият берила бошланди. Уларнинг иқтисодий фаолияти ҳам, фақат жаҳон бозоридаги рақобатбардошлиги билан белгиланади. Бунинг учун эса, авваламбор, маркетингнинг барча қонун - қоидаларини билиб, унга қатъий риоя қилиш тақозо этилади.

Маркетинг ўз ичига бир қанча жараёнларни, шунингдек, товар ва хизматларни ҳам қамраб олади. Маркетинг энг мувофиқ нархдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариб, харидорларга таъсир этиш билан юқори даражада фойда олишни режалаштиради ва шу сабабли ҳам, мамлакатимиздаги деярли барча корхоналарнинг унга катта аҳамият билан қараётганлиги ва иқтисодий фаолиятида кенг қўлланилаётганлиги маълум.

Маркетинг корхоналар иқтисодий ҳаётига яқинда кириб келганлигига қарамасдан, кундан - кунга маркетинг фаолиятига бўлган талаб ортиб бормоқда. Аввало истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини аниқлаш ва ўрганиш, товар ва хизматларни эҳтиёжларга мослаштириш, вақтида етказиб бериш, рекламаси билан шуғилланиш, шунингдек, келишилган нархларда, вақтида ва керакли миқдорда таклиф қилиш маркетингнинг асосий ишидир. Бундан ташқари, унинг асосий вазифаларига режалаштириш, тўловларни тўлдириш ва натижаларини бошқариш киради.

Масалан, реклама, ахборот таъминоти, маҳсулот айирбошлаш, айниқса, маркетинг фаолиятининг ишлаб чиқаришдаги роли шундай муҳимки, деярли товар ва хизматларнинг ярим нархи маркетинг фаолияти натижасидир. Маҳсулот ишлаб чиқарувчилар турли маркетинг тадбирларига кўпроқ эътибор беришлари бежиз эмас. Чунки, бозорда корхоналар ўртасида вужудга келадиган рақобат вазияти шундай йўл тутилишини тақозо қилади. Шу рақобат муҳитини енгиш учун ҳар бир корхона ишлаб чиқарилган маҳсулотларни ва хизматларини каттароқ аудиторияларга таклиф этиш учун самарали маркетинг дастурига эга бўлиши зарур. Корхона ўз маҳсулотини қандай шаклда, қанча миқдорда ишлаб чиқаришни, қайси мижозларга сотишини олдиндан белгилаши ва бунинг натижасида керакли фойда олиш учун маркетинг қонун - қоидаларига қатъий амал қилиши лозим.

Бунинг учун бозордаги талаб даражасини яхши билган ҳолда, қандай маҳсулотни қанча миқдорда ишлаб чиқариш ўрганилади. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга яна қандай турдагиларини қўшиш ва сўров талабларига тўлиқ жавоб бера оладиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқдир. Корхона томонидан шу каби маҳсулотларни ишлаб чиқаришни ривожлантириш жуда самарали ҳисобланади, яъни:

- корхона кўпроқ иқтисодий фойда олишни кўзлайди;
- корхонада иш жойлари сақлаб қолинишига ва меҳнат шароитлари яхшиланишига эришилади;
- корхонада харидорларга энг юқори сифатли маҳсулотлар таклиф қилиниши йўлга қўйилади.

Маҳсулот ва хизматларни истеъмолчиларга таклиф қилиш жараёнлари тайёр маҳсулотнинг истеъмолчига егиб бориши билан тугайди. Товар билан таъминлаш даражасини ошириш ва такомиллаштириш товарни истеъмолчига ўтишини осонлаштиради. Шунинг учун, ишлаб чиқарувчилар шуни ҳисобга олишлари керакки, маҳсулот ишлаб чиқарилгандан кейин, уни корхонадан истеъмолчига етказиб бериш ишларини маркетинг тизими ишлаб чиқиши керак. Бундай тизим маркетингнинг тарқатиш канали дейилади. Маклерлар яъни, мустақил сотувчилар маҳсулотларни катта миқдорда сотиб олади ва кичик-кичик ҳажмларда оз-оз миқдорларда сотади. Маҳсулот етказиб беришнинг асосий жараёнлари транспортировка, сақлаш ва товар таклифларидан иборатдир.

Маҳсулот ишлаб чиқаришга кетган сарф - харажатлар, ресурсларни ва ишлаб чиқариш воситаларини нархларини қўшсак, маҳсулот таннархи келиб чиқади. Бундан ташқари, бунга тарнспорт, сақлаш, солиқлар ва қ.к. нархлар ҳам қўшилади. Ҳар бир корхона маҳсулот сотишдан фойда олишни кўзлаган ҳолда нархга керакли фоизларни қўшади. Шу сабабли ҳам, ҳар бир корхона маркетинг йўналишида маҳсулотларни юқорироқ нархларда сотишга ҳаракат қилади. Бозордаги нархларда ишлаб чиқарувчининг фойда олишга бўлган қизиқишини ҳамда истеъмолчиларнинг харид қилаётган товарлари нархи уларни

қаноатлантириши лозим. Демак, нарх навони белгилашда маълум товарларга бўлган талабларга таъсир қилиш мақсадида барча турдаги корхоналар ҳам қатнашишлари мумкин.

Ҳозирги кунда маркетинг энг самарали ва зарур иқтисодий фаолият тури бўлиб, барча бозор жараёнлари у орқали амалга оширилади, у ҳам ишлаб чиқарувчиларга, ҳам истеъмолчиларга катта имкониятлар яратади. Унинг ёрдамида маҳсулотлар нархи, уларнинг жойлашуви, миқдори, талаб ва таклиф ва бошқа бир қанча омиллар ҳақида жуда кўп маълумотлар олиш мумкин бўлади.

Ўзбекистонда бозор муносабатларига ўтиш даврида иқтисодиётимизни ривожлантиришда, энг зарур бўлган омил ишлаб чиқаришни кенгайтириш, маҳсулот сифатини, рақобатбардошлигини юксалтириш тақозо этилади. Маркетинг жараёнларидан қанчалик унумли ва самарали фойдаланилса, ишлаб чиқаришнинг барча қонун - қоидаларига амал қилинса, иқтисодиётимиздаги туб ўзгаришлар тезроқ кўзга ташланишига эришган бўламиз.

Ўзбекистонда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда фирма ва корхоналарни ташқи иқтисодий муносабатларга жалб этиш, яъни экспортбоп маҳсулотларни ташқи бозорга мустақил равишда чиқишларини таъминлашда жаҳон амалиёти тажрибаларининг янги шакл ва услубларини қўллашни йўлга қўйиш, иқтисодий манфаатдорликка эътибор қаратиш маркетинг фаолиятининг асосий мақсадларидан бири бўлиши талаб этилади.

Корхона ва фирмаларнинг ташқи иқтисодий алоқаларини амалга оширишдаги хукуқлари мамлакатда ижтимоий - иқтисодий ҳаётни демократиялаш жараёнининг кўринишларидан биридир. Мамлакат экспорт базасини ривожлантириш, ташқи бозор учун рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш, халқаро иқтисодий интеграцияни ривожлантириш, техника - технологияларнинг энг замонавийларини ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш ҳамда савдо - сотиқ муносабатларини ҳал этиш юзасидан маркетинг тадбирларини изчил ҳамда ўз вақтида олиб борилиши кўзланган натижаларни беради.

Маркетинг фаолиятига машҳур маркетолог олим Ф. Котлернинг таърифи қуйидагича: маркетинг концепцияси бу – харидорлар эҳтиёжларини, товарлар сифатини ва ассортиментини, уларнинг реал сотиб олиш қобилиятларини баҳолашга асосланган ҳолда ишлаб чиқариш ва тақсимлашни рақобатчилардан яхшироқ ва унумлироқ ташкил қилишдан иборат.

Ишлаб чиқариш корхоналари олдида турган энг муҳим вазифалардан бири, эркин иқтисодий рақобат шароитида кам сарф-харажатлар билан бозор талабларига мос товарлар ишлаб чиқариш ва унинг турларини кўпайтириб боришдан иборатдир. Бундай вазифани амалга ошириш янги товарлар ишлаб чиқариш асосида иш юритишни талаб этади. Янги товарларни қидириб топиш, уларни шакллантириш, товар шаклини асослаш, товар сифатини тартибга солиш, бозордаги янги товар хулқ-атвори устидан назорат қилиш товар сиёсатининг асосий вазифаларига киради.

Янги товар ишлаб чиқариш ғоясини қидириб топиш ҳаммадан ҳам

қийинроқ бўлади. Бундай ғоялар ўз - ўзидан эмас, балки доимий изланиш натижасида вужудга келади. Ишлаб чиқариш имкониятларини қидириш натижасида тадбиркорлар керакли маълумотларни потенциал харидорлардан, савдо воситаларидан оладилар.

Янги товар ишлаб чиқариш ғояси пайдо бўлгандан сўнг, унинг истиқболли эркинлигини чуқур таҳлил қилиш, ҳаракатлари ва кутилаётган натижаларини баҳолаш жуда муҳимдир.

Янги товар ишлаб чиқаришга асосланган ҳар қандай ривожланиш стратегиясининг марказида ишлаб чиқаришни кенгайтириш, диверсификация ва инновация мақсадлари ётади. Тез ўзгарувчан муҳитда корхона чиқараётган маҳсулотларини тўхтатишга қарор қилаётганда, ишлаб чиқарилаётган товарни модификациялаш ва янги товар ишлаб чиқаришда доимо ўз фаолияти тузилишини баҳолай олиши лозим. Бу қарорлар келгусида корхона фаолиятини давом эттиришда жуда муҳим аҳамиятга эга.

Жуда мураккаб бўлган ишлаб чиқариш билан бирга бозор талабидан келиб чиқувчи мақсадли товар ҳаракати, тижорат, истеъмолни ташкил этишгина тадбиркор, бозор қатнашчиларининг асл мақсадини рўёбга чиқариши мумкин.Шунинг учун ҳам корхона ҳар бир товар бозорини ташкил этиш, унинг ўз жойини топа билиш, харидорни юзага келтира билиш, шу товар билан боғлиқ хизмат кўрсатишни уюштириш истеъмолчи талаби асосидаги барча хусусиятларга эга бўлган товар ишлаб чиқаришни таъминлаши маркетингнинг фаолият соҳасини ташкил этади.

Бозорни энди маркетингсиз тасаввур этиш қийин, чунки ҳозир маркетинг бозорнинг зарур ва кенг мазмунли таркибий қисмига айланган. У бозор туфайли тараққий этиш билан бирга, ўз навбатида, бозорни тараққий эттиришда катта аҳамият касб этади.

Чунки маркетинг корхона фаолиятини тўла бозор иқтисодига қаратади, унга бозор фаолияти мазмунини сингдиради.

Маркетингнинг ривожланиши кўп ҳолларда тадбиркорларнинг зарурий анъаналари ва тажрибаси йўқлиги сабабли секинлаштирилмоқда. Вазият манфаатлари қўшимча бир зумлик хусусиятга эга бўлган ва ҳар қандай йўл билан қисқа муддатларда максимал фойда олишга йўналтирилган бошловчи тадбиркорлар психологиясининг ҳусусиятлари сабабли кескинлашади.

Кўпчилик корхоналар маркетинг ролига етарлича аҳамият бермаяптилар. Кўпинча корхоналарнинг ишлаб чиқариш сотиш фаолиятининг ташкил этилиши ҳақидаги маълумотлар бу ҳақда гувоҳлик бермоқда. Мазкур фаолият маркетингга эмас, балки ишлаб чиқариш ва сотишни алоҳида ташкил этишга йўналтирилган. Бироқ Узбекистон корхоналарида маркетингнинг ривожланиш амалиёти ҳали яхши йўлга қўйилмаган. Бозор муносабатлари ривожланган сари маркетинг корхонани бошқаришнинг умумий тизимига тобора кўпроқ кириб бормоқда. Бу вақтда деярли барча

ишлаб чиқариш , сотиш, молия, маъмурий ва бошқа қарорларни қабул қилиш асосида бозордан келиб тушадиган ахборотлар ётади.

Ўзбекистон иқтисодиётида маркетингнинг ривожланиши қатор хусусиятларга эга.

- Биринчидан, бу анча мураккаб даврни бошдан кечираётган бозоримизнинг шаклланишига тегишлидир. Бозор ривожланишининг юқори босқичига тезкор ўтиш, албатта, истеъмолчилар талабини янги шароитда қондириш учун корхона потенциалидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш имконини беради.

- Иккинчидан, маркетингдан фойдаланиш жараёнига истеъмолчининг ҳатти- ҳаракати муайян тарзда таъсир кўрсатади. Умумий ҳолда у ғарб намуналарига нисбатан ноанъанавийдир, шунинг учун истеъмолчилар ҳатти-ҳаракатларининг умумуий қабул килинган типологиясини тавсифлайдиган тенденциялар ва қонуниятларни чукурроқ ўрганиш зарур.

- Учинчидан, иш муносабатларида анъанавий муайян марказлашувга интилиш одати маркетингнинг фойда олиши асоси сифатида муҳимлигини тушунмаслик бевосита истеъмолчининг ўзи билан ишлашни иккинчи даражага тушириб қўяди. Бироқ фараз қилиш мумкинки, яқин келажакда корхонани бошқаришда фикрлаш тарзи ва бозорда фаолият юритиш тарзини шакллантирувчи маркетингнинг асосий классик ҳолатлари республикамиз корхоналари учун актуал, фундаментал ва зарурий бўлиб қолади.

Аниқ маркетинг ҳаракатлари, конкрет «рецептлар»га келганда эса, бу ерда «барча чет эллик нарсаларни қабул қилиш»дан «ҳамма ўзбекона нарсаларни англаб олиш»га ўтиш керак. Шундай экан, маркетингнинг ҳар бир ҳусусияти ўзига хос бўлиб, Ўзбекистон бозор иқтисодиётига ўтаётган даврда муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги корхоналарнинг у гоҳ ишлаб чиқариш, гоҳ хизмат кўрсатиш қандай турда бўлишдан қатъий назар маркетинг бўлимлари ўзининг фаолиятини юритиб келмоқда. Демак, бу бозорларимизнинг янада такомиллашиб, сифатли маҳсулотлар билан тўйинишига асосий туртки ва гаровидир.

A.N.Xoliqulov – SamISI o‘qituvchisi, i.f.n.,
S.O‘rozov – SamISI o‘qituvchisi,
L.Usmonova – SamISI, 3-kurs talabasi

KORXONANI BOSHQARISHDA LIDERLIK QOBILIYATIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uning tarmoq va sohalarining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, ularning samaradorligi menejment faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘pchilik birgalikda faoliyat ko‘rsatar ekan, ularning faoliyati boshqaruvga muhtojdir. Ulardagi odamlarning, bo‘limlarning harakatlarini bir-

biriga muvofiqlashtirish boshqaruv jarayoni natijasida amalga oshiriladi. Boshqaruv jarayonisiz hech qanday faoliyat amalga oshmaydi.

Katta va kichik, tijorat va notijorat, sanoat, ishlab chiqirish va xizmat ko‘rsatishning barcha sohalarida ham tashkilotdagi odamlarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etishini biz ta`kidlab o‘tdik. Inson resurslarisiz hech qanday tashkilot bo‘lmaydi. Tashkilot uchun zarur bo‘lgan inson resurslarisiz hech qanday tashkilot o‘z maqsadiga erisha olmaydi va yashay olmaydi. Shubhasiz, boshqaruv nazariyasida ham, amaliyotda ham inson resurslarini boshqarish muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham o‘z nutqida boshqaruv sohasiga katta e’tibor qaratmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev- “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni hayotga tadbiq etish uchun boshqaruv tizimini o‘zgartirish kerakligi va bu sohadagi rahbar lavozimlarga loyiq malakali kadrlarning yetishmasligi bo‘yicha o‘z nutqida ta’kidlab o‘tdi”.[1]

“Hozirgi vaqtda davlat hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda” deb Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqida ta’kidlab o‘tdi.[2]

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi keskin raqobat, ishlab chiqarishdagi yuksak texnologiyalar personalni, ayniqsa ko‘p ming kishilik mehnat jamoasini boshqarish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oladigan rahbarning amaliy va shaxsiy sifatlariga juda katta talablar qo‘yadi. Keyingi yillarda liderlik uslublariga bo‘lgan qiziqish menejerlarning rollari va harakatlari, ularning samarali liderlik tajribalarini tobora o‘rganishga olib kelmoqda.

Liderlarning qirralarini tadqiq etish menejerlarning eng muhim ko‘nikmalarini izlashga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, global iqtisodiyot sharoitlarida muvaffaqiyat uchun quyidagilar zarurdir:

- turli xil madaniyatlarni to‘g‘ri qabul qilish (madaniy xabardorlik) ;
- muloqot ko‘nikmalari (yozma, og‘zaki va noverbal);
- inson resurslarini rivojlantirish ko‘nikmalari (o‘rgatish, trening, axborot va tajribani uzatish, natijalarni baholash, karyerani rivojlantirish bo‘yicha konsultatsiyalar) ;
- yaratuvchanlik (ijodiy yondashuv, innovatsiyalarni joriy etish, bo‘ysunuvchilarni ijodkorlikka o‘rgatish, ularni tarbiyalash va ularda ijodkorlik mahoratlarini rivojlantirish);
- o‘z ustida ishlashni boshqarish (muntazam ravishda yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish, tashqi o‘zgarishlarga moslashib borish).

AQSh ning to‘rt yuzdan ortiq yuqori samarali menejerlari bilan o‘tkazilgan so‘rov natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi o‘nta muhim ko‘nikmalar ajratildi.[3]

1 “Xalq so’zi” gazetasi.23.12.2018yil dagi 255-soni

2 www.bbcuzbek.uz-BBCning o’zbek tilidagi sayti. Prezident SH. Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisida qilgan nutqi.

3 Бел яев В.И. Маркетинг: основты теории и практики. Учебник. М:2010

- verbal kommunikatsiya;
- ziddiyatlarni boshqarish qobiliyati va vaqtdan samarali foydalanish;
- individual qarorlarni qabul qilish,
- muammolarni tan olish, ularni rasmiylashtirish va yechimini topish;
- motivatsiya va boshqalarga ta’sir ko‘rsatish;
- vakolatni quyiga qarab taqsimlash;
- maqsadlarning qo‘yilishi va tashkilotning rivojlanish istiqbollarini aniq tasavvur qilish;
- o‘z-o‘zini anglash;
- jamoalarni yaratish;
- nizolarni boshqarish.

Tadqiqot natijalarining statistik qayta ishlanishi samarali liderlik ko‘nikmalarini quyidagi to‘rtta turkumga birlashishiga imkon yaratdi:

1. Menejerlarning boshqaruv va insoniy munosabatlarga jalb etilishi (qo‘llab- quvvatlashni ta’minlaydigan kommunikatsion munosabatlar, jamoalarni yaratish) ;
2. Raqobatchilik va nazorat (qat‘iylik, hokimiyat, sabrlilik) ;
3. Novatorlik va tadbirkorlik (muammolarni ijodiy hal etish) ;
4. Tartib-intizom va oqilona faoliyatni qo‘llab-quvvatlash (vaqtdan samarali foydalanish va oqilona qarorlarni qabul qilish).

Rahbar (lider) - bu oddiy unvon emas, bu iste‘doddir. Rahbar - lider bozor sharoitida yangilik yaratuvchi, ijodkor va insoniy omillarni e‘tiborga oluvchi kuchli psixolog bo‘lishi kerak. Psixologlar, shaxs - bu o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabati orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi subyekt, insondir, deb baho berishadi. Agarda ushbu ta’rifga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ta’rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi: bilish, hissiyot, munosabat. Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya’ni tashqi olamni insonning o‘z ehtiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan.

Kishilarni boshqarar ekan, rahbar jamoaning yakuniy maqsadini ko‘ra biladi va uni shu maqsad sari yo‘naltiradi. Rahbar ishning mohiyatiga tushungan va uni chuqur o‘rgangan holda mutaxassislar faoliyatini mohirona birlashtirish va yo‘naltirishi kerak.

Liderlar faoliyatini o‘rganish orqali boshqaruv uslublarini chuqur tahlil qilish va klassifikatsiyalash imkonini beradi. Boshqaruv tarzi bu boshqaruvchining ishchilarni bir maqsadga qarab yo‘naltirish davrida yuzaga keladigan munosabatlar tushuniladi. Liderni xarakterlash uchun uning boshqaruv jarayonida birinchi navbatda insoniylik munosabatlarga, shaxs qadr qimmatini yoki birinchi navbatda vazifani bajarilish, natijaga erishish qiziqtiradimi bilish lozim. Liderlik-bu boshqaruvning o‘zaro ta’sir turi bo‘lib lider va ergashuvchi o‘rtasidagi ushbu vaziyat uchun ancha samarali bo‘lgan turli hokimiyat manbalari va umumiy maqsadlarga erishish uchun odamlarga turtki berib yo‘naltirshga asoslanadi. Bundan va yetakchilikni aniqlashtiruvchi boshqa tushunchalardan kelib chiqilsa, lider yetakchilik, ergashuvchi va vaziyatli o‘zgaruvchan funksiyalar hisoblanadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, lider ishlab chiqarishni boshqarish amaliyotiga bozorga doir uslublar izchil va tizimli tarzda singdirilishi, eskicha qarorlar qabul qilish usullarini boshqaruv tizimidan chiqarib tashlash zarur, shuning uchun hozirgi kunda ishlab chiqarishga ilmliroq, mohir boshqaruvchilar-rahbarlar va menejerlar kerak. Hozirgi paytda bu nuqtai nazarga qo‘shilmaydigan korxonani topish qiyin. Lekin buni amalga oshirish uchun rahbarlar mehnatini yangi ma’no va mazmun bilan boyitish kerak. Rahbar mehnatini qayta baholash, uning ishidagi samara bermaydigan, nomigagina bajariladigan barcha ishlarni qat‘iy ravishda qayta baholash zarur.

Р.Б.Коссе – Самарқанд енгил саноат ва иқтисодиёт коллежи ўқитувчиси

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАР МАДАНИЯТИ ВА МАРКЕТИНГ ХИЗМАТЛАРИНИНГ ЎРНИ

Истеъмол маданияти,кенг маънода айтганда истемолчи,шахс бир гурух кишилар ва жамият ўзларининг энг мақбул оқилона истеъмол даражасини тушуниб етиши иқтисодий ва маънавий жиҳатдан уни қондириш йўлларини топа билишдан иборат бўлиш керак. Малуъмки биз бугунги кунда шахснинг баркамол ривожланиши учун юқори даражада моддий ва маънавий имкониятларга эгамиз. Лекин яратилган шундай имкониятларидан, бойликлардан ҳар бир киши, ҳар бир истеъмолчи оқилона фойдалана билишлиги мўҳим ҳисобланади.Бу эса ўз навбатида ҳар бир шахснинг истеъмоли турмуш тарзи қандайлигига жуда боғлиқдир. Бозор иқтисодиёти шароитида аҳолининг истеъмол маҳсулотларига, айниқса озиқ-овқат махсулатларига бўлган талабларини қандириш ва шу асосда истеъмол маданиятини ошириш энг муҳим вазифалардан саналади. Демак сифатли озиқ-овқат махсулатларини ишлаб чиқаришни барқарорлаштириш шу асосида истеъмол маданиятини юксалтириш ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларимизнинг ҳалқаро бозорда рақобат қила олишини таъминлаш ҳозирги кунда ҳам уствор вазифалардан бири бўлиб қолиши зарур.Бугунги кунда ўз истеъмолини тушуниб етиш унинг оқилона даражасига риоя қилиш жамоа орасида ўзини тута билиш каби маъданиятли кўриниши сингари зарурият бўлиб қолиш лозим. Ўз навбатида классикларимиз жуда кўп нарсалардан фойдаланиш учун инсон шу нарсалардан фойдаланишга лаёқатли бўлиши яни юқори даражада маданиятли киши бўлиши керак деб ўқтириб ўтганлар.

Мустақил Республикамизда шахснинг баркамол бўлиб вояга етишишлари, уларнинг ривожланишлари учун жуда катта маъданий-маърифий, спорт соғломлаштириш ишлари амалга оширилмоқда.Бу фундаментал мақсад бизнинг истеъмолга муносабатимизда ҳам намоён бўлиши шарт.Оқилона истеъмол деганда биз шундай истеъмол даражасини

тушунамизки,бу истеъмол ана шу мақсадга эришишимизда максимал даражада кўмак беради.Назаримизда истеъмол маъданияти деганда аввало оқилона истеъмол мўлжаш ва унинг мақсадга мувофиқ шаклланишидаги энг муҳим асослардан бири бўлиб ҳизмат қилиши меёрларни тушунишимиз кераклигини олимларимиз ўз фикирларида айтиб ўтишган.Истеъмолчининг маъданиятини шакллантиришда ва шу асосида аҳоли тўрмуш даражаси сифатини оширишда маркетинг хизмати мўҳим ва асосий ахамиятга эга эканлигини айтиб ўтишимиз зарур.Кўйчилик маркетингнинг мқсади-ишлаб чиқаришнининг максимал ўсиши ва корхонанинг бойишида асосий омил юқори истеъмолга эришишни рағбатлантириш деб биладилар.Аслида маркетинг истеъмолчиларнинг талабларини максимал даражада қондиришдан ибортдир.Маркетингни ўрганувчи ва унга асосланган адабиётларда,маркетингни 4 та мақсади мавжуд деб келтирилади улар қўйдагилар.

1.Мумкин бўлган максимал юқори истеъмолга эришиш.

2.Истеъмолчилар талабининг максимал қондирилишига эришиш.

3.Истеъмолчиларга кенг хилма-хил товарни танлашга имконият яратиш.

4.Аҳоли турмуш даражаси сифатини ошириш.

Юқоридаги маркетингнинг мақсадлари асосан аҳоли турмуш даражаси оширилиши ва унинг сифатли истеъмол маҳсулотлари билан таъминланишига қаратилгандир.Аҳоли турмуш даражасини оширишда қўйдаги тушунчаларни ўз ичига олади улар қўйдагилар. Товар маҳсулотларининг сифати,миқдори хилма-хил, тузиш тартиби нархи. Меҳнатга ҳақ тўлаш даражаси. Маданий муҳитнинг сифатли ташкил этилганлигидир. Юқоридаги фикирларни тўлдириш мақсадида, замон фан ютуқлари буни қўйидагича изоқлайди. 1. Истеъмолдаги энергия балансига эришиш. 2. Асосий озиқ овқат мақсулотлари моддалари,яъни оқсил, ёғ, углеводлар ўртасидаги тўғри нисбатни ўрнатиш. 3. Қанд ва крахмал нисбатининг тўғрилигини таъминлаш. 4. Минерал моддалар ва витаминларни мувозонатлаштириш. Истеъмол маданияти истеъмол товарларидан тежаб-тежаб фойдаланиш, озиқ-овқат маҳсулотларидан оқилона фойдаланиш ҳисобига нобудгарчиликни олдини олиш ва уни нисбати камайтириш муаммоларини ечишига ҳам даҳилдордир.

Маркетинг соҳасида истеъмол маданияти нафақат озиқ-овқат маҳсулотлари истеъмолида нобудгарчиликни камайтириш,балки аҳоли истеъмоли бўлган газ, электроэнергия, сув ва бошқа моддий ашёлардан тежаб-тежаб фойдаланиш, қўрсатилган хизматга яраша ўз вақтида хизмат ҳакларини тўлаш қаби муҳим истеъмол хизматларини қамраб олади. Юртимиз аҳолисининг яхши кунлари кўп тўй хашшомларда бўладиган исрофгарчиликларга ҳеч бир нарсани таққослаб бўлмайди. Ҳеч кимга сир эмас бундай исрофгарчиликлар бор ва кўп, бундан ҳеч кўз юмиб бўлмайди. Бизнинг асосий вазифамиз йўл қўйилаётган юқоридаги каби исрофгарчиликларни камайтиришга жамоатчиликнинг эътиборини қаратишдан

иборат бўлмоғи керак.Шунингдек, истеъмол маданияти, истеъмол қилинаётган озиқ-овқат маҳсулотларининг сифати ва унинг биологиг қиймати билан ҳам чалбарчас боғлиқдир.Аҳоли турмуш даражасини яхшилашда маҳсулотларнинг сифати-даражаси муҳимдир. Бугунги кунда асосий вазифа деб озиқ-овқат маҳсулотлари таркибини микроэлементлар ва (бойитилган) витаминлар билан бойитиш ҳам ҳисобланади.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, биз табиий маҳсулотларни истеъмол қилиб,оқсил, ёғ, углеводлар бўйича меёрий кўрсаткичга эришсакда,бари бир инсон организми витаминлар ва микро-элементларга қўшимча эҳтиёж сезаверади. Бунинг асосий сабаблари шундаки кўп озиқ овқат маҳсулотлари айниқса қишлоқ хўжалик хом ашёлар иистеъмолчилар дастурхонига етиб боргунча тозаланади ва қайта ишлабчиқилади. Хом ашёни қанча кўп тозаласак ва қайта ишласак шунча кўп унинг таркибидаги витаминларини йўқотамиз.Биз истеъмолчи ҳаридорлар кўпинча ёки кўп ҳоларда олий навли ун ёки оппоқ силлиқланиб тозаланган гуручни харид қилшга уринамиз. Бу харидларимизга сифат жиҳатидан тоза бўлиши мумкин,бироқ унинг таркибида витаминларнинг камайиб-организимизда витамин етишмаслигини ўзимиз келтириб чиқарамиз.Шунинг учун инсон организмидаги рационнинг асосий қисмини тозаланган маҳсулотлар ташкил этувчи ривожланган мамлактларда аҳолининг кўпроқ қисми тез-тез айрим турдаги касаликларга чалиниши ва нисбатан камроқ умир кўриши,организимда мунтаззам равишда айнан зарур витаминлар ва минерал моддаларнинг етишмаслиги асосий сабаб кўрсатқичи эканлиги, олиб берилган ўтказилган кўпгина илмий-тадқиқот ишлари асосида тасдиқланган. Бу борада республикамизда йод танқислиги касалликларини олдини олиш мақсадида ош тузини йодлаш ва қамқонликнинг олдини олиш унинг темир билан,озиқ овқат маҳсулотларининг баъзи тўрларини эса витаминлар билан бойитиш борасида олиб борилаётган кенг қамровли амалий ишлар фикримизнинги исботидир.

Баён этилган тезисда билдирилган фикрларни жамлаб ҳулоса қиладиган бўлсак, юқоридаги фикрларни умумлаштириб шуни айтиш мумкинки, агар ҳар биримиз аввало онгимизда ҳар бир раҳбар ўз ишчи ходимларига, ўқитувчи мураббийлар ўз ўқувчиларига, шогирдларига нонни азиз-тутиш, инсон меҳнатини эъзозлаш,исоннинг машаққатли мехнатини хурмат қилиш зарур. Юқорида билдирилган фикирларини тарғибод ва ташвиқот қилиш бизнинг инсоний бурчимиз ва шу йўлда қилинган катта меҳнатимиз шу ишга қўшган ҳиссамиз бўлиб қоларди.

Бердиёров Т.А. – ТДИУ мустақил тадқиқотчиси

МАРКЕТИНГ ЛОГИСТИКАСИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА НАЗОРАТ ҚИЛИШ

Кўпгина маҳаллий фирмалар одатда сотиш, моддий оқим функциялари сифатида ҳисобга олинади. Шунинг учун, реклама ва маркетинг операциялари ўртасидаги муҳим фарқ мавжуд эмас, деб тахмин қилинади. Маркетинг логистикаси маҳсулот ва хизматларнинг юқори нархларини сақлаган ҳолда, маркетинг ва логистика функцияларининг сотиш интеграциялашуви механизми назорати сифатида қаралади. Маркетинг логистикасининг самарадорлигини баҳолаш учун "мукаммал тартиб" тушунчасини ишлатиш мумкин. Аксарият компаниялар маркетинг логистикасига функционал бошқарув асосида қарашади. Лекин логистика тизимига энг катта таъсир кўрсатадиган вазифалардан бири - маркетинг сиёсати ва тактикасидир. Логистика тизимининг сервис чегараларини маркетинг талаблари аниқлайди. Логистика эволюцияси ва уни функционал ташкил қилишда учта муҳим даврлар ўтди. Биринчи давр учта асосий фаолият соҳаси: молия, ишлаб чиқариш ва маркетинг каби логистика функцияларини тақсимлаш билан тавсифланади. Иккинчи давр моддий оқимлар функцияларини мустақил йўналишда ҳаракатланиши билан тавсифланади. Маркетинг тайёр маҳсулотларни прогнозлашни амалга оширишни бошлади ва бошқа барча хусусиятлар аллақачон моддий оқимга тегишлидир. Шуни таъкидлаш керакки, иккинчи даврда молиялаштириш, ишлаб чиқариш ва маркетинг бўйича тан олинган даромадларнинг жисмоний тақсимоти амалга оширилади. Учинчи давр интеграциялашган логистика учун характерланади. Бу бозор талабларига мос равишда структуравий тартибда қурилади. Шунингдек, ушбу давр мобайнида қарорларни қабул қилишнинг стратегик ва операцион даражалари аниқ кўрсатилади. Бош директор ва логистика маркази директори стратегик қарорлар қабул қилади.

Маркетинг логистикасини режалаштириш ва назорат қилиш ташкилотнинг юқори даражасида амалга оширилади, бу эса логистика интеграциясига ҳисса қўшади. Операцион даражадаги ташкилий логистика ёрдами ўз ичига логистика амалиётлари (тарқатиш ва сотиб олиш) ва логистика ресурсларини режалаштиришни олади. Маркетинг йўналишини режалаштираётганда, маркетинг логистикасининг интеграл компонентларини ҳисобга олиш керак. Бу режалаштириш сифатни ва бозорни яхшилашга қаратилган. Шунинг учун қуйидаги функцияларни таҳлил қилиш тавсия этилади:

- талабни башорат қилиш;
- моддий оқимни режалаштириш;
- дастурларни тузиш ва моддий оқимларни йўналтириш;
- омбор ва транспорт операцияларини режалаштириш.

Бу соҳада хорижий олимлар маркетинг логистикаси бошқариш соҳа-

сида ўз илмий ишларида тармоқ ривожланиши, логистика жараёнлар давлат томонидан тартибга солиш, тадқиқот, назарий ва услубий ўрганилган.

Тадқиқот жараёнида таҳлил ва синтез усулларидан фойдаланишган; мантиқий моделлаштириш усулларини қиёсий таҳлил қилиш ва бошқалар. шуни таъкидлаш керакки, режалаштиришда харидорлар буюртмаларининг бухгалтерия тизими ва уларнинг бажарилишини назорат қилиш алоҳида аҳамиятга эга. Бозорларни кенг ўрганиш билан боғлиқ асосий саволларга жавоб олиш учун маҳсулот ва логистика тизимлари ишлаб чиқарилади. Бу изланиш маркетинг логистикасини олдиндан режалаштиради [1].

* **истеъмолчилар хизмати**-буюртмалар жорий тузилиши нима ва у қандай ишланган? буюртмалар манбаларида қандай қарорлар қабул қилинади? хизматнинг ҳозирги даражаси қандай?

* **материалларни бошқариш** - тарқатиш марказлари орқали олиб борилаётган жорий моддий оқимлар нима? омборхона салоҳиятини жойлаштириш соҳасида қандай қарорлар қабул қилинади? моддий бошқарувни самарали бошқаришнинг асосий кўрсаткичлари қандай?

* **транспорт** - бугунги кунда қандай транспорт турлари ишлатилади? қандай ташувчилар фаолияти тахмин қилинмоқда? транспорт самарадорлигининг асосий хусусиятлари қандай?

• **сақлаш** - мавжуд сақлаш объектлари ва технологияси нима, ва улар қандай ишлатилади? қандай қарорлар ишлаш учун масъул бўлган кишилар томонидан амалга оширилади? омбор операцияларининг самарадорлигининг асосий хусусиятлари қандай?

* **инвентаризацияни бошқариш** - мавжуд қимматли қоғозлар қийматини қўшимча ошириш тарғиб қандай? захираларни бошқариш - қандай захираларни бошқариш бўйича қарорлар қабул қилинган? қимматли қоғозлар техник фирмасини нима бошқаради?

Саволлар ташқи омилларни кўриб чиқиш учун ва технологик таҳлил учун ишлаб чиқилган[2].

Логистика занжирининг муҳим элементи талабни башоратлаш ҳисобланади. Бу барча режалаштириш операцияларининг алмаштириб бўлмайдиган қисмидир. Бу қуйидаги асосий компонентларини ўз ичига олади:

- талаб таҳлили;
- товарлар ва мижозлар типологиясини шакллантириш;
- техник, иқтисодий ва маркетинг маҳсулотлари хусусиятларини ўрганиш;
- талаб мониторинги;
- башорат қилиш усулларини ўрнатиш;
- башорат усулларини синаб кўриш ва танлаш;
- кутилган ҳисоб-китобларни бажариш;
- кутилган ва ҳақиқий қийматлар орасидаги фарқларни доимий аниқлаш;
- башорат қилиш тизимининг самарадорлигини баҳолаш.

Моддий оқимнинг тезкор режалаштирилиши маълумотларнинг қайта

ишлаш босқичларига операцион режалаштириш ахборотига асосланган бўлиб, талабнинг башорати ва истеъмолчиларнинг буюртмаларини ҳисобга олиш тизимини шакллантиришдан иборат[6]. Мейт ва Тиксиер жисмоний тақсимотни оператив режалаштириш модели мавжуд бўлган қуйидаги таклифни ишлаб чиқишган:

- моддий тарқатиш тизимини текшириш;
- ресурслар ҳажмини ташкил этиш [8];
- дистрибютор тарқатиш жараёнида товарлар ҳаракатининг ривожланиши;
- тарқатиш вақтида товарлар ҳаракатининг дастурларини ишлаб чиқиш;
- маҳсулотлар техник ва тижорат хусусиятлари рўйхатдан утказиш;
- буюртмаларни кузатиш;
- захираларни кузатиш;
- омборга бўлган эҳтиёжларни ва уларнинг қабул қилинадиган сиғимини аниқлаш;
- транспорт воситалари учун эҳтиёжларни ўрнатиш;
- кўп сонли ҳаракатларни ва маҳсулотни қабул қилиш жадвалини ташкил этиш;
- омборнинг жойлашиши ва ҳажмини оптималлаштириш;
- харидорларга жўнатиш ва етказиб бериш учун маҳсулотларни тайёрлаш;
- жисмоний тақсимотнинг тизим самарадорлигини таҳлил қилиш.

Логистика кўрсаткичлари қуйидаги тоифаларга бўлинади: харажатлар, хизмат, ишлаш, активларни бошқариш, сифат. Америка ва Европа иқтисодчиларининг кўпгина асарларида [7] ушбу соҳаларда ҳар қандай хорижий компаниялар амалда ишлатиладиган хусусиятларининг рўйхати берилган. Логистика харажатларнинг хусусиятлари: қўшма тадқиқот харажатлари, муайян харажатлар, савдо харажатларнинг улуши, етказиб бериш бўйича харажатлар, омбор харажатлари, маъмурий харажатлар, буюртма жараёнлари харажатлари, бевосита иш тўлов харажатлар, бюджет кўрсаткичларига ҳақиқий зарари, бир маҳсулот тўғридан-тўғри рентабеллигидир. Логистика хизматлари хусусиятлари: талабни қондириш нормаси, захираларнинг йўқлиги, жўнатишдаги қайта ҳисоб китоб, етказиб бериш самарадорлиги, қисқа етказиб бериш, буюртма амалга ошириш цикли давомийлиги, харидорлар билан қайта алоқа, савдо агентлари билан қайта, мижозлар шикоятлари сони.

1. Логистиканинг маҳсулдорлик кўрсаткичлари: бир ходимга тўғри келувчи юклар хажми, иш ҳақи бирлиги бўйича савдо бирликлари, савдо агенти учун буюртмалар сони - традер, олдинги даврлар стандартларга таққослаш, мақсад стандартлари, ҳосилдорлик коэффициенти.
2. Логистика активларини бошқариш хусусиятлари: захираларнинг айланмаси, захираларни қўллаб-қувватлаш харажатлари, захиралар даражаси, тўлдириш, эскирган захиралар, соф активларнинг рентабеллиги

(асосий воситалар) ва инвестицияларнинг рентабеллиги.
3. Логистика сифат кўрсаткичлари: товарларнинг зарарланиш частотаси, бренд товарлар нархи, шикоятлар сони, маҳсулот сони [4].

Ташқи баҳо бериш истеъмолчилар кутган натижаларга эришиш учун биринчи қадамлардан ҳисобланади ва бу бошқа корхоналар билан қуйидаги соҳаларда қиёсий фаолият таҳлили учун амалга оширилади: активларни бошқариш, харажатлар, харидорлар хизмати, маҳсулдорлик, сифат, стратегия, технология, транспорт, сақлаш, буюртмаларни қайта ишлаш. Агар маркетинг логистикаси самарадорлигини баҳолаш зарур бўлса, "мукаммал тартиб" тушунчасини қўллаш мумкин.”

"Мукаммал буюртма" - қуйидаги стандартларга мос келадиган фаолиятни ташкил этиш:

- буюртма қилинган барча товарлар бўйича барча маҳсулотларни етказиб бериш;
- 1 кунлик мумкин бўлган фарқ билан харидорларга керакли муддатда етказиб бериш;
- буюртма бўйича тўлиқ ва аниқ ҳужжатларни сақлаш;
- етказиб бериш назарда тутилган шартларни амалга ошириш (тўғри товарлар тўплами, фойдаланиш учун тайёр маҳсулот, нуқсонларининг йўқлиги, ва ҳакозо). Хизмат сифатига эришиш йўлида қуйидаги тўсиқлар мавжуд [5].

Буюртмаларнинг бажарилишига аралашиш: буюртма олишдаги хатолик, нотўғри маълумот (нотўғри маҳсулот коди), буюртма қилинган маҳсулотнинг етишмаслиги, овердрафт, етказиб бериш шартларини бузиш, буюртма тартибидаги хатолар, буюртма бериш жараёнида бепарволик, етказиб беришни кечиктириш, етказиб беришдаги кечикишлар, тўловларни ўтказишда хатоликлар, муддатидан олдин етказиб бериш, транзитда нуқсонли товарлар, биллингдаги хатолар, тарифдан ошадиган тўлов миқдори, харидор ҳисоб варағидан тўланмаган тўлов. Одатда, маркетинг каналида маркетингни бошқариш логистикаси жорий ва келажакдаги режаларни ишлаб чиқиш, корхона ташкилий тузилмаларини яратиш, мониторинг тизимларини яратиш учун логистика ёндашувидан фойдаланилади деган хулосага келиш мумкин. Биз логистикани бошқариш механизмининг маркетинг канали сифатида қарасак, маҳсулотлар ва хизматлар қийматини етарли сақлаш, маркетинг ва логистика вазифаларини интеграцияга қаратилган, деб айтиш мумкин. Натижада, маркетинг логистикасида алоҳида рол ўйнайди, чунки товарлар ва хизматлар учун истеъмолчилар талабининг қондириш воситаси ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, маркетинг логистикаси – бу моддий оқимлар ва тайёр маҳсулотларни бошланғич жараёнлардан бошлаб, хом ашёлар оқимини жойлаштиришдан охирги мижозгача зарар етмаган ҳолда боришини режалаштириш, оператив бошқаришдир. Маркетинг ва логистика ғояларини бирлаштирувчи логистика маркетингидир. Маркетинг туфайли портфелли хизматлар томонидан ишлаб чиқарилган

маҳсулот ассортименти юкини камайтиришга эришилади. Технология стандарт қадоқлаш талаблари, маҳсулот сифати бўйича ишлаб чиқарилган оптимал ҳаракат ресурслари ва маҳсулотларини аниқлайди, Маркетинг логистикасида замонавий ахборот технологиялари муҳим рол ўйнайди: Компютерлар, терминаллар; маҳсулотларни ягона кодлаш; сунъий йўлдош орқали кузатув транспортини бошқариш тизимлари; электрон маълумотлар алмашинуви ва пул ўтказмалари. Маркетинг логистикаси харажатлари маҳсулот таннархининг 30-40% ини ташкил этади.

Маркетинг тактикаси бевосита логистиканинг харажат кўрсаткичларига таъсир қилади. Лекин, кўпинча маҳсулотлар фақат маркетинг талабларига асосланиб ишлаб чиқарилади. Унда кўп ҳолларда табиий тақсимланиш баҳосига қандай таъсир қилиниши ҳисобга олинмай, маҳсулотлар ўзгаришига олиб келади.

Маркетинг логистикаси барча операцияларни таҳлил қилиш, режалаштириш, ташкил этиш ва мониторинг қилишни англатади. Маркетинг логистикасини ривожлантиришда трансмиллий транспорт тармоғи, логистика уюшмалари, Евро-4 талабларига жавоб берадиган траснпорт воситалари, замонавий омборхоналар ва логистика марказларини қуришни талаб қилади. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг салмоғи ШҲТ ва қўшни давлатлар билан олиб борилаётган сиёсий келишувлар, Буюк Ипак Йўлининг марказида жойлашганлигимиз бизга бир қанча устунликларни бермоқда. Божхона иттифоқи такомиллаштирилмоқда. Ушбу халқаро бозорлардаги фаолиятнинг етакчи стратегияси - транзакцияларни аниқлаштириш ва унинг юқори тезлиги, яъни ривожланган мамлакатлардаги каби асосий фаолият логистика ролини мустаҳкамлашдан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абрамов А., Галабурда В., Иванов Е. (2012), Маркетинг на транспорте. М .: Желдориздат.
2. Аникин Б. (2012), Основы логистики. М .: Проспект. р339.
3. Гаджинский А. (2015), Логистика. М .: Издательский Дом «Дашков и Ко ».
4. Канке А., Кошевая И. (2014), Логистика. Москва: Инфра-М Форум. Р 384.
5. Крекова М.М., Тупчиенко В.А., Лисичкина Ю.С., Жагыпарова А.О., Новиков В.С., Крамаренко Е.Р. (2016), Китай: антикризисный потенциал экономики и его влияние на социальную сферу. Международный журнал по экономике и финансовым вопросам, 6 (1S), 312-317.
6. Кунельбаев М., Мекебаев Н., Кабдолдина А., Сейдильдаева А., Сильнов Д.С. (2016), Метод исследования трубчатых солнечных коллекторов в лаборатории. Журнал теоретических и прикладных информационных технологий, 88 (3), 525-529.
7. Миротин Л. (2015), Транспортная логистика. 1-е изд. М .: Экспертиза.
8. Захаров А.А., Оленников Е.А., Паюсова Т.И., Сильнов Д.С. (2016), Облачный сервис для анализа данных в медицинских информационных системах с использованием искусственных нейронных сетей. Международный журнал прикладных инженерных исследований, 11 (4), 2917-2920.
9. www.logistika.uz
10. www.tradingeconomics.com

Г.Т.Шарипова – СамИСИ магистранти

ЎЗБЕКИСТОН ЕНГИЛ САНОАТИДА БОШҚАРИШ ТИЗИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Юртимизда енгил саноат тармоқлари доирасида амалга оширилаётган ислоҳотлар кўлами ушбу соҳа маҳсулотлари ҳажмини йилдан-йилга оширишнинг истиқболли режаларини тадбиқ этмоқда. Енгил саноат ва тўқимачиликнинг 2014–2020 йиллардаги ривожланишининг мақсадли прогноз кўрсаткичларига мувофиқ, мазкур саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми 2020 йилга қадар 6,9 трлн. сўмни ташкил этиши, бунда ип калава ишлаб чиқариш ҳажми 2,5 баробарга, газлама ишлаб чиқариш ҳажми 2,8 баробарга, шойи газлама ишлаб чиқариш ҳажми 2,7 баробарга, нотўқима матолар ишлаб чиқариш ҳажми 1,5 баробарга, трикотаж матолар ишлаб чиқариш ҳажми эса 2,7 баробарга ортиши белгиланганлиги юқори аҳамиятга моликдир.

Бугунги кунда мамлакатимизда кенг турдаги сифатли енгил саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилишини ташкил этиш, унинг ишлаб чиқарилишини маҳаллийлаштиришни чуқурлаштириш, шунингдек, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг экспорт салоҳиятини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Ўтган давр мобайнида енгил саноат тармоқларини ривожлантириш учун зарур ҳуқуқий база ва қулай шароитлар шакллантирилди.

Юртимизда енгил саноат корхоналарини ривожлантиришда инновацион бошқарув усулларини қўллаш, инновация ва инвестицияларнинг бошқариш самарадорлигини ошириш, маҳсулот сифатини бошқариш тизимини такомиллаштириш орқали халқимизни сифатли енгил саноат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини таъминлаш ҳамда тармоқнинг экспорт салоҳиятини оширишга қаратилган ишлар амалга оширилмоқда. Ушбу фаолиятга тегишли барча ишларнинг самарали олиб борилишига асос сифатида Республикамиз ҳукумати томонидан қабул қилинган қатор меъёрий ҳужжатларни келтириб ўтишимиз мумкин бўлади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли, 2017 йил 14 декабрдаги «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5285-сонли, 2018 йил 22 январдаги «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида»ги 5308-сонли фармонлари, 2016 йил 21 декабрдаги «2017-2019 йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида»ги қарорининг қабул қилиниши бунга мисол бўла олади. «Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси»да «юқори технологияли

қайта ишлаш тармоқларини, энг аввало, маҳаллий хом ашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришга қаратилган сифат жиҳатидан янги босқичга ўтказиш орқали саноатни янада модернизация ва диверсификация қилиш»[1] бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган. Шунингдек, мамалкатимизда пахта, аралаш ва ипак газламалар, тикувчилик, трикотаж ва тери маҳсулотлари ҳамда бош кийимлар, пайпоқлар, тўқимачилик галантерияси ва фурнитураси ишлаб чиқараётган корхоналар 2020 йилнинг 1 январига қадар даромад солиғи, мол-мулк солиғи, кичик корхоналар ва микрофирмалар ягона солиғи, Республика Йўл фонди тўловларидан озод қилинган. Бундан ташқари ушбу корхоналар олиб келинаётган асбоб-ускуналар, эҳтиёт қисмлар ва Республикада ишлаб чиқарилмаётган хом-ашё ва материаллар учун божхона солиғидан озод қилинган. Мамлакатимизда олиб борилаётган мана шундай пухта ўйланган ислоҳотларнинг изчил амалга оширилиши натижасида саноат тармоғининг барча йўналишлари, айниқса енгил саноат соҳаси жадал ривожланиб, иқтисодиётнинг етакчи секторларидан бирига айланди.

Шу билан бирга, яна алоҳида эътироф этиш жоизки, юртимизда тайёрланаётган енгил саноат маҳсулотларига хорижда ҳам талаб катта. Бунга сабаб миллий пахта толасидан ишлаб чиқарилаётган халқ истеъмоли моллари ўзининг табиийлиги, юқори сифати билан ажралиб туради.

Ҳозирги жаҳон иқтисодиёти интеграциялашуви жараёнлари долзарблик касб этиб бораётган бугунги кунда енгил саноат корхоналарининг барқарор ривожланишига катта эътибор қаратилмоқда. Ушбу тармоқнинг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш умумий ҳажмидаги улуши ривожланган мамлакатларда, жумладан, Германия, Франция, АҚШда 6-8%ни, Италияда 12%ни ташкил этади. Мазкур мамлакатлар бюджетининг 20%гача қисмини тўқимачилик тармоғи ва кийим-кечаклар ишлаб чиқариш ҳисобига шакллантириш имконини беради. Бизга маълумки, жаҳонда охирги 10-15 йил ичида енгил саноати корхоналарини ривожланишида сезиларли ўзгаришлар кузатилмоқда. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви натижасида кийим-кечаклар ишлаб чиқариш маркази Европа ва АҚШдан «учинчи дунё» мамлакатлари, хусусан, Жанубий-Шарқий, Марказий Осиё, Жанубий Америка давлатларига кўчди[2].

Енгил саноат корхоналарини ривожлантириш бўйича кимёвий тола ва иплардан шакл сақловчанлик хусусияти юқори бўлган, замонавий газламалар ва хом ашё сарфини қисқартириш имконини берадиган «енгиллаштирилган» трикотаж маҳсулотларини яратиш, ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга имкон берадиган илғор техника ва технологияларни тадқиқ қилиш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Бунда «учинчи дунё» мамлакатлари, хусусан, Жанубий-Шарқий, Марказий Осиё,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони. // www.lex.uz.
[2] www.oecd.org

Жанубий Америка давлатларида тўпланган тажрибаларни қўллашга алоҳида эътибор қаратиш ва республикамиз енгил саноати корхоналарини бошқариш самарадорлигини оширишнинг илмий асосларини такомиллаштириш, енгил саноат корхоналарини ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш ва уларда бошқариш тизимини ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Енгил саноат корхоналари томонидан калава ипдан тортиб то тайёр тикув-трикотаж маҳсулотларигача кенг ассортиментли экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқарилмоқда. Бу соҳада иқтисодиётимиз таркибидаги экспортёр корхоналар сони 260 тага етиб, улар ишлаб чиқарган маҳсулотлар экспорти таркибига бамбукли, меланж ва аралшма калава ип, жаккард ва ригел матолар, тайёр тикув-трикотаж каби янги турдаги маҳсулотлар қўшилмоқда ва умумий ҳисобда 50 дан ортиқ давлатга енгил саноат маҳсулотлари экспорт қилинмоқда. Сўнгги йилларда Лихтенштейн, Мавритания, Покистон, Грузия, Хорватия, Нигерия каби ҳудудлардаги бозорларга ҳам юртимизда етиштирилган енгил саноат корхоналари маҳсулотлари кириб бормоқда.

Ўзбекистон енгил саноат корхоналари ташқи бозорларни диверсификация қилиш ҳамда экспорт номенклатурасини ошириш мақсадида Германия, Корея, Хитой, Россия, Белорусь, Латвия, Туркия каби мамлакатларда ўтаётган Халқаро кўргазмаларда фаол иштирок этиб келмоқда. Маҳаллий ва хорижий истеъмолчилар талабини ўрганиш, экспорт географиясини кенгайтириш ҳамда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни янги бозорларда сотиш ва салоҳиятли харидорлар билан янги шартномалар тузиш мақсадида 100 дан ортиқ корхонанинг бир қатор халқаро енгил саноат маҳсулотлари ва тўқимачилик кўргазмаларида иштирок этиши назарда тутилган. Енгил саноат корхоналарининг бундай халқаро кўргазмаларда иштирок этиши эса, уларнинг экспорт салоҳиятини янада юқори поғоналарга кўтариш имконини беради.

IV ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

Ж.Р. Зайналов– д.э.н., профессор СамИЭС,
С.С. Алиева– старший преподаватель СамИЭС, к.э.н.

КАЧЕСТВО УСЛУГ, КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ФИНАНСОВОГО УСПЕХА ТУРИСТСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Совершенствование правовой основы, реформирование всех сфер жизни, в том числе сферы туризма являются ключевыми задачами Стратегии действий Республики Узбекистан по пяти приоритетным направлениям в 2017-2021 годах[1].

Качество турпродукта и сервиса превратилось в основной рычаг экономического развития сферы туризма страны. Во многих странах достижение высокого качества турпродукта и сервиса отвечает требованиям потребителя, что стало основным элементом экономической стратегии и важным фактором конкурентоспособности финансового успеха.

Качество турпродукта – одна из сложнейших и многосторонних категорий, с которой приходится сталкиваться туристу на протяжении всей жизнедеятельности: экономической, социальной и экологической. Она охватывает все сферы финансово-экономических отношений, и оказывает существенное влияние на материальное производство и социальную сферу. Здесь главным инструментом является качество услуг, предлагаемых туристам. Это видно по странам с успешно развивающейся экономикой, которая позволяет: соблюдать все предъявляемые к туристским услугам требования; снижать издержки обслуживания, повышать производительность труда, тем самым, способствуя успешной деятельности и организации; оптимально расходовать все виды ресурсов; обеспечивать взаимопонимание и взаимодействие по всей цепочке от приема до отправки туристов, т.е. потребителя туристской продукции, воплощать услуги, ожидаемые потребителем, непрерывно совершенствовать процессы обслуживания и управления; обеспечить удовлетворение, как туристских предприятий, так и потребителей турпродукции.

[1] Указ Президента РУз «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., № УП-4947

На успех в конкурентной борьбе нацелено качество услуг – система бизнеса. О существовании этой взаимосвязи между качеством и финансовым успехом в бизнесе свидетельствует мировой опыт. Возврат (окупаемость) вложенных средств у предприятий с более высоким качеством турпродукции и услуг по сравнению с другими туристскими предприятиями намного выше, доход соответственно тоже. В этом плане успех приходит к туристским предприятиям, которые предлагают турпродукцию, услуги и сервис более высокого качества и более полно удовлетворяют потребителя турпродукта качества – инструмент реализации финансовой политики предприятия в области качества турпродуктов. Это означает, что система не может проектироваться вне такой политики.

Качество турпродукта – это определяющий компонент процедур, процессов и ресурсов. Именно по этим компонентам можно оценивать качество турпродукта, и это способно обеспечивать надлежащее конкурентоспособное функционирование турпредприятий. Отсутствие любого из этих компонентов делает качество турпродукта неполноценным. Вместе с тем качество турпродукта – не набор, а органическая совокупность компонентов, в которой каждый из них связан с остальными определенными финансовыми отношениями.

Под финансовым управлением качеством понимаются методы и виды деятельности оперативного характера, используемые для выполнения требований к качеству турпродукта, а также те аспекты общей функции руководства, которые определяют политику в области качества турпродукта, цели и ответственность, и осуществляют их путем планирования качества турпродукта, обеспечения и улучшения качества турпродукта в рамках системы качества турпродукта. Отдельные обязанности по управлению качеством турпродукта лежат на руководителях всех структурных подразделений, но руководство деятельностью этих должностных лиц возлагается на первое лицо турпредприятия. Управление качеством турпродукта в трактовке стандартов ИСО [1] направлено на устранение причин неудовлетворительного функционирования процессов в системе качества турпродукта.

Улучшение качества турпродкута заключается в разработке мероприятий, принимаемых повсюду на турпредприятиях с целью повышения эффективности и результативности их деятельности и процессов для получения прибыли, как для турпредприятий, так и для их потребителей-туристов. Целью улучшения является получение финансовых результатов в области качества турпродукта, превышающих уже достигнутые.

Система управления качеством турпродукта имеет свои цели, функции и ресурсы, свое нормативное и информационное обеспечение.

[1] Международная организация по стандартизации.

Связь с остальными системами туристских предприятий осуществляется в процессе работ, выполняемых в течение всего жизненного цикла туристских услуг.

В настоящее время конкуренция – это главный фактор, который заставляет туристские предприятия в обязательном порядке непосредственно заниматься системой управления качеством под угрозой вытеснения с туристского рынка, а эффективность результатов деятельности предпринимателя на туристском рынке будет строго и объективно оцениваться. В свою очередь, качество работы туристского предприятия определяется уровнем качества управления туристским предприятием. Отсюда следует: чем выше качество управления, тем выше прибыльность туристского предприятия. Таким образом, можно сделать следующий вывод: улучшая качества турпродукции, предприятие создает предпосылки для роста своей прибыльности.

Согласно философии ИСО 9000, прибыльность предприятия в широком смысле слова определяется уровнем качества работы предприятия. Прибыльность тем выше, чем выше уровень качества работы предприятия. В стандартах ИСО 9000 под термином качество понимают – способность удовлетворять потребности и ожидания всех заинтересованных сторон. Термин качество используется с такими определяющими словами как «плохое», «низкое», «высокое», «хорошее», «отличное».

Настоящий международный стандарт поощряет применение процессуального подхода в управлении организацией и ее процессами, а также рассматривает его как способ быстрого выявления и реализации возможностей для улучшения.

Следовательно, для создания системы управления туристским предприятием, которая будет обладать высоким уровнем качества турпродукта или услуги, необходимо внедрить использование следующих восьми основных принципов менеджмента качества турпродукта: организация, сфокусированная на туриста: ключевая роль руководства; вовлечение населения к путешествиям; процессный подход; взаимовыгодные отношения с туристами; системный подход к управлению; подход принятия решений, основанный на фактах; постоянное улучшение качества услуг.

Стандарты разрабатываются и устанавливаются, чтобы помочь предприятиям сферы туризма всех типов и размеров использовать эффективные системы качества услуг. Без функционирующей и документированной системы качества турпродукта, сегодня трудно убедить турпредприятия в том, что ты являешься надежным партнером. Зарубежные туристские компании, которые являются в западном регионе основными наиболее крупными потребителями товаров и услуг, быстро развивают у своих клиентов корпоративную культуру потребления турпродукта, основанную на высоких стандартах качества. Так, всегда туристские предприятия требуют от своих партнеров обязательного

наличия сертификатов. В случае отсутствия сертификата теряются шансы в оказании услуг по предоставлению автотранспорта, питания в ресторане, гостиницах. Вначале это воспринималось как метод давления на «наших», нежелание работать с территориальными субъектами услуг. Но, со временем все убедились, что это не так. Жесткая конкуренция заставляет все время совершенствоваться. Ведь, как известно, состояние покоя и отсутствие движения вперед – уже есть отставание.

В Узбекистане во всех административных территориях каждый предприниматель отлично должен знать, что стандарты ИСО 9000 являются основой успешного ведения бизнеса. И если в 2001 году в этом направлении делались только первые шаги, то уже в 2018-м были сертифицированы все организации.

С начала этого года еще более 10 организаций подтвердили свою способность удерживать высокую планку качества. Нужно отметить, что теперь сертификаты соответствия получают предприятия самого разного профиля работы, начиная от консалтинговых и инжиниринговых фирм до сервисного обслуживания. Радует и то, что в нашей стране появился первый программный документ, где требования соответствия стандартам качества названы приоритетными. Это стратегия инновационного развития до 2021 года. Наиболее результативно систему качества внедрили гостиницы. Причина все та же: партнер, а это, как правило, предприятия туризма, включают требования о наличии сертификата в заключаемые контракты по размещению туристов. Убедившись на деле в том, что гостиница дает реальную экономическую отдачу, те же туристские предприятия уже заявляют о своей готовности работать над сертификацией на соответствие международным стандартам.

Но сегодня требование времени заключается не только в том, чтобы уже функционирующие предприятия выходили на соответствующий уровень услуг. Важно помнить, что стандарты качества услуг – это, в конечном счете, философия менеджмента качества турпродукта, его идеология, основанная на комплексном подходе. Ни один из элементов этого комплекса нельзя считать второстепенным.

Следовательно, в современных условиях не только туристские предприятия должны владеть более качественными турпродуктами, но и другие предприятия услуг, по призванию способные оказывать услуги туристам. Это гостиницы всех типов, предприятия автотранспорта, рестораны, сети общественного питания и другие предприятия, могущие оказывать услуги, предоставлять товары и т.д.

Т.Қ.Эргашев – ҚарМИИ доценти,
М.Ў. Саидмуродова – ҚарМИИ магистранти

ЗАМОНАВИЙ БАНКЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА МЕНЕЖМЕНТНИНГ УНГА ТАЪСИРИ

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳозирга қадар юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамият ривожини янги босқичга кўтариш, ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш мақсадида ишлаб чиқилган бўлиб келгусида амалга ошириладиган ишлар учун асосий дастур бўлиб хизмат қилади. Унда пул-кредит сиёсатини янада такомиллаштириш, солиқ юкини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш, янги турдаги суғурта хизматлари, хорижий инвестициялар ва кредитларни жалб қилиш ва улардан самарали фойдаланиш масалалари ҳал қилиш бугунки кунннинг асосий вазифаси қилиб белгиланган.

Бугунки кунда мамлакат банк тизимини ислоҳ қилиш, эркинлаштириш ва барқарорлигини ошириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим йўналишларидан биридир. Банк тизимини ислоҳ қилиш борасидаги дастурларда биринчи навбатда уларнинг барқарорлигини таъминлаш, инвестицияларни жалб қилиш, фаолиятини халқаро стандартларга мувофиқ янада такомиллаштириш, кўрсатилаётган молиявий хизматлар ҳажмини янада кенгайтириш ҳамда аҳолининг уларга бўлган ишончини ошириш доимий эътиборда. Бунинг натижасида 2018 йилда мамлакатимиз иқтисодиётига 1 миллиард доллардан зиёд инвестициялар ўзлаштирилган, шунинг ҳисобидан 133 та янги корхона ишга туширилган. Жорий йилда тўғридан-тўғри инвестициялар иштирокида 209 та ҳудудий лойиҳа амалга оширилиб, 1.9 миллиарт доллар ёки ўтган йилдагига нисбатан 2 баробар кўп маблағ ўзлаштирилиши режалаштирилган[1].

Ҳаракатлар стратегияси лойиҳасида асосий эътибор нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ҳажми ва қамровини ошириш борасидаги чора-тадбирлар иштирокчиларга катта имкониятлар берди. Бунда аҳолига муайян вақт давомида белгиланган лимит доирасида банк маблағлари ҳисобидан товар ва хизматлар учун тўловларни амалга ошириш имконини берувчи кредит карталарини муомалага киритиш, пластик карталар орқали ҳисобрақамларга масофадан хизмат кўрсатиш тизимларидан фойдаланиш имкониятини кенгайтириш, тўлов терминалларидан фойдаланганлик учун ижара тўлови миқдорини икки мартага қисқартириш, пластик картадан маблағларни бошқа картага ўтказиш бўйича кўрсатиладиган хизматлар учун тарифларни камайтириш бўйича алоҳида эътибор қаратилган.

[1] www.stat.uz

Ҳаракатлар стратегиясида банк ва молия тизимида ислоҳатларни жадал давом эттириш, ва бу соҳага замонавий бозор механизмларини кенг қўллаш ҳисобига макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш, иқтисодиётнинг юқори ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, бошқарув соҳаси ходимларини тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш бўйича ишлар олиб бориш кўрсатиб берилди. Лекин бугунки кунда банк тизимидаги асосий муаммолардан бири бу уларнинг устав капиталида давлат улушининг юқорилигидир. Бу эса ўз навбатида банк тизими бошқарувида ўзгартиришлар киритилишини талаб қилади. Банкларларнинг ишларида давлат аралашувини қисқартириш ёки уни бартараф этиш банкларнинг рақобатбардошлигини таъминлайди ва банк менежментида замонавий банкларлар тажрибасини қўллашга имкониятини беради.

Бу соҳадаги ўзгаришлар банкларнинг самарали фаолият юритишига ва уларнинг ишончлилигини таъминлашга, кўпроқ даромад олишини таъминлайди. Бунинг учун банкларнинг ликвидлилиги қай даражада эканлигини аниқлаш жуда муҳимдир. Ликвидлилик банк фаолиятини тавсифлайдиган асосий сифат кўрсаткичларидан бири бўлиб, у банк томонидан мажбуриятлар ўз вақтида бажарилиши ҳамда активлар ўсишини таъминлаш билан бирга депозитлар ва қарз маблағлари даражасини самарали бошқаришни билдиради.

Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида банклар ва уларнинг барқарор фаолият олиб бориши ҳар жиҳатдан унинг фаолиятини қай даражада ташкил этилганига боғлиқ бўлади. Ҳар бир тадбиркор ёки хўжалик юритувчи субъектнинг асосий мақсади даромад олишдир, шу нуқтаи назардан тижорат банклари ҳам ўз фаолиятлари натижасида даромад олиб боради.

Тижорат банкларининг ресурсларини оптимал даражада ушлаб туриш энг асосий вазифалардан бири бўлиб бунинг учун банкларнинг жалб қилинган маблағлари устидан доимий операцион менежментни олиб бориш лозим бўлади. Бунда, қуйидагиларни инобатга олган ҳолда таҳлил қилиб бориш керак:

- депозитлар барқарорлигини таъминловчи стратегияни аниқлаш;
- тижорат банклари жалб қилинган ресурслари таркибини, депозитлар барқарорлигини, депозит манбасини домий мониторинг қилиб бориш керак;
- кредит ресурсларини шакллантириш ва уларнинг ҳисобини мувофиқлаштириш ҳамда ссуда рақамлари мониторингини олиб бориш.

Т.Эрматов – ТМИ, “Менежмент ва маркетинг” кафедраси доценти

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИ МОЛИЯСИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Инвестицион фаолиятнинг диверсификацияси биринчи навбатда суғурта компанияси инвестицион портфелининг барқарорлигини кўзда тутади. Маълумки, суғурта компаниялари уларга ўз маблағларини қўйиши мумкин бўлган инвестицион лойиҳалар тўплами сармоя бозорининг ривожланиш даражасига боғлиқ. Ҳозирги пайтда суғурталовчиларнинг вақтинчалик бўш турган маблағлари тижорат банклари депозитларига, қимматли қоғозларга жойлаштирилиши, корхона ва кўчмас мулкларга инвестиция қилиниши мумкин. Инвестиция портфели таркиби ва тизимини тартибга солиш одатда киритилган маблағларнинг турлари бўйича минимум ва максимум миқдорни белгилаш йўллари орқали амалга оширилади.

Суғурта ташкилотлари тасарруфида катта миқдордаги молиявий ресурсларни тўпланиши, уларни иқтисодиётни ривожланишида муҳим рол ўйнашини кўрсатади. Суғурта қилувчилар томонидан молия ресурсларининг тўпланиши суғуртани фаол инвестицион сиёсат йўли билан иқтисодиётнинг асосий омилига айлантиради. Бошқача айтганда, суғурталовчилар турли полис эгаларидан олинган пассив пул маблағларини молия бозорида ҳаракат қилувчи актив капиталга айлантиришади.Суғурта компаниясининг инвестицион портфели тизими, унинг молиявий барқарорлигини таъминлаши лозим ва у одатда суғурта назорати меъёрлари билан белгиланади.

Унда суғурта захираларининг вақтинчалик бўш турган маблағларини жойлаштириш тартиби белгиланади.

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар маблағлар айланишини тўғри ташкил этиши муҳим аҳамиятга эга,чунки маблағлар айланиши энг маъқул вариантини топиш пировард натижада корхона фаолиятини фойда билан якунлашига олиб келади. Суғурта фаолиятида жорий натижалар суғурта бадаллари кўринишида суғурта компаниялари ҳисоб рақамига келиб тушган пул маблағлари айланиши ҳисобидан даромад келиш имконияти юзага келади. Ушбу даромадлар суғурта компанияларини суғурта захираларини шакллантириш орқали харажатлар қисмини қоплаш ва фойда олиш манбайи бўлиб хизмат қилади.Суғурта фаолиятининг жорий таҳлил пул маблағлари тушуми орқали ўзига олаётган мажбуриятлар объективлилигини белгилайди. Республика суғурта компанияларининг суғурта активларини жойлаштириш тартиблари инвестициялашнинг қонунчиликда белгиланган қуйидаги асосий талабларига жавоб бериши лозим[1]:

[1]Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги томонидан тасдиқланган, 2006-йил, 22-апрелда 1565-рақам билан давлат рўйхатидан ўтган “Алоҳида суғурта тавакалчиликлари бўйича мажбуриятлар, жами

Инвестицион имкониятнинг асосий қисми“ ўзлик маблағлар”га тўғри келади. Суғурта резерви эса доимий равишда суғурта қопламалари тўланишига қараб ўзгариб туради.Суғурта компаниясининг инвестицион портфели тизими, унинг молиявий барқарорлигини таъминлаши лозим ва у одатда суғурта назорати меъёрлари билан белгиланади.Унда суғурта захираларининг вақтинчалик бўш турган маблағларини жойлаштириш тартиби белгиланади.

Ҳар қандай инвестицион лойиҳани амалга оширишда асосий риск сифатида хизматлар бозорида кучли рақобатчининг бўлишидир. Бир томондан кучли рақобатчининг мавжудлиги фаолият юритаётган субъектларни иқтисодий фаолликка ундайди.

Умуман олганда компания учун қуйидаги турдаги рисклар мавжуд бўлиб улар лойиҳани амалиётга жорий этишда ўз таъсир доираларини ўтказишлари мумкин.

Сиёсий рисклар –бу турдаги рисклар давлатдаги сиёсий жараён билан бевосита боғлиқ бўлиб ўз ичига қуйидагиларни олади:

1. Ҳарбий ҳаракатлар натижасида фаолият кўрсата олмаслик;
2. Кутилмаган ҳодисаларнинг рўй бериши натижасида вақтинчалик фаолиятни юрита олмаслик;
3. Солиқ қонунчилигида ўзгаришлар.

Ўзбекистон Республикаси сиёсий аҳволнинг тинчлигига қарамасдан бу кўринишдаги рисклар давлатимизга чегарадош бўлган давлатлардаги нотинч аҳвол сабабли мавжуд бўлиб қолди.

Риск даражасини камайтириш тадбирлари:

- Давлат органлари билан компания аксиядорлари ўртасидаги алоқани мустаҳкамлаш.

Ишбилармон муҳитини яратишдаги ҳуқуқий рисклар – бу рисклар қонунчилик базасининг номукаммаллиги, ҳужжатларни тўғри тузиш, расмийлаштирилмаслиги билан бевосита боғлиқ.Ўзбекистон Республикасида тадбиркорлик субъектлари учун барча қонунчилик базаси мукаммал ишлаб чиқилганлигига қарамасдан бу турдаги рискни инобатга олмаслик мумкин эмас. Бунинг асосий сабаби бюрократиянинг мавжудлиги. Аммо компания фаолиятини давлат қўллаб-қувватлаётгани бу турдаги риск даражасини пасайишига олиб келади.

Суғурта компаниялари фаолиятидаги риск даражасини камайтириш чора-тадбирлари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

- Фаолиятни олиб боришда ҳужжатларни аниқ шаклларини юритиш, яъни юритилаётган ҳисоб-китоблар билан боғлиқ, шартномалар билан ва статистика билан боғлиқ ҳужжатларни ишончли тарзда юритиш;
- Ҳужжатларни расмийлаштиришда бу соҳа мутахассисларини жалб этиш. Ушбу чора-тадбир орқали мавжуд рискнинг эҳтимоллик зарари

мажбуриятларнинг йўл қўйиладиган энг кўп ҳажмини ва суғурталовчиларнинг тўлов қабилияти меъёрларини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низом.

имконият даражасидан келиб чиқиб аниқроқ ўлчанади ва суғурта мукофотлари мавжуд рискка мос равишда белгиланади;

- Юқори малакали юрист, таржимонлар ва суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари учун қўшимча молиявий ресурсларни ажратиш.Ушбу қўшимча молиявий ресурслар рағбатлантириш вазифасини ўташи билан бирга соҳа мутахассисларини фаолият юритишга ундайди.

A.T. Mardonova – SamDU dotsenti

BANK XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Banklar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida muhim funktsional vazifaga egadir. Jaxon amaliyitida mazkur moliya institutlari iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarini ma’lum maqsadlar yo‘lida birlashtiruvchi muassasa sifatida e’tirof etiladi. Xususan, mamlakatimizda ham istiqlol yillarida qo‘lga kiritilgan barcha yutuqlarda tijorat banklarining ulushi ortib borayotganligi sababli banklarning iqtisodiyot tayanchi ekanligi amaliyotda o‘z isbotini topdi.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlar ishonchini yanada mustahkamlash, ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar turi va ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tizimli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ko‘rilayotgan chora tadbirlar qatorida mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniye, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug‘urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlanirishga alohida e’tibor qaratilayotganligini kuzatishimiz kerak.

Binobarin, tijorat banklari yangi moliyaviy xizmatlarni barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan muhim vosita deb hisoblaydi. Chunki banklar yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etmasdan va sifatini yaxshilamasdan moliya bozorida samarali faoliyat ko‘rsata olmaydi. Darhaqiqat, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va takomillashtirishning innovatsion jihatlari dolzarb muammo bo‘lib, hozirgi sharoitda moliya bozorining raqobat muhitida moliyaviy xizmatlar sifati enh muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bank infratuzilmasining izchil yaxshilanib borishi banklarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga ijobiy ta’sir etib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bozor mexanizmlarining mustahkamlanishiga sharoit yaratmoqda. O‘zbekiston tijorat banklari an’anaviy tushuniladigan bank faoliyatining “sof” sohasini saqlab qolgan holda ish yuritib, yangi moliyaviy xizmatlarning keng sohasida faoliyat yuritishga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Darhaqiqat, O‘zbekistonda banklarning zamonaviy moliyaviy xizmatlari bozori dastlabki rivojlanish bosqichida turibdi. Shuningdek, banklararo raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti hamda bank xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi yangidan yangi bank xizmatlarini keng miqyosda joriy

etishni taqozo etmoqda.

2018 yilning 1 yanvar holatiga ko`ra, respublikamizda faoliyat ko`rsatayotgan tijorat banklari soni 28 tani tashkil etib, ularning 11 tasi davlat ulushidagi banklar hisoblanadi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan ro`yxatga olingan 89 ta nobank kredit tashkilotlari, 36 ta mikrokredit tashkilotlari, 53 ta lombardlar faoliyat yuritib, iqtisodiyotimizning turli sohalariga, aholiga turli xildagi bank isi, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatmoqdalar.

1-jadval

Kredit tashkilotlari va banklarning tarkibiy bo‘linmalari soni to‘g‘risida MA’LUMOT

Kredit tashkilotlari va banklar	**01.11.2017 yil**	**01.11.2018 yil**
Kredit tashkilotlari va banklar tarkibiy bo‘linmalari soni, jami	8827	8487
1 Markaziy bank tomonidan ro‘yxatga olingan kredit tashkilotlari, jami	104	117
Shu jumladan:		
- tijorat banklari, shundan:	28	28
Davlat ulushi mavjud banklar	11	11
Boshqa banklar	17	17
- Nobank kredit tashkilotlari, shundan*	76	89
Mikrokredit tashkilotlari	30	36
Lombardlar	46	53
2. Tijorat banklari filiallari, jami**	861	895
Shundan: Xalq banki	197	197
3. Minibanklar	953	1136
4. Bank binosidan tashqaridagi operatsion kassalar	2938	2086
Shundan: Xalq banki	855	514
5. Valyuta ayirboshlash shoxobchalari	877	951
6. Xalkaro pul utkazmalari shaxobchalari	966	1150
7. Ko‘chma kassalar	2128	2152
Shundan: Xalq banki	2000	2000

*Nobank kredit tashkilotlari filiallari mavjud emas

** tijorat banklarining xorijiy davlatlarda filiallari mavjud emas.

Bugungi kunda respublikamiz hududlarida tijorat banklarining 895 ta filiali bank ishi xizmatlarini ko`rsatmoqda. Shuningdek, bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish, kommunal va boshqa to`lovlarni to`lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining 1136 ta mini-banki va maxsus kassalari (2086 ta) tashkil etilgan bo`lib, ular qishloq joylaridagi aholiga, ayniqsa, fermer xo`jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko`rsatib kelmoqda. Bank muassasalarining aholi va xo`jalik yurituvchi sub`ektlar talablariga mos joylarda tashkil etilishi, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya uskunalari bilan jihozlanishi hamda sifatli faoliyat ko`rsatishining yo`lga qo`yilganligi bank xizmatlariga bo`lgan talabning to`liq qondirib borilishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda xususiy banklarning bank xizmatlari bozoriga kirib

kelishi raqobatni kuchaytirib yubordi. Banklar shuni e’tiborga olgan holda marketing rejasida raqobatbardosh shartlarda xizmat ko‘rsatishni asosiy yo‘nalish deb belgilanishi lozim. Respublika moliya bozorida banklararo raqobat iqtisodiyotning o‘tish jarayonida ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining aynan o‘xshashligi bilan xarakterlanib, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatiga qat’iy talablar qo‘yadi. Ushbu sharoitda banklar oldida mijozlarni saqlab qolish va doirasini kengaytirish uchun adekvat choralar ko‘rish bo‘yicha vazifalar turibdi. Lekin mazkur yo‘nalishdagi banklarning asosiy harakati yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan holda bank xizmatlari diversifikatsiya darjasini va bank xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha fsoliyat hisoblanadi. Bu faoliayt tijorat banklarining istiqbolda barqarorligini kuchaytiradi, bankrot holatlaridan asraydi va ularning bozor munosabatlariga mos modelini yaratishga asos bo‘ladi.

Konseptual holatlardan kelib chiqsak, bank xizmati sifatini bank xizmatlarining ko‘zlangan hamda bir-biriga bog‘liq ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga ega xossa va xususiyatlari yig‘indisi sifatida ta’riflash mumkin. Mehnat mahsuli bo‘lgan bank xizmati sifati hamda iste’mol qiymati bilan chambarchas bog‘langan kategoriyadir. bunda bank xizmatlari mijoz uchun iste’mol obyekti sifatida kerakli xususiyatlarni o‘zida mujassam etishi muhim. Iste’mol predmeti turli foydalanish usuli, taqdim etish sharti va belgilangan vazifasi bo‘yicha bank xizmatlari bo‘lishi mumkin. Ushbu bitta bank xizmati ko‘plab turli xususiyatlariga, manfaatlarga va maqsadlarga ega bo‘ladi.

O‘z navbatida, alohida bank xizmatiga xos xususiyatlar majmuasi uni boshqa ko‘pgina o‘xshash bank xizmatlaridan ajratib turadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bank xizmatining u yoki bu ehtiyojni qondirish qobiliyatlari tavsifi, bank xizmatining foydali xususiyatlari majmuasi bank xizmati sifatini ifodalaydi va bu holat bank xizmatini “tovar" iqtisodiy tushunchasiga tenglashtiradi.

Bank xizmatining raqobatdoshlilik ko‘rsatkichi sifat ko‘rsatkichidan farqli ravishda mijozning aniq manfaati va ehtiyojlarining qondirilishini ta’minlovchi xususiyatlar majmuasi bilan aniqlanadi, boshqa xususiyatlar inobatga olinmaydi. Masalan, bank xizmatining sifati yangi xususiyatlar berish hisobiga sezilarli darajada oshirilsa, lekin umimg qiymati mijozlarning asosiy guruhida jiddiy qiziqish uyg‘ota olmasa, bank xizmatining yuqori darajadagi sifatini va past darajadagi raqobatdoshligini ko‘rishimiz mumkin.

Bank xizmatining sifatiga va raqobatdoshligiga bankning barqarorlik va nufuzlilik darajalari bilvosita ta’sir etadi. Masalan, bank moliya bozorida yaxshi tanilmagan bo‘lsa, u holda bank xizmatining raqobatdoshlilik darajasi tushadi.agar bank barqaror bo‘lmasa, uning xizmatlari sifati pasayadi, binobarin, bank xizmati mijozning ishonchini qondira olmaydi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti pul-tovar munosabatlari asosida rivoj topadi, demak, bank xizmati mijozlar uchun Tovar bo‘lib xizmat qiladi. Bank xizmati sifatini oshirish yangi ilmiy yondashuv va ishlanmalrni talab etadi. Shundan kelib chiqib “bank xizmati tovar sifatida” konsepsiyasini jadvalda tasvirlash mumkin.

“Bank xizmati tovar sifatida” konsepsiyasi bank sohasidagi innovatsion

jarayonlarni tashkil qilishda va yangi bank ahsulotlari ishlab chiqishni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Konsepsiyaning muhim xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Bank rahbari va bank marketing xizmati bank faoliyatining hozirgi davr vaziyati hamda kelajakdagi vaziyatini tahlil qilishga va kelgusida bank xizmatiga obyektiv baho berishga chorlaydi,

2. Yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqishni rejalashtirish bo‘yicha (innovatsiya, g‘oya izlash, innovatsion jarayonni tashkil qilish, yangi bank mahsulotini yaratish, uning bozordagi harakati va diffuziyasi) hamda yangi bank mahsulotlarini qo‘lga kiritish bo‘yicha (talabni o‘rganish, virtual xarid, benchmarketing) tizimli ishlarni olib borish zarurligini asoslaydi.

3 Konsepsiyani yangi bank mahsulotini rejalashtirish va tahlil qilish mexanizmining metodologik asosi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu konsepsiyadan foydalangan holda yangi bank mahsulotining qaysi hayotiy sikl bosqichida turganligini, kelajakdagi istiqboli qandayligi, qachon keskin pasayish boshlanishini hamda qachon faoliyatini tugatishini aniqlab olish mumkin.

Mazkur ko‘rib chiqilayotgan konsepsiya asosida yangi bank mahsulotining butun hayotiy sikli davomida istiqbolini rejalashtirish amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan konsepsiya yangi bank mahsulotini rejalashtirish bo‘yicha barcha faaoliyatni bir qator elementlarga bo‘lish imkonini beradi. Ko‘rsatilgan konsepsiya yangi bank mahsulotini rejalashtirish bo‘yicha barcha faoliyatni bir qator elementlarga bo‘lish imkonini beradi, ular quyidagilardan iborat:

-moliya bozirini tadqiq qilish;

-berilgan bozor aktivi bo‘yicha yangi bank mahsuloti hayotiy davomiyligini tadqiq qilish;

-yangi bank mahsuloti hayotiy davomiyligini tadqiq qilish;

-yangi bank mahsulotini ishlab chiqish;

-reklama ko‘rinishini aniqlash.

R.A.Sadiqova – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.,
A.M.Muxtoraliyev – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

TAKOFUL (ISLOMIY SUG‘URTA) VA UNING TAMOYILLARI

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida sug‘urta va sug‘urta kompaniyalarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shu sababli har bir davlat ichki va tashqi savdosida shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida sug‘urta va sug‘urta elementlaridan samarali foydalanishga harakat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko‘rish mumkinki, sug‘urta mamlakat moliya tizimining strategik ahamiyatga ega sohasi hisoblanib, aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashda va iqtisodiyotga salmoqli investitsiyalarni jalb etishda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev IHT TIV

kengashi 43-sesiyasi ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan quydagi satrlarni keltirib o‘tish joiz: “Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo‘llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha soxalarning rivojlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi”[1]

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilishi jarayonida sug‘urta sohasining rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Sug‘urta bozorining huquqiy-me’yoriy bazasi shakllantirildi. Soha mutaxasislarining malakasi muttasil oshirilmoqda. Hozirgi kunda sug‘urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada takomillashtirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug‘urtalovchining kapitallashuv darajasini ko‘paytirishga e’tibor qaratilmoqda.

Haqiqatdan ham, sug‘urtalash mamlakat moliyaviy tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Lekin 3000 yildan beri mavjud bo‘lib kelayotgan an’anaviy sug‘urtalash tizimi o‘zida ribo (foiz), g‘arar (noaniqlik) va maysir (qimor o‘yinlari) qismlarining ishtiroki tufayli ahloqiy (islomiy) sug‘urtalash bilan bir-biriga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun axloqiy (islomiy) moliyalashtirishga asoslangan sug‘urta fondlari islom tamoyillariga muvofiq keluvchi islomiy sug‘urtalash shakli- takoful joriy etildi.

Barcha insonlar o‘z hayotini va mol-mulklarini yaxshi ko‘radi. Bu yaxshi ko‘rish ularni barcha yo‘qotishlardan himoyalanib, bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan qochishga undaydi. Xavf- bu biror hodisada mol-mulkni yoki sog‘lig‘ini yo‘qotish ehtimoli. Bu xuddi shunday kelajakdagi hodisalar, og‘ir ahvol va o‘lim natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar, talofatlar va moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Sug‘urtalash ushbu xavflarni boshqarish uchun mavjud bo‘lgan muhim vositalardan biridir.

Ahloqiy (islomiy) sug‘urtalash xavflarni boshqarish tushunchasini ta’qiqlamaydi, balki xavflarni boshqarishga ko‘maklashadi. Masalan, foyda olish uchun xavfli spekulatsiyalar bo‘lmasligi lozim.

Shar’iy tamoyillar bo‘yicha ana shu xavf muammosini hal qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar natijasida Takoful (islomiy sug‘urtalash metodi) ning paydo bo‘lishiga olib keldi. Takoful - bu "kafala" fe'lidan kelib chiqqan arabcha so‘z, ya’ni “bir-birining ehtiyojlarini qondirish” yoki "bir-birlarini kafolatlash" degan ma’noni anglatadi. O‘zaro hamkorlik va o‘zaro zararlarni qoplash Takofulning asrlar davomida qo‘llanilib kelingan asosiy metodlari hisoblanadi. Takaful shariat tamoyillari asosida xavfni kamaytirish va boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Takofulning asosiy vazifasi ishtirokchilar va sug‘urtalovchilar o‘rtasida xavflarni taqsimlashdan iborat.[2]

Musulmon xuquqshunosh olimlari sug‘urta konsepsiyasi quydagi omillar

[1] Shavkat Mirziyoyevning IHT TIVK 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan
[2] Marifa academy. Islamic banking& finance: Principles and practices. India, 2014.

hisobiga amalga oshiriladi deb hisoblaydilar:

- Sug‘urta qildiruvchilar umumiy farovonlik uchun o‘zaro birlashadilar;
- Xar bir sug‘urta qildiruvchi omonat tarzidagi lozim bo‘lgan miqdorni ehtiyojmandlarga ko‘mak sifatida to‘laydi;
- Jamiyat koperatsiyasiga muvofiq xolda majburiyatlar taqsimlanadi va yo‘qotishlar bo‘lishiladi;
- Obuna bo‘lish va qoplamaga nisbatan noaniqlik unsurlari bo‘lmasligi lozim;
- Tizimning hech bir a’zosi boshqalar hisobiga manfaatga ega bo‘lmasligi lozim;

Dunyodagi qariyb 2 milliardga yaqin musulmonlarga xavf-xatarlarni himoya qilish va jamg‘arma mahsulotlari taklif etadigan usul takofulni yaratishga imkon berdi. Takoful sanoati oldida eng katta qiyinchiliklardan biri bu ba’zi musulmon mamlakatlarida islomiy sug‘urta bo‘yicha xabardorlikning yetarli darajada emasligidadir. Shunga qaramay, hattoki boshqa din vakillari ham takoful konsepsiyasiga juda katta qiziqish bildirishmoqda. Takoful sug‘urtalash metodi musulmonlarga, hamda musulmon bo‘lmaganlarga sotilishi mumkin bo‘lgan aniq ahloqiy tuzilishga egaligi bilan maqsadga muvofiqdir.

B.SH.Husanov – SamISI katta o‘qituvchisi, i.f.n.,
D.Ochilova - Kattaqo‘rg‘on Iqtisodiyot kolleji o‘qituvchisi,
E.Farmonov – SamISI talabasi

MAMLAKAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALARNING ROLI

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tarraqiy etishi, ishlab chiqarish subyektlarini modernizatsiya qilish va soha tarmoqlarini diversifikatsiyalash investitsiyalarning hajmi va yo‘nalishlariga bog‘liq. Chunki investitsiyalar keng jalb etish orqali mavjud muammolar o‘z yechimini topadi, jumladan:

-import tovarlar o‘rnini bosuvchi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yangikorxonalarni tashkil etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish;

-iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish;

-milliy iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarga asoslangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish;

-ishlab chiqaruvchilar tomonidan istiqbolli loyihalarni amalga oshirilishi;

-yangi qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar yaratish;

- milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integralashuvi jadalashadi.

Demak investitsiyalar qanday darajada jalb etilmasin iqtisodiy o‘sishni taminlovchi muhim omillardan biridir.Bu esa malakat makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli 2017-2021- yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ,, Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnalogiyalarni qo‘llab quvatlash yili’’ da amalaga oshirishga oid davlat dasturida ,, Mahalliy mahsulotlar eksport hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mamlakatning investitsion va turistik jozibadorligini oshirish bo‘yicha tashqi ishlar vazirligi faoliyatini kuchaytirish “ vazifalarini qo‘yolgan.

Mazkur vazifalarni muvaffaqqiyatli ijrosini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar, jumladan, mahalliy mahsulotlar eksport hajmini oshirishga, investitsiyalar hamda turistlarni mamalakatimizga jalb etishga ko‘maklashishni elchilar faoliyatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilash lozim.

Ma’lumki so‘nngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar miqdori o‘sib bormoqda. Jumladan, 2005-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar3165.2 mlrd so‘m bo‘lib, YAIM dagi ulushi 19.9% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 60719.2 mlrd so‘m va 24.4% ni tashkil etdi. [1] Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha olganda, korxonalar va aholi mablag‘lari 43.9%, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 11%, xorijiy investitsiyalari va kreditlari 29.9%, davlat budjeti 5.5% va budjetlardan tashqari jamg‘armalar 12.7% ni tashkil etdi. 2017-yilda barcha xorij investitsiyalarining 76%ini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarining ulushiga to‘g‘ri keldi. Mamlakatimizda investitsiya muhiti yaxshilangani natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar faol kirib kelmoqda. Xususan, 2018-yilning besh oyida 776 ta yangi qo‘shma xorijiy korxona ro‘yxatdan o‘tkazildi.Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 496 taga ko‘pdir.Ushbu holat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlashda ijobiy holat hisoblanib, mamlakatimizda qulay investitsiya iqlimi yaratilganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari investitsion holatni yanada yaxshilash, investorlar oqimini hududga faol jalb qilish bugungi iqtisodiyotimizning eng muhim talabi desak adashmagan bo‘lamiz.Globallashuv jarayonida xorijiy davlatlarning bir-biriga integratsiyalashuvi kuchayib bormoqda.Shuningdek, bugungi kundagi davlatimiz moliyasini yuritish, soliq islohotlarini boshqarish kabi yondashuvlar ko‘proq Fransiya, Latviya kabi davlatlarning moliya tizimiga xosligi barchamizga ma’lum.Lekin hamma vaqt har xil makonda har xil muhit mavjud bo‘ladi.Bundan kelib chiqadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat faqatgina bir-biriga aloqasi bo‘lgan subyektlar o‘rtasida paydo bo‘ladi.Misol uchun Markaziy Osiyodagi investitsion muhit shu mintaqadagi barcha davlatlarga birdek ta’sirini o‘tkazadi, investor bu hududga kirishdan oldin umumiy Markaziy Osiyo bozorini o‘rganadi va eng maqbul variantni tanlaydi. Bugungi bu sohadagi O‘zbekistonning asosiy raqibi Qozog‘iston hisoblanadi.Shunday ekan, “aqlli investor” bu hududlarning birini tanlaydi.Bu raqobat bozorida

[1]O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi hisoboti ma’lumotlari

yengib chiqish uchun albatta qo‘shni davlatdagi investitsion muhitni sinchiklab o‘rganib chiqish zarur hisoblanadi. Misol uchun, Qozog‘istonda daromad solig‘i 10%, QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i) 12%, bizda esa ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 12% va 20%ni tashkil etadi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, ushbu sohada Qozog‘istondan ustun tomonimiz bormi?Nima uchun biz yevropa mamlakatlari soliq tizimidan o‘rnak olishimiz kerak? Biz o‘z soliq tizimimiz bilan investorlarni jalb qila olmaymizmi?

Bundan tashqari investitsiyon raqobat faqatgina soliq stavkalari bilan belgilanmaydi.Investorlar biror sohaga mablag‘ kiritish hamda soliqlarni hisoblashdan oldin horijiy investitsiyalardan daromadning qaytib kelishi kabi ko‘rsatkichlarga ham etibor beradi.

O‘zbekistonga xorijiy investorlar uchun qulay muhit va shart-sharoitlar mavjudligini mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, qonunchilik bazasining shakllanganligi investitsiyalarni moliyalashtirish uchuninfratuzilmaning barpo etilganligi mamlakatning qulay geografik joylashuvi, mamlakatning mineral xomashyo resurslariga boyligi kabi omillar izoh bo‘lishi mumkin.

Ammo mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini yanada oshirish zarur bo‘ladi.Buning uchun birinchidan ichki investitsiyalar hajmini ko‘paytirish kerak bo‘ladi.

Shunday qilib bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishni kengaytirishda mavjud barcha resurs va zahiralarni chuqur o‘rganish hamda qayta ko‘rib chiqish, xorij kapitalini milliy korxonalarga jalb qilishni yanada takomillashtirish borasida faoliyatni kuchaytirish lozim.

Zero, ushbu vazifalarning muvaffaqqiyatli hal etilishi milliy iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishiga makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga pirovardida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish, aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

С.Бозорова – ЖизПИ катта ўқитувчиси,
Д.Комилов – ЖизПИ ассистенти,
А.Муродова – ЖизПИ талабаси

ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Ўзбекистон давлат мустақиллигига эришган дастлабки йиллардан бошлаб миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг ўзига хос йўналишини белгилаб олди. У иқтисодиётнинг ривожланиши ва барқарорлигида инвестицияларнинг беқиёс ўрин тутишини ўз вақтида тўғри англаб етганлигининг натижасида инвестицияларга, хусусан, чет эл инвестицияларига бўлган эътиборнинг кучайиши юз бердики, бу эса бугунги кунга келиб мамлакатимиздаги инвестиция фаолиятининг ривож-

лантирилишига олиб келди.

Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётни диверсификация этиш, иқтисодиёт тармоқларининг рақобатдошлигини ошириш ҳамда маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналарининг экспортдаги ҳажмини кенгайтиришга қаратилган инвестиция фаолиятини тартибга солувчи 50 дан ортиқ ҳуқуқий-ҳужжат қабул қилинди, жумладан,“Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги, “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги, “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги, “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги , “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги, “Концессиялар тўғрисида”ги, Ўзбекистон Республикаси Қонунлари айни шу мақсадга қилмоқда.

Мамлакатимизда барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлаш республикамизда юритилаётган иқтисодий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири бўлмоқда. Ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожланиши, турмуш яхшиланиши ҳам бевосита уларнинг иқтисодиёти ривожланиши билан боғлиқ. Мамлакат иқтисодиёти ҳудудлардан таркиб топган бир бутун тизимни ташкил этгани сабабли, унинг ҳар бир минтақасидаги ривожланишни таъминлаш мамлакатимизнинг узлуксиз тараққиётига замин яратади. Шундай экан, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишда мамлакат ва унинг минтақаларида яратилган инвестицион жозибадорлик ва нисбий афзалликлар муҳим ўрин тутади. Айнан ушбу омилларга инвесторлар томонидан алоҳида эътибор берилади.

Бугунги кунда ривожланган инвестицион фаолиятнинг йўлга қўйилишини ҳукуматимизнинг юритаётган оқилона инвестиция сиёсатининг маҳсули эканлигини таъкидлаш лозим. Ўзбекистон Республикасининг “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги қонунида «Чет эл инвесторлари асосан даромад (фойда) олиш мақсадида тадбиркорлик фаолияти ва қонун ҳужжатларида таъқиқланмаган бошқа турдаги фаолият объектларига қўшадиган барча турдаги моддий ва номоддий бойликлар ва уларга доир ҳуқуқлар, шу жумладан интеллектуал мулкка доир ҳуқуқлар, чет эл инвестицияларидан олинган ҳар қандай даромад Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чет эл инвестициялари» деб эътироф этилади.

Хорижий инвестициялар - бу чет эл инвесторлари томонидан юқори даражада даромад олиш, самарага эришиш мақсадида мутлақ бошқа давлат иқтисодиётининг, тадбиркорлик ва бошқа фаолиятларига сафарбар этадиган барча мулкий, молиявий, интеллектуал бойликларидир. Чет эл инвестициялари ички инвестициялардан фарқли ташқи молиялаштириш манбаига киради. Улар миллий иқтисодиётга четдан, уларнинг келишини рағбатлантирган ҳолда жалб қилинади. Лекин чет эл капиталини жалб қилишнинг ҳамма шакллари ҳа молиялаштиришнинг ташқи манбаи бўлмаслиги мумкин.

Чет эл инвестициялари капитал экспорт қилувчи мамлакатларнинг импортёр мамлакатлар иқтисодий субъектлари ҳамда қўшма корхоналар

реал ва молиявий активларига киритган маблағларидир. Чет элдан инвестициялаш капитал оқимининг бир иқтисодиётдан бошқасига чиқиб кетишини билдиради, бойликларни янада фойдалироқ шартларда жойлаштириш ва инвестициялар чет элликка – капитал эгасига қайтишига қадар нисбатан узоқ вақт давомида маблағлар оқимини таъминлаш мақсадларини назарда тутади.

Чет эл инвестициялари моҳият жиҳатидан ўз миллий инвестиция муҳитини ўзга муҳитга алмаштиради. Хавфсизлик, даромаддорлик, капиталлашув ва ликвидликдан ташқари чет эл инвестицияларининг ўзига хос муҳим белгиси аниқ мақсадларни кўзлаши ҳисобланади. Чет эл инвестициялари бир иқтисодиёт субъектлари капиталларини бошқасига боғлаб қўйиш бўлиб, бунга ўзига хос қўшимча рисклари, ҳуқуқий шароитларнинг, инвестиция муҳитининг ўзгариши хос бўлиб, натижада мамлакатлар ва минтақалар бўйлаб капитал кўчиши юз беради. Буларнинг барчаси капитални экспорт қилувчи мамлакатдаги инвестиция муҳитига қараганда янада қулайроқ муҳитни яратишни объектив заруратга айлантиради.

Чет эл инвестициялари оқими кўпгина активлар олиб келиш билан бирга капитални импорт қиладиган мамлакатда солиқ, ижара ва бошқа тушумларини кўпайишини таъминлаб беради. Ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида бозор инфратузилмаларини шакллантиришга қаратилган иқтисодий ислоҳотлар амалга оширилди. Ушбу мамлакатларда қуйидаги сабабларга кўра хорижий инвестицияларни жалб этиш зарурияти туғилди:

а) иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш жараёнида ишлаб чиқариш

суръатларининг пасайиши ва мамлакат ялпи ички маҳсулотида (ЯИМ) са ноат маҳсулотларининг улуши қисқариши;

б) мамлакатда хорижий инвестициялар ёрдамида саноатни барқарор ривожлантириш ;

в) саноат тармоғидаги асосий фондлар устун даражада жисмоний ва маънавий эскириши;

г) миллий иқтисодиёт субъектларининг ўз асосий ишлаб чиқариш фондларини

молиялаштириш ва айланма маблағларини шакллантириш учун ўз маблағларининг етишмаслиги;

д) иқтисодиётни модернизациялаш ва чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, рақобатбардош ва юқори технологияни мужассамлаштирган экспортга йўналтирилган тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқаришни барқарор суръатларда ишлаб чиқаришнинг зарурлиги.

Ўтиш иқтисодиёти мамлакатлари юқоридаги сабабларга кўра молиявий ресурсларга жиддий эҳтиёж сезмоқдалар ва шу сабабли қарз олишнинг ташқи манбаларига мурожаат қилишга мажбурлар. Ташқаридан молиялаштириш ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш жараёни ўтиш иқтисодиёти мамлакатларига хос хусусиятлардан келиб чиқадиган объектив иқтисодий ҳолатдир.

Хорижий инвестицияларнинг миллий иқтисодиётга жалб этилиши қуйидаги афзалликларга эга:

• иқтисодий ва илмий-техник тараққиётни жадаллаштириш;
• барқарор молиялаштириш манбаига эга бўлиш;
• ишлаб чиқариш аппаратини янгилаш ва модернизациялаш;

технологиялар, бошқарув кўникмалари, савдо белгилари, патентлар ва лицензияларнинг кириб келиши;

• экспортнинг диверсификациялашуви;
• қўшилган қиймат улуши юқори бўлган тармоқларда малакали ишчи кучи учун афзалликларнинг вужудга келиши;
• ташқи бозорлар билан алоқаларнинг кенгайиши;
• иқтисодиёт рақобатбардошлигининг ошиши;
• бозор иқтисодиёти талабларига жавоб берадиган кадрларни тайёрлаш.

Иқтисодий адабиётда инвестицияларни қабул қилувчи мамлакат иқтисодиётига кўрсатиладиган самарани аниқлашда икки хил ёндашув мавжуд. Биринчи ёндашув ташқи савдога оид анъанавий назарияларга хос бўлиб, улар хорижий инвестицияларнинг моддий буюм омилига бевосита таъсирини белгилайди. Бундай моделнинг асосий шарти шундан иборатки, хорижий инвестициялар меҳнатнинг чегараланган маҳсулини кўпайтиради ҳамда капиталнинг чегараланган маҳсулини камайтиради. Саноатни ташкил этиш билан боғлиқ иккинчи ёндашув инвестициялар киритишнинг билвосита ва ташқи самарасига жиддий эътибор беради. Мазкур назария тарафдорлари нима учун фирмалар ўз мамлакатида худди шундай товарлар ёки хизматларни ишлаб чиқармасдан хорижга инвестиция қилишлари сабабини тушунишга уринадилар. Уларнинг фикрича, хорижий инвестициялар меҳнат унумдорлигини ошириш

ва экспортни кенгайтириш асосида қабул қилувчи мамлакатнинг иқтисодий тараққиётини таъминлайди. Аксарият назариялар хорижий ишлаб чиқариш ва халқаро савдонинг ўзаро ўрнини босувчи бўлиб, хорижия инвестициялар (ТТХИ) оқими юқори технологияларнинг кириб келишига олиб келади, шунингдек, уларни маҳаллий фирмаларга жорий этиш самарасини оширади, бу эса мавжуд ресурслардан янада самарали фойдаланилишга олиб келади, деган фикрга асосланади.

Инвсстициялар натижасида технологияларни узатиш самарасиии учта турга ажратиш мумкин:

• Намойишли ва кўргазмали самара-миллий фирмалар олиб кирилган юқори технологияларнинг техник ютуқларини нусхалаш йўли билан жорий этишлари мумкин.
• Ишчи кучи кадрларининг қўнимсизлиги - тегишли трансмиллий корпорациялар (ТМК) доирасида ўз малакасини ошираётган ишчи ва хизматчилар маҳаллий фирмаларга ахборот беришлари ёки ўз компанияларини ташкил этишлари мумкин, бу эса юқори технологияларнинг тарқалишига кўмаклашади.
• Хорижий ва миллий фирмалар ўртасида ишлаб чиқариш ҳамда бошқа

алоқаларнинг ўрнатилиши ва кенгайтирилиши, бу ТМК томонидан маҳаллий товарлар, хизматлар, ишлаб чиқариш қувватларига бўлган талабга боғлиқ.

Умуман, хорижий инвестицияларни ва юқори технологияларни, бошқарув кўникмаларини жалб қилиш миллий фирмаларнинг ишлаб чиқариш усулларига муайян ўзгаришларни олиб киради. ТТХИ мамлакат иқтисодий тараққиётини таъминлаш, худудлардаги ресурс салоҳиятини фаолллаштириш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш ҳажмини ошириш, технологияларни замон талаблари асосида янгилаш, иқтисодиёт тармоқларини таркибий диверсификациялаш, экспортни ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш орқали аҳоли турмуш фаровонлигини таъминлашга хизмат қилади.

Ш.Ж.Расулов – студент магистратуры II курса, СамИЭС,
С.С. Алиева– старший препод. СамИЭС, к.э.н., научный руководитель

АКТИВИЗАЦИЯ ФИНАНСОВЫХ АСПЕКТОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ – КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ В ДИНАМИЧНО РАЗВИВАЮЩИХСЯ УСЛОВИЯХ

Формирование новой экономической системы в контексте реализации Программы стратегии социально-экономического развития неизбежно ставит в центр внимания вопрос о ее финансовом обеспечении в целях социально-экономического развития и положения населения. Активизация финансовых аспектов социальных услуг с целью повышения ее эффективности выдвигает на первый план вопросы финансового обеспечения социального развития, сущности и путях решения социальных проблем во имя все более полного удовлетворения потребностей населения. Отсюда следует, что экономика внутренне связана с целями их деятельности. Это определяется, трудоспособной частью населения, и является непосредственным участником экономической деятельности по созданию и присвоению продуктов и других результатов деятельности. Каждый человек в одно и то же время является собственником и фактором результатов деятельности, что предопределяет их интересы как собственников в присвоении благ. Население и его активная часть являются потребителями благ, которые достаются им в результате распределения и перераспределения части созданного продукта. Возможности развития, потребления населения ограничены теми доходами, которые, в конечном счете, им достаются. Результаты экономической деятельности населения в целом, в частности, таковы, что каждый из них, постоянно ощущает за пределами экономики развитие социальной сферы, так как размеры пенсий, пособий, прямо

зависят от результатов, достигнутых экономикой.

Таким образом, экономика по своему существу является социально-активной частью населения, являются обязательными участниками социально-экономических процессов.

Уровень и качество жизни населения стали основным показателем экономики. Отсюда можно прийти к выводу о том, что социальные услуги и их развитие – это не просто результат экономического роста, а фундаментальное и вечное условие общественного развития. С точки зрения конечных целей оно первично и имеет безусловный приоритет по целям экономического развития. Такие показатели, как производительность труда, экономический рост, конкурентоспособность все более утрачивает значение универсальных измерителей. Несомненным свидетельством в пользу социальных критериев является и отчетливая социальная направленность в постановке целей – благосостояние, качество жизни, полная занятость, общественная безопасность, мир. При этом следует отметить, что стабильность и прочность созданных в стране социальных институтов, социальных расходов, растущая социальная ориентация производства и сильная политика государства в социальной сфере, являются важнейшим компонентом социального развития.

Рыночная экономика в широком смысле слова является системной организацией социальных целей государства, отдельных социальных групп и граждан, а также экономических средств и финансовых механизмов их достижения, что, в свою очередь, повышает эффективность функционирования самой экономии во всех уровнях, т.е. на макроэкономическом и микроэкономическом уровне. Важная способность этой системы заключается в формировании потребительского спроса, обеспечении прямого и опосредованного госзаказа и, самое главное, в обеспечении конкуренции и предотвращение кризисов и конфликтов. Для сферы услуг социальная направленность связана, прежде всего, с объективным возрастанием роли социальных факторов, обусловленных повышением уровня жизни населения.

В условиях слаборазвитого производства, расширяющегося за счет прибыли, экономическая эффективность напрямую зависит от степени результативности рабочей силы. Для такого производства действительно характерно противопоставление его экономических и социальных функций.

В современных условиях активизация финансовых механизмов регулирования социальных услуг, как фактор повышения уровня жизни населения обеспечивает всем гражданам приемлемый уровень жизни. Приоритет социальных услуг свойственен практически всем развитым странам, и проявляется в том, что социальные приоритеты, механизмы согласования и даже конкретные параметры для экономических систем задаются законодательно, прежде всего, в выполнении функций выравнивания доходов и социальной поддержки. При этом государство

должно обеспечить эффективное функционирование экономики и условия для самостоятельного обеспечения индивидам достойного уровня жизни. Таким образом, социальная ориентация рыночной экономики заключается отнюдь не в том, чтобы осуществлять максимально широкую социальную услугу, а в том, чтобы создавать такие условия, когда в такой финансовой услуге будет минимальное число нуждающихся.

Следовательно, регулирование социальных услуг предполагает согласование и учет интересов всех социальных групп населения при выработке и реализации государственной экономической политики, ориентации на потребительский спрос деятельности предприятий. Ее суть состоит в обеспечении экономического роста и подъеме производства за счет подчинения экономики задачам социального развития общества. Особое место в механизме регулирования занимает регулирование уровня жизни.

Последнее зависит от финансовой услуги. Именно последний определяет уровень жизни. Уровень жизни определяется системой двух групп показателей: первая – это условия жизни людей; вторая – показатели поведения в сфере потребления. Исследуя категорию «уровень жизни», большинство экономистов придерживается точки зрения, что оценка его уровня производится показателями (индикаторами), которые имеют прямое количественное измерение в денежных или натуральных измерителях. Одним из наиболее важных показателей, считается показатель дохода, определяющий возможности приобретать товары, услуги и различные активы со стороны населения или домашних хозяйств.

Доход, согласно концепции Дж.Хикса [1] следует определять как максимальную сумму, которую можно израсходовать на потребление в течение некоторого периода и в то же время сохранить в конце этого периода капитал, который был вначале. Отсюда следует, что показатели доходов должны показать, сколько люди могут тратить на потребление, не становясь при этом беднее.

Иначе, можно сказать, что процесс трансформации экономики может отражаться в сокращении доходов от наемного труда и повышении дохода от предпринимательской деятельности, и собственности. Вместе с тем, значительное увеличение предпринимательских доходов снижает потребительский спрос и делает актуальным вопрос о направленности сбережений.

Обеспечение роста благосостояния и уровня жизни населения требует разработки адекватного финансового механизма регулирования уровня жизни, который должен быть реализован в экономической и социальной политике на всех уровнях управления. Создание механизма преодоления диспропорций в условиях жизни населения должен рассматриваться как центральное звено управления социальными услугами. При разработке финансового механизма регулирования уровня

[1] Иванова Ю.Н. Экономическая статистика. 2-е изд., доп.: Учебник/Под ред. Ю.Н. Иванова. — М.: ИНФРА-М, 2002. – 480 с.

жизни разных групп населения, следует исходить из учета способов участия государства, финансового обеспечения роста уровня жизни населения. Практика выделяет два способа участия государства в финансово-социальном обеспечении благосостояния населения: институциональный и остаточный. В первой модели социальные услуги, оказываемые государством, ориентированы на все слои населения. Через систему прогрессивных налогов государство выравнивает доходы и богатство, сглаживает дифференциацию населения по уровню жизни.

Во второй модели государство выполняет только те функции, с которыми не справляется рынок, т.е. оказывает финансовую помощь наиболее бедным слоям населения. При этом система налогообложения не имеет выраженную прогрессивную направленность и не выполняет распределительных функций получаемых доходов. Высокий уровень доходов населения формируется в результате первичного распределения, что создает предпосылки для покрытия (возмещения) социальных расходов.

Узбекистан, провозгласив создание социальной рыночной экономики, в действительности больше тяготеет к остаточной модели участия государства в обеспечении благосостояния населения. Заимствование из мировой практики опыта социального страхования (медицина), коммерциализация образования, ориентация социальной услуги на финансовую помощь, ограничения категорий населения, получающих субсидии, привели к поляризации общества. Принятие решений о тех или иных социальных преобразованиях были недостаточными, либо оценивались по их влиянию на уровень жизни населения. Заметным фактором здесь выступали ограничения – размер бюджета. Эффективное управление социальными услугами предполагает необходимость выбора направлений осуществления социальных преобразований, исходя из критериев – показателей уровня жизни населения и их финансового обеспечения.

Исходя из вышеизложенного, следует отметить, что стратегия регулирования уровня жизни населения предполагает целенаправленную деятельность государства, направленную на выбор долгосрочных приоритетов социально-экономического развития уровня жизни населения.

Следовательно, стратегия развития социального обеспечения населения в контексте финансовых ресурсов нового качества предъявляет требование целостного, многоаспектного подхода к определению цели ее развития и формированию вытекающих из нее приоритетов. Центр тяжести экономической политики в Узбекистане должен быть перенесен на внутренние источники развития, что обосновывается многими специалистами конкурентоспособности стран современной глобализирующейся экономики.

Несомненно, реализация этой стратегии означает переход республики от экспортно-сырьевого сценария к сценарию, орентированному на активизацию внутренних экономических ресурсов.

Имеющийся ресурсный потенциал (низкие цены на природные ресурсы при высоких ценах на мировых товарных рынках, наличие незагруженных мощностей) безусловно задействован для дальнейшего повышения конкурентоспособности и обеспечения устойчивости. Однако, этого для ее социально-экономического развития недостаточно.

Основой закрепления позитивных экономических результатов и повышения уровня жизни населения должна стать новая система финансовых ресурсов и социальных услуг, важнейшей из которых является финансовый ресурс, а ключевыми аспектами его направления: направление ресурсов, повышение уровня здоровья и обеспечение современного качества жизни.[1]

Последующее развитие финансовых ресурсов нового качества является фактором эффективного функционирования социальных услуг в условиях глобальных мирохозяйственных связей, которые, одновременно, являются основой развития жизни населения.

Э.А.Нозимов – СамИСИ ассистенти,
Ф.А.Абдуҳолиқова – СамИСИ талабаси
Т.Давронов – СамИСИ талабаси

ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА ФОНД БОЗОРЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан бошланган ва бугунги кунда микро ва макро даражаларда интенсив тарзда кечаяётган жараёнларнинг таҳлили, Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган Харакатлар стратегиясида белгиланган бешта устувор йўналишларнинг мазмуни миллий иқтисодиётни юксалтиришда, янги иш ўринларини яратишда, аҳоли реал даромадларини кўпайтиришда янги имкониятлар вужудга келаётганлиги тўғрисида асосли хулоса чиқариш имконини берса, жорий 2018 йилнинг “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш” йили деб эълон қилиниши эса бунга кенг замин яратади.

2017-2021 йилларда умумий қиймати 40 млрд. АҚШ доллари миқдоридаги 649 та инвестиция лойиҳасини назарда тутувчи тармоқ дастурларини рўёбга чиқариш режалаштирилмоқда. Натижада кейинги 5 йилда саноат маҳсулотини ишлаб чиқариш 1,5 баравар, унинг ЯИМдаги улуши 33,6 фоиздан 36 фоизгача, қайта ишлаш тармоғи улуши 80 фоиздан 85 фоизгача ошади.[2]

[1] Khusanov B., Rasulov Z. Social policy and foundation of favorable social climate security in Uzbekistan. International journal of Economy, Commerce and Management. Special issue: International journal of Economy & Sustainable Development. 2015. - P. 42-55

[2] http://Prezident.uz/uz/list/viev/1371- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий

Мустақилликни қўлга киритганидан сўнг замонавий бозор муносабатларини ривожлантиришни мақсад қилган Ўзбекистонда фонд бозорини шакллантириш эҳтиёжи юзага келиб, ҳозирги кунда у ўз иштирокчиларига ва ривожланган инфратузилмага эга бўлган барқарор фаолият юритувчи институтга айланди. Бугунги кунда Ўзбекистон фонд бозори муҳим ўзгаришларни бошидан кечирмоқда. Бу борада ҳам миқдор, ҳам сифат жиҳатидан муваффақиятларга эришилмоқда. Бу қуйидагиларда ўз ифодасини топмоқда:

- фонд бозоридаги савдо айланмаларининг ўсиши;
- битимлар иденсификация;
- умумий савдо ҳажмида биржа сегменти улушининг доимий равишда ўсиши;
- бутун фонд бозори инфратузилмасининг ривожланиши; қонуний базанинг такомиллашиши.

Бугунги кунда хорижий инвесторлар учун Ўзбекистон ундаги барқарорлик, асосий энергия ресурсларининг нисбатан арзон қийматга эгалиги, зарурий хомашёнинг мавжудлиги, малакали ва юқори даражада рақобатбардош ишчи кучи каби кўрсаткичлар бўйича минтақадаги бошқа мамлакатлар орасида ҳар томонлама ижобий аҳамиятга эга бўлган ва манфаат келтирадиган мамлакат сифатида эътироф этилмоқда. Мамлакатимиз ҳукумати томонидан иқтисодий ўсишни янада жадаллаштириш, хусусан, ишлаб чиқаришга фақат юқори технологияларни жалб этиш мақсадида максимал даражада қулай ва жозибали инвестицион муҳитни яратишга ҳаракат қилинмоқда. Президентимиз томонидан 2017 йилда 21 та олий даражадаги ташрифлар амалга оширилди, 60 дан ортиқ давлат ва халқаро ташкилотлар раҳбарлари ва вакиллари билан учрашувлар ўтказилди. Натижада 400 дан ортиқ битим ва келишувларга эришилди. Қарийб 60 миллиард АҚШ доллари хажмидаги савдо ва сармоявий шартномалар имзоланди. Қабул қилинган ҳужжат ва келишувларни ўз вақтида тўлиқ бажариш мақсадида 40 та “Йўл харитаси” ишлаб чиқилди ва хорижий ҳамкорларимиз билан биргаликда амалга оширилмоқда.[1]

Хулоса қилиб айтсак, мамлакатимизда юқори технологияларга асосланган ишлаб чиқаришларни ривожлантириш мақсадида тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш орқали нафақат янги корхоналарни барпо этиш, балки собиқ Иттифоқ давридан қолган эскирган асбоб-ускуналарга эга корхоналарни энергия тежовчи илғор технологиялар билан янгилаш бўйича кўплаб ижобий муваффақиятларга эришилмоқда. Умид қиламизки, яқин келажакда бундай муваффақиятларнинг давоми сифатида мамлакатимизнинг хорижий инвестициялар иштирокидаги янги корхоналар фаолият юритувчи барча ҳудудларида замонавий такомиллашган хизмат кўрсатиш инфратузилмалари

Мажлисга Мурожотномаси

[1] http://Prezident.uz/uz/list/viev/1371- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожотномаси

ривожлантирилади.

Бир қанча мамлакатларда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар очиқ бозор шароитида рақобатбардош маҳсулот ва хизматлар таклиф эта оладиган корхоналарни миллий иқтисодиётга жалб этиш имконияти сифатида эътироф этилади. Жумладан, ҳар йили 3 миллиарддан кўпроқ тўғридан-тўғри хорижий инвестециялар жалб этилмоқда. Мамалакат иқтисодиётига киритилаётган инвестиция умумий ҳажмининг 85.5 фоиздан кўпроғи уларнинг ҳиссасига тўғри келади, давлат кафолати остида жалб қилинганлари эса 14.5 фоизни ташкил этади.[1]

Инвестициялар бўйича халқаро ҳисоботга кўра, сўнгги йилларда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар қуйидаги 3 та асосий шаклда амалга оширилмоқда:

1. Сотиб олиш бирлашиш (Akquisitions & Mergers)
2. Нолдан бошлаб қилинадиган инвестициялар (Greenfield investment).
3. Қўшма корхоналар (Joint ventures).

Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг энг катта ҳажми сотиб олиш бирлашишга тўғри келади (90% атрофида), 1% дан камроғи нолдан бошлаб қилинадиган инвестициялар ҳиссасига тўғри келса, 10% атрофида қўшма корхоналар ҳиссасига тўғри келади.

Ўзбекистон иқтисодиётининг ривожланиш даражасига қараб қонуний база такомиллашиб бормоқда, миллий корхоналарнинг мустаҳкамланиши, иқтисодий муносабатларнинг либераллашуви бўлса, хорижий капитални тартибга солиш соҳасида доимий равишда ижобий силжишларга олиб келмоқда. Хорижий тадбиркорлар учун қулайликлар яратиш, барқарорликни кафолатлаш, шунингдек, ишончнинг ортиши ўз ижобий натижаларини бера бошлади. Агар, 2001 йилда хорижий капитал иштирокидаги 1795 та корхонадан фақат 83 тасигина 100 %лик хорижий капиталга эга корхоналар бўлган бўлса (4,6%), 2010 йилда 4057 та корхонадан 1513 таси ёки (37,3%), 2016 йилда 4.2 мингтадан кўпроқ хорижий корхоналарни ташкил этди.[2]

Ҳозирги пайтда “Тошкент” Республика фонд биржаси мамлакат қимматли қоғозлар бозоридаги асосий ташкилот ҳисобланади. Умуман, мамлакатимизда қимматли қоғозлар бозори инфратузилмаси такомил-лашиб бормоқда. Унга “Тошкент” РФБ дан ташқари қуйидагилар киради:

- икки босқичли депозитарийлар тизими;
- ҳисоб-китоб-клиринг палатаси;
- банклараро савдо тизими;
- “Элсис-савдо” биржадан ташқари савдоларнинг электрон тизими;

[1] www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси

[2] Ахмедов О.М.Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарни бошқариш. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси. –Т.:Академия, 2011. -129 б.

- брокерлик идоралари;
- инвестиция фондлари;
- бошқарувчи компаниялар.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар ўз ижобий натижаларини бермоқда. Кенг кўламдаги истиқболларга эга фонд бозорини модернизация қилишда ўзаро манфаатли ҳамкорлик уни жаҳон стандартлари даражасига кўтариш имконини беради.

Бугунги кунда Корея фонд бозори бундай жараёнларнинг фаол иштирокчиси ҳисобланади. 2010 йилнинг 28 октябрида Корея фонд биржаси билан Ўзбекистон Республикасининг хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси ўртасида қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш бўйича ўзаро ҳамкорлик меморандуми имзоланган. Ушбу меморандум асосида бирлашган ишчи қўмита яратилган бўлиб, унинг таркибига қимматли қоғозлар бозоридаги вазиятни ўрганиш учун иккала томондан ҳам экспертлар кирган.[1]

Қимматли қоғозлар бозорини ишончли ва самарали фаолият юритиши ҳамда уни тартибга соладиган қонуний базани ўрганиш учун зарур ахборот технологиялари масалалари бўйича тренингларни ташкил этишда ҳамкорлик йўлга қўйилган. Самарали ҳамкорлик учун бошқа бир муҳим бўлиб 2011 йилнинг 23 августида иккала тизим томонидан имзоланган Ўзбекистон қимматли қоғозлар бозорини модернизация килиш бўйича Бош битим ҳисобланади.

Корея фонд биржаси “калит билан топшириш” шарти асосида Ўзбекистоннинг фонд бозори учун Ягона дастурий – техник мажмуани жорий этиши керак бўлиб, ушбу мажмуа қуйидагилардан иборат:

- ❖ дастурий таъминот;
- ❖ серверли ва телекоммуникация хизмати кўрсатиш;
- ❖ маҳаллий мутахассисларни ўқитиш ва бир йил давомида кафолатли хизматни тақдим этиш;
- ❖ қонуний базани такомиллаштиришда кўмак бериш.

Мамлакатимизда фонд бозорини жаҳон талаблари асосида ривожлантириш бўйича қуйидаги тадбирлар амалга оширилмоқда:

- ❖ бозордаги профессионал фаолият имкониятлари кенгайиб бормоқда (масалан, фонд бозоридаги фаолиятни бошқа фаолият турлари билан бирга олиб боришга бўлган аввалги чекловлар бекор қилинди);
- ❖ инвесторлар, эмитентлар ва фонд бозорининг профессионал иштирокчилари учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича чора-тадбирлар мунтазам равишда амалга ошириб келинмоқда;

[1] Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала (Инвестиционная политика зарубежных стран): Учебник. - М.: Экономистъ, 2007. - 368 с.

❖ фаол ривожланаётган фонд бозори турли категориялардаги инвесторлар, шу жумладан аҳолига ўз қуйилмаларини диверсификация қилиш хамда бўш пул маблағларини қимматли қоғозларни харид қилиш ва улар бўйича даромадлар олишга йўналтириш имконини беради.

Ўзбекистон иқтисодиётига инвестицияларни жалб килишда фонд бозорларининг таъсирини ошириш учун қуйидагиларга эътибор берилса мақсадга мувофиқ бўларди:

❖ Иккиламчи фонд бозорини ривожлантириш ҳамда унга аҳолининг кенг қатламлари ва кичик бизнесни жалб қилиш ҳали ҳам долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Бундай муаммони ҳал этиш учун, биринчидан, ҳам биржа ҳам биржадан ташқари қимматли қоғозлар бозори учун алоҳида-алоҳида рағбатлантирувчи тариф сиёсатлари бўлиши керак. Чунки йирик инвесторлар, кичик бизнес ва аҳолининг имкониятлари турлича бўлади. Иккинчидан, аҳолининг фонд бозори тўғрисидаги билимлари даражасини ошириш зарур.

2. Яна бир ҳал қилувчи омил ликвидли товарни таклиф этишдир. Ҳар қандай йирик корхонанинг ҳар қандай акцияларини сотиб олиш имкониятига эга бўлиши зарур. Бугунги кунда ушбу масала борасида тегишли давлат ташкилотларида зарур ишлар олиб борилмоқда (Масалан, Давлат рақобат қўмитасида).

3. Албатта, маълумотларнинг очиқлилиги таъминланиши керак. Агар инвесторлар акцияларнинг нима учун чиқарилаётганлигини, корхонанинг пуллари қаерга йўналтирилишини, уларнинг қайтиши ёки қайтмаслик хавфи, даромад қандай бўлишини билсалар, у ҳолда улар аниқ эмитентнинг қимматли қоғозларини харид килиш тўғрисида янада аниқ қарорлар қабул қиладилар ҳамда акцияларни осон сотиш мумкинлиги тўғрисида кафолат мавжуд бўлади.

Хулоса килиб айтсак, юқоридаги каби тавсиялар амалга оширилса, биринчидан, корхоналар ўз ривожланишлари учун анча молиявий маблағларни жалб этиши мумкин. Ахир майда акциядорларнинг бирлашган капитали катта маблағни ташкил этиши мумкин бўлиб, бу ўз навбатида, корхоналар учун ўз қўйилмалар портфелларини диверсификация қилиш ва активларнинг хилма-хиллигини ошириш имкониятини беради. Иккинчидан, бугунги кунда бутун дунёда қимматли қоғозлар даромадларнинг қўшимча манбаи ҳисобланади. Қимматли қоғозларни жалб ишда инвестициялар бўйича харажатларнинг кам бўлишини ҳисобга олсак, фонд бозоридаги операциялардан келадиган даромад муҳим даражада ошиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. http://Prezident.uz/uz/list/viev/1371- Ўзбекистон Республикаси
2. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции: учебное пособие/ Э.С.Хазанович. 2-е изд., стер. - М.:КНОРУС, 2011.-312с.
3. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала (Инвестиционная политика зарубежных стран): Учебник. - М.: Экономистъ, 2007. - 368 с.

М.С.Хамроев– СамИСИ ассистенти,
П.Ш.Усмонов – СамИСИ ассистенти,
Д.О.Худоёров – СамИСИ талабаси

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИГА ЖАЛБ ЭТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Бозор иқтисодиёти шароитида мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестицияларнинг жалб қилишда “очиқ эшиклар” сиёсатини олиб борилиши Ўзбекистон Республикасининг жаҳон ҳамжамиятига кириб бориши, жаҳон бозорида ўз мавқеига эга бўлишини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Бунинг негизида ўзаро манфаатли ташқи иқтисодий муносабатлар йўлга қўйилиши ва ривожланган мамлакатлар тажрибасидан фойдаланган ҳолда мунтазам равишда чет эл сармояларини жалб этиш назарда тутилган.

Бироқ, ҳозирги кунда жаҳондаги турли инқирозлар, бозорда товарларга бўлган талабни кескин салбий томонга ўзгараётганлиги, ривожланганган мамлакатлар пул кредит тизимидаги ўзгаришлар, валюта бозорлардаги нобарқарорлик ва бошқа салбий ҳолатлар инвестицион хориж капитал оқимини таъминлашга салбий таъсир этмоқда.

Юқоридаги масалаларга Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М. Мирзиёев “Кўпгина инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш чўзиб юборилмоқда. Ички бозоримизнинг кўплаб товарларга бўлган эҳтиёжи 50 фоиз даражасида ҳам қондирилмаяпти. Экспорт бўйича топшириқлар барбод қилинган” - деб таъкидлаб ўтдилар.[1]

Мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилинар экан, бунда бизнинг асосий вазифамиз чет мамлакатлардан келадиган сармояларни ишга солиб, хомашё етказиб берадиган минтақадан тайёр маҳсулот чиқарадиган мамлакатга айлантириш орқалигина биз ўз олдимизга қўйган мақсадга эришган бўламиз.

Ислоҳотларнинг дастлабки босқичида хорижий сармояларни миллий иқтисодиётга киритилиши тадбиркорликнинг келажаги сифатида баҳоланди.[2] Ушбу имкониятдан фойдаланиш қандай натижалар бериши асосланди. Белгиланган тадбир ва вазифаларни ечимини таъминлаш борасида амалий қадамлар қўйилди. Хорижий сармояларни жалб этиш тадбирларини амалга оширишда олдиндан белгилаб олинган тамойилларга асосланган ҳолда инвестицияларни жалб этиш учун имтиёзларнинг кенг тизими вужудга келтирилди. Хорижий сармоядорлар учун имтиёзли солиқ жорий этилди.

Имтиёзлар ва рағбатлантириш омиллари белгиланди. Бу борада

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони, Тошкент шаҳри, 2016 йил 2 декабрь.
[2] Сухарев О.С., Шманев С.В., Курьяновлар А.М. Экономическая оценка инвестиций. - М.: ИНФРА-М, 2006. – 243с.

қуйидагиларни келтириш жоиз:

- ишлаб чиқариш ҳажмида товарлар (ишлар, хизматлар) экспорти камида 30 фоизни ташкил этадиган корхоналарга, мулкчилик шаклидан қатъи назар, фойда солиғини амалдаги ставкалардан икки баробар кам тўлаш ҳуқуқи берилди;

- Республика давлат инвестиция дастурига киритилган лойиҳалар бўйича солиқлар тўлашдан беш йил муддатга озод этилди;

- хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар даромадининг ишлаб чиқаришни кенгайтиришга ва технологияни янгилашга сарфланадиган қисми солиқдан озод этилди;

- ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотни рухсатномасиз четга олиб кетиш имконияти берилди;

- Ўзбекистон ҳудудида қўшма корхоналарнинг ва фақат хорижий сармоя билан ишлайдиган корхоналарнинг устав фондига ҳисса қўшиш учун мол-мулкни четдан бож тўловларисиз олиб кириш рухсати берилди;

- жисмоний ва юридик шахсларнинг, жумладан, хорижликларнинг давлат мулкини хусусийлаштириш жараёнида, шу жумладан кўчмас мулкнинг кенг миқёсда сотилишида бемалол иштирок этишлари таъминланди.

Хорижий сармояларга баҳо берилганда уларни жуда қийинчилик билан ва узоқ вақт мобайнида белгиланиши, ўзининг йўналишини танлов асосида ўзгартириши ҳамда тикилган сармояни кўпайтириши зарурлигини тан олган ҳолда, мумкин бўлган йўқотишлар ҳам бўлишини, аммо капитал капитални кўпайтириши, фойдали тарзда маблағ йиғиб, ундан қўшимча фойда олиши мумкин бўлган майдонни қидиришини, капитал шунчаки ҳаракатсиз ётмаслигини таъкидлаш мумкин.[1]

Инвестиция фаолиятини тартибга солиш, ҳуқуқий нуқтаи назаридан, турли мулкдорлар ўртасида моддий ва номоддий активларни такрор ишлаб чиқариш хусусидаги ўзига хос, мураккаб, ижтимоий зарур иқтисодий (инвестиция) муносабатларини шакллантириш меъёрларини назарда тутади. Инвестиция жараёнининг барча субъектлари — хорижий инвесторлардан бошлаб, давлат, юридик ва жисмоний, шу жумладан чет эллик шахслар бу муносабатларнинг иштирокчиларига айланадилар. Ҳуқуқий нуқтаи назардан чет эл инвестициялари бошқа давлат ҳудудида капиталга эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва тасарруф этиш билан боғлиқ. Иқтисодий нуқтаи назардан эса уларнинг ҳудудий, замон ва макондаги ҳаракати шакллари фойда олиш мақсадида кўпдан-кўп қўшимча рисклар билан тўқнашиш эҳтимолига эга бўлади.

Инвестиция муносабатларининт моҳияти бу фаолият иштирокчилари доирасида ва даражасида ўз ифодасини топади. Инвестиция фаолияти ривожланишининг объектив шароитларини акс эттирадиган алоҳида инвестиция муносабатларининг мавжудлиги тартибга солишнинг мустақил

[1] Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д. Джонк. Основы инвестирования. -М.: Дело, 2007, с.10.

предмети бўлишини тақозо этади. Ҳуқуқ нуқтаи назаридан инвестиция фаолиятини тартибга солиш умумий ҳуқуқий ва хусусий ҳуқуқий тартибга солиш меъёрларини қамраб олади. Бу меъёрларнинг бирлиги ижтимоий ва алоҳида инвестиция муносабатларининг характери ҳамда моҳиятини ифода этади ва уларни тартибга солиш усулига айланади. Тартибга солиш усуллари ҳуқуқ меъёрларининг ҳам алоҳида, ҳам ижтимоий зарур инвестиция муносабатлари характерига ўзига хос тарзда таъсир кўрсатиш йўлларидан иборат.

Инвестиция базасини ривожлантириш ва чуқурлаштириш, мамлакатда олиб борилаётган ислоҳотлар стратегиясининг жуда муҳим шарти сифатида белгиланган бўлиб, кучли инвестиция сиёсатини ўтказиш учун ушбу устувор вазифаларни амалга ошириш лозим:

- биринчидан, ташқи иқтисодий фаолиятни янада эркинлаштириш борасида аник мақсадни кўзлаб сиёсат ўтказиш зарур. Бунда товарларни экспорт ва импорт қилишда хорижий сармоядорлар даромадларидан эркин фойдаланишларида бирмунча имтиёзли тартибни жорий қилиш;.

- иккинчидан, хорижий сармояларни, асосан бевосита капитал маблағлар тарзидаги сармояларни Республика иқтисодиётига кенг жалб этиш учун ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа шарт-шароитларни янада такомиллаштириш;

- учинчидан, Ўзбекистонга жаҳон даражасидаги технологияларни олиб келадиган халқ хўжалигининг замонавий структурасини вужудга келтиришда ёрдам берадиган хорижий сармоядорларга нисбатан очик эшиклар сиёсатини ўтказиш;

- тўртинчидан, маблағларни энг устувор соҳаларга - республика мустақиллигини таъминлайдиган аграр секторни, ёқилғи-енергетика комплексини ҳамда бошқа базавий тармоқларни ривожлантиришга, рақобатга қодир, тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни ўзлаштиришга сарфлаш лозим. Чунки, иқтисодиётни таркибий жиҳатдан қайта қурмай туриб, экспорт имкониятларини кенгайтириш мумкин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони, Тошкент шаҳри, 2016 йил 2 декабрь.
2. Сухарев О.С., Шманев С.В., Курьяновлар А.М. Экономическая оценка инвестиций. - М.: ИНФРА-М, 2006. – 243с.
3. Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д. Джонк. Основы инвестирования. -М.: Дело, 2007, с.10.

С.С. Алиева– старший преподаватель СамИЭС, к.э.н.,
Ф.О. Абдуллоев– студент СамИЭС

О НАЛОГЕ НА ИМУЩЕСТВО ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Налоги на собственность приобретают личный характер по мере углубления рыночных отношений. Как правило, любой доход, ранее не обложенный у источника выплаты, в конечном итоге материализуется в конкретное имущество (дом, земельный участок и т.д.), государства с развитой рыночной экономикой усиливают налоговую нагрузку на лица с высокими доходами.

«Основная идея внедряемой с 2019 года новой Налоговой концепции заключается в снижении налогового бремени, внедрении упрощенной и стабильной налоговой системы и посредством этого – повышении конкурентоспособности нашей экономики, создании максимально благоприятных условий для предпринимателей и инвесторов.

К сожалению, на развитие страны негативно влияет значительная доля «теневой» экономики в валовом внутреннем продукте. Именно снижение налогового бремени, создание еще более благоприятных условий для бизнеса являются единственным путем сокращения «теневого сектора». В связи с этим мы должны разработать отдельную программу, предусматривающую действенные меры в данном направлении»[1].

Актуальность рассмотрения налога на имущества с физических лиц заключается в том, что исследование проблем налогообложения имущества физических лиц обусловлена проведением налоговых реформ в Республике Узбекистан в направлении налогообложения физических лиц, а также недостаточной разработанностью правовых аспектов данного вопроса.

Объектом налогообложения являются жилые дома, квартиры, дачные строения, гаражи и иные строения, помещения, сооружения, находящиеся на территории Республики Узбекистан[2].

Цель статьи состоит в том, чтобы на основе анализа и обобщения действующей практики в области имущественного налогообложения рассмотреть соответствующие теоретические положения; сделать обзор международной практики налогообложения имущества; рассмотреть имущественное налогообложение, как механизм, необходимый для выравнивания публичного и частного интересов; выявить конкретные недостатки в действующем налоговом законодательстве, регулирующем отношения в области имущественного налогообложения и рассмотреть перспективы налогообложения имущества физических лиц.

[1] Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису г. Ташкент 28.12.2018 г.
[2] Налоговый кодекс Республики Узбекистан. Утвержден Законом Республики Узбекистан от 25 декабря 2007 года № ЗРУ – 136, 2007, № 52

«Чтобы налог на имущество не ударил по карманам граждан, Президентом приняты 2 важных решения:

1) существенно снижены ставки по налогу на имущество физических лиц. Если максимально возможная ставка в 2017 г. составляла 2,9%, то в 2019 г. она не превысит 0,35%;

2) установлено ограничение по сумме налога, исчисленного на основании кадастровой стоимости в 2019 г. Он может превышать налог 2018 г. не более чем в 1,3 раза»[1].

Возможность введения налога на дополнительные объекты недвижимости, находящиеся в собственности физического лица обсуждается давно. Но сейчас эта перспектива уже зафиксирована в официальных документах, следовательно, населению следует как морально, так и финансово готовиться к нововведениям. Большое количество дискуссий вызывает тот факт, что недвижимость оценивается по кадастровой стоимости, приближенной к рыночной. Это может привести к увеличению сумм налога, именно поэтому введено ограничение в размере не более 30% Необходимо отметить, что для физических лиц предполагается уплата нового налога только по жилым помещениям.

Кроме того, каждый объект имущества физического лица учитывается при налогообложении по отдельности, что занижает сумму налога поступающего в бюджет в части той суммы, которая могла бы быть уплачена, если площадь имущества учитывалась бы в совокупности.

При этом нельзя оставить без внимания малоимущих граждан, которые получили имущество по наследству или по решению государственных органов власти, нуждаются в нем, но при этом не могут оплачивать данный налог.

При разработке мер по совершенствованию имущественных налогов в Узбекистане должен учитываться богатый мировой опыт налогообложения недвижимости. Выделяют следующие основные принципы, в соответствии с которыми облагается налогами недвижимость в зарубежных странах:

1) Объектом налогообложения выступают именно здания и сооружения. Поскольку налог «привязан» не к субъекту – физическому или юридическому лицу, владеющему недвижимостью, – а к самому объекту, уклонение от уплаты такого налога существенно затрудняется.

2) Для целей определения налоговой базы оценка недвижимости осуществляется по рыночной стоимости. Рыночная стоимость объекта при этом определяется с использованием трех основных оценочных подходов: сравнительного, доходного и затратного.

3) При определении стоимости недвижимости используется не индивидуальная оценка каждого отдельного объекта, а массовая оценка, что позволяет оценить большое количество объектов с наименьшими

[1] Постановление Президента от 26.12.2018 г. №ПП-4086 приложение № 15.

затратами.

4) Налоговые льготы, в основном, предоставляются по конкретным объектам или типам недвижимости, а не конкретным налогоплательщикам.

5) В большинстве зарубежных стран налог на недвижимость является местным и поступает в местные бюджеты (например, в Нью-Йорке за счёт данного налога обеспечивается наполнение почти половины городского бюджета).

6) При владении физическим лицом несколькими объектами недвижимости базой для налогообложения налогом на имущество физических лиц является совокупная площадь всех объектов недвижимости;

7) Во избегании укрывательства доходов физических лиц от аренды, посредниками между арендодателем и арендатором является банковское учреждение, которое являясь посредником занимается полным оформлением сделки и мониторингом платежей. При этом арендодатель и арендатор помещения могут быть и незнакомы друг с другом, если это не предусмотрено договором аренды.

Нетрудно заметить, что взимаемый в нашей стране налог на имущество физических лиц учитывает основные принципы, наработанные в мировой практике. Однако не следует забывать, что далеко не всё, что хорошо работает за рубежом, приживается у нас.

Мнения специалистов о грядущем налоге разделились: одни считают, что налогу на имущество с физических лиц удастся восстановить социальную справедливость, другие придерживаются мнения, что налогоплательщиков ждут лишь новые трудности.

На наш взгляд, учет и внедрение некоторых из указанных положений по взиманию налога на недвижимость в зарубежных странах позволило бы усилить рыночную направленность государственного воздействия на экономику и, что особенно важно, изыскать дополнительные источники дохода пополнения местных бюджетов.

З.О.Ахроров – СамИСИ ассистенти,
А.А.Тураев – СамИСИ ассистенти,
С.Пўлатов – СамИСИ талабаси,
Х.Хазратқулов – СамИСИ талабаси

КОРХОНАЛАРДА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Республикада амалга оширилаётган иқтисодий-ижтимоий ислоҳотларнинг ҳуқуқий асосини барча турдаги ҳуқуқий ҳужжатлар ташкил этади. Ушбу ҳуқуқий ҳужжатлар бўлиб Ўзбекистон Республика Қонунлари, Ўзбекистон Республика Президентининг Фармон, фармойиш ва қарорлари

хамда Вазирлар Маҳкамасининг барча қарорларини келтириш мумкин.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг энг асосий йўналишларидан яна бири – корхоналар фаолиятини молиявий муносабатлари такомиллаштириш ва молиявий ҳолатини барқарорлигини таъминлаш ҳисобланади. Чунки корхоналарнинг ижобий ёки салбий фаолияти доимо давлатнинг молиявий ҳолатига бевосита боғлиқ бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2018 йил 20 декабрда "Янги қабул қилинган солиқ сиёсати концепцияси"ни [1] амалиётга тўлиқ тадбиқ қилиш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтган эди. Ушбу йиғилишда Ш.Мирзиёев юртимизда ўтган йилга қадар амалда бўлган солиқ маъмуриятчилигида кўплаб ноаниқликлар борлиги бизнес, тадбиркорлик, инвестиция соҳалари равнақига тўсиқ бўлаётганлигини таъкидлади. Ставкаларнинг юқорилиги тартибли солиқ тўловчиларни қийнаб келаётганлиги эътироф этилди.

Хусусан, корхона фойдасидан қатъи назар, товар айланмасидан 3,2 фоиз миқдорида давлат мақсадли жамғармаларига ажратма тўлаб келинган[2]. Бу солиқ юки корхона даромадининг камида 21 фоизига тенг бўлиб, уларнинг рақобатбардош ва экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришига халал берарди.

Бу каби муаммоларни бартараф этиш, солиқ юкини камайтириш ва бозор муносабатларини ривожлантириш мақсадида давлатимиз раҳбари ташаббуси билан Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси ишлаб чиқилди. Халқаро валюта жамғармаси, Жаҳон банки ва бошқа ташкилотлар экспертларини жалб қилган ҳолда, ривожланган давлатлар тажрибаси асосида қабул қилинган ушбу концепцияда бизнес учун жуда катта имкониятлар, халқаро даражадаги қулай шароитлар назарда тутилган.

Хусусан, янги солиқ концепциясида, товар айланмасидан ажратма тўлаш тартиби ҳам бекор қилинди. Бунинг натижасида йирик корхоналар ўз ихтиёрида 5 триллион сўмдан ортиқ маблағларни сақлаб қолади[3].

Бизга маълумки, молия умумиқтисодий категория сифатида давлатнинг фаолият кўрсатиши учун моддий асосни ташкил этади. Молия давлатга юклатилган муҳим вазифаларни, яъни сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий вазифаларни амалга ошириш, шунингдек жамиятда кенгайтирилган ишлаб чиқаришни таъминлаш каби масалаларни ҳал этади. Бундай масалаларни ҳал этишда молия асосан пул ресурсларни етказиб бериши керак. Ушбу фаолиятни амалга оширишда солиқлар, мажбурий тўловлар, божлар, давлат кредитини жамлаган молия давлат учун объектив

[1] Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 29 июндаги "Ўзбекистон Республикасининг Солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида"[1]ги ПФ-5468-сонли фармон// Халқ сўзи 2018 йил 30 ию

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 декабрдаги "Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида"ги ПҚ-3454 сонли Қарори. www.lex.uz

[3] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг ҳисобот маълумотлари

ва зарур хусусиятга эга бўлади.

Мамлакат молия тизимининг асосий бўғини корхоналар молияси ҳисобланади ва у ялпи ижтимоий маҳсулот хамда миллий даромадни яратилиши, тақсимланиши ва сарфланиши билан боғлиқ жараёнларни ўз ичига олади хамда уларнинг асосий қисми яратиладиган моддий сохада фаолият кўрсатади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан Ўзбекистон Республикасининг «2019 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида»[1]ги қонун имзоланди.

Хусусан, келгуси йилдан бошлаб солиқ турлари 19 тадан 15 тагача қисқармоқда. Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи ставкаси 14 фоиздан 12 фоизгача, дивидендлар ва фоизлар кўринишидаги даромадлар бўйича фойда солиғи ставкаси 10 фоиздан 5 фоизгача пасайтирилди. Яна бир муҳим жиҳати, энди солиқ ставкалари аввалгига ўхшаб кескин ўзгарувчан бўлмайди [2] . Бу инвесторларга узоқ муддатли бизнес лойиҳаларини режалаштиришда қийинчилик туғдирмайди. Янги солиқ концепциясида, юқорида қайд этилган, товар айланмасидан ажратма тўлаш тартиби ҳам бекор қилинмоқда. Бунинг натижасида йирик корхоналар ўз ихтиёрида 5 триллион сўмдан ортиқ маблағларни сақлаб қолади. Бу эса корхоналар ўз фаолиятини янада ривожлантириши хамда экспорт салохиятини юқори даражага оширишга шароит яратади.

Корхоналар молиясининг иқтисодий мохиятига асосан барча молиявий муносабатларни ўзига хос гурухларга ажратиб келинмоқда (1-жадвалга қаралсин).

Иқтисодий муносабатларда корхоналар молияси ўз мохиятига кўра корхоналарнинг тадбиркорлик фаолияти натижасида хусусий капитал, мақсадли марказлашган ва марказлашмаган пул фондларини, суғурта фондларини ва жамғармаларни шаклланиши, уларни тақсимланиши хамда сарфланиши билан боғлиқ молиявий ёки пул муносабатларидан иборатдир. Юқорида таъкидлаб ўтилган барча молиявий муносабат махаллий молиявий ресурсларни шакллантиришда ўзига хос аҳамиятли ва зарурий ҳисобланади. Унинг аҳамиятли ва зарурий томонларини қуйидагилар билан изохлаш мумкин.

1. Таъсисчилар ўртасидаги шаклланган муносабатлар оқибатида ташкилий ҳуқуқий шаклидан қатъий назар маҳаллий ҳудудда янги бир хўжалик субъекти ташкил этишга эришилади. Ушбу субъект эса эндиликда

[1] Мирзиёев Ш.М. «2019 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисидаги ПП-4086 қарори.
[2] Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг Солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепсияси тўғрисида”[2]ги ПФ-5468-сонли фармон// Халқ сўзи 2018 йил 30 июн

1-жадвал

Корхоналар молиясининг иқтисодий моҳиятига асосан барча молиявий муносабатларни ўзига хос гуруҳлари

Т/р	Иқтисодий адабиётларда эътироф этилган молиявий муносабатлар	Муносабатлар мазмуни	Муаллифларни таклиф этилган муносабатларга нисбатан қарашлари
1	Таъсисчилар ўртасидаги корхоналарни ташкил этишда устав капиталини шакллантиришдаги муносабатлар	Устав капиталини шакллантириш усулларига қараб корхоналарнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли белгиланади. Бу ерда корхоналар акциядорлик жамияти, қўшма корхона, хорижий корхона, масъулияти чекланган жамият, хусусий корхона ва бошқа мулкчилик шаклида фаолият кўрсатиши мумкин.	Таъсисчилар томонидан киритиладиган ва чиқариладиган устав капитали онлайн, яъни ягона ахборот базаси орқали маълумот киритиш орқали енгиллаштириш
2	Корхоналар фаолиятида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва уларни сотиш билан боғлиқ бўлган алоҳида корхоналар ўртасидаги молиявий муносабатлар	Ушбу молиявий муносабатларга хом-ашё, материаллар ва тайёр маҳсулотлар етказиб берувчи таъминотчи хамда сотиб олувчи корхоналар ўртасидаги, инвестиция фаолиятини олиб боришдаги қурувчи ташкилотлар ўртасидаги, юкларни етказиб бериш билан боғлиқ транспорт ташкилотлари ўртасидаги, алоқа ва божхона муассасалари ўртасидаги муносабатларни киритиш мумкин.	Бу борада электрон счет-фактура амал қилишини кучайтириш талаб этилади.
3	Корхоналар ва унинг ташкилий бўғинлари ўртасидаги харажатларни молиялаштириш, фойдани шаклланиши (оширилиши) ва айланма маблағларни сарфланиши билан боғлиқ муносабатлар.	Ушбу муносабатлар корхонада ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва унинг бир маромда фаолият кўрсатишига бевосита таъсир этади.	Ортиқча харажатларни олдини олиш, етказиб бериш харажатларини камайтириш
4	Корхоналар ва унинг ишчилари ўртасидаги иш хақини тўлаш, солиқларни тўлаш, фойдани тақсимлаш ва сарфланишини, акциядорлик жамиятида акцияларни чиқариш ва уларни жойлаштирилиши, акциялар бўйича дивидендларни тўлаш, жарималарни тўлаш билан боғлиқ муносабатлар.	Ушбу муносабатлар уларда мавжуд меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишга таъсир кўрсатади.	Тўловларни амалга ошириш бўйича банк тизимини 24 соат ишлаш принципини (мунтазам ишлаш) ташкил этиш, тадбиркорларни вақтини тўғри сарфланишини таъминлаш, интернет-банкинг орқали молиявий маблағларни ихтиёрий вақтда йўналтирилиши ва бу орқали тадбиркорлик фаолиятида самарадорлигини ошириш

5	Корхоналар ва юқори ташкилотлар, молия-саноат бирлашмалари, холдинглар, уюшмалар ва ассоциациялар ўртасидаги муносабатлар.	Ушбу муносабатлар корхоналар ўзлари аъзо ҳисобланган юқори ташкилотлар ўртасидаги марказлашган мақсадли пул фондларини ва заҳираларни шакллантириши, тақсимланиши ва уларни сарфланиши, илмий-тадқиқот ишларини тармоқ бўйича маркетинг тадқиқотини ўтказиш, инвестиция фаолиятини олиб боришда қайтариб бериш шарти асосидаги молиявий ёрдам кўрсатиш, айланма маблағларни тўлдириш билан боғлиқ муносабатларни ўз ичига олади.	Корхоналарда ишлаб чиқаришни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш билан бевосита боғлиқ пул маблағларини қайта тақсимлаш ҳамда уларни ишлатилиши билан боғлиқ муносабатлар, шунингдек, корхоналар фаолиятини мувофиқ-лаштириш бўйича илмий-тадқиқот муассасаларидан маслаҳатчиларни жалб этиш лозим.
6	Тижорат ташкилотлари ва корхоналар ўртасидаги қимматли қоғозларни муомалага чиқариш ва уларни жойлаштириш, ўзаро кредитлаш, қўшма корхоналарни ташкил этишда муассис сифатида иштирок этиш билан боғлиқ муносабатлар.	Ушбу муносабатлар корхоналарни ўз фаолиятини молиялаштиришдаги қўшимча молиявий манбаларни жалб этиш билан боғлиқ фаолиятга бевосита боғлиқдир.	Корхоналарни ўзаро муассис сифатида иштирок этишлари уларнинг молиявий барқарорлигини таъминлайди.
7	Корхоналар ва давлат молия тизими ўртасидаги тўловлар бўйича муносабатлар	Ушбу муносабатлар бюджетга солиқлар ва йиғимларни тўлаш, бюджетдан ташқари фондларга тўловлар ўтказиш, солиқлар бўйича имтиёзлар бериш, молиявий жазо чораларини қўллаш хамда бюджетдан молиялаштириш билан боғлиқдир.	Авваламбор, хўжалик субъектларига молия тизимларига тўловлар бўйича, шунингдек ўзгаришлар бўйича саводхонлигини ошириш ва турли семинар-тренинглар ташкил этиш
8	Корхоналар ва тижорат банклари ўртасидаги муносабатлар.	Ушбу муносабатлар банкларда пул маблағларини сақлаш, кредитлар олиш ва уларни тўлаб бериш, банк кредитидан фойдаланганлик учун фоизлар тўлаш, хорижий валюталарни сотиш ва сотиб олиш, турли банк хизматларини кўрсатиш билан боғлиқдир.	Банк тизимининг 24 соат ишлаш принципини ташкил этиш, корхона маблағларининг ўз вақтида ва тўлиқ тушишини таъминлаш
9	Корхоналар ва суғурта ташкилотлари ўртасидаги муносабатлар	Ушбу муносабатлар мол-мулкни, ходимларини айрим тоифаларини, тижорат ва тадбиркорлик қалтисликларини (рискларни) суғурта қилиш билан боғлиқдир.	Суғурта соҳасини ривожлантириш орқали корхоналарни суғурталашга ишонтириш
10	Корхоналар ва инвестиция институтлари ўртасидаги муносабатлар.	Ушбу муносабатлар қимматли қоғозларни сотиш ва сотиб олиш, инвестицияларни жойлаштириш, хусусийлаштириш билан боғлиқ муносабатлардир.	Инвестиция институтларининг корхо-налар ўртасида инвестиция жойлашти-риш ва хусусийлаштириш билан боғлиқ маълумотлар кенг миқёсда ягона базасини оммалаштириш

ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа фаолият турларидан қатъий назар ахолини бир қисмини иш билан таминлаш орқали мамлакатни хам иқтисодий, хам ижтимоий ахволни яхшилашга эришиш мумкин.

2. Маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни сотиш билан боғлиқ бўлган алохида корхоналар билан молиявий муносабатларни ўрнатиш орқали махаллий ялпи маҳсулотни ошишига, янги иқтисодий ва ижтимоий инфраструктураларни ташкил этилишига ва мавжудларини фаолиятини кенгайтиришга, инвистиция фаоллигини оширишга ва бошқа бир қанча иқтисодий хусусиятларни шаклланишига олиб келади.

3. Корхоналар фаолияти натижасида шаклланган даромад (фойда) ни иш хақи, солиқлар ва айрим турдаги тўловлар, двидентлар ва фоизларга тақсимлаш натижасида худудда ижтимоий фаравонликка, республика ва махаллий миқёсда солиқ потенциалини оширишга, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни сон жиҳатдан оширишга эришиш мумкин.

Юқоридаги маълумотлардан келиб чиққан холда, келтирилган корхоналарнинг барча молиявий муносабатлари махаллий молиявий ресурсларни эгалланишига ўзига хос ўринга ва ахамиятга эга.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, молиявий муносабатларнинг хар бир гурухи ўзига хос хусусиятларга эга, қўлланиши сохаси бўйича ажралиб туради. Лекин уларнинг барчаси икки томонлама характерга эга бўлиб, уларнинг моддий асосини пул маблағларининг харакати ташкил этади. Маблағларининг харакати хамда устав капиталини шакллантириши билан бошланади ва фойданинг шаклланиши, тақсимланиши хамда унинг сарфланиши билан тугайди. Маҳаллий молия даромадларининг шаклланишида корхоналарни барқарор фаолияти муҳим ахамият касб этгани холда давлат даромадларини ва марказлашган ва марказлашмаган молиянинг асоси бўлиб ҳисобланади.

Э.А.Нозимов – СамИСИ ассистенти,
А.А.Раҳимов – СамДУ ўқитувчиси,
О.Улуғбеков – СамИСИ талабаси

ИНВЕСТИЦИОН КАПИТАЛ ОҚИМИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ҲУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Мамлакатимизда олиб борилаётган туб ислоҳатлар, халқимиз фаровонлигини таъминлаш, унинг ҳаётини яхшилаш, бугунги кунимизнинг тинчлигига қаратилганлиги айни ҳақиқатдир. Шуларни ҳисобга олиб ҳам, бозор иқтисодиётининг асосий иқтисодий тушунчалари сифатида инвестициялар тушунчасининг бугунги ҳаётимизга кенг ва тез кириб келишининг ўзи унинг моҳияти ва аҳамиятини, зарурлигини кўрсатиб, уни очиб беришга бўлган заруриятни келтириб чиқаради. Бу тушунча ўзи билан бир қаторда инвестиция сиёсати, инвестиция

лойиҳаси, инвестиция дастури тушунчалари, инвестиция сиёсатини олиб бориш ҳамда бунда жаҳон бозорларининг аҳамияти нақадар мухимлигини англаб олишимизга сабаб бўлмоқда.

Бироқ, ҳозирги кунда жаҳондаги турли инқирозлар, бозорда товарларга бўлган талабни кескин салбий томонга ўзгараётганлиги, ривожланганган мамлакатлар пул кредит тизимидаги ўзгаришлар, валюта бозорлардаги нобарқарорлик ва бошқа салбий ҳолатлар инвестицион хориж капитал оқимини таъминлашга салбий таъсир этмоқда.

Юқоридаги масалаларга Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М. Мирзиёев "Кўпгина инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш чўзиб юборилмоқда. Ички бозоримизнинг кўплаб товарларга бўлган эҳтиёжи 50 фоиз даражасида ҳам қондирилмаяпти. Экспорт бўйича топшириқлар барбод қилинган" - деб таъкидлаб ўтдилар.[1]

Шундай бир шароитда, мавжуд ислоҳотлар инсон манфатларига ҳизмат қилиш, ижтимоий ва иқтисодий юксалтириш учун хорижий инвестицион капитал оқимини таъминлаш эркин иқтисодий зоналарни самарали фаолияти орқали амалга оширилади.

Шунинг учун, бозор иқтисодиёти шароитида инвестицион капитал оқимларини рақбатлантиришда мамлакатларда инвестицияларнинг шаклланганлик даражаси, эркин иқтисодий ҳудуд, унинг инвестицион жозибадорлиги, инновация, илғор инсон капитали ривожи, илмий техник тараққиёти, инвестицияларнинг самараси каби бошқа ижобий натижалар мавжуд имтиёзлар тизими, улар бўйича инфратузилмаларни ривожланганлик даражасини чуқурроқ ўрганиш унинг долзарблигини билдиради.

Биринчи шахар, Флорида штатининг энг машҳур шаҳри қуёшли пляжлари, туристлар оқими ва бойларнинг шинам қароргоҳлари билан машҳур. Айни пайтда бу ерда технологик аспект жадал суръатлар билан ривожлантирилмоқда. 2014 йилда бу ерга Microsoftнинг инновацион маркази кўчиб ўтди. Art Basel Maiamiнинг очилиши билан шаҳарда кўплаб янги кварталлар, ресторанлар ва галереялар пайдо бўлди. Майами университетининг бизнес мактаби ва юридик факультети рейтингларда борган сайин юқориламоқда.

Иккинчи шахар, Ҳиндистоннинг юқори технологиялашган(хайтек) ва янги лойихалар(startaplar) пойтахтига секин-аста трансмиллий корпорациялар — Uber, Airbus, Visa ва бошқалар ўрнашмоқда. Бангалор қароргоҳи жойлашган маҳаллий гигантлар сирасига Flipkart, InMobil ва MuSigma киради. Бундан ташқари, шаҳарда кўплаб йирик тадқиқот марказлари, жумладан, Ҳиндистон илмий институти жойлашган.

Ўчинчи шаҳар, Берлинда ҳар йили 40 мингдан ортиқ янги иннвацион бизнес лойиҳалар (startap) очилади, яшаш нархи эса Германиядаги энг паст кўрсаткичлардан бирини ташкил этади. 2014 йилда бу ерга 174 минг киши кўчиб ўтди, уларнинг ярмидан кўпроғи чет элликлардир. Хизмат кўрсатиш

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони, Тошкент шаҳри, 2016 йил 2 декабрь.

ва туризм соҳасининг ривожи туфайли шаҳар иқтисодиёти Германиядаги энг яхши натижалардан бирини қайд этмоқда.

Тўртинчи шаҳар, автомобиль саноати, телекоммуникациялар, логистика ва чакана (riteyl) хизматларни ривожи туфайли Мехико пойтахти катта миқдорда инвестициялар жалб қилишда давом этмоқда. 2000 йилдан буён офислар бозори 200 фоизга ошди — Мехикода 170 та янги бино пайдо бўлди. Айни пайтда аэропорт реконструкциясига маблағ йўналтирилмоқда, 2020 йиллар бошида унинг ўтказиш имконияти йилига 50 миллион йўловчи ва 550 минг рейсни ташкил этиши кутилмоқда.

Бешинчи шахар, Техас штати пойхатини баъзан Кремний тепаликлари деб аташади. Охирги йилларда Остинда давлат маблағлари улуши катта иқтисодиётдан технологик етакчига айланди. Бу ерда Apple, Cisco Systems, Dell, HP, Facebok ва Google ўрнашди. Шаҳар аҳолиси кунига 150 кишига кўпаймоқда. Техас университети ва бошқа олийгоҳлар шаҳарга билимли ва савияли ёшларни жалб қилмоқда.

Еттинчи шаҳар, 2036 йилга келиб Мелбурн аҳоли сони бўйича Австралиянинг энг йирик шаҳри – Сидней дан ўзиб кетиши кутилмоқда. Economist Intelligence Unit рейтингида Мелбурн яшаш учун қулай шаҳарлар орасида биринчи ўринни эгаллаб турибди. Офис бозори аллақачон Сиднейдагидан ўтиб кетган, шаҳарнинг марказий қисмида ишловчилар сони охирги 10 йилда 24 фоизга ўсган.[1]

Шунингдек, тижорий кўчмас мулкка инвестиция киритиш учун энг жозибадор шаҳарлар, қаторига ўтган йили тижорий кўчмас мулкига киритилган инвестиция ҳажмининг йириклиги бўйича юқори 100 та шаҳарлар рўйхатида биринчи Нью-Йорк шаҳри эгаллади.“Айнан шу шаҳар дунё капиталининг энг катта улуши – 50 млрд. АҚШ долларини жалб қилди”.

2-ўринни Европанинг энг катта молиявий маркази Лондон шаҳри эгаллади. Шаҳарнинг тижорий кўчмас мулкига 38 млрд. АҚШ доллари киритилган бўлиб, бу маблағлардан 10 фоизи кўп функционал мажмуани сотиб олиш бўйича энг йирик келишув бўлди.

3-ўринни Американинг Лос-Анжелес шаҳри эгаллади, бу ерга 22 млрд. АҚШ доллари инвестиция қилинган. Москва шаҳри ушбу рўйхатдан 18-ўринни эгаллаб, унинг тижорий кўчмас мулкига 2 млрд доллар инвестиция киритилган.[2]

Мамлакатимизда, хорижий инвестицияларнинг кириб келишини таъминлашнинг асосий самарали омили ҳисобланган эркин иқтисодий ҳудудларни кенгроқ ривожлантириш, инвестицион жозибадорлик ҳолатларини таҳлил қиламиз. Бундай ижобий кўрсаткичларни мавжудлиги келгусида инвестицион капитал оқимларини объектив ҳаракатини таъминлаш учун муҳим баҳо ҳисобланади. Ҳозирги кунда мамлакатимизда ташкил этилган эркин иқтисодий зоналарнинг ривожланиш ҳолатини

[1] Knight Frank консалтинг компанияси маълумотлари.
[2] Cushman & Wakefield компания маълумотцари.

таҳлил қилмоқчимиз. Шу кунда, мамлакатимизда жами бўлиб 14 та эркин иқтисодий зона ва 96 та кичик саноат зоналари фаолият юритмоқда. «Навоий», «Ангрен», «Жиззах», «Ургут», «Ғиждувон», «Кўқон» ва «Ҳазорасп» эркин иқтисодий зоналарида умумий қиймати 486 миллион АҚШ долларига тенг 62 лойиҳа амалга оширилган, 4,6 мингдан ортиқ иш ўрни яратилган. Бироқ, 2017 йил 9 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг "Мамлакатимиздаги эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар самарадорлиги таҳлилига бағишланган йиғилиш"да "...тегишли вазирлик, идора ва хўжалик юритувчи субъектларнинг бу соҳадаги фаолиятини танқид қилиб, уларда ташаббускорлик етишмаслиги, эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарини ривожлантириш бўйича ишларни ташкил қилиш даражаси сустлигини таъкидладилар. Шунинг билан бирга, мамлакатимиз иқтисодиётига эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этиш орқали хорижий инвесторларни жалб қилиш вазифаси етарлича таъминланмаётганлигини" эътироф этиб ўтдилар.[1]

Таҳлилларга асосан, хулоса қиладиган бўлсак, эркин иқтисодий зоналарни жадал суръатларда ривожига мамлакатимиздаги эркин иқтисодий зоналар ташкил этишдаги ижро интизомларини пастлиги, инфратузилмани шакллантиришдаги сусткашликлар, тадбиркорларда ташаббуснинг етишмаслиги, асосан мазкур жараёнга хорижий инвесторларни жалб қилиш билан боғлиқ шарт шароитларни етишмаслиги етарлича ижобий таъсир этмаяпти. Бунда мамлакатимизда эркин иқтисодий зоналарининг дирекциялар ва эркин иқтисодий зоналар Маъмурий кенгашига зиммаларига юклатилган долзарб вазифалар(мамлакатда инновацион ишлаб чиқаришни ривожлантириш)ни амалга оширишдек муҳим устувор йўналишларга эътибор берилмаётганлиги, бу соҳа масъул ходимларида изчиллик етишмаётганлиги аниқланди.

Шунинг учун, ҳозирги кунда эркин иқтисодий зоналарни фаолиятини мамлакатимиздаги ўрнини янада ошириш мақсадида юқоридаги салбий ҳолатларни бартараф этиш, мавжуд муаммоларни зудлик билан бартараф этиш, ҳозирги кунда мамлакатимизда эркин иқтисодий зоналарни ривожлантириш учун амалдаги қонунчиликда ЭИЗлар иштирокчиларига қўшимча тарзда божхона тўловларидан имтиёз ва преференциялар бериш тизими такомиллаштириб боришни талаб этмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2016 йил 26 октябрдаги "Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини фаоллаштириш ва кенгайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-4853-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июндаги "Тошкент шаҳри Яшнобод туманида инновацион технопракни ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-5068-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.

февралдаги “Корея Республикаси Ҳукуматининг беғараз ёрдамини жалб қилган ҳолда Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти қошида Ўқув-амалий тўқимачилик технопаркини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2759-сонли қарори ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 мартдаги “Сирдарё вилоятининг Янгиер шаҳрида кичик саноат зонасини барпо этиш тўғрисида”ги ПҚ-2860-сонли қарори ва бошқа қонуности ҳужжатлар орқали қўшимча имтиёзлар тизими кенг жорий этилган.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 августдаги “Эркин иқтисодий зоналар самарали фаолият кўрсатиши учун вазирликлар, идоралар ва жойлардаги давлат ҳокимияти органларини мувофиқлаштиришни кучайтириш ва уларнинг масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3175-сонли қарори қабул қилинган бўлиб, қарорда ўтган давр мобайнида мамлакатимиздаги эркин иқтисодий зоналар фаолияти таҳлил қилинганлиги, натижада камчиликлар аниқланганлиги таъкидланиб, зоналарни янада ривожлантиришнинг асосий йўналишлари белгилаб берилди. Таъкидлаш жоизки, 2017 йилнинг ўтган 9 ойи давомида ЭИЗлар иштирокчиларига божхона тўловларидан жами 260,9 млрд. (2016 йилнинг 9 ойида 30,9 млрд.) сўм имтиёзлар қўлланилган бўлиб, 2016 йилга нисбатан 8,4 баробарга ошган.[1]

Шунингдек, мамлакатимизда технопарклар ва кичик саноат зоналарини ташкил этишга ҳам катта эътибор қаратилаётган бўлиб, жорий йилнинг ўзида бу соҳада бир қатор янги қонуности ҳужжатлари қабул қилинди. Бундай зоналар иштирокчилари, чет эл инвесторларга бир қатор имтиёзлар, шу жумладан божхона тўловлари бўйича имтиёзлар жорий этилган.

Юқоридаги таҳлил хулосаларига асосланиб, камчиликларни бартараф этиш ёки эркин иқтисодий зоналарни мамлакатимиз иқтисодиётидаги ўрнини янада ошириш учун қуйидаги таклифларни ишлаб чиқдик:

- Давлатнинг бирламчи аниқ мақсад(мамлакатда валюта тушумини, иқтисодиётни етакчи тармоқларини асосий фондларини янгиланиш, модернизациялаш ва диверсификациялаш ва бошқалар)ни амалга ошириш мақсадида эркин иқтисоий зоналарга хорижий инвесторларни кенг жалб қилиш тизимини зудлик билан шакллантириш лозим;
- Эркин иқтисодий зоналар бўйича аниқ дастурий лойиҳалар ёки шу ҳудудларнинг барча инвестицион салоҳияти даражасидан келиб чиқиб аниқ янги, ихтироларга, илмий янги ғояларга асосланган таклиф этилаётган лойиҳалар рўйхатини шакллантириш тизимини жорий этиш лозим. Бунда, илмий-текшириш ва илмий-тадқиқот институтлари фаолиятини шакллантириш ва ривожлантириш лозим;
- Эркин иқтисодий зоналарни ташкил этишдаги давлат томонидан ўрнатилган бош аниқ устувор (валюта тушумини таъминлаш,

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.

иқтисодий модернизациялашда хорижий инвестициялар ва инвесторларни жалб қилиш ва бошқалар) йўналишларни аниқ белгилаб қўйилиши лозим. Бунда; ЭИЗ лардги лойиҳаларни қуриш учун давлат томонидан белгиланган аниқ устувор йўналишларни бажарилиши бўйича давлат мониторингини ташкил этиш лозим;

❖ Тадбиркорларни аниқ изланувчанлик иқтидорларини шакллантириш (ихтиро, илмий ғоя, тадқиқот ишлари, тадқиқот институтлари, олим ва ихтирочиларни рағбатлантириш ва бошқалар) жараёнларни тезлаштириш лозим. Чунки мазкур ҳолатларни етарли таъминланиши мисол учун, биринчи жараёнларнинг жадал ривожи эркин ҳудудларни бошқа шаклларни тезроқ суратларда ривожланишига туртки беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони, Тошкент шаҳри, 2016 йил 2 декабрь.

2. Данько Т.П.,. Свободние экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: «ИНФРА-М», 1998. – С. 31.

3. Краткий внешнеэкономический словарь-справочник. Под редакцией В.И.Рыбалкин. – М.: «Международные отношения», 1991. – С.82.

4. Knight Frank консалтинг компанияси маълумотлари.

5. Cushman & Wakefield компания маълумотлари.

6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.

V ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ, АУДИТ ВА СТАТИСТИКА ФАНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”

К.Б. Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.,
Ф.Т. Норқулов – СамИСИ магистранти

АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ИШ ФАОЛИЯТИ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ АУДИТ ОБЪЕКТЛАРИ СИФАТИДАГИ ТАСНИФИ ВА ТАВСИФИ

Автотранспорт корхоналари моддий техника базасида автотранспорт воситалари (АТВ) асосий ролни ўйнайди. Уларсиз автотранспорт корхоналари ўзларининг юк ташиш, йўловчи ташиш ҳамда бошқа иш (хизмат)лардан иборат бўлган асосий фаолиятини юрита олмайдилар. Шу боис ҳам, автотранспорт корхоналарида АТВларнинг етарли миқдорда мавжудлиги, уларнинг бутлиги, ишга яроқлиги, янгиланиб туриши, шунингдек ҳар бир автомобиль иш фаолияти ҳисобини тўғри юритиш ўта муҳим аҳамият касб этади.

АТВлар ва улар иш фаолияти автотранспорт корхоналарида ўтказиладиган аудитнинг ҳам энг асосий ва муҳим объектлари бўлиб ҳисобланади.

Автотранспорт корхоналари ихтиёридаги АТВлар иш фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичларни аудит объекти сифатида миқдор ва сифат кўрсаткичларга ажратиш мумкин.

АТВлар иш фаолияти ҳажмини ифодаловчи миқдор кўрсаткичлар бўлиб ташилган юк ҳажми ва юк айланмаси (юк обороти) ҳисобланади. Чунончи, ташилган юк ҳажми тоннада, юк айланмаси (юк обороти) тонна-километрда, йўловчи ташиш ҳажми эса киши сонида, йўловчи айланмаси (йўловчи обороти) киши-километрда ҳисобга олинади.

Тонна-километр (т/км) – бу транспорт томонидан 1 тонна юкни 1 км масофага ташиш бўйича бажарилган ишни ҳисобга олиш учун қабул қилинган шартли бирлик. Транспорт томонидан бажарилган жами ишнинг тонна-километр (т/км)даги ҳажми ташилган юк миқдорини (тонна) жами юк билан босиб ўтилган масофа (км)га кўпайтириш орқали топилади.

Киши-километр (к/км) – бу транспорт томонидан 1 кишини 1 км масофага ташиш бўйича бажарилган ишни ҳисобга олиш учун қабул қилинган шартли бирлик. Транспорт томонидан бажарилган жами ишнинг киши-километр (к/км)даги ҳажми ташилган йўловчилар сонини (киши)

жами йўловчилар билан босиб ўтилган масофа (км)га кўпайтириш орқали топилади.

АТВлар иш фаолияти турли сифат кўрсаткичлари билан тавсифланади. Уларнинг асосийлари бўлиб, чунончи, қуйидагилар ҳисобланади:

- **1 тонна-километр (т/км) юк айланмасининг таннархи**. Бу кўрсаткич юк ташиш автомобил транспортини эксплуатацияси учун сарфланган жами харажатларни жами бажарилган иш ҳажми, яъни юк айланмаси (т/км) миқдорига бўлиш орқали топилади.
- **1 киши-километр (к/км) йўловчи айланмасининг таннархи.** Бу кўрсаткич йўловчи ташувчи автомобил транспортини эксплуатацияси учун сарфланган жами харажатларни жами бажарилган иш ҳажмига, яъни йўловчи айланмаси (к/км) миқдорига бўлиш орқали топилади.
- **автомобилларнинг техник тайёргарлик коэффициенти.** Бу кўрсаткич маълум даврда жами техник соз ҳамда юк ташиш (йўловчи ташиш) учун яроқли бўлган автомобиллар сонини уларнинг шу даврда жами рўйхатдаги сонига бўлиш орқали топилади.
- **автомобилларни ишга чиқиш коэффициенти.** Бу кўрсаткич маълум даврда жами ишга чиққан автомобиллар сонини шу даврда хўжаликда мавжуд бўлган жами автомобиллар сонига бўлиш орқали топилади.
- **ишдаги автомобил-кунлар сони.** Бу кўрсаткич маълум даврдаги жами автомобил-кунлар сонини шу даврдаги автомобилларни ишга чиқиш коэффициентига кўпайтириш орқали топилади.
- **ишда бўлмаган автомобил-кунлар сони.** Бу кўрсаткич маълум даврда хўжаликдаги жами автомобил-кунлар сонидан жами ишдаги автомобил-кунлар сонини айириш орқали топилади. Автохўжаликларда **и**шда бўлмаган автомобил-кунлар сони объектив ва субъектив сабабларга кўра юз беради. Чунончи, дам олиш ҳамда байрам кунларига, шунингдек режадаги техник кўрик ва таъмирлаш ишларига тўғри келадиган автомобил-кунлари сони объектив сабаблар ҳисобланади. Йўлга чиқиб, турли тасоддифий ҳолатларга кўра иш вақтини тўлиқ ўтамасдан хўжаликка қайтган, шунингдек ҳайдовчининг берилган топшириқни бажармаганлиги ва шу каби бошқа ҳолатларга кўра ишда бўлмаган автомобилларга тўғри келувчи автомобил-кунлари сони субъектив сабаблар ҳисобланади. Бундайин сабабларга кўра вужудга келган автомобил-кунлар сони тузилган махсус далолатномалар асосида ҳисобга олинади.
- **нарядаги автомобил-соатлар сони.** Бу кўрсаткич маълум даврда хўжаликдаги жами автомобил-кунлар сонини автомобилларнинг нарядда бўлган ўртача суткалик соатлари сонига кўпайтириш орқали топилади.
- **Автомобиллар иш вақтидан фойдаланиш коэффициенти.** Бу кўрсаткич автомобилларнинг ҳаракатдаги вақтини нарядда бўлган вақтига бўлиш орқали топилади.

• **босиб ўтилган масофанинг фойдалилик коэффициенти.** Бу кўрсаткич автомобилларнинг маълум даврда юк билан босиб ўтган масофасини жами юк билан ва юксиз босиб ўтган масофасига бўлиш орқали топилади.

• **юк кўтариш имкониятидан фойдаланиш коэффициенти.** Бу кўрсаткич автомобиллар томонидан маълум даврда ҳақиқатда ташилган юк ҳажмини уларнинг шу даврга тўғри келадиган жами юк ташиш имкониятига бўлиш орқали топилади.

АТВлар иш фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичларни аниқлаш ҳамда уларни ҳисоб ва ҳисоботда акс эттиришга асос бўлувчи бошланғич ҳужжатлардан бири бўлиб йўл варақалари ҳисобланади. Ушбу ҳужжатнинг турлари, шакллари, уларни тайёрлаш, ҳисобга олиш, тўлғазиш ва ишловдан ўтказиш тартиблари Ўзбекистон Республикаси автомобил ва дарё транспорти агентлиги бошлиғининг 2004 йил 3 июндаги 83-буйруғи билан тасдиқланган «Ташувчиларнинг юк автомобиллари учун йўл варақалари, товар-транспорт наклоднойларини тайёрлаш, ҳисобга олиш, тўлғазиш ва ишловдан ўтказиш бўйича йўриқнома» билан белгиланган. Ушбу Йўриқномага мувофиқ йўл варақаларининг қуйидаги намунавий шакллари тасдиқланган:

№ 4-с (ишбай) шакл - АТВларда юк ташишда улар ҳайдовчиларига меҳнат ҳақи ишбай шаклда шартнома асосида белгиланган тарифларда ҳисоб-китоб қилинганда қўлланилади.

№ 4-п (вақтбай) шакл – АТВларда юк ташишда улар ҳайдовчиларига меҳнат ҳақи вақтбай шаклда шартнома асосида белгиланган тарифларда ҳисоб-китоб қилинганда қўлланилади.

№ 4-м (шаҳарлараро) шакл – АТВларда юк ташиш шаҳарлараро йўналишда амалга оширилганда қўлланилади. Ушбу шаклнинг юза қисмида босмахона усулида қизил рангли катакча ичида «Шаҳарлараро ташиш» ёзуви бўлади.

№ 1 (халқаро) шакл – АТВларда юк ташиш халқаро йўналишларда амалга оширилганда қўлланилади.

АТВлар иш фаолиятини ифодаловчи миқдор кўрсаткичларни аниқлаш ҳамда уларни ҳисоб ва ҳисоботда акс эттиришга асос бўлувчи яна бир бошланғич ҳужжат бўлиб товар-транспорт наклоднойи (ТТН) ҳисобланади.

Номи юқорида зикр этилган Йўриқномага асосан республикамизда автотранспорт корхоналари учун ТТНнинг учта турдаги намунавий шакллари тасдиқланган:

№ 1-т шакл – шаҳаричи ва шаҳар атрофида юк ташиш учун;

№ 2-тм шакл – шаҳарлараро йўлларда юк ташиш учун;

CMR шакл – халқаро йўлларда юк ташиш учун.

АТВлар иш фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичларда улар эксплуатациясидан олинадиган даромадлар ҳамда кўрсатилган хизматлар таннархи муҳим ўрин тутади.

АТВлар иш фаолиятидан олинган даромадлар деганда бошқа юридик шахслар (буюртмачиларга) тузилган шартномалар асосида, шунингдек жисмоний шахсларга нақд пулга юк ташиш ҳамда йўловчи ташиш бўйича бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лардан олинган соф тушум тушунилади.

Автотранспорт корхоналарининг асосий фаолиятидан олинган соф тушум АТВлар ёрдамида бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лардан олинган ялпи тушум ҳамда уларга тўғри келувчи қўшилган қиймат солиғи суммалари ўртасидаги фарқдан ташкил топади. Ягона солиқ тўлови режимида ишловчи автотранспорт корхоналарида АТВлар ёрдамида бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лардан олинган жами тушум уларнинг соф тушуми бўлиб ҳисобланади.

Автотранспорт хизматлари таннархи деганда АТВлар ёрдамида бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)ларга кетган барча ишлаб чиқариш мақсадидаги сарф-харажатлар тушунилади.

Автотранспорт корхоналарида, бошқа хўжалик юритувчи субъектлардаги каби, ишлаб чиқариш харажатларининг таркибий моддалари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган «Маҳсулот (иш, хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом»га асосан тартибга солинади.

Ушбу Низомга мувофиқ автотранспорт корхоналари ишлаб чиқариш харажатларининг таркибий моддалари иқтисодий мазмунига кўра бешта гуруҳга бўлинади. Булар:

- **материал харажатлари** – бу юк ташиш ёки йўловчи ташиш бўйича бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лар учун сарфланган ёқилғи, мойлаш материаллари, эҳтиёт қисмлар хўжалик буюмлари, махсус жиҳозлар ва бошқа турдаги материаллар қиймати;
- **меҳнат ҳақи харажатлари** - бу юк ташиш ёки йўловчи ташиш бўйича бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лар учун АТВлар ҳайдовчиларига ҳисобланган меҳнат ҳақи;
- **ижтимоий суғуртага ажратмалар** - бу юк ташиш ёки йўловчи ташиш бўйича бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лар учун АТВлар ҳайдовчиларига ҳисобланган меҳнат ҳақига нисбатан давлатнинг бюджетдан ташқари мақсадли фондларига белгиланган ставкалардаги мажбурий тўловлари;
- **амортизация харажатлари** - бу юк ташиш ёки йўловчи ташиш бўйича ишларни бажариш (хизматларни кўрсатиш)га бевосита алоқадор бўлган асосий воситалар ҳамда номоддий активларнинг эскириш қиймати;
- **бошқа ишлаб чиқариш харажатлари** – бу юк ташиш ёки йўловчи ташиш бўйича бажарилган иш (кўрсатилган хизмат)лар учун сарфланган бошқа ёрдамчи ва умумишлаб чиқариш мақсадларидаги

харажатлар, масалан газ, сув, электр қуввати, пар таъминоти, жорий ва капитал таъмирлаш харажатлари, шунингдек турли хизматлар учун ҳисобланган тўловлар.

Автотранспорт корхоналарида АТВ иш фаолиятини ифодаловчи юқорида қисқа изоҳи келтирилган кўрсаткичлар, кўриниб турибдики, ўзига хос хусусиятларга эга. Ушбу хусусиятлар АТВлар иш фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичларни аудитнинг ўзига хос объектлари сифатида обдон текширишни тақоза этади.

М.Ибрагимов – СамИСИ катта ўқитувчиси, и.ф.н.

УЗУМЧИЛИККА ИХТИСОСЛАШГАН ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Республикамиз аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан узлуксиз таъминлаш, ички бозорни сифатли мева-сабзавот ва узумчилик маҳсулотлари билан тўлдириш мақсадида агросаноат мажмуида етакчи тармоқлардан бири ҳисобланган мева- сабзавотчилик ва узумчиликни янада ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Чунки бу тармоқ аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари, саноат корхоналарини эса хомашё ресурсларига бўлган талабини узлуксиз қондириш имкониятини беради. Қолаверса, Ўзбекистон боғдорчилик ва узумчилик маҳсулотлари етиштириш учун салоҳияти юксак давлатдир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”[1] 4947-сонли фармони билан тасдиқланган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари”да белгиланган вазифалар қаторига қишлоқ хўжалигида “... пахта ва бошоқли дон экиладиган майдонларни қисқартириш, бўшаган ерларга картошка, сабзавот, озуқа ва ёғ олинадиган экинларни экиш, шунингдек, янги интенсив боғ ва узумзорларни жойлаштириш ҳисобига экин майдонларини янада оптималлаштириш” вазифаси қўйилган. Хусусан, 2017 йилда замонавий агротехнологиялар асосида юқори ҳосилдорликка эга бўлган, эртапишар ҳамда ширин таъмга эга узумчиликни ривожлантириш ва дунё бозорларида харидоргир экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмларини ошириш, жумладан, 7,3 минг гектар токзорлар ташкил қилиш ҳамда 9 минг гектар токзорларни реконструкция қилиш, мавжуд паст рентабелли токзорларни босқичма-босқич, йилига 10 фоиздан ёки 14,1

[1] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

минг токзорларни интенсив усулга ўтказиш, янги ташкил этилаётган ва мавжуд интенсив токзорларга босқичма-босқич томчилатиб суғориш тизимини жорий қилиш, токзорлар майдонларини кенгайтириш ва уларнинг эскирган ва яроқсиз майдонларини янгилаш, токзорлар майдонларини янгилаш натижасида ер унумдорлиги ошиши ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш вазифалари белгиланган.

Ушбу вазифаларни амалга оширишда узумчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш харажатлар ҳисобини такомилаштириш ва маҳсулот таннархини пасайтириш муҳим аҳамиятга эгадир.

Республикамизда қишлоқ хўжалигининг барча тармоклари каби узумчилик хам жадал ривожланмокда. Айникса, “2013-2015 йиллар давомида республика бўйича қишлоқ хўжалиги корхоналари ва фермер хўжаликлари томонидан 23,5 минг гектар янги токзорлар барпо этилиб, 17,4 минг гектр майдондаги эски, самарасиз токзорлар реконструкция килинди. Ўтган йиллар давомида барча тоифа хўжаликларида токзорлар майдони 141,7 минг гектардан 148,6 минг гектарга етказилиб, узум етиштириш 136 минг тоннага кўпайди. 2016 йилда ялпи ҳосил 1,7 млн.тоннани, 2017 йилда эса эса 1,9 млн тоннани ташкил килган”.[1]

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 февралдаги ПК-3573 сонли “Виночилик соҳасини ва алкоголли маҳсулотларни реализация қилишни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарорида республикамизда виночиликни ривожлантириш, бунинг асосида узумнинг техник навларини етиштиришни янада кўпайтириш чора-тадбирлари белгиланди. Жумладан:

- 2019 йилнинг 1 январидан уз узумзор плантацияларининг хом-ашёсидан ишлаб чиқарилган табиий узум виноларини қишлоқ хўжалиги маҳсулоти тоифасига киритилиб, ишлаб чиқариш фаолиятини лицензиялаш бекор килинди;
- виночилик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни ёнилги-мойлаш материаллари, ўғитлар ва усимликларни химоя қилишнинг бошка воситалари билан узумнинг техник навлари плантацияларини шакллантиришнинг биринчи беш йиллигида имтиёзли нархларда таъминлаш белгиланди;
- узумнинг техник навларини ишлаб чиқарувчилар 2025 йилнинг 1 январига қадар муддатда ер солиғини тўлашдан озод қилинди.

Узумчилик соҳасига берилган ушбу имтиёзлар тармоқнинг янада ривожланиши, Республикамизда узум етиштиришни кўпайтириш имкониятини беради.

Маълумки ҳозирда Республикамизда етиштирилаётган узум ҳосилининг асосий қисми фермер хўжаликлари ҳиссасига тўғри келади (1-жадвал).

[1] Интернет сайти:vinsanoat.uz.

1-жадвал

Самарканд вилоятида 2017-2018 йилларда токзорлар майдони ва узум ялпи ҳосили кўрсаткичлари[1]

Т/р	Хўжаликлар тоифаси	Токзорлар майдони, га			Ялпи ҳосил, тонна			Ҳосилдорлик, ц/га		
		2017 й.	2018 й.	Ўсиш суръати,%	2017 й.	2018 й.	Ўсиш суръати,%	2017 й.	2018 й.	Ўсиш суръати,%
1	Барча тоифадаги хўжаликлар	39016	39026	100,0	607085	645496	106,3	155,5	165,4	106,3
1.1	Ш.ж. фермер хўжаликлари	28929	29082	100,5	396954	410361	103,4	137,2	141,1	102,8
1.2	Деҳкон (шахсий ёрдамчи) хўжаликлар	9169	9026	98,4	205281	229450	111,8	223,9	254,2	113,5
1.3	Қишлоқ хўжалик фаолиятини амалга оширувчи ташкилотлар	918	918	100,0	4850	5685	117,2	528,3	619,3	117,2

1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Самарқанд вилоятида 2018 йилда мавжуд жами 39026 гектар токзорларнинг 29082 гектари ёки 74,5 фоизи фермер хўжаликларида бўлиб, жами узум ҳосилининг 410361 тоннаси ёки 63,5 фоизи фермер хўжаликлари томонидан етиштирилган.

Узумчилик тармоғининг жадал ривожланиши, ушбу тармоқда маҳсулот миқдорини кўпайтириш, сифатини яхшилаш билан бирга маҳсулот таннархини пасайтириш, маҳсулот рақобатбардошлигини таминлаш асосида ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишни талаб қилади. Бу вазифаларни амалга оширишда тармоқда ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини тўғри ташкил қилиниши ва юритилиши муҳим рол ўйнайди. Ҳозирда узумчилик йўналишидаги фермер хўжаликларида тармоқда бажариладиган агротехник тадбирларнинг асосий қисми яъни, токни қирқиш, ток тупларини кўмиш ва очиш, ҳомток ўтказиш, узум ҳосилини йиғиштириб олиш асосан фермернинг ўзи томонидан қўл кучи асосида бажарилади. Натижада ушбу агротехник тадбирларни бажариш учун иш ҳақи ва иш ҳақига нисбатан ижтимоий суғурта ажратмалари, баъзи бошқа харажат моддалари бўйича килинган харажатлар ҳам бухгалтерия ҳисобида тўлиқ акс эттирилмасдан қолмоқда.

Фермер хўжаликларида узумчилик ишлаб чиқариш харажатларини 2-жадвалда келтирилган тартибда ҳисоб–китоб қилиниши ва бухгалтерия

[1]Вилоят статистика бошкармси маълумотлари

ҳисобида қатъий ҳисобга олинишини таклиф қиламиз.

2-жадвал

Фермер хўжаликларида узумчилик ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга тартиби[1]

Т/р	Харажат моддалари	Ҳисоблаш тартиби	Расмийлаштириладиган ҳужжат
1.	Меҳнат ҳақи харажатлари. (Ток тупларини очиш, ток тупларига ишлов бериш, суғориш, ҳомток қилиш, касалликларга ва зараркунандаларга қарши дорилаш, ҳосилни узиб олиш, токни қирқиш ва кўмиш ишлари)	Наряд бўйича бир бирлик ишни бажариш учун белгиланган таърифни бажарилган иш ҳажмига кўпайтириш йўли билан аниқланади	Наряд, табель, ҳисоб - тўлов қайдномаси
2.	Ижтимоий суғуртага ҳисобланган ажратмалар	Ҳисобланган иш ҳақини белгиланган ставкага кўпайтириш йўли билан аниқланади	Махсус ҳисоб-китоб
3.	Минерал ва маҳаллий ўғитлар ҳамда кимёвий дорилар сарфи	Узумзор майдонини 1 га майдонига сарфланган минерал ўғитлар ва кимёвий дорилар миқдорига ва уларнинг бир бирлигининг хақиқий таннархига кўпайтириш йўли билан аниқланади	Минерал ўғитлар ва кимёвий дорилар сарфи далолатномаси
4.	Ёқилғи сарфи	Фермер хўжалигида мавжуд экин турлари ўртасида қишлоқ хўжалик техникасининг ҳар бир экин турида ишлаган вақтига (соат) ёки иш ҳажмига (эталон/гектар) қараб тақсимланади	Нарядлар, трактрчи-машинистнинг ҳисоб варақаси, трактрнинг йўл варақалари
5.	Суғурта тўловлари	Токзор майдони бўйича ҳисобланган суғурта тўлови бўйича	Суғурта полиси, шартнома
6.	Иш ва хизматлар	Ҳисоб сиёсатида белгиланган тартиб бўйича тақсимланади	Махсус тақсимлаш ҳисоб-китоби
7.	Амортизация харажатлари	Ҳисоб сиёсатида белгиланган тартиб бўйича ҳисобланади	Махсус амартизация (эскириш) ҳисоблаш ҳисоб-китоби
8.	Умумишлаб чиқариш харажатлари	Ҳисоб сиёсатида белгиланган тартиб бўйича тақсимланади	Махсус тақсимлаш ҳисоб-китоби

Ишлаб чиқариш харажатларининг тўғри ҳисоб-китоб килиниши ва ҳисобининг тулик хамда тўғри юритилиши етиштирилаётган маҳсулотнинг таннархини хамда молиявий натижаларни тўғри аниқлаш имконини беради.

[1] К.Б.Уразов, С.В.Вахидов. Бошка тармокларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.-Т., «Адиб нашриёти» МЧЖ, 2011. 188-189б.

A.N.Xoliqulov – SamISI, Menejment va statistika kafedrasi mudiri, i.f.n.,
Z.A.Yorkulova – SamISI, Kti-217 guruh talabasi

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLARNING STATISTIK NATIJALARINING TAHLILI

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini yanada rag‘batlantirish maqsadida keng ko‘lamli institutsional va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tizimi qaytadan isloh qilinib, biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda yangi yondashuvlar tadbiq etilgani, tadbirkorlik sub'yektlarining qonuniy manfaat va huquqlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etilgani, biznes bilan muloqot qilishning, ayniqsa viloyat, shahar va tumanlarda samarali mexanizmi joriy etilgani mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan ishlarga misol bo‘la oladi.

Shu bilan birga respublikamiz tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi bozorlardagi ishtiroki va eksport faoliyatini yanada kengaytirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorik mamlakatimizning ekspirt dinamikasida katta hissaga ega. Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlari eksport faoliyatini rivojlantirish uchun Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etildi.

O‘tgan yilning o‘zida ushbu Fond tomonidan 2 162 ta tadbirkorlik sub'yektlariga o‘z tovar va xizmatlarini eksport qilishda xuquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatilgan, jumladan 1 767 ta tadbirkorlik sub'yektlariga tashqi bozorlarni o‘rganishda, 127 ta tadbirkorlik sub'yektlariga xorijiy hamkor topishda, 135 ta tadbirkorlik sub'yektlariga xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish, xalqaro sertifikatlar olish va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirishda ko‘mak berilgan. Buning natijasida joriy yilning to‘qqiz oyi yakunlari bo‘yicha 395 ta tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 1 093 mln. dollarlik eksport amalga oshirilgan.[1]

Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa Fond tomonidan umumiy qiymati 5 219 mln. so‘m, shundan 4 030 mln. so‘m miqdorida foizsiz moliyaviy qarzga moliyaviy ko‘mak ajratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilning 2 sentyabrida qabul qilingan «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» 5177-sonli Farmoni [2] bilan respublikamizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish uchun zarur mahsulotlarni import qilishda xorijiy valyutaga ehtiyoj bo‘yicha mavjud bo‘lgan muammolarni

[1] O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti “Stat.uz” dan
[2] Lex.uz

bartaraf etishga qaratilgan zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Ma’lumki, ushbu Farmon bilan yana joriy yilning sentyabr oyidan eksport qiluvchi xo‘jalik sub'yektlari uchun mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksport qilishdan valyuta tushumlarining majburiy sotish bo‘yicha talab ham bekor qilindi.

Yana shuni alohida ta’kidlash zarurki, eksportbop, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, korxonalarimiz raqobatbardoshligi yanada oshirish maqsadida, 2017-yilning 29- sentyabr kuni Prezidentimiz tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3303-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan xom-ashyo, material, asbob-uskuna bilan korxonalarni ta’minlash maqsadida ushbu tovarlarga bojxona boji va aksiz solig‘i stavkalari deyarli olib tashlandi.

Yaratilgan bu kabi qonunlar va ularning amaldagi ijrosi o‘zining samaradorlik ko‘lamini aniq raqamlarda aks ettirib kelmoqda. O‘tgan yilning o‘zida 38,2 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo`jaliklarisiz) sub`yektlari tashkil etild. Quyida ularning faoliyat turi bo‘yicha grafigi aks ettirildi.



Grafikdan ko‘rinib turibdiki yaratilgan biznes subektlarining eng katta 21% savdo faoliyatida ekan. Bundan tashqari:

-sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 57 095,6 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 39,6 foizi)

– 19 407,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 32,0 foizi) o`zlashtirildi

– 68 161,9 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 58,4 foizi)

– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,4 foizi yoki 93 508,0 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 101,1 foiz) shakllantirildi;

– 3 763,5 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 27,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi. Bu o‘rinda shuni aytish joizki tovar va xizmatlar eksport qiluvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining ko‘payishi, eksport hajmining oshishiga imkoniyat yaratdi.– 10 587,7 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 78,3 foizi)[1]

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 27,0 foizni, sanoatda – 39,6 foizni, xizmatlarda – 58,4 foizni, qurilishda – 65,1 foizni va bandlikda – 78,3 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qaysi viloyat bo‘yicha yaxshi faoliyat olib borayotganini bilish va oqsayotgan viloyatlarda ularga xos bo‘lgan chora tadbirlarni ko‘rish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududlar bo‘yicha ulishini ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududlar bo‘yicha ulishi.

	Sanoat	***Xizmatlar***	***Qurilish***	***Bandlik***
O‘zbekiston Respublikasi	39.6	58.4	65.1	78.3
viloyatlar:				
Andijon	34.4	73.7	94.3	84.5
Buxoro	43.4	74.9	67.8	78.5
Jizzax	61.3	74.2	91.3	82.0
Qashqadaryo	23.1	71.9	76.8	80.0
Navoiy	18.8	67.3	75.4	60.3
Namangan	68.4	73.7	93.9	83.4
Samarqand	55.5	76.5	92.3	84.5
Surxandaryo	45.8	76.3	79.4	81.1
Sirdaryo	44.9	66.4	91.4	79.5
Toshkent	29.6	76.2	79.2	77.0
Farg‘ona	41.4	75.9	89.0	80.5
Xorazm	40.6	71.4	87.2	82.9
Toshkent shaxri	71.3	51.1	66.8	56.8

Yuqoridagi jadvalda bizga 2017- yilda kichik biznes subektlarinig hududlar bo‘yicha ulushi tasvirlangan bo‘lib ushbu jadvalda shuni xulosa qilishimiz mumkinki: Xizmatlar sohasining yuqori ulushini Samarqand (76,5 foiz), Surxondaryo (76,3 foiz), Toshkent (76,2 foiz), Farg`ona (75,9 foiz), Buxoro (74,9 foiz), Jizzax (74,2 foiz) va Andijon (76,2 foiz) viloyatlari tashkil qiladi. Qurilishda Andijon (94,3 foiz), Namangan (93,9 foiz) va Samarqand (76,5 foiz) viloyatlari tashkil qiladi. Bandlikda esa, Andijon va Samarqand viloyatlari (84,5 foiz), Namangan (83,4 foiz), Xorazm (82,9 foiz) viloyatlari tashkil qiladi.[2]

[1] O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti “Stat.uz” dan
[2] O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti “Stat.uz” dan

Hukumat tamonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda yana bir narsaga alohida urg‘u berilyaptiki bu ham bo‘lsa davlat mulkini biznes subektlari o‘rtasida muqobil ravishda sotish va ulardan maksimal imkoniyatlar darajasida foydalanish muhitini yaratishdir. 2018- yilning 2- choragigacha bo‘lgan davr ichida Respublika xududlar kesimida davlat mulkni sotishdan tushgan foyda hududlar bo‘yicha quyidagichadir.

2018- yilning 2- choragiga Respublika xududlar kesimida davlat mulkni sotishdan tushgan foyda



Bugungi kunda Respublika siyosatida tadbirkorlik faoliyati uchun imkoniyatlar ko‘lamini oshirish uchun katta miqdordagi modiy va ilmiy ko‘rinishdagi patensial sarflanmoqda va buning natijasi yuqoridagi statistik jadvallarda o‘z aksini topmoqda. Yaratilayotgan bunday imkoniyatlar shubhasiz iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga, uning tayanchi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga, ularning qulay ishlab chiqarish muhitida faoliyat olib borishiga va pirovardida eksportni yanada rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Shunday o‘zgarishlar asnosida bazibir muammolar ham uchrab turibdi va bu muammolarning yechimini topish bugungi kundagi tadbirkorlik subektlarining asosiy maqasadi hisoblanadi. Tadbirkorlarning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning aksariyati quyidagi sohalarda vujudga kelmoqda:

— 41,6 % bo‘sh turgan bino-inshootlarni “nol” qiymatda olish, auksion savdolarida ishtirok etish, yer ajratilishi;

— 32,2 % bank-moliya, kredit, garov ta’minoti;

— 10,6 % xom ashyo resurslarini sotib olish, birja savdolar ishtirok etish;

— 4,3 % kommunikatsiya tizimiga ulanish, arxitektura va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish;

— 2,7 % qonunbuzarlik, mansab vazifasini suiste'mol qilish, tanish-bilishchilik, ta'magirlik va korrupsiya;
— 1,6 % ruxsatnoma va litsenziyalar, noqonuniy aralashuv;
— 7,1 % boshqa muammolar.[1]

Bugungi kunda keng muhokama bo‘layotgan mavzulardan biri bu yakka tartibda tadbirkorlarimizni soliqqa tortish tartibi bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Bugungi kunda, yakka tartibdagi tadbirkorlarimiz soni 333,6 ming nafardan oshib ketdi, ularning 104,5 mingtasi (31,3%) faoliyat ko‘rsatmaydi.

Amaldagi soliq siyosatiga ko‘ra, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati uchun eng kam ish haqining 7 barobari, ya'ni 1,2 mln.so‘m qat'iy soliq va 172 ming so‘m sug‘urta badali yoki jami 1,4 mln.so‘m atrofida soliq to‘lashi kerak. Nukus shahri va viloyatlarning markaziy shaharlarida eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida qat'iy soliq to‘lanadi.

Natijada, bunday xarajatlarni qoplashning imkoniyati chegaralanib, aynan dastlab ochilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lmoqda.

Bu masalaning bir tarafi bo‘lsa, ayrim yakka tartibdagi tadbirkorlar, ochig‘ini aytishimiz kerak bugungi kunda yirik savdo obyektlari yoki korxonalar amalga oshirmaydigan 20−30 mlrd.so‘mlab tovar aylanmalari yoki katta ishlab chiqarish sexlarini yakka tadbirkor maqomi ostida ushlab, o‘sha sotayotgan tovarlari soliq summasidan ham kam kichik savdo “lavka"larining soliq summasini to‘lamoqda. Shu va shunga o‘xshash muammolarning ko‘pligi sababli yurtimizda yangi soliq kodeksini qabul qilishga ehtiyoj tug‘ulmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini olishni yangidan ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

Shuningdek ularga yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomi ostida faoliyat yurg‘izishi uchun nafaqat undagi xodimlar sonini balki o‘sha muassassaning tovar aylanmasidagi mablag‘larning miqdorini inobatga olgan holda bu maqomni berish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shu bilan birgalikda yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq belgilanganda uning geografik joylashuvidan tashqari tovar aylanmasiga qarab eng kam ish haqqi barobaridagi soliqni belgilab berish uning oborotiga nisbatan to‘g‘ri proporsionalikni tashkil etgan bo‘lardi. Bu soliq siyosati orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish mumkin va ularning tadbirkorlik faoliyatini erta yakunlanishini oldi oladi. Tadbirkorlik subektlari uchun muammoga aylangan bu kabi masalalr yangi soliq kodeksida atroflicha ko‘rib chiqilmoqda va ular bo‘lajak ushbu kodeksda o‘zyichimini topadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti “Stat.uz” dan

VI ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ”

У.Х.Худайбердиев – СамИСИ доценти, и.ф.н.,
М.И.Назаров – Тошкент Vestminster халқаро университети талабаси

БИЛИМ – МУВАФФАҚИЯТ КАЛИТИДИР

2018 йил охирида ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини оммалаштириш, китоб мутоаласи амалиётини кенгайтириш мақсадида Президент ташаббуси билан ўтказилаётган “Ёш китобхон” уч ёш тоифасидаги Республика кўрик танлови бўлиб ўтди. Кўрик танлов жараёни “Ёшлар” телеканали орқали кўрсатиб борилди. Кўрик танлов тўртта шарт бўйича олиб борилди ва очиқ-ойдин, адолатли олиб борилганлигига кўпчилик мухлислар гувоҳ бўлишди. Кўрик танловда 10-14 ёшлилар ўртасида Самарқанд вилояти Пахтачи туманидаги 24-умумтаълим мактабининг 8-синф ўқувчиси Махлиё Уроқова, 15-19 ёшлилар ўртасида Қорақалпоғистон Республикаси Кегейли туманидаги 9-умумтаълим мактаб 10-синф ўқувчиси Нурсулу Коканова ва 20-30 ёшлилар ўртасида Тошкент Давлат Педагогика университетининг 3-босқич талабаси Шохсанам Холбаева мутбоқ ғолибликни қўлга киритдилар. Кўрик танловда қатнашган барча китобсевар ёшлар муносиб тақдирландилар, чунки улар ҳам туман, вилоятлар танловларида қатнашиб вилоят ғолиблари бўлишган. Мутлоқ ғолиб бўлган юқоридлаги қизларга Президент совғаси – “Spark” автомобили берилди. Самарқанд вилояти аҳолисида Махлиё Уроқованинг ғолиб бўлиши катта таассурот қолдирди. Махлиё Уроқованинг “Spark” автомашинасида Самарқанд шаҳрига кириб келиши ва Самарқанд ҳокимлиги вакиллари, аҳоли томонидан тантанали кутиб олиниши телевидениядан кўрсатилди. Ғолиб қизимиз туманда ҳам, ўқиётган мактабида ҳам, хонадонда ҳам муносиб кутиб олинди. Шу ўринда ғолиба Махлиё Уроқованинг отаси мактабда оддий қоровул бўлиб, онаси эса фаррош бўлиб ишлаши телеведения орқали кўрсатилди. Вақт ўтиб “Ёш китобхон” танловлари қуйидаги мулоҳазалар ва хулосалар қилишга асос бўлди.

Биринчидан: асосий қомусимиз Конституциямизнинг 41-моддасидаги “Ҳар ким билим олиш ҳуқуқига эга. Бепул умумий таълим олиш давлат томонидан кафолатланади” дейилган ҳуқуқимизнинг амалдаги ифодасидир.

Иккинчидан: “Билаги зўр бирни енгар, билими зўр мингни енгар”

мақолнинг амалдаги исботидир. Чунки, ҳар бир ғолиб бўлган қизлар дастлаб мактаб, туман, вилоят миқёсидаги танловларда қатнашиб, юзлаб, минглаб китобсевар билимдонлар қатнашчилари ўртасида ғолиб бўлишган.

Учинчидан: билимли бўлиш инсоннинг миллатига, динига, мансабига, бойлигига боғлиқ эмаслигининг исботидир. Чунки, ғолиблар турли жойлардан турли миллатга мансубдир. Оддий оила қизларидир.

Тўртинчидан, билим олиш энг аввало билим олувчининг – ўқувчининг ўзига боғлиқ эканлигини исботлади. Юзлаб, минглаб ота-оналар таълим-билим олиши учун фарзандларига иложи борича яхши шароитлар яратиб беришади. Лекин, сабр-тоқат билан билим олишга киришган, мавзуларнинг мазмунини яхши тушинишга ҳаракат қилган иродали ўқувчигина билимли бўлади. Шунинг учун ҳам "Ёш китобхон" кўрик танловлари аҳоли, айниқса ёшлар ўртасида китобга-билимга бўлган меҳрни тарғиб қилишда катта аҳамият касб этади. Билимли, етук мутахассис бўлиш зарурлигини таъкидлайди. Китоб ўқиш ,билимли бўлиш, айниқса олий таълим ўқувчилари учун жуда муҳимдир. Чунки, билимли мутахассис ҳар қандай шароитда, ҳар қандай ишда муваффақиятга эришади.

Бизнингча "китобхонлик"га ўхшаган кўрик танловлар математика, физика, химия, биология ва шу каби фанлардан ҳам ўтказилса ва бу кўрик танловлар телевидение, ОАВ томонидан кенг тарғибот қилинса, ҳамда муносиб рағбатлантирилса, яхши бўлар эди. Натижада ҳозирги ёшлар ичидан Ал Хоразмий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Сино – буюк аждодларимиз каби бутун дунёга машҳур алломалар етишиб чиқади.

Давлатимиз томонидан таълимнинг барча соҳасида (мактабгача таълим, ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим)ги олиб бораётган ислоҳотлари ўз самарасини беради. Билимли, иқтидорли мутахассислар етишиб ,улар яхши мухандислар, лойиҳачилар ,агрономлар ва бошқа касб эгалари бўлишиб, мамлакат иқтисодиётини ривожланишига муносиб ҳисса қўшадилар.

S.S.Kamolova – Samarqand moliya va iqtisodiyot kolleji, "Buxgalteriya hisobi va bank ishi" kafedrasi mudiri,
M.M.Qarshiyeva – Samarqand moliya va iqtisodiyot kolleji, "Aniq fanlar" kafedrasi mudiri

KAFEDRALARNING O'QUV USLUBIY ISHLARINI YURITISH TARTIBI

Respublikamizda kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilayotgan bir paytda ta'lim tizimini umuman qayta tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday islohotni salohiyatli kadrlarsiz tasavvur etish qiyindir. Endi ushbu islohotlarni amalga oshirish hamda uzliksiz ta'lim tizimini yaratish jaroyonida o'quv uslubiy ishlarning uzviyligi va ischilligini ta'minlash asosiy vazifalardan

biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz topshirig‘iga asosan respublikamizdagi o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi muasasalarida 2017-2018 o‘quv yildan boshlab ta’lim jaroyoni yangilangan shakllarda hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlangan o‘quv reja hamda dasturlar asosida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsuss kasb- hunar ta’limi Markazining 2008 yil 12 sentyabrdagi 68- sonly buyrug‘ida kasb –hunar kollejlarida kafedralar tashkil etilishi ko‘rsatilgan. Ushbu kafedradagi jurnal kasb-hunar kollejlari kafedralari to‘g‘risidagi Nizom asosida tuzilgan.

Kasb- hunar kolejlaridagi kafedralar bir yoki bir necha turdosh fanlar bo‘yicha o‘quv – uslubiy va ilmiy – tadqiqot ishlarni hamda o‘qituvchilar,muhandis- pedagoglar, o‘qituvchilar o‘rtasida ma’naviy- ma’rifiy ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek pedagogik kadrlar malakasini takomillashtiruvchi asosiy hujjatdir.

Ta’lim muassasalarining kafedralaridagi yosh mutaxassislarga yordam berish, pedagogik tajribasi katta bo‘lgan o‘qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish va ommalashtirish, o‘quv- uslubiy ishlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, shuningdek zamonaviy uslubda boshqarish kafedra ishining asosiy maqsadidir.

Kasb- hunar kollejlarida tashkil etilayotgan kafedralar hozirgi kunda aniq me’yoriy ish yuritish hujjatlari, ularning namunalari bilan to‘liq ta’minlangan.

O‘quv uslubiy ishlarni yuritishda kafedra mudirlari birinchi navbatda yangi o‘quv yiili uchun ish rejani tuzadi. Bu rejada muvofiqlashtiruvchi tashkiliy ishlar, o‘quv-tarbiyaviy ishlar, o‘quv uslubiy ishlar, kasbiy va pedagogic mahoratni oshirish, o‘quv jaroyonini takomillashtirish,oily va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik bo‘limlari bo‘yicha ishlar hisob- kitob qilinadi. Bundan tashqari kafedra o‘qituvchilarining yil davomida har bir oy uchun alohida ishlari rejalashtiriladi.

Kafedra mudiri birinchi navbatda kafedra o‘qituvchilarining ro‘yxatini tuzadi, bunda o‘qituvchilarning familiyasi,ismi- sharfi, tug‘ilgan yili, qaysi oily ta’lim muassasini qachon tugatgan,diplom bo‘yicha ixtisossligi, ilmiy darajasi, ushbu ta’lim muassasasiga qachon kelganligi, qaysi fandan dars berishi, oxirgi marta qachon malaka oshirganligi, qachon malaka toifasi berilgan buyruq sertifikati ko‘rsatiladi.

Kafedraga tegishli fanlar ro‘yxatida fanlar nomi , qaysi kursda o‘tilishi, semester davomida nazariy amaliy soatlar hisobi, nazorat ishi soati, oraliq nazoratlarni vaqti, yakuniy nazorat ishlar vaqti ko‘rsatiladi.Oraliq va yakuniy nazorat ishlarini o‘tkazish jadvali, bunda o‘qituvchining familiyasi, ismi,sharifi,fanning nomi, kurs va guruh, nazorat nomi, o‘tkazish vaqti ko‘rsatilishi kerak.

Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish jadvali tuziladi . Bunda o‘qituvchilarning familyasi,ismi, sharifi,fan nomi, ochiq o‘quv mashg‘ulot mavzusi, guruh raqami, o‘tkazish joyi, muddati belgilab beriladi.

Kafedra o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yozish jadvali.

Bunda oʻqituvchilarning familyasi,ismi, sharifi , fan nomi, oʻquv-uslubiy qoʻllanma turi, mavzusi va bajarish vaqti koʻrsatilishi kerak.

Kafedra oʻqituvchilarining oʻzaro darslarga kirish jadvali. Bunda oʻqituvchilarning familyasi,ismi, sharifi, yil davomida oyma-oy kimning darsiga kirmoqchi ekanligi koʻrsatiladi.

Kafedra oʻqituvchilarining ilgʻor tajribasini oʻrganish jadvali. Bunda oʻqituvchilarning familyasi,ismi,sharifi ilgʻor tajriba mavzusi, ilgʻor tajribani oʻrganishdan maqsad, oʻrganish usullari rejalashtiriladi va izpoh koʻrsatiladi.

Kafedra oʻqituvchilarining oylik ish rejasi. Bunda oʻqituvchilarning familyasi, ismi, sharifi, hamda oʻquv yili davomida oylar boʻyicha qilinishi kerak boʻlgan ishlar koʻrsatilishi kerak.

Kafedra oʻqituvchilarining ochiq toʻgarak mashgʻulotlarini oʻtkazish jadvali. . Bunda oʻqituvchilarning familyasi, ismi, sharifi, hamda mashgʻulot mavzusi, oʻtkaziladigan vaqti belgilab beriladi.

Kafedra oʻqituvchilarining fan haftaligini oʻkazish rejasi. Bunda oʻtkaziladigan tadbirlar mavzusi, oʻtkazish muddati, maʼsul shaxs koʻrsatiladi.

Kafedra oʻqituvchilarining malaka toifasini belgilash uchun attestatsiyadan oʻtuvchi oʻqituvchilarning roʻyxati. Buhda oʻqituvchilarning familyasi, ismi, sharifi, tugʻilgan yili, qachon, qaysi oily taʼlim muassasini tugatganligi, pedagogik faoliyati, diplomi boʻyicha mutaxassiligi, qaysi fandan dars berishi, malaka toifasi, qaysi toifaga oʻtmaqchi ekanligi belgilanadi.

Kafedra oʻqituvchilarining malaka oshirish jadvali. Bunda oʻqituvchilarning familyasi, ismi, sharifi, , qachon, qaysi oily taʼlim muassasini tugatganligi, qaysi fandan dars berishligi, qaysi fan boʻyicha malaka oshirmoqchi ekanligi, oxirgi marta qayerda va qachon malaka oshirganligi hamda qachon malaka oshirmoqchi ekanligi koʻrsatiladi.

Kafedra oʻqituvchilarining dars soatining taqsimot jadvali. Bunda oʻqituvchilarning familyasi, ismi, sharifi, , oʻqitiladigan fan nomi, bosqich, guruh raqami, birinchi va ikkinchi yarim yillikda oʻtiladigan dars soatlari jami, guruhlar soni, yil davomida oʻtadigan dars soatlarining hammasi koʻrsatiladi.

Kafedra mudirlari ushbu jadvallarni oʻqituvchilar bilan birga tuzadilar.

Kafedraning meʼyoriy ish yuritish hujjatlari roʻyxati quydagilardan iborat:

1. Oʻquv jarayoniga tegishli boʻlgan uslubiy tavsiyanomalar.
2. Kafedraning yillik va oylik ish rejalari.
3. Fanlar boʻyicha namunaviy oʻquv dasturlari.
4. Fanlar boʻyicha ishchi oʻquv dasturlari.
5. Fanlar boʻyicha taqvim mavzular rejasi.
6. Fanlar boʻyicha reyting nazorat jadvali.
7. Kafedra oʻqituvchilarining oylik ish rejasi.
8. Fanlar boʻyicha oʻquv xonalari va toʻgaraklar ish rejalari.
9. Darsdan tashqari oʻtkaziladigan tadbirlar hujjatlari (konferensiya, olimpiada, koʻrik-tanlov va toʻgarak yigʻilishi).
10. Oʻtkazilgan oraliq va yakuniy nazorat ishlari tahlili.
11. Oqituvchilarning darslarga oʻzaro tashrifini qayd etish kitobi.

12. Kafedra mudirining nazorat daftari.
13. Kafedra o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilgan ochiq darslar hujjatlari.
14. O‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ishlanmalarni qayd etish jurnali.
15. Fanlar bo‘yicha tayanch so‘z va iboralarga asoslangan yozma nazorat ishlari variantlari.
16. Fanlar bo‘yicha test savollari banki (1000 dan ziyod test savollar).
17. O‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalari.
18. O‘quv –uslubiy ishlar, fan to‘garak ishlari, shaxsiy ish rejalari bo‘yicha bajarilgan ishlar hisoboti.
19. Malaka toifalari talabnomasi asosida qilingan ishlar.
20. Kafedra mudirining yillik hioboti.
21. O‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxati va namunalar fan va texnika sohasida yangiliklar devoriy ko‘rgazmasi (stend), matbuot xabarlari, ma’ruza matnlari.

Kafedra mudirlari ushbu hujjatlarni kafedrada saqlaydilar.

С.А.Адилова - доцент кафедры Иностранных языков, СамИЭС

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ НЕРУССКИХ СТУДЕНТОВ ИНТОНАЦИИ РУССКОГО ЯЗЫКА, КАК СРЕДСТВУ КОММУНИКАТИВНОГО ОБЩЕНИЯ

Вопрос об интонации-один из наиболее сложных в современной науке о языке. В настоящее время, когда язык рассматривается главным образом как средство общения и когда внимание лингвистов все более сосредоточивается на коммуникативном аспекте языка, интонация признается средством формирования высказывания, равноправным по отношению к лексическим и грамматическим средствам.

Интонация, как следует из психологических исследований, порождается уже на побудительно-мотивационном уровне и находит выражение на реализующем уровне в речевом акустическом сигнале. Правильность передачи информации адресантом, говорящим на иностранном языке, зависит и от того, насколько точно он продуцирует интонационные структуры иностранного языка, правильно выделяет отдельные часты высказывания с помощью интонации, владеет навыками паузы и т. д.

Речевые упражнения направлены на снятие трудностей, аналогичных естественному речевому общению, и предполагают реализацию выработанных интонационных умений и навыков в речи, как правило, без их осознания в момент речи. Они приучают учащихся пользоваться изученным материалом спонтанно, без сосредоточения внимания на его форме и направлены на формирование коммуникативной компетенции.

Будучи коммуникативно направленными, они воспроизводят или имитируют условия реальной речевой коммуникации, в основе их лежит естественный стимул для речи. Так, подлинно коммуникативными будут рецептивные речевые упражнения в прослушивании фонозаписи, радиопередачи, просмотре кино и телефильма, когда у учащегося появляется естественный стимул понять их содержание, используя и интонационные характеристики речи.

Естественная диалогическая речь возникает при обмене впечатлениями о просмотренном кино и телефильме, о прочитанной книге, о прослушанной радиопередачи. Имитацией действительности служит хорошо организованная ролевая игра, когда у учащихся появляется естественная потребность общения.

Подготовительные упражнения, на наш взгляд, могут быть некоммуникативными и коммуникативными, включающими тренируемое явление в осмысленную речевую ситуацию.

Виды упражнений отличаются друг от друга сложностью набором выполняемых операций, но сохраняют основной типологический признак. Так, в числе рецептивных упражнений в различений, интонационных структур есть виды упражнений, которые выполняются с опорой на интонационную разметку или без опоры на нее, упражнения, сопровождаемые так называемым движением руки или не сопровождаемые им.

Описание системы упражнений будет неполным, если не использовать критерий классификации упражнений по способу и по месту выполнения.

По способу выполнения различают преимущественно индивидуальные, парные и хоровые (коллективные). Индивидуальные упражнения должны быть преобладающими, так как индивидуализация обучения является требованием современной методики обучения русскому языку как иностранному. Эти упражнения предлагаются тому или иному учащемуся с учетом его индивидуальных особенностей.

По месту выполнения упражнения подразделяются на классные, выполняемые в присутствии преподавателя, лабораторные (которые, могут выполняться как в присутствии преподавателя, так и в его отсутствие) и домашние, которые выполняются учащимся самостоятельно, с использованием каких-либо пособий или без них.

Аудиторные упражнения, выполняемые под руководством преподавателя, предназначены для ознакомления с новым материалом и для его первичного закрепления. Подготовительные рецептивные упражнения, являющиеся полностью управляемыми, предпочтительно выполнять в лаборатории в отсутствие преподавателя, пользуясь специальными обучающими компъютерными программами. Подготовительные репродуктивные упражнения желательно выполнять в

лаборатории под руководством преподавателя-фонетиста, который может вовремя исправить допущенную ошибку.

Речевые упражнения, как рецептивные, так и репродуктивные, выполняются в аудитории под руководством преподавателя.

В заключение можно сказать, что подготовительные упражнения являются первой ступенью в описываемой системе и характеризуются следующими особенностями:

а) выполняются при рецепции и репродукции материала в несколько замедленном темпе;

б) предполагают наличие вербальных и невербальных опор (фонограммы, интонационная разметка текста, таблицы, схемы и др.);

в) допускают двукратное предъявление учебного материала, а также сочетание знакомых и незнакомых голосов;

К.А.Маматкулова – старший преподаватель СамИЭС

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Сегодня перевод на кредитные технологии обучения имеет для нас, преподавателей вузов, очень важное значение. Мы переходим от стандартного способа передачи студентам готовых знаний к развитию их способностей, к анализу, логическому мышлению, так как образование сегодня ориентировано на формирование мыслящей, творческой личности. Обучение иностранному языку в неязыковом вузе рассматривается как обязательный компонент профессиональной подготовки специалиста любого профиля, а владение иностранным языком как фактор, повышающий степень востребованности специалиста на рынке труда и одновременно как один из показателей уровня образованности современного человека. Государственные требования к уровню подготовки выпускника позволяют определить такие компоненты результата изучения иностранного языка, как система умений и навыков: фонетически, грамматически, лексически, стилистически правильно, психологически раскованно излагать свои мысли на иностранном языке в письменной и устной форме, вести беседу на иностранном языке, владеть языковыми средствами, направленными на привлечение внимания слушающих, на обеспечение обратной связи, понимать на слух аутентичную монологическую и диалогическую речь, читать оригинальную художественную, научную и общественно-политическую литературу, интерпретировать текст, вступать в дискуссию по текущим проблемам культурной, научной, общественно-политической жизни общества на иностранном языке.

Кредитная система обучения предполагает в основном самостоятельное изучение предметов студентами, и это требует серьезной

перестройки сложившихся стереотипов. Мы должны помочь студентам приспособиться к новым условиям обучения, мобилизовать их силы и возможности на преодоление затруднений. Должны помочь студентам обнаружить свои неиспользуемые возможности, эффективно применять усвоенную информацию постепенно приближаться к руководству собственным обучением. Должны полностью преодолеть все имеющиеся у студентов пробелы в знаниях путем целесообразной организации обучения и развития инициативы. Важной целью современного преподавателя является «научить учиться», т.е. переход обучения от формата «teach-ing» к формату «learning».

Знамением перемен в методике обучения иностранным языкам на современном этапе можно считать принципиальную замену парадигмы “преподаватель-студент-учебник» парадигмой «студент-учебник-преподаватель». Какова сущность данной замены? Это совершенно новая роль преподавателя, который из абсолютного авторитета в классе превращается в консультанта, которая предполагает создание под руководством преподавателя произвести ситуацию и активизировать самостоятельную деятельность учащихся по их разрешению. Работа в группе дает возможность чаще вступать в коммуникацию с другими членами группы, формулировать свою позицию, согласовывать действия, что может способствовать развитию сотруд-ничества, межличностной компетентности, коммуникативной культуре. Именно работа в группе позволяет использовать рабочее время на занятии более эффективно, с большим КПД, позволяет наиболее эффективно достигнуть прогнозируемых результатов обучения и раскрывать потенциальные возможности каждого ученика, а также научить учащихся самостоятельно добывать знания, обеспечивая необходимые условия для активизации познавательной и речевой деятельности каждого учащегося группы, предоставляя каждому из них возможность осмыслить и осознать новый языковой материал, получить достаточную устную практику для формирования необходимых навыков и умений.

Групповая работа подразделяется на два вида: дифференцированную и единую. При единой работе все группы выполняют одинаковые задания. При дифференцированной разные группы выполняют разные задания в рамках общей для всех учащихся темы. Группы учащихся формируются преподавателем до занятия, разумеется, с учетом психологической совместимости. Желательно формировать группы не по половому признаку. При этом в каждой группе должны быть ученики с разной степенью владения иностранным языком. Состав группы может быть разным даже на одном уроке. Например, сначала можно объединить группы по одинаковым интересам и предложить им соответствующие тексты, а затем образовать смешанные группы и предложить им доказать друг другу интересность и важность увлечения каждого.Очевидно, что удачной окажется та группа, где ее члены будут дополнять друг друга:

один обладает личным опытом по данной проблеме, хорошо успевает, но не обладает работоспособностью; другой работоспособен, но не эмоционален; третий эмоционален, экстраверт и интересуется данным вопросом, хотя и мало знает по его сути; четвертый обладает личным опытом, но слабо успевает. Успех работы данной группы объясняется тем, что положение человека в группе связано, прежде всего, с его вкладом в общее дело. Если преподаватель ставит цель: помочь слабым студентам, он образует разнородные группы, где обеспечивает возможность слабым студентам лучше подготовить задание. Если же слабый студент стесняется своего незнания, то тогда необходимо сделать так, чтобы он не был «одиноким»: в эту группу добавляют еще одного слабого студента, но не такого стеснительного. Вероятно и создание группы из слабых студентов, чтобы они занимались по разработанному для них плану и выполняли задания, предназначенные только им. Они смогут выходить на общее обсуждение со своими результатами и таким образом самоутверждаться в своих собственных глазах и глазах своих товарищей.

Оптимальной считается группа из 4-6 человек. Конечно, в маленькой группе предоставляется наиболее благоприятные условия для активной речевой деятельности каждого ее члена. С точки же зрения получения новой информации и выдвижения новых идей маленькая группа оказывается менее эффективной. К материалу и заданиям для групповой работы можно предъявлять следующие требования:

1.Задания должны подходить для групповой работы, т.е. способствовать возникновению различных мнений и являются основой для обсуждения. Другими словами, задания должны быть проблемными, создавать определенное познавательное затруднение, предоставлять возможность для активного использования имеющихся знаний и являться импульсом к творческому мышлению, к поиску новых знаний и новых способов действия.

2.Задания должны иметь относительно высокую степень трудности.

3.Материал по своей структуре должен быть таким, чтобы его можно было разделить на самостоятельные единицы, над которыми смогут работать разные группы или отдельные учащиеся в рамках одной группы.

Подводя итоги вышесказанному, следует отметить, что комплексное использование инновационных технологий делает процесс обучения иностранным языкам более эффективным и разнообразным.Такой подход к образованию, известный в современной и отечественной методике как «личностно-ориентированный подход», основывается на учете индивидуальных особенностей обучаемых, их склонностях и интересах. Он означает передачу студентам контроля над процессом обучения, значительно усиливая мотивацию студентов и развитию у них чувство ответственности. У студентов развивается и совершенствуется умение работать в команде, такой принцип совместного обучения содействует развитию творческого начала и росту академического потенциала.

Студенты отвыкают от навязанного им «зазубривания», им приходится находить оригинальные решения при возникающих непривычных ситуациях, что положительно влияет на формирование личности. Активное внедрение инновационных технологий в образование оказывает существенное влияние на создание образовательных систем, ориентированных на личностное и проблемное обучение. Доказано, что в современном обществе высококвалифицированный специалист должен владеть несколькими иностранными языками. В век межкультурных коммуникаций особое внимание уделяется созданию многоязычной и поликультурной личности. К инновационным технологиям относится использование информационных, проектных технологий, а также технологии языковых портфелей.

A.N.Xoliqulov – SamISI katta o‘qituvchisi, i.f.n.,
S.A.Babanazarova – SamISI o‘qituvchisi,
O.B.Pardaboyev – SamISI, KTI-217 guruh talabasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI BA’ZI MUAMMOLAR VA YUTUQLAR

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan Oliy ta’lim tizimidagi jarayonlar, o‘zgarishlar, muammolar qisman yoritilishiga harakat qilinishiga qaratilgan.

Hammaga ma’lumki, har bir davlatning rivojlanishida ta’lim tizimi, tizimining sifati, uning samaradorligi, unda qo‘llaniladigan zamonaviy, ilg‘or texnologiyalarning o‘rni bor. Bunday davlatlar orasiga O‘zbekiston ham kiradi. Mamlakatimizda ham ta’lim tizimini isloh qilish amalga oshirlmoqda. Bu jarayon ayniqsa 2017-2018-yillarda jadallashdi deyish mumkin. Bunga bir misol keltiramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oily ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan yangi hujjat imzoladi. Islohat ishining o‘ziga hos vazifalari juda ko‘p. Agarda eng ahamiyatlisini oladigan bo‘lsak, bu har bir davlat oily o‘quv yurtlari nufuzli chet el ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish, ta’lim tizimiga xalqaro standartlarga asoslangan yangi o‘quv adabiyotlarini kiritilishi ta’lim texnalogiyalarini normallashtirish va o‘qituvchilarning bilim darajasini yuksaltirish deb topildi. O‘zgartirishlarni kuzatish maqsadida, xususan Davlat inspeksiyasi tuzildi.

2017-yil 11-aprel kuni O‘zbekiston hukumati va Jahon banki hamkorligida davlat oily ta’lim tizimini modernizatsiya qilish haqidagi kredit shartnomasi imzolandi. Ushbu loyiha tizimni boshqarish va uning sifatini oshirish maqsadida tuzilgan. 2017-2020- yillarga qadar mo‘ljallangan loyihani amalga oshirishda oliy ta’lim vazirligi javob beradi va Jahon banki texnik jihatdan ta’minlaydi. Bundan tashqari yana OTMlar faoliyatini rivojlantirish uchun bir qator qonunlar ishlab chiqildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-

iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’im sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori ta’lim sohasidagi islohotlarning jadal rivojlanishiga keskin impuls beradigan muhim hujjat sifatida keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Mazkur qarorning pirovard maqsadi oliy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yasashga qaratilgan bo‘lib, uning ijrochisi o‘qituvchi shaxsining mavqeini jamiyat oldida tiklash, ta’limga aloqasi bo‘lmagan ishlarga jalb qilinishiga chek qo‘yish, shu bilan birgalikda uning professionallik darajasini va mas’uliyatini oshirish, o‘qitish tizimiga yangi shakllarni joriy etish va boshqalarni nazarda tutadi. Ushbu qonunlarning barchasi zamonaviy kadrlar yetishishi, ularning migratsiyasining yo‘qotilishi va ularga talab kuchli ekanligini anglatmoqda.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, oily ta’lim tizimini rivojlanishida bir qancha omillar o‘zining salbiy tomonlarini ko‘rsatmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: korrupsiya (eng achinarlisidir), salohiyatli o‘qituvchilarning yetishmasligi, ushbu tizimga bilimsiz abuturientlarning qabul qilinishi, oily ta’lim tizimini nazorat qiluvchi mahsus komissiya a’zolarining ishiga masuliyat bilan yondashmasligi, OTMning qay ahvoldaligini nafaqat ma’muriyat a’zolaridan balki bevosita o‘quvchilardan ham so‘rash kerak ekanligini unutishganliklari va h.k. Tan olish lozimki, oliy ta’lim muassasalaridagi barcha professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar ham yuqorida ta’kidlangan qarorning mazmun-mohiyatini to‘lig‘icha to‘g‘ri talqin qilayaptilar, deb bo‘lmaydi. Gohida professor-o‘qituvchilar tomonidan darsni bir o‘qituvchi o‘tsa-yu, imtihonni boshqa o‘qituvchi olsa, yoki mustaqil test nazorati o‘tkazilsa, dars o‘tgan o‘qituvchining fani to‘g‘ri va xolisona baholanadimi degan hadik ham uchrab turadi. Talabani xolisona va shaffof baholashning eng maqbul usullaridan biri bu fan o‘qituvchisi ishtirok etmagan (yoki uning ta’siri bo‘lmagan)test nazoratidir. Bu mexanizmni aksariyat professor-o‘qituvchilar qo‘llab-quvvatlaydilar, biz bunga aminmiz. Chunki OTMlarda ishlaydigan professor-o‘qituvchilarning nihoyatda ko‘pchiligi fidoyi va halol insonlar. Lekin shu bilan birga o‘qituvchilar ichida, ular ozchilik bo‘lsada, hali «to‘rachilik» kayfiyati bilan yurganlar ham bor. Ko‘rinib turibdiki, bu mexanizm o‘qituvchini fidoyilikka, o‘z ustida ishlashiga majbur etadi. Ikkinchi tomondan esa o‘qituvchi talabani ko‘proq o‘qishga, mustaqil ishlashga undaydi. Talaba-o‘qituvchi tandemi, ya’ni «Ustoz-shogird» tizimi shakllanadi.

Ma’lumotlarga kora, 2016-2017 o‘quv yilida OTMlar soni 77 ta, 2017-2018 o‘quv yilida 86 tani tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda ular soni 95 taga yetdi. 2018-2019 o‘quv yilida 51 ta OTMda sirtqi ta’lim, 22 ta OTMda mahsus sirtqi ta’lim, 9 ta OTMda kechki ta’lim yo‘lga qo‘yildi. 2018-2019 yillarda esa bakalavriat bo‘yicha 66 ta, magistratura bo‘yicha 48 ta mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda jami talabalar soni 344790 nafarga yetdi. Yangi tartiblarga muvofiq, hatto birinchi kursdan ham o‘qishga qayta tiklanish mumkin. To‘rtta fandan qarzdorlik avtomatik ravishda o‘qishdan chetlashtirilishga, uchta fandan

qarzdorlik maxsus komissiyaga qayta imtihon topshirilishiga sabab bo‘ladi. Respublika OTMlarda 25418 nafar professor o‘qituvchilar faoliyat yuritishmoqda. Ularning samarali faoliyati va talabalar uchun oxirgi ikki yilda tizimga sarflangan mablag‘lar miqdori 83.7 foizga ortdi. Ya’ni 2018-yilda jami 784.7 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan. Bundan 351.3 mlr ish haqiga, 269 mlrd stipendiyalarga, 86.3 so‘m ish haqidan ajratmaga, 78.1 mlrd boshqa xarajatlarga ajratildi.

Bundan tashqari, yurtimizda oliy ta’lim tizimida turli tuman yangiliklar, o‘zgarishlar va islohatlar amalga oshirilganini ham ta’kidlamasdan iloj yo‘q. Bular quyidagilar:

1. **Qo‘shimcha kontrakt kuchga kirdi**

Prezidentning yangi qaroriga ko‘ra, endilikda oliy o‘quv yurtlarida yuqori narxdagi qo‘shimcha shartnoma asosida qabul ishga tushishi kutilmoqda. Shartnoma narxi to‘plangan ballar asosida va Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Ammo, qo‘shimcha shartnoma jiddiy tartib asosida berilib, abiturient 68 balldan kam to‘plamasligi lozim. Ya’ni bu yerda abiturientning imkoniyatlari inobatga olinadi.

2. **Endi bizda sirtqi bo‘lim faoliyat ko‘rsatadi**

Davlat Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining 2017/2018 yillaridagi oliy o‘quv yurtlariga qabul” kabi qaror qabul qilindi. Qarorda bakalavrlar uchun yangi kvota haqida, ya’ni endilikda umumiy abiturient soni 66,3 ming kishini tashkil qilib, undan 18,1 ming nafari davlat granti va 48,1 nafari esa shartnomani o‘z ichiga oladi. Sirtqi bo‘lim bir necha oliy o‘quv yurtlaridagi maxsus yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (umumiy 100 ta joy, grant-15, shartnoma-85), Navoiy davlat konchilik instituti (umumiy 90 ta joy shartnoma asosida) va Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti (umumiy 80 ta joyshartnoma asosida).

3. Uch yillik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab oily ta’lim muassasalarida ‘‘Maktabgacha ta’lim’’ bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash o‘qish muddati uch yil bo‘lgan bakalavriat ta’lim dasturlari doirasida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi oily va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab oily ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini to‘laqonli tashkil etish uchun “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malakaviy talablari, o‘quv rejalari hamda dasturlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi va boshqa o‘zgarishlar.

Xulosa qilib aytganda, qabul qilanayotgan barcha qarorlar, oily ta’lim tizimidagi qilinayotgan ijobiy ishlarning natijasi o‘qituvchi va o‘quvchilarga bog‘liq, qisman ma’muriyatga ham, ushbu tizimdagi qonunlar va qilinayotgan ishlarning to‘g‘ri proporsionalligini ta’minlash asosiy masala hisoblanadi. Mamlakatimizdagi mavjud OTM larining to‘g‘ri yo‘nalganligi mamlakat ravnaqini ta’minlashga xizmat qilishi rivojlangan mamlakatlar misolida yaqqol nomoyon bo‘lmoqda va biz shu yo‘ldan bormoqdamiz.

М.М.Қаршиева – Самарқанд молия ва иқтисодиёт коллежи “Аниқ фанлар” кафедраси мудири,
С.С.Камолова – Самарқанд молия ва иқтисодиёт коллежи “Бухгалтерия ҳисоби ва банк иши” кафедраси мудири

СИФАТЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Фарзандларимизни баркамол инсон бўлиб етишишларида энг аввало оиланинг, ота-онанинг ўрни беқиёс. Ўз – ўзидан равшанки, бола тарбиясида соғлом насл масаласи ҳам муҳим роль ўйнашини инкор этиб бўлмайди.

Ўзбекистон Республикасида мутахассис кадрларни тайёрлашда етарли эътибор берилмокда. Бизга маълумки, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» хар томонлама камол топган, юксак умумий ва касб-хунар маданиятига, ижодий ва ижтимоий-сиёсий хаётда мустакил равишда мулжални тугри ола билиш махоратига эга булган кадрларнинг янги авлодини шакллантиришга йуналтирилгандир. Ушбу дастурда фан, техника ва технологияларнинг ютуклари асосида юкори билимга эга булган малакали кадрларни тайёрлаш буйича аник тадбирлар белгиланган.Ушбу тадбирларни амалга оширишда ахборот технолигиялардан унумли фойдаланиш катта ахамиятга эга.

Бугунги кунда ахборот технологиялари жамиятимиз ривожланишига таъсир этувчи энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Ахборот технологиялари инсоният тараққиётининг турли босқичларида ҳам мавжуд бўлиб, ҳозирги замон ахборотлашган жамиятнинг ўзига хос хусусияти шундаки, ахборот технологиялари барча мавжуд технологиялар, хусусан янги технологиялар орасида етакчи ўрин эгалламоқда. Ахборот технологияси ва техник воситалар самарасини белгилайдиган дидактик материаллардан кенг фойдаланиш замонавий педагогик технологияларнинг асосий белгиларидан биридир. Ўқув жараёни учун ахборотли воситалар самара берадиган мавзулар юзасидан дидактик материалларни ишлаб чиқиш. Педагогларнинг ўз амалий фаолиятларида техник воситалар ва дидактик материаллардан методик жиҳатдан тўғри фойдалана олиш тайёргарлигини текшириш. Ахборотли таълим жараёни олдиндан педагогик лойиҳалангандагина кўзланган мақсадга эришиш мумкин. **Педагогик жараённи компютерлаштириш асосий йўналишларидан бири ва замонавий педагогик технологияларнинг шуғулланиши лозим бўлган соҳасидир**. Ахборот технологиялари таълим жараёнида муҳим ўрин тутиб, қуйидаги вазифаларни ҳал етишга ёрдам беради: - ҳар бир одамга хос ноёб фазилатлардан иборат индивидуал қобилиятларни ўқитилаётган ўқувчи ва талабаларда очиш, сақлаш ва ривожлантириш, уларда билиш қобилиятларини, ўзини ўзи камолотга етказишга интилишни шакллантириш; - воқеа ва ҳодисаларни комплекс

ўрганишни, аниқ, табиий-илмий,техникавий, ижтимоий, гуманитар фанлар ва санъат орасидаги ўзаро боғлиқликнинг чамбарчаслигини таъминлаш; - ўқув-тарбия жараёнларининг мазмун, шакл ва методларини доимий тарзда ва динамик равишда янгилаш. Бугунги кунда таълимни ахборотлаштиришда асосий йўналиш турли ўқув фанлари бўйича педагогик дастур воситаларини яратишдан иборат бўлиб қолди.

Аммо мавжуд ва ишлаб чиқилаётган компютер техникаси базасидаги педагогик дастур воситалари ўқитиш нуқтаи назаридан таълим сифатида муҳим силжишларга олиб келиши мумкин. Бунинг сабабларидан бири-компютер технологиялари анъанавий ташкил этилган ўқитиш жараёнида жорий этила бошланганлигидир. Кейинги вақтларда «ўқитишнинг компютер технологиялари» тушунчаси тарқалиб, бунда компютерлар базасида амалга оширилган ўқитиш технологиялари тушунилади. Бироқ ахборот технологиялари тушунчаси ўқитишнинг компютер технологиялари тушунчасидан кенгроқдир, чунки компютерлар ахборот технологиялари техник воситаларининг таркибий қисмидир.

Кўп ҳолларда таълим, асосан, ахборотни эслаб қолишга йўналтирилган, таълим олувчининг бўлажак фаолияти эса муайян ишларни бажариш ёки ташкилий, бошқарув ва касбий қарорларни қабул қилиш билан боғлиқ бўлади.Ўқув юртларидан бирида таълим олувчилар билимларини назорат қилиш услубини маъмурият барча фанлар учун бир хилда, уларни ҳар бирининг хусусиятларини ҳисобга олмай асоссиз белгиланган. Педагогик технологияга ўқув жараёнини рўёбга чиқариш давомида турли ўқитиш услубларидан фойдаланишнинг муайян умумий меъёрларини белгиловчи қўлланма, гўёки қолип сифатида қараш мумкин. Педагогик технология кўп жиҳатдан ўтмишдаги машхур педагогларнинг орзуларига мос келади. Ўтказилаётган тажриба - синовнинг характери билан боглиқ тарзда ўқув дастурлари, дарслик ва дарс ишланмалари, методик қўлланмалар, дидактик ишланмаларнинг яратилиши ва тажриба - синов жараёнига тақдим этилиши зарур. Агар ўқув дастури тажрибадан ўтказилаётган бўлса, кузатилаётган таълим жараёнини, яъни дарслик ёки дарс ишланмалари, техник воситалар, кўргазмали қуроллар, ўқув қўлланмалари билан таъминлашга эришиш талаб этилади. Бунда асосий эътибор ўқитувчининг қайси метод ёки педагогик технологияни қўллаганлигига эмас, балки ўқув дастури доирасида тақдим этилаётган ўқув материалларининг самарадорлигини аниқлашга қаратилади.

Педагогик технологиялар, биринчи навбатда, ҳар бир ўқувчи - талабанинг бошқа ўқувчи - талабалар, дарс материаллари ҳамда ўқитувчи (педагог) билан эркин тарзда мулоқот қилишини, фикр алмашишини таъминлайди. Замонавий педагогик технологиялар педагогик амалиётнинг ўқувчи ёки талаба шахсига қонунлар мажмуини, табиат ва жамият ҳодисаларини, кишилик маданияти ва ахлоқ - одобини, муайян фан асосларини танитувчи шакли сифатида намоён бўлиши лозим. Демак, у

ёки бу фан ўқитувчисининг маҳоратини аниқлашда унинг фаолияти давлат таълим стандартлари талабларига ва педагогик шартларга нечоглик мос келиши назарда тутилади. Юқорида айтиб ўтганимиздан шуни хулоса қиламизки, **таълим жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланиш ва уни ўқувчиларга етказишда компютер техникаси билан тўлақонлик таъминлаш таълимда юқори самарадорликка эришиш учун асос бўлиб хизмат қилади.**

У.Н.Султонова – ТДТУ Термиз филиали в.б. доценти, п.ф.н.,
С.Н.Султонов – ТДТУ Термиз филиали ассистенти,
Б.Турдиев – ТДТУ Термиз филиали ассистенти

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МУСТАҚИЛ ИШЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ВА ШАКЛЛАРИ

Ҳозирги кунда ўқувчиларнинг мустақил ўқув фаолиятини шакллантириш ва ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Физика, информатика ва чизмачилик фанидан ўқувчиларнинг мустақил ўқув фаолиятини шакллантириш ва ривожлантириш ўқитишнинг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун ўқувчиларинг мустақил фаолиятини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган мустаъқил ишларнинг турлари ва шаклларини аниқлаб олиш зарур.

Ўқувчиларнинг синфдаги мустақил ишлари:

Биринчи тури – ўқитувчи мавзуни тушинтирганда тўла ёритилмаган саволларни ўрганишдан иборат.

Иккинчи тури – синфда дарслик бўйича ўқитувчи томонидан баён қилинган барча материалларни мустақил такрорлашдан ва билимларни мустаҳкамлашдан иборатдир. Ўқитувчи мавзуни тушинтирганида ёритилмаган саволларни мустақил ўрганиш учун уй вазифаси қилиб беради.

Учинчи тури – илгари ўзлаштирилмаган билимларни янги мантиқий алоқадорликлар асосида билиб олиш, эгаллаш.

Тўртинчи тури – янги билимларни уйга мустақил ўрганиш учун вазифа қилиб бермасдан, уни дарс давомида мустақил ўқув фаолиятини ташкил қилиш орқали ўзлаштириш.

Бешинчи тури – ўқитувчининг тушинтириши ва бошқа манбалардан ўзлаштирган билимларни йўл – йўлакай мустаҳкамлаш.

И.И.Малкин классификациясида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этишни тўртта турга ажратади. Бу тўрт тип ўз ичида 13 турга бўлиниб, ўқитувчи ўқув жараёнини ташкил қилишда улардан ижодий фойдаланиши назарда тутилади.

Булар қуйидагилар:

1. Эсга тушириш туридаги мустақил ишлар, бунда илгари ўрганилган

билимлардан фойдаланилади.

Бу ўқув фаолияти 4 хилда бўлади:

- эсга туширувчи, яъни илгари ўзлаштирилган билимларни айнан ўзгартирилмаган ҳолда эслаш ва фаоллаштириш;

- машқ қилдирувчи, яъни ўрганилган материални амалга қўллаш жараёнида эсга тушириш, ўрганилган тушунчалардан янги вазиятларда фойдаланиш;

- тескари алоқа вазифасини бажарувчи ҳамда янги билимларни эгаллаш жараёнида уларни такомиллаштириш ва мустаҳкамлаш давомида ҳам киритиладиган текшириш тарзидаги мустақил ишлар;

- илгари ўрганилган материалларни тизимлаштириш ва тартибга солишга доир машқлар.

2. Билиш – изланиш типидаги мустақил ўқув фаолияти.

Бундай фаолият давомида ўқувчилар мустақил равишда янги билимларни эгаллайдилар, бундай фаолиятни 2 турга ажратиш мумкин:

- янги билимларни эгаллашдаги вазифаларни бажариш, олдиндан ўзлаштирилган билимларни такомиллаштириш ва чуқурлаштириш билан боғлиқ мантиқий изланиш фаолияти. Бундай фаолият турли хил мантиқий операцияларни талаб этади: таҳлил ва синтез, факт ва ҳодисаларни қиёслаш, ўхшаш ва фарқли томонларни аниқлаш, асосий ва иккинчи даражали белгиларни ажратиш, сабаб ва оқибат алоқадорлигини очиб бериш ва ҳ.к.

- табиат ҳодисаларини ва ижтимоий ҳаётни кузатиш давомида, фойдали меҳнат давомида тўпланган материаллардаги янги факт ва ҳодисаларни ўрганиш.

3. Билиш – амалий типдаги мустақил ўқув фаолияти:

Экспериментал изланиш ишлари. Бундай фаолият таълимнинг ҳаёт билан, ишлаб чиқариш билан алоқасини кенгайтиришга қаратилади. Бундай фаолият давомида ўқувчилар асосланган хулоса чиқариш ва умумлаштиришларни талаб қиладиган тажриба асосида янги билимларни эгаллайдилар. Булар қуйидаги шаклда бўлади:

- фан бўйича амалий изланиш ишлари. Тажриба асосида янги билимларни эгаллайди.

- техник ижодкорлик ишлари: асбоблар, моделлар, оддий техник ихтиролар қилиш, оддий макетларни лойиҳалаш ва конструкциялаш, ўқув хоналарини ва лабораторияларини жиҳозлаш бўйича таклифлар киритиш;

- назарий – амалий ишлар: ҳаётдан тўпланган материаллар асосида мустақил ҳолда масалалар, графиклар, диаграммалар тузиш ва ечиш;

- унумли меҳнатда иштирок этиш билан боғлиқ бўлган ижтимоий – амалий мустаъқил ишлар масалан оддий электр асбобларни тузатиш, объектларни электрлаштириш ва ҳ.к.

4. Ижодий типдаги мустақил ўқув фаолияти. Ўқувчилар ўқиш ва ҳаётий тажрибалардан йиғилган бой тушунча ва алоқалар, шунингдек ҳаракат усулларига таянган ҳолда фикрлаш ва актив тасаввур кучи билан

қандайдир янги нарсани ижод қилиб яратади. Бундай ижодий фаолиятни уч турга бўлиш мумкин:

- бадиий образли фаолият. Бунда ўқувчилар борлиқни образли акс эттиради. Факт ва ҳодисаларга ҳиссий муносабатда бўлади. Масалан, планеталараро космик саёҳатда бўлганлиги ҳақида хаёлий – фантастик эссе ёки иншо ёзиш;

- ўқитувчининг топшириғига кўра бажариладиган илмий – ижодий фаолият. Масалан, энг қийин, олимпиада масалаларини мустақил ечиш, мустақил ечиш усулини ҳимоя қилиш ва ҳ.к.;

- техник ижодкорлик.

Бундай мустақил фаолият ўқувчининг индивидуал ва ёш хусусиятларини ҳисобга олинган ҳолда шакллантирилади. Ўқувчиларнинг фан бўйича мустақил ўқув фаолиятини шакллантиришда қуйидаги методлардан фойдаланиш мумкин: 1) изланишга доир топшириқлар бериш методи (эврестик); 2) тадқиқот методи; 3) дастурлаштирилган топшириқлар методи; 4) ахборот бериш методи; 5) ижро этиш методи; 6) таълимнинг изоҳли – иллюстратив методи; 7) эсга тушириш методи; 8) таълимнинг амалий методи; 9) рағбатлантириш методи; 10) изланиш методи.

Мустақил ишларнинг классификация қилинишига асос бўлган белгилари қуйидагилардан иборат бўлиб уларни қуйидагича таснифлаш мумкин:

I. Машғулотларнинг дидактик мақсадга кўра ўтказиладиган мустақил ишлар:

- илгари олинган таянч билимларни такрорлаш ва умумлаштириш;
- янги материални ўрганиш;
- билимларни тизимлаштириш;
- такрорлаш машқларини бажариш йўли билан билим ва кўникмаларни мустаҳкамлаш;
- билимларни янги вазиятда қўллаш;
- ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини текшириш ва назорат қилиш.

II. Ўқувчиларнинг мустақил билиш фаолиятини ташкил қилишнинг характерига кўра:

- намуна бўйича бажариладиган кўчирма характерли мустақил ишлар;
- қисман изланувчан характерли мустақил ишлар;
- текшириш (илмий-тадқиқот) характеридаги мустақил ишлар.

III. Ўқувчиларнинг мустақил фаолиятин ташкил қилиш шаклига кўра:

- фронтал (ялпи) тарзда ташкил қилинадиган мустақил ишлар;
- гуруҳ тарзида ташкил қилинадиган мустақил ишлар;
- индивидуал-табақалашган тарзда ташкил қилинадиган мустақил ишлар.

IV. Билим манбаи ва ўқитиш воситаларига кўра:

- дарслик ва бошқа ўқув қўлланмалари билан мустақил ишлаш;
- ўқиб чиқилган матн бўйича мустақил режа ва маъруза конспекти тузиш;
- тарқатма материаллар билан мустақил ишлаш;
- физик тажрибаларни бажариш бўйича мустақил ишлар;
- мустақил равишда моделлар яратиш орқали;
- сифат ва ҳисоблашга доир масалаларни мустақил равишда оғзаки ва ёзма ечиш;
- диктантлар ёзиш орқали;
- экспериментал масалаларни ечиш орқали;
- график ишларни чиш ва бажариш орқали;
- маъруза ва рефератлар тайёрлаш орқали;
- тест топшириқларини мустақил ечиш орқали;
- физикадан тузилган бошқотирмалар ва топшириқлр билан ишлаш;
- физика фани бўйича дидактик ўйинларда иштирок этиш;
- ўқувчиларни мустақил равишда масалалар ва тест вариантлари тузишга жалб этиш орқали.

Ўқувчиларнинг билимга қизиқишини ошириш учун таниш нарсада янгиликни кўра билишга ўргатиш орқали секин-асталик билан ўқувчиларни элементар, оддий билимлар даражасидан илмий тушунча ва хулосалар чиқариш даражасига кўтариш муҳим ҳисобланар эди. Билимга қизиқиш илмий кашфиётлар тарихи, ғоялар кураши, олимлар меҳнати ва қурилмаларнинг турмушда қўлланиш ҳақида гапирилганда уйғонади. Физика курсидаги ўқув материал шундай имкониятларни берадики, унда ўқитиш жараёнининг фаоллашишига ўқувчилар қизиқишларининг хусусиятлари ва маълум ўқув тарбиявий мақсадларга мувофиқ ташкил этилган турли мустақил ишларни қўллаш билан эришилади. Ўқитувчи дарс бошланишиданоқ ўқувчиларда билимга қизиқиш пайдо бўлиши муҳимлигини эътиборга олган ҳолда қизиқтириш методикасининг турли йўлларини ўйлайди.

Уларнинг энг муҳимлари 3 та ҳолатга тегишли: биринчидан, ўқувчилар диққатини дарс мақсади ва вазифаларига қаратиш; иккинчидан, такрорланаётган ва янгидан ўрганилаётган материал мазмунига қизиқиш уйғотиш; учинчидан, ўқувчиларни улар учун қизиқарли бўлган фаолияти шаклини ташкил қилиш. Янги материални фаол идрок қилиш ўқувчиларнинг физик тафаккурларини шакллантиришнинг муаммоли вазиятлар билан боғлиқ масалалар муҳокама қилинадиган дарсларда содир бўлиши кузатилди. Мазкур педагогик ҳолатда изланиш муҳити ҳосил бўлиб, бунда ўқувчилар ўз олдига қўйилган муаммоларни фаолроқ ечишга киришади.

VII ШЎЪБА. “МАМЛАКАТИМИЗДА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ”

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.,
Ш.Х.Шоматова – ҚарМИИ магистранти

ЗАМОНАВИЙ КОРХОНАЛАРНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ЯХШИЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Бозор иқтисодиёти шароитида иқтисодиётни янада эркинлаштириш бўйича ҳукуматимиз томонидан катта иқтисодий ислоҳатлар олиб борилмоқда. Бу ислоҳатларни амалга ошириш, ўз навбатида, катта миқдорда моддий, молиявий, интеллектуал инвестициялар манбаларини излаш, шакллантириш ва умуман, Ўзбекистон учун янги ва қулай бўлган инвестициявий фаолиятни йўлга қойишни тақозо этади.

Инвестицияларнинг иқтисодий самарадорлиги бутун ишлаб чиқариш самарадорлигининг таркибий қисмидир. Турли даражадаги хўжалик фаолиятида инвестицияларнинг иложи борича кўпроқ фойда, қайтим келтириши асосий вазифа қилиб белгиланади.

Инвестицияларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш зарурати, қўшимча капитал қўйилмалар киритилишини талаб қилувчи янги қурилиш, мавжуд ишлаб чиқаришни кенгайтириш, қайта тиклаш ва техник жиҳатдан қайта қуроллантириш, ишлаб чиқаришни замонавийлаштириш ва ташкилий-техник чора-тадбирларни ишлаб чиқиш каби барча ҳолларда юзага келади. Баъзан маҳсулотларнинг янги турини ишлаб чиқариш ҳам инвестиция ва бошқа маблағлар киритилишини, демак, харажат ва натижалар нисбатини аввалдан баҳолашни талаб этади. Биз таҳлил қилиб ўрганаётган Дунё –М АЖ да қуйидаги натижаларни кўришимиз мумкин. Инвестицияларнинг иқтисодий самарадорлигини оширишда корхоналар иккита асосий вазифани ҳал қилишлари лозим:

-биринчиси – капитал қўйилмаларнинг қопланиш муддати ва даромадлилиги нуқтаи назаридан, энг мақбул вариант танлаш вариантини яратувчи инвестицион лойиҳа самарадорлигини баҳолаш;

-иккинчиси – мавжуд ишлаб чиқаришга ишлаб чиқариш кўрсаткичларини яхшилаш мақсадида киритилувчи инвестициялар самарадорлигини баҳолаш (қўшимча маҳсулот ишлаб чиқариш, таннархни камайтириш, фойдани ошириш ва ҳоказо).Шу ўринда биз Дунё-М акционерлик жамиятининг маҳсулотлар сотишдан олинган фойда (зарар) ҳажмининг ўзгаришига таъсир қилувчи омилларни таҳлил қилиб ўтамиз.

1-жадвал

Дунё-М АЖнинг маҳсулотлар сотишдан келган ялпи фойда ва унинг ўзгаришига таъсир қилувчи омиллар таҳлили(минг сўмда)

Т/r	Кўрсаткичлар	2017 йил	2018 йил	2018 йилда 2017 йилга нисбатан ўзгариши	
				(+,-)	%
1	Маҳсулот сотиш-дан олинган соф тушум	122288585	130577645	8289060	106,8
2	Сотилган маҳсу-лотнинг ишлаб чиқариш таннархи	99331643	102264159	2932516	103,0
3	Маҳсулот сотишдан келган ялпи фойда	22956942	28313486	5356544	123,3

Жадвал малумотларидан кўриниб турибдики Дунё- М АЖда ялпи фойда ҳажми 2018 йилда 2017 йилга нисбатан 5356544 минг сўмга кўпайган ёки ўтган йилга нисбатан 123,3 фоизга бажарилган. Бунга асосан корхонада 2018 йилда 1000 тонна тариқ ва бошқа донларни олиб келиб қайта ишлаш ҳамда ишлаб чиқариш ҳажмининг ортишини, ўз навбатида маҳсулот таннархини камайтириш борасида олиб бориладиган ишларни кўрсатиш мумкин. Яъни 2018 йилда корхонада маҳсулот сотишдан тушган тушум ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 106,8 фоизга ўсганлигини кўришимиз мумкин.Бугунги кунда хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий натижаларини таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, фойда кўрсаткичлари уларнинг молиявий-хўжалик фаолиятини белгиловчи асосий мезонлардан бири ҳисобланади.

Корхонадаги инвестициялардан келадиган фойдани таҳлил қилиш учун албатта, аниқ ва исбот қилинган йўлни танлаш талаб қилинади. Яъни, биринчи навбатда, киритилган инвестиция келажакда қанча фойда келтиришини аниқлаш керак.

Лойиҳанинг ҳамма иштирокчилари лойиҳанинг нобуд бўлмаслигини ҳоҳлайдилар. Шу билан бир қаторда уларнинг ҳеч бири лойиҳанинг муваффақиятли амалга ошишига тўлиқ ишончи бўлиши мумкин эмас, чунки исталган ҳақиқий ишда таваккалчилик умум қабул қилингандир.

Инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришда капиталнинг қайтиши таъминланганлиги рискларининг қуйидаги асосий турларини инобатга олиш муҳимдир:

- лойиҳанинг ҳаётий эмаслик таваккалчилиги;
- солиқ таваккалчилиги;

- қарзларни тўламаслик таваккалчилиги;
- қурилишни тўхтатмаслик таваккалчилиги.

Инвесторлар учун инвестиция лойиҳасини амалга ошириш йўли билан ўз капиталини шакллантиришда солиқ тавакалчиликларининг сезиларли таъсир кучи алоҳида ўрин эгаллайди.

Одатда, инвесторлар ўзларини солиқ таваккалчиликларидан битим ва шартномаларда акс эттириладиган мос кафолатлар билан қисман ҳимоя қиладилар.

Инвестиция лойиҳасини технологик баҳолашда у ёки бу тармоқдаги янги лойиҳага тавсифли бўлган технологик таваккалчиликларни ҳам инобатга олиш лозим.

Технологик таваккалчиликларга қуйидагилар тааллуқлидир:

- лойиҳа ташкилотининг йўқлиги ёки унча катта бўлмаган иш малакаси;
- узоқ муддатли шартномаларнинг йўқлиги;
- ўқитиш ва махсус тайёргарликсиз ўз кучига ишониш;
- жарима чораларисиз ноаниқ (муддати ва миқдорисиз) шартномалар;
- техник таваккалчиликларнинг юзага келиш сабаблари;
- лойиҳалаштиришдаги хатолар, технология етишмовчилиги;
- ускунани нотўғри танлаш;
- ишлаб чиқариш қувватларини нотўғри аниқлаш, пудратчилар томонидан мажбуриятларини бузиш;
- бошқарувидаги камчиликлар;
- малакали ишчи кучининг етишмовчилиги;
- маҳаллий ходимларнинг импорт қилинган ускуна билан ишлаш малакасининг йўқлиги;
- лойиҳада кўзда тутилган қувватга чиқмаслик ёки тўла қувватда ишламаслик ёки анча паст сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш;
- қурилишни ва тўла қувватга чиқишни ушлаб қолиш.

Шу ўринда биз Дунё-М АЖ нинг молиявий натижаларини таҳлилини амалга оширамиз(2 –жадвал).

Жадвал малумотларига қарайдиган бўлсак 2018 йилда 2017 йилга нисбатан давр харажатлари таркибида ўсиш кузатилади яъни ўтган йилга нисбатан 130,4 фоизга ўсган. Давр харажатлари таркибида асосий ўсиш корхона маҳсулотини сотиш харажатларида кузатилади. Корхонанинг молиявий фаолиятида қилган даромадида ҳам ижобий ўсиш тенденциясини кўришимиз мумкин, яъни 2018 йилда 2017 йилга 1207224 минг сўмга ёки 235,2 фоизни ташкил қилади. Ўз навбатида молиявий фаолиятга қилинган харажатлар эса ўтган йилга нисбатан камайган яъни 38,3фоизни ташкил қилган. Бу ҳолатни корхонада ижобий баҳолаш мумкин. Умумий харажатлар 2017 йилда 2016 йилга нисбатан 6259359 минг сўмга ортган. Корхонада умумий харажатларнинг ортиши асосан хом ашё ва ёқилғи мойлаш материалларининг нархини ошиши ҳисобига кузатилади.

Замонавий корхоналарнинг инвестицион фаолиятини яхшилаш бўйи-

2-жадвал

Дунё-М АЖ нинг молиявий натижалари таҳлили

№	Кўрсаткичлар номи	Ўлчов бирлиги	2017 йил	2018 йил	2018 йилда 2017 йилга нисбатан ўзгариш	
					(+,-)	%
1	Давр харажатлари	Минг сўм	15197105	19824178	4627073	130,4
1,1	Жорий бошқа операцион харажатлар	Минг сўм	13386031	14209747	823716	106,2
1,2	Маъмурий бошқарув харажати	Минг сўм	1326325	1638974	312649	123,6
1,3	Сотиш билан боғлик харажат	Минг сўм	484749	3975457	3490708	820,1
2	Молиявий фаолият даромади	Минг сўм	892886	2100110	1207224	235,2
3	Молиявий фаолият харажати	Минг сўм	2109049	808819	-1300230	38,3
4	Умумий харажатлар	Минг сўм	116637797	122897156	6259359	105,4
5	Солиқ тўлашгача бўлган фойда	Минг сўм	6543674	9780599	3236925	149,5
6	Солиқлар тўлови	Минг сўм	1157625	1548126	390501	133,7
7	Соф фойда	Минг сўм	5386049	8232473	2846424	152,8

ча қўйидаги таклифлардан самарали фойдаланиш ўзининг ижобий натижасини беради.

Дунё –М АЖнинг моддий-техник базасини янгилаш, узоқ муддатли лизинг ва ижара хизматларини янада кенгроқ жорий этишкелажакда маҳсулот сифатини ошириши ва таннархни камайтиришга олиб келиши мумкин.

Дунё-М АЖга инвестициялар киритилишини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни кучайтириш, импорт ўрнини босувчи экспортбоп маҳсулотлар билан ички бозорни таминлаш лозим.

О.А.Арипов – Наманган давлат университети докторанти, и.ф.н., доцент

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИШБИЛАРМОНЛИК МУҲИТИГА ТАЪСИРИ

Сўнгги икки йил ичида Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг тез ривожланиши кузатилди. Иқтисодий-ижтимоий муносабатлардаги барча жараёнларнинг электронлашуви мамлакатда муайян даражадаги виртуал муҳитнинг кенгайишига олиб келди.



1-расм. **Ишбилармонлик муҳитига рақамли иқтисодиётнинг таъсири туфайли виртуал муҳитнинг пайдо бўлиши**

Дарҳақиқат, кўпчилигимиз нақд пуллик савдолашишдан кўра онлайн тарзда харид қилишга ўрганиб боряпмиз. Ҳўш рақамли иқтисодиётнинг моҳияти нимадан иборат ва унинг ишбилармонлик муҳитига таъсири қандай?

Иқтисодиётнинг рақамли тури одатда қандайдир модель кўринишида муайян миқёсда фаолият кўрасатади. Масалан, бозор субъектларининг электрон шаклдаги турли иқтисодий алоқалари, онлайн тарздаги савдо-сотиқлар, аҳолига виртуал хизматлар кўрсатиш, умуман электрон тарздаги инфратузилмаларининг кенгайиб бораётганлиги, шулар жумласидандир.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши кичик бизнес субъектларининг ички ва ташқи муҳитига таъсир қилиб, уларнинг ишчанлик фаолиятини оширади. Ахборот-коммуникация технологиялари такомиллашиб борган сари рақамли иқтисодиётнинг кўлами кенгайиб, корхоналар янгидан-янги виртуал бозорларни ўзлаштириш имкониятига

эга бўладилар. Ахборот технологиялари ёрдамида харажатларни камайтириш ва иқтисодиётнинг кўплаб тармоқларида меҳнат самарадорлиги ҳамда унумдорлигини ошириш имконияти пайдо бўлмоқда.

Демак, рақамли иқтисодиёт – бу ишлаб чиқариш мажмуаси яъни, маҳсулот ва хизматларни яратувчи ишлаб чиқариш тизими сифатида, инсоннинг ёки аҳолининг бекаму кўст ҳаётини таъминлайдиган қандайдир кибер-моддий тизим асосидаги иқтисодиёт.

Аксарият хорижий ишбилармонлар рақамли иқтисодиётдан кенг фойдаланган ҳолда, ўзларининг бизнеслари учун янги-янги имкониятларни келтириб чиқариш ҳақида ўйлайдилар. Аммо маҳаллий тадбиркорларимиз рақамли иқтисодиёт тўғрисида ҳали тор доирадаги дунёқарашга эгалар. Масалан, иқтисодий фаолият турлари бўйича жами кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарининг атиги 3 фоизи ахборот ва алоқа тармоғига тўғри келади [2]. Хусусан, жаҳон мамлакатларида АКТ ривожланишининг 2017 йилги индекслари ҳисобланганда Ўзбекистон индекси 4,90 га тенг бўлиб, дунё бўйича 95-ўринда турибди [1]. Аммо шуни қайд этиш керакки, мамлакатимизда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши ишбилармонлик муҳитининг қулайлашувига жуда салмоқли ижобий таъсир кўрсатиб боряпти. Хусусан, халқаро бизнеснинг ривожланишида жуда муҳим роль ўйнамоқда.

Ҳозирги даврда рақамли иқтисодиётнинг ривожи туфайли туб ўзгаришлар рўй бермоқдаки, мамлакатда ишбилармонлик муҳитининг кенгайиши кузатилмоқда. Буни қуйидаги ҳолатларда яққол кўриш мумкин:

− иқтисодий жараёнларда электрон алоқалар туфайли узоқ масофалардан туриб ўзаро ҳамкорлик муносабатлари кучаймоқда;

− тадбиркорлар билан турли бошқарув идоралари ўртасидаги муносабатлар шаффофлиги аниқ намоён бўлмоқда;

− интернет туфайли кичик корхоналар, микрофирмалар, хаттоки янги ташкил этилган тадбиркорлик субъектлари ҳам ўз маҳсулотларини жаҳон бозорларига олиб чиқиш ва сотиш имкониятларини кенгайтирмоқдалар ва ҳоказо.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши туфайли хаттоки, кичик сармоялар асосида янги корхоналар пайдо бўлмоқда ва улар тез ривожланиб бормоқдалар. Ривожланган мамлакатларда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши туфайли кичик бизнес субъектларининг аксарияти учун қулай муҳит тобора кенгайиб бораётганлигини англатади.

Биз рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши кичик бизнес субъектларининг барчасига тенгдай ижобий таъсир қилади, деган фикрдан йироқдамиз. Чунки рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши уч томонлама вазиятни келтириб чиқаради.

Биринчидан, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши бозордаги муҳитнинг кескинлашувига олиб келади. Бозор субъектлари ўртасидаги ўзаро иқтисодий алоқалар тезлашади, рақобатлашувнинг янги шакллари юзага келади. Натижада бозорда айрим суст ҳаракатланаётган кичик

бизнес субъектларига ноқулай муҳит шакллангандек туюлади. Чунки ўз фаолиятини қийин ташкил этадиган кичик бизнес корхоналари ахборотлашган тизимга мослаша олмай қийналади.

Иккинчидан, рақамли иқтисодга хос бўлган технологик ўзгаришлар, ишлаб чиқарувчилар ва харидорларнинг бизнес юритишлари учун янги бозор қоидаларини яратиши мумкин. Бундай муҳитда кичик корхоналар янги рақобат стратегияларини қидириши ва рақобат самарадорлигини оширишлари керак. Шу тарзда ишбилармонлик муҳитида янгича ривожланиш босқичи рўй беради. Рақамли иқтисодиётда ўзига хос инновацияларнинг қўлланилиши ушбу соҳани тараққиётига олиб келади.

Учинчидан, маълумки, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши туфайли барча иқтисодий муносабатларда ахборотлар билан ишлаш жараёнлари электронлашади. Айрим тармоқларда роботлашган тизим жорий этилади. Барча вазиятларнинг қарама-қарши томони бўлганидек, ўз-ўзидан электрон муносабатларга хавф туғдирадиган омиллар юзага келади.

Масалан, 2017 йил сентябрь ойида ўтказилган НАФИ тадбиркорларининг бутун Россия миқёсидаги сўровнома натижалари шундан далолат берадики, 2017 йилда Россия компанияларининг ярми турли хил таҳдидларга дуч келган ва уларнинг 22 фоизи ҳужумлардан молиявий зарар кўришган. Бир компаниядаги ўртача йўқотиш миқдори таҳминан 300 минг рублни ташкил қилади ва бу бизнеснинг ҳажмига боғлиқ. Умуман олганда мамлакатда кибер ҳужумларнинг зарари 115 967 204 788 рублни ташкил қилган[1].

Шундай қилиб бугунги кунда рақамли иқтисодиёт иккита вазифани бажариб боради:

1) амалдаги иқтисодий-ижтимоий муҳит изчил автоматлаштирилади;

2) бу соҳада ишлай оладиган кадрларни тайёрлашга ўтилади, қолаверса, инсонларни ўз фаолиятида замонавий технологиялардан фойдаланишга тайёрлаш зарурияти келиб чиқади.

Ўз-ўзидан бундай жараёнлар кичик бизнес субъектлари орасида кенг оммалашиб боради. Шунинг учун янгидан-янги стратегиялар ишлаб чиқиш, рақамли кўникмаларни оммавий шакллантириш ва таъминлаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса, ёшлар рақамли иқтисодиётга тегишли янги касбларни ўзлаштиришлари давр тақазосидир.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши туфайли инсон ҳаётидаги турли жараёнлар автоматлаштирилар экан, одамларни бошқа, янада долзарб интеллектуал касбларга йўналтириш лозимдир. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши миллий иқтисодиётнинг барча соҳаларига, қолаверса, бандлик соҳасига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Аниқроғи келажакда янги касбларни ҳам пайдо бўлиши эҳтимоли ҳам йўқ эмас. Масалан: виртуал адвокатлар, инфостилистлар, рақамли лингвистлар, тайм-брокерлар,

[1] Манба: https://nafi.ru/analytics/rossiyskie-kompanii-poteryaline-menee-116-mlrd-rubley-ot-kiberatak-v-2017-godu/

интерфейс дизайнерлари, ҳукумат вакиллари билан мулоқот пратформаси модераторлари, персонал бренд-менежерлари ва бошқалар[1].

Хулоса қилиб айтганда, ишбилармонлик муҳитини кенгайтиришда ва қулайлаштиришда рақамли иқтисодиётнинг ўрни ва аҳамиятини алоҳида қайд этиш керак. Бундай иқтисодиёт туфайли ривожланаётган виртуал муҳит ишбилармонлик муҳитининг таркибий қисмига айланиб, кичик бизнес субъектларини фаоллаштиради, узоқдаги масофаларни яқинлаштиради, иқтисодий алоқаларни соддалаштиради, турли бошқарув идоралари билан бўлган алоқаларда коррупцияга йўл қўймайди, жаҳон бозорига тезроқ чиқиш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдурахманов К.Х. Рақамли иқтисодиёт: Жанубий Корея тажрибаси ва ундан Узбекистонда фойдаланиш истиқболлари. № 4(124)-2018. // http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/58192
2. Баймуратова Л.Р., Долгова О.А., Имаева Г.Р., Гриценко В.И., Смирно К.В., Аймалетдинов Т.А. Цифровая грамотность для экономики будущего / Аналитический центр НАФИ. –М.: Издательство НАФИ, 2018. – 86 с.
3. Умаров О.С. Рақамли иқтисодиёт ва унинг ривожланиш тенденциялари. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.
4. https://kun.uz/ru
5. http://kak-bog.ru/ Цифровая экономика - новые возможности для бизнеса.

З.С.Шохўжаева – ҚарМИИ, Иқтисодиёт кафедраси доценти, и.ф.н.

СУВ –ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТГА ЭГА БЎЛГАН НЕЪМАТДИР

Сувнинг ижтимоий ва иқтисодий аҳамияти нақадар беқиёсдир. Сув ресурсларини бошқариш бошлагандан буён сувга алоҳида товар сифатида қараш ғояси эътибордан четда қолган. Рақобатчилик муҳитида сувдан фойдаланиб қиймати паст бўлган маҳсулот яратиш ёки ишлаб чиқариш омили сифатида сув чекланган ресурс сифатида қараш лозим. Чунки, сув ресурсларидан максимал фойдаланиш учун сув ресурсларига бўлган муносабатни ўзгартириш ҳамда ишлаб чиқаришга сувни тақсимлашда харажатларни инобатга олган ҳолда амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Сув – ер шарида кенг тарқалган ва энг зарур неъмат бўлиб, у ўзига хос ҳусусиятга эга ресурс бўлганлиги сабабли уни ҳеч нарса билан алмаштириб бўлмайди. Кундалик ҳаётда турли мақсадларда, яъни ичимлик суви сифатида ичишга, саноат ишлаб чиқаришида (аралашмалар тайёрлаш, маҳсулот таркибида бирикма сифатида ишлатиш, энергия ва иссиқлик ташувчи сифатида фойдаланиш ва ҳ.к.) ва қишлоқ хўжалигида ишлатилади.

[1] http://kak-bog.ru/ Цифровая экономика - новые возможности для бизнеса.

Ер юзасини сув билан таъминланганлиги 1400 млн.км^3 артофида эканлиги ҳисобланган. Шунингдек, ёмғир сувлари кам миқдор (10 000 км^3) ни ташкил этади. Бутун дунёда ер усти чучук сувларининг 61 фоизидан ва ер ости сувларининг 39 фоизидан суғориш мақсадларида фойдаланилиши қайд этилган.

Сувнинг шаклланиши озиқ-овқат хавфсизлигига кўмаклашади ҳамдақишлоқ хўжалигида унумдорликни оширишда муҳим аҳамиятга эга. Суғориладиган ерлар қишлоқ хўжалиги ерларининг 17 фоизини ташкил этиб, 40 фоизга яқин майдонда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва маҳсулот етиштириш амалга оширилади. Ҳозирги вақтда, 260 млн гектар майдон суғорилиб, шундан, 4/3 қисми ривожланаётган давлатлар ҳиссасига тўғри келади. Истеъмолга яроқли сувларнинг катта қисми аграр тармоқда фойдаланилади. 2000 йилдаги ҳисоб-китобларга кўра, сув ресурсларининг 67 фоизи қишлоқ хўжалигига сарфланиши таъкидланган ва унинг 86 фоизи истеъмол қилиниши ўрганилган. Суғориладиган майдонлар 260 млн. гектарга яқин бўлиб, 2025 йилга бориб бу майдонлар 330 млн. гектар майдонга кўпайиши кутилмоқда. Суғориладиган ерларни бошқариш муаммоси сув ва озиқ-овқат учун асос бўлиб ҳисобланади. Дарҳақиқат, сувнинг инсон ва бутун тирик мавжудод ҳаётида нақадар улкан аҳамиятга эга эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, сувдан оқилона фойдаланиш бугунги кунннинг долзарб масаласи эканлигидан далолатдир. Сув ресурсларини бошқариш ва улардан фойдаланиш борасида турли хил ёндашувлар мавжуд бўлиб, улар трансчегаравий дарёлардан умумфойдаланишга қаратилганлиги билан бошқаларидан фарқ қилади. Жамият ривожланиши ва инсонлар манфаатлари учун ҳизмат қилишга йўналтириш борасидаги қарашлар умум этироф этилган ёндашувларга зидлиги туфайли Ўрта Осиёдаги давлатларнинг миллий манфаатларига ҳам мос эмас. Шу боис сув ресурсларидан фойдаланишда трансчегаравий дарёларни бошқаришда муаммолар юзага келмоқда.

Иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш учун талаб этиладиган сувни ҳисоблашда кўплаб омилларни инобатга олиш лозим. Жумладан, жорий давр учун саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришга сарфланган сув ҳажмини маҳсулдорлигини аниқлаш ҳисобига кейинги ишлаб чиқариш босқичлари учун зарур бўлган сув ресурслари ҳақида етарлича маълумотга эга бўлади. Бунинг учун сувдан фойдаланиш бўйича статистик маълумотларни йиғиш, кузатиш, ўрганиш ва таҳлил қилиш талаб этилади.

Сувдан самарали фойдаланишни ташкил этишда, сув хўжалиги тизимини бошқариш соҳасида туб ислоҳотлар амалга оширилди. Жумладан, 2003 йил 21 июлда “Сув ресурсларини бошқаришни ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори қабул қилинди, унга мувофиқ қишлоқ хўжалигида сув ресурсларини маъмурий-ҳудудий бошқарув тизимидан воз кечилиб, ирригация тизимларини бошқаришда ҳавзавий бошқариш амалиётига ўтилди. Аграр соҳада амалга оширилган туб ислоҳотлар натижасида, ўртача ҳисобда ўн уч миллиард куб метргача

сувни тежаш имкони юзага келди.

Иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда сув ресурслари муҳим аҳамиятга эга. Жумладан, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини қондириш ва қайта ишлаш саноатини ҳомашё билан таъминлаш муаммолари иқтисодий сектор олдига қўйиладиган асосий вазифалар бўлиб, сув ресурсларига бевосита боғлиқдир.

Иқтисодиёт тармоқлари бир-бири билан узвий боғлиқ бўлиб, барчасининг самарадорлиги тўғридан-тўғри ёки бевосита сув ресурсларининг етарлилиги ёки улардан омилкорлик билан фойдаланишга келиб тақалади.

Сув ресурсларини иқтисодиёт тармоқларига оптимал тақсимлаш долзарб масалалардан бири ҳисобланиб, айниқса, мавжуд сув ресурсларни барча тармоқларга тўғри тақсимлаш муҳим аҳамиятга эга. Қишлоқ хўжалигида етарли даражада маҳсулот етиштириш учун муайян миқдорда сув талаб этилади ва ушбу маҳсулотлар саноат учун муҳим ресурс бўлиб хизмат қилади.

Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалигидан бошқа тармоқларда ҳам модернизациялаш, моддий техника базасини янгилаш, инновацияларни ишлаб чиқаришга жалб этиш борасида амалга оширилаётган ишлар кўлами катта. Саноат тармоқларида замонавий ресурс тежамкор технологиялар қўлланилиб юқори иқтисодий самарага эришилмоқда. Бироқ, сув ресурсларидан янада самарали фойдаланиш имкониятлари мавжуд бўлиб, табиий сув хавзаларида шаклланадиган сувларнинг истеъмолчиларга етиб боргунича бўлган даврда табиий йўқотишларни камайтириш ёки бартараф этиш чораларини кўриш лозим. Натижада, сувдан фойдаланиш самараси ортиб, тизимнинг фойдали иш коэффициенти ошади. Ундан ташқари сув ресурсларини юзадан буғланиши (очиқ ҳавзаларда) ҳамда ўсимликлар орқали сувни ҳавога чиқарилиши (транспирация) боис ҳам сув ресурслари йўқотилиши кузатилади. Бундай шароитларда, албатта, сувдан самарали фойдаланишни такомиллаштириш талаб этилади. Бунинг учун, сув узатув-чиканалларнинг (магистрал ва ички хўжалик қувурларни) фойдали ишлаш коэффициентини ошириш лозим. Шунингдек, сув ресурсларини ҳудудий тақсимоти илмий асосланмаганлиги ҳам асосий сабаблардан биридир.

Сув ресурслари дарёлар орқали каналларга, каналлардан ички каналларга тақсимланиб, фермер (деҳқон) хўжаликларига етказилади.

Шунингдек, сув тозалаш иншоотлари орқали саноат корхоналарига ва хизмат кўрсатиш соҳасига ҳамда маиший эҳтиёжлар учун аҳоли талабларини инобатга олган ҳолда сув узатилади. Бу тизимдаги сувдан фойдаланишни ўзаро алоқадор бўлган тармоқларни комплекс таҳлил қилиш, яъни иқтисодиёт тармоқларини сувдан фойдаланишини иқтисодий самарадорлигини аниқлаш маълум қийинчиликларни юзага келтиради.

Айниқса, натура шаклида самарадорликни аниқлаш жуда мушкул. Иқтисодиёт тармоқларида сувдан фойдаланиш самарадорлигини ҳисоблашда қиймат усулида, яъни ишлаб чиқарилган маҳсулот қийматини

ушбу маҳсулотга кетган сувни бевосита харажатлар усули орқали ҳамда тўлиқ сув сарфини ҳисоблаш орқали амалга ошириш энг мақбул йўл ҳисобланади.

Сув тежамкор технологияларни қишлоқ хўжалиги экинларига тадбиқ қилиш натижасида муайян миқдордаги сувни тежашга имкон беради. Аммо, ушбу технологиялар катта майдонларда қўллаш кўп миқдордаги сувни тежалишига ва пировардида, сувдан фойдаланиш самарадорлиги ошади. Сезиларли даражадаги сувни тежаш эвазига қишлоқ хўжалигида такрорий экинларни етиштириш ёки бошқа тармоқларга саноат, хизмат кўрсатиш, маиший ва коммунал соҳаларни ривожлантиришга сарфлаб иқтисодий барқарорликни таъминлаш ҳамда ижтимоий инфратузилма объектларини ривожлантиришда муҳим ўрин тутади. Тежалган сувлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, яъни сув ресурсларини иқтисодиёт тармоқларига рационал тақсимлаш масаласини илмий асослаш асосий вазифалардан бири ҳисобланади.

З.Д.Ниёзов – СамИСИ катта ўқитувчиси, и.ф.н.,
А.М.Каримова – СамИСИ ассистенти,
Д.М.Маликова – СамИСИ ассистенти

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ШАРОИТИДА МАМЛАКАТИМИЗДА КЎРСАТИЛАЁТГАН ХИЗМАТЛАРГА ИННОВАЦИЯЛАР ЖОРИЙ ЭТИШ

Мамлакатимизда давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтиш белгилаб олинди. Инновацион ғоялар, юқори технологияларни ишлаб чиқаришга, жамият ҳаётига изчил татбиқ этиш замонавий билим ва мукаммал малакага эга мутахассислар тайёрлаш учун миллий таълим тизимида ҳам кенг кўламли ва чуқур ислоҳотларни амалга ошириш талаб этилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек «Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли технологиялар асосида янгилашни назарда тутадиган Рақамли иқтисодиёт миллий концепциясини ишлаб чиқишимиз керак. Шу асосда “Рақамли Ўзбекистон-2030” дастурини ҳаётга татбиқ этишимиз зарур».[1]

Рақамли иқтисодиёт бу рақамли технологияларга асосланган, электрон тадбиркорлик ва электрон тижорат, шунингдек улар томонидан ишлаб чиқариладиган ва истеъмол қилинадиган электрон товар ва хизматлар билан боғлиқ бўлган иқтисодий фаолиятдир.

Рақамли иқтисодиёт бу ишлаб чиқариш комплекси инсонлар учун қулайликларни таъминлайдиган маҳсулот ва хизматларни яратадиган виртуал муҳит бўлиб, рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда иқти-

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси.

содий ишлаб чиқариш тизимидир. Шунингдек, рақамли иқтисод расмий-лаштирилиши мумкин бўлган барча нарсани қамраб олиши мумкин, яъни мантиқий схемаларда намоён бўлади. Ҳаётнинг ўзи эса бу "нарсаларни" ишлаб чиқариш, тарқатиш, алмаштириш ва истеъмол қилиш тизимига айлантиришга имконият яратади. Хақиқатдан ҳам инсоннинг руҳий ҳақиқатида жойлашган дунёнинг виртуал қисмидан олдин ишлаб чиқариш кучи бўлмаган, янги ғоялар ва маҳсулотлар яратилган муҳит эмас эди[1].

Мамлакат аҳолисининг ўсиши ва ресурсларнинг мобилизацияси шароитида рақамли иқтисодиёт фақатгина электрон савдо ва электрон хизматлар тижорати билан чекланиб қолмасдан, балки ҳар бир жабҳада ўз таъсирини ўтказмоқда, хусусан, таълим, соғлиқни сақлаш, интернет-банкинг ва ҳ.к.

Бугунги кунда банк тизимида бажарилаётган барча банк операциялари автоматлаштирилган ҳолда компьютерлар оркали амалга оширилаётганлиги рақамли технологияларни қўллаш ва улардан фойдаланиш, уларнинг мавжудлиги ва сифати, тайёргарлик босқичлари ва ривожланишнинг турли даражалари бўйича техник кўникмаларни шакллантириш олий таълим тизимида банк мутахассисларни тайёрлаш, ўқитиш ҳамда уларнинг малакаларини ошириб боришни тақозо этади.

2019 йил 11 январ ҳолатига кўра мамлакатимизда 29 та тижорат банклари[2] фаолият юритаётган бўлиб, ушбу банкларда турли хилдаги банк тизими дастурий таъминотларидан фойдаланилади, жумладан, ИАБС (Интегрированная Автоматизированная Банковская Система), АСБТ (Автоматизированная Система Банковских Технологий), Автоматлаштирилган банк тизими “Глобус” ва бошқалар.

Банкларга ишга қабул қилинаётган кадрлар асосан банк иши, молия, бухгалтерия ҳисоби таълим йўналишларини битирган олий маълумотли ёшлардан иборат. Бироқ шуни таъкидлаш жоизки, банк соҳаси мутахассислари тайёрланадиган ушбу таълим йўналишлари учун амалда бўлган олий таълим муассасаси ўқув режаларида «Иқтисодиётда ахборот комплекслари ва технологиялари» фанидан ташқари бошка компьютер дастурлари асосида ўргатиладиган фанлар режалаштирилмаган. Ваҳоланки, «Иқтисодиётда ахборот комплекслари ва технологиялари» фанидан талабаларнинг олган билимлари ва эгаллаган кўникмалари, уларнинг келгусида рақамли иқтисодиётга ўтиш жараёнида автоматлаштирилган банк тизими дастурларида иш олиб боришлари учун етарли эмас. Албатта, олий маълумотли кадрлар банкга ишга жойлашганларидан сўнг бир қанча вақт ўтиб, махсус банк дастурий таъминотларида ишлаш кўникмаларига эга бўладилар, лекин ушбу талаб этилган вақт давомида иш унумдорлиги кўрсаткичи сезиларли даражада пасайиб кетади. Бундай ҳолат эса олий таълим тизимида юқори малакали кадрларни тайёрлаш жараёнида мавжуд

[1] Умаров О.С. Рақамли иқтисодиёт ва унинг ривожланиш тенденциялари. Илмий мақола. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил

[2] http://www.cbu.uz/uzc/kreditnye-organizatsii/kommercheskie-banki/golovnye-ofisy/

бўлган камчиликлардан бири бўлиб ҳисобланади.

Шу ўринда, амалдаги қонунчилик ҳужжатларида республикамиз ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун замон талабларига жавоб берадиган юқори малакали кадрларни ўз вақтида зарур ихтисосликлар бўйича иқтисодиёт соҳалари ва тармоқлари эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тайёрлаш, олий таълим мазмунини бевосита корхоналар, муассасалардаги техника, технология, ишлаб чиқариш муносабатларига ҳамда истиқболли ривожланиш дастурларига мувофиқ шакллантириш, кадрларни эгаллаган касби ва мутахассислиги бўйича ишга жойлаштиришга доир қатор долзарб масалалар тўлиқ ечимини топмаганлиги кўрсатиб ўтилган.[1]

Юқорида кўрсатиб ўтилган ПҚ-3151-сонли Қарор билан олий таълим даражасини сифат жиҳатидан ошириш ва тубдан такомиллаштириш, олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва модернизация қилиш, замонавий ўқув-илмий лабораториялари, ахборот-коммуникация технологиялари билан жиҳозлаш бўйича Олий таълим тизимини 2017 — 2021 йилларда комплекс ривожлантириш дастури ҳам тасдиқланган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, юқоридагиларни эътиборга олган ҳолда, рақамли иқтисодиётга ўтиш жараёнида банк соҳаси учун етук малакали мутахассисларни тайёрлаб бериш борасида, айниқса, “Банк иши” таълим йўналишида кадрлар тайёрловчи олий ўқув юртларнинг ўқув режасини такомиллаштириб, унга «Иқтисодиётда ахборот комплекслари ва технологиялари» фанидан ташқари юртимиздаги тижорат банкларида фойдаланиладиган дастурий таъминотларда ишлаш бўйича билим ва кўникмаларни шакллантиришга кўмаклашувчи қўшимча инновацион фанларнинг киритилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

У.Х.Худайбердиев – СамИСИ доценти, и.ф.н.,
М.У.Худайбердиева – Чархин ижтимоий-иқтисодий касб-ҳунар коллежи ўқитувчиси

ИЖТИМОИЙ СОҲА – УСТУВОР ЙЎНАЛИШ

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач, иқтисодиётда ўзига хос бозор муносабатлари танланди. Бозор муносабатлари асосида давлат мулки объектлари хусусийлаштирилди. Нархлар эркинлаштирилди. Собиқ СССР Республикалари мустақил бўлгач, ўзаро иқтисодий алоқалар тўхтади. Натижада иқтисодий инқироз юзага келиб, истеъмол нархлари кўтарилди. Йирик корхоналар фаолияти тўхтаб, ишсизлар кўпайти.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3151-сонли Қарори

Шундай шароитда ҳукумат аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадида истеъмол товарларининг нархларини қатъий белгилаб қўйди ва талон билан савдо қилишни жорий этди.

Кейинги йилларда Ҳукумат кўрган чора-тадбирлар натижасида халқ хўжалиги тармоқлари, айниқса маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаси юқори суръатлар билан ривожланди, мамлакат иқтисодиёти юксала борди.

Натижада аҳолининг иш билан таъминланганлиги яхшиланди, оладиган даромадлари кўпайди. Бундан ташқари, ҳар йили минимал иш ҳақи бир неча бор оширилди. Фақатгина 2018 йилда минимал иш ҳақи Республика Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тегишли Фармонларига асосан 2 марта: 2018 йил 15 июлдан 1,07 баробар, шу йил 1 ноябрдан 1,1 баробар оширилди ва амалдаги минимал иш ҳақи 202730 сўмни ташкил этмоқда. Мустақилликнинг дастлабки йилларидан ижтимоий соҳага устувор йўналиши белгиланиб, унинг ривожланишига катта аҳамият берилди. Маориф, соғлиқни сақлашга давлат бюджетидан катта маблағлар сарфланиб, янги мактаблар, коллежлар, қишлоқ врачлик пунктлари ва бошқа соғлиқни сақлаш муассасалари қурилди, эскилари капитал таъмирланди, улар замонавий жиҳозлар билан таъминланди.

2018 йилнинг тўққиз ойи мобайнида мактабгача таълим, ўрта мактаб касб-ҳунар коллежлари, академик лицей, ҳамда олий ўқув юртлари ходимларининг иш ҳақи, моддий-техника базасини мустаҳкамлашга 13,6 триллион сўм; ёш болали оналарга нафақа, кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам бериш, алоҳида тоифадаги фуқароларга уй-жой коммунал хизматлар ҳақини тўлаш бўйича имтиёзларни қоплаш учун компенсация тўловларига – 2136,5 млрд. сўм Давлат бюджетидан сарфланган. Соғлиқни сақлаш соҳасидаги давлат дастурларини бажариш учун давлат бюджетидан 6,57 триллион сўм ажратилган. 2018 йил “Обод маҳалла” дастурида кўзда тутилган тадбирларни молиялаштиришга 214,2 млрд. сўм “Обод қишлоқ” дастурини амалга ошириш учун эса 474,5 млрд. сўм маблағ бюджетдан йўналтирилган.

Ижтимоий соҳанинг устувор йўналиши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан тасдиқланган 2019 йил Давлат бюджетида ҳам ўз тасдиғини топган. 2019 йил Давлат бюджет харажатларида ижтимоий соҳага 57,8 триллион сўм ажратилган бўлиб, барча харажатларнинг 54,0 %ини ташкил этади, ҳамда 2018 йилга нисбатан 34,4 фоиз кўп режалаштирилган.

2019 йилги Давлат бюджети ижтимоий соҳага йўналтирилган харажатларининг асосий қисми яна таълим ва соғлиқни сақлашга йўналтирилади. Бунда мактабгача таълим муассасаларини молиялаштиришга 4,0 триллион сўм, умумий таълимга – 17,1 триллион сўм, соғлиқни сақлаш муассасаларини молиялаштиришга 12,1 триллион сўм сарфлаш режалаштирилган.

Ижтимоий соҳа харажатларининг қолган қисми кам таъминланган

оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш, 2 ёшгача бўлган болали оналарга нафақалар бериш, бола туғилганда бериладиган бир марталик нафақалар бериш, ҳамда “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурларида белгиланган ишларни бажаришга сарфланади.

2019 йил Давлат бюджетидан ижтимоий соҳага режалаштирилаётган ишларнинг бажарилиши бюджет даромадларининг тушумига боғлиқ. Бу эса ўз навбатида мамлакат иқтисодий тармоқларининг ривожланишига боғлиқ. Чунки Давлат бюджети даромадларининг асосий қисми иқтисодий тармоқларда фаолият юритаётган субъектлардан олинадиган солиқлар суммаларидан ташкил топади.

2019 йил мамлакат ялпи ички маҳсулот ҳажмининг ўсиши – 5,9 фоиз даражасида режалаштирилмоқда. Бунда саноат тармоқларида ишлаб чиқариш ҳажми – 6,4 фоиз, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида – 4,0 фоиз; капитал қурилиш ишларида – 6,5 фоиз; чакана савдо айланмасида – 5,6 фоиз ўсиши прогноз қилинмоқда. Хизматлар соҳаси 2019 йилда юқори суръатлар билан ривожланади, турлари кўпаяди ва хизмат кўрсатиш сифати яхшиланади.

Аҳолига турли хил истеъмол маҳсулотлари етказиб берадиган, саноат тармоқ корхоналарига хом ашё тайёрлаб берадиган қишлоқ хўжалиги тармоқларига катта эътибор бериш лозим. Юқори хосилдорликка молик экин уруғлари, зотдор, маҳсулдор чорва зотларини кўпайтириш агротехника тадбирларини ўз вақтида ва сифатли ўтказиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини кўпайтиришнинг гаровидир.

Мамлакат халқ хўжалиги тармоқларини ривожлантириш учун 2019 йил барча манбалар ҳисобидан 138 триллион сўмлик ёки 2018 йилга нисбатан 16 фоиз кўп инвестициялар йўналтирилмоқда.

Хуллас, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида таъкидланганидек “Юртимизда яшаётган ҳар қайси инсон миллати, тили ва динидан қатъий назар, эркин, тинч ва бадавлат умр кечириши, бугун ҳаётдан рози бўлиб яшаши – бизнинг бош мақсадимиздир”.

Ш.А.Мусаева – СамИСИ, “Маркетинг” кафедраси доценти,
Д.И.Усмонова – СамИСИ, “Маркетинг” кафедраси катта ўқитувчиси, Phd

ҚИШЛОҚ ЧАКАНА САВДОСИДА ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Бугунги кунда аҳолининг турмуш даражасини ошириш масаласи мамлакатимизда олиб борилаетган ислоҳотларнинг асосий мақсадига айланган. Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидалаганидек “Юртимизда яшаётган ҳар қайси инсон миллати, тили ва динидан қатъий назар, эркин, тинч ва бадавлат умр кечириши, бугун ҳаётдан рози бўлиб

яшаши – бизнинг бош мақсадимиздир” [1]. Ушбу мақсадга эришишда аҳолини зарур товар ва хизматлар билан узлуксиз таъминлаб бориш, халқимизнинг кундалик эҳтиёжларини қондиришнинг аҳамияти ошиб бормоқда. Айниқса қишлоқ аҳолисини озиқ-овқат ва ноозиқ-овқат товарлари билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб маслаларидан ҳисобланади. Ушбу муҳим масалани қишлоқ жойларидаги чакана савдо ташкилотлари, якка тартибдаги тадбиркорлардан ташкил топган чакана савдо тармоғи ҳал этиб келмоқда. Дастлабки маълумотларга кўра 2018 йилнинг январ-ноябр ойларида чакана савдо товар айланмаси жами 116681,5 млрд сўмни ташкил қилиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 105,3% га етган. Чакана савдо айланмасининг 13,5 %ни (15742,3 млрд сўм) йирик савдо корхоналари, 86,5%ни эса (100939,2 млрд сўм) кичик тадбиркорлик субъектлари, шу жумладан 12,3%ни уюшмаган савдо субъектлари таъминлаб берган [2]. Йирик савдо корхоналари асосан шаҳар жойларида хизмат кўрсатадиган бўлса, қишлоқ жойларида савдо хизматлари асосан кичик тадбиркорлик субъектлари турғун савдо шахобчалари, деҳқон бозорлари ва савдо комплекслари ва якка тартибда амалга ошириб келинмоқда.

Қишлоқ жойлардаги чакана савдо хизматларини кўрсатиш шаҳардагига нисбатан бир қанча ҳусусиятлар билан ажралиб туради. Улардан энг муҳими – бу қишлоқда истеъмол талабининг концентрациялаш даражасининг пастлигидир. Умуман олганда қишлоқларда шаҳарларга нисбатан аҳоли фаровонлигининг пастлиги назарий ва амалий жиҳатдан ўз тасдиғини топган. Шуни ҳисобга олган холда, республикада урбанизация жараёнларини тартибга солишга, шаҳарлар сонини кескин кўпайтиришга эътибор кучаймоқда. Истеъмол талабининг шаклланиш ҳусусиятлари қишлоқ жойларида ўзига хос савдо хизматларини кўрсатиш тизимини шаклланишига асос бўлади. Ушбу тизимнинг муҳим жиҳатига алоҳида туманларда бир бирига ўхшамайдиган, ўзига хос чакана савдо муҳитининг мавжудлигидадир. Ҳар бир туман ва ҳудуд такрорланмайдиган чакана савдо субъектлари бирикмасига эга, яъни истеъмол талабига мос турғун савдо, деҳқон бозорлари, савдо мажмуалари ва уюшмаган савдо субъектларининг маълум тизими яратилган. Уларнинг ўзига хослиги йиллар давомида турли омиллар таъсирида шаклланиб келган. Шу билан бирга, қишлоқлардаги чакана савдода ҳам туб ўзгаришлар амалга ошириш талаб қилинади.

Бизнинг фикримизча, чакана савдо тизимини ривожлантиришда электрон тижоратни ривожлантириш катта аҳамиятга эга. Савдонинг ушбу шаклининг меъёрий-хуқуқий асослари мамлакатимиз қонунлари ва ҳукумат қарорлари орқали бугунги кунда аниқ ҳолатга келтирилган. Қишлоқ

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 29 декабрь 2018 йил. – 1б.

[2] Электрон манба. https://stat.uz/uploads/docs/express/uz/ichki_savdo_noyabr20181.pdf. Кириш вақти 22.01.2019 й.

савдосида электрон тижоратни ривожлантириш ташкилий-услубий ёнда-шувларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилишга боғлиқ бўлмоқда.

Қишлоқ жойларида электрон тижоратни кенг ривожлантириш унинг асосан иккита шаклини – B2B (business to business) ва B2C (business to consumer) ни кенгайтиришни тақозо қилади. Масаланинг мураккаблиги ва кенг қамровлигини ҳисобга олган холда мазкур мақолада бизлар B2B электрон тижоратга диққатимизни қаратдик.

Кўрсатилган электрон тижоратнинг биринчи тури савдо воситачилари орасидаги муносабатларни электрон тизимга келтиришни ўз ичига олади. Маълумки, чакана савдонинг самарадорлиги кўп жиҳатдан истеъмол товарларини тезкорлик билан тегишли ҳажмда етказиб берилишига боғлиқ. Чакана савдони товар билан таъминлаш савдо корхоналарининг самарадорлигини белгилаб берадиган асосий масала ҳисобланади. Товарларни ишлаб чиқаришдан сотиш жойигача етказиш занжирида одатда бир неча оралиқ бўғин, яъни воситачи иштирок этади. Шу муносабат билан товарларни ушбу занжирда тезкор ҳаракат қилиши, ортиш-тушириш операцияларни камайтириш, товар захираларини бўғинлар орасида мукаммал тақсимлаш ва пировард натижада муомала харажатларини пасайтиришни таъминлаш барча иштирокчилар учун манфаатли бўлади. Товар билан таъминлаш занжирида электрон тижоратни жорий қилиш учун бир неча масалаларга эътиборни қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз:

- фаолиятни рақамлаштириш мақсадларини аниқлаштириш ва уларни алоҳида вазифаларга ажратиш;
- рақамлаштирилган тизим иштирокчиларининг таъсир доирасини аниқ белгилаб олиш, уларнинг ваколат ва масъулият чегараларини ажратиш;
- электрон тижорат технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш ва жорий қилиш;
- электрон тижорат самарадорлигини умумий ва хусусий кўрсаткичлар бўйича баҳолаб бориш.

Қишлоқ чакана савдосида B2B электрон тижорат тизимини жорий қилишда иштирокчиларнинг иқтисодий манфаатлари юқори бўлиш билан биргаликда тижорат мақсадлари тахминан бир хил бўлади, яъни товар ҳаракати харажатларини пасайтириш. Шунинг учун ушбу тизимини жорий қилиш фақат ташкилий масалаларни ҳал қилиш билан боғлиқ бўлади. Электрон тижорат мақсадларига келадиган бўлсак, уларга товар ҳаракатини тезлаштириш, чакана савдода товар захираларини пасайтириш, нарх устамасини тақсимлаш ва бошқаларни киритиш мумкин.

Бизнинг фикримизча мазкур жараен қуйидаги учта даражада амалга оширилиши мумкин:

- яққа тадбиркор ва маҳаллий воситачи ўртасидаги электрон тижорат;
- якка тадбиркор – чакана савдо корхонаси – худудий дилерлар занжирида электрон тижорат;
- чакана савдо субъектлари – улгуржи савдо ташкилоти – бевосита иш-

лаб чиқариш корхоналари ёки уларнинг вакиллари ўртасида электрон тижорат.

Юқоридаги жараёнларнинг кўплаб кўриниши бўлиши мумкин, аммо тижорат схемаси тахминан бир хил бўлади. Биринчи даражадаги жараён энг содда бўлиб, бир қанча савдо субъектларини ушбу ҳудудда кенг ассортимент товарни таклиф қиладиган маҳаллий воситачининг муносабатларини рақамлаштирилган хизмат қилади. Бунда махсус электрон тижорат технологиялари, жумладан блок-чейн ва криптотижорат технологияларнинг киритилиши талаб қилинмайди. Тижорат субъектлари оддий интернет сайтлари ёки ижтимоий тармоқлар орқали мустаҳкам алоқалар ўрнатиши мумкин. Ушбу тизим ҳисоб-китоблар ва тўловларни анъанавий каналлар орқали амалга оширилишини кўзда тутади.

Иккинчи даражадаги электрон тижорат тури кўплаб субъектларни бирлаштиришга хизмат қилади. Бунинг натижасида иштирокчилар манфаатлари турлича бўлиши, товарларнинг тақсимоти ва тарқатилишида устуворлик мезонининг пайдо бўлиши кузатилади. Ушбу тизимида товар захираларини қаерда шакллантириш ва савдо ассортименни қандай тузиш масаласи биринчи ўринга чиқади. Шу муносабат билан электрон муносабатларда ахборот марказининг яратилиши ҳамда товарни сақлаш ва етказишни таъминловчи логистик марказ тузилиши лозим бўлади. Ушбу тизим олдингисидан ўзининг мураккаблиги билан ва шу билан бирга юқори самарадорлиги билан ажралиб туради. Шуни таъкидлаш лозимки, мазкур тизим ҳам худудий аҳамиятга эга бўлиб, ишлаб чиқарувчи корхоналар билан мустаҳам алоқалар ўрнатилишини кўзда тутмайди.

Чакана савдодаги электрон тижоратнинг учинчи даражаси нафақат қишлоқдаги, балки шаҳардаги тижорат ташклотларининг иштирокини кўзда тутади, шу билан биргаликда республика бўйича барча ишлаб чиқарувчи корхоналарининг тизимга кириш учун имконият яратиб беради. Ушбу тизимда республикадаги барча улгуржи савдо корхоналарининг ягона ахборот базасиини шакллантиришга катта эътибор берилади. Бунда истеъмол товарлари ассортиментнинг барча бирликлари киритилган бўлиб мамлакат бўйича зарур товарни излаш ва етказиш имкониятлари яратилади. Электрон муносабатларнинг бу даражасида иштирокчини идентификациялаш, талабномани тасдиқлаш ва ўзаро ҳисобларни тезкор ва аниқ бўлишини таъминлаш мезонлари биринчи ўринга чиқади. Шунинг учун электрон ахборот коммуникациялар тизимини талабларга жавоб бериши ҳамда ахборотни ҳимоялашнинг замонавий технологияларнинг қўлланиши жуда муҳимдир.

Бизнинг фикримизча, бугунги кунда қишлоқ чакана савдосида электрон тижоратни жорий қилишда интернетни ривожлантириш билан биргаликда тадбиркорларда электрон тижорат назарияси ва амалиёти бўйича билим ва кўникмалар хосил қилиш муҳим вазифа ҳисобланади. Жойларда чакана савдо ходимларига, якка тадбиркорларга электрон

коммуникациялардан тижорат мақсадида фойдаланишга бағишланган махсус курслар ташкил қилиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Қишлоқ жойларида аҳолига савдо хизматларини кўрсатишда электрон тижорат элементларини қўллаш савдо корхоналарининг иқтисодий самарадорлигини ошириш билан биргаликда жойларда аҳолининг эҳтиёжларини тўлароқ қондиришга олиб келади.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.,
Н.Ж.Маманазарова – ҚарМИИ магистранти

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИДА МАҲСУЛОТЛАР РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Рақобатбардошлик муҳитини шаклланиши ва ривожланишини мулкчилик шакллари турлича бўлган хўжалик субъектлари ўртасида содир бўлиши бозор иқтисодиёти шароитида объектив заруриятдир. Шунинг учун ҳам Республика Президенти Ш.М.Мирзиёев: “Фаол тадбиркор деганда, биз рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришга қодир, энг муҳими, янги иш ўринлари яратиб, нафақат ўзини ва оиласини боқадиган, балки бутун жамиятга наф келтирадиган ишбилармон инсонларни тушунамиз. Бундай тадбиркорлар сафини кенгайтириш, жумладан, юқори технологиялар, илм-фаннинг энг сўнгги ютуқларига асосланган техника ва асбоб-ускуналарни мамлакатимизга олиб келиш ва жорий этиш учун уларга муносиб шароитлар яратиш бизнинг биринчи галдаги вазифамиз бўлиши шарт. Керак бўлса, хориждаги етакчи компания ва ташкилотларда тажриба орттириши, ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиши учун уларга ҳар томонлама имконият туғдириб беришимиз лозим.”[1] деб таъкидлаб ўтди.

Ўзбекистонда ва хусусан Қашқадарё вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш ва уни сотишда рақобатбардошлик муносабатларига таянган ҳолда сифатли кўрсаткичларга эришиш ўта муҳим вазифалардан бири бўлиб, бу жараёнга шу кун талабларидан келиб чиқиб, ёндашиш лозим. Шунинг учун ҳам иқтисодиётда қўлланиладиган турли механизмлардан фойдаланган ҳолда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналари маҳсулотларини сифатини ошриш ва бунда рақобатбардошлик тамойилларини кенг қўллаш йўлларини ўрганиш лозим. Маҳсулот сифати кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарида маълум бир давр орлиғида маҳсулот ишлаб чиқарувчилар томонидан сотиш учун тақдим қилинган маҳсулот миқдорига бевосита таъсир кўрсатади. Сифат нарх-наво билан таклиф қилинаётган маҳсулотлар ўртасидаги боғлиқликни билдириб, нархнинг

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т:, 22.12.2017.

пасайиши билан таклиф миқдори ортади, ва унинг тескариси содир бўлади, бу жараён биринчи навбатда, маҳсулот сифатини талабга жавоб билан белгиланади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда такомиллашган бозордаги каби хислат бўлиб, бу ерда тенглашган нарх сотувчининг ва харидорнинг тенглик асосида амалга ошириладиган савдоси натижасида ўрнатилади. Шу билан бир вақтда, амалиётда, ҳар қандай олди - сотди жараёни якка индивидларга маълум бир даражадаги самара олиш имконияти билан белгиланади.

Қашқадарё вилоятида 2018 йилнинг 1 январь ҳолатига рўйхатга олинган жами кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектларининг сони 14969 тани ташкил қилди. 2017 йил январь-декабрда ялпи ҳудудий маҳсулотнинг 53,3 фоизи (2016 йил январь-декабрда 54,1 фоиз) кичик бизнес субъектлари томонидан ишлаб чиқарилди. 2017 йил январь-декабрда кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари томонидан:

-974,6 минг нафар кишининг бандлиги таъминланди (жами иқтисодиётда банд бўлганларнинг 80,0 фоизи), шу жумладан банд бўлганларнинг 640,8 минг нафари якка тартибдаги тадбиркор, 151,4 минг нафари кичик корхона ва микрофирмалар ҳиссасига тўғри келди;

- саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми 2494,7 млрд. сўмни (жами саноат ишлаб чиқаришининг 23,1 фоизи) ёки 2016 йилнинг январ-декабрига нисбатан 87,5 фоизни ташкил қилди;

- 5658,5 млрд. сўмлик қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликларининг ишлаб чиқарилган (кўрсатилган хизматлар) ташкил қилиб, ўсиш суръати 100,8 фоизни (қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликлари ялпи маҳсулотининг 99,4 фоизи) ташкил қилди.

- 1185,2 млрд. сўмлик инвестициялар (умумий инвестициялар ҳажмининг 11,6 фоизи) ўзлаштирилди ва 2016 йилнинг январь-декабрига нисбатан 84,5 фоизни ташкил қилди;

- 2129,1 млрд. сўмлик қурилиш ишлари (қурилиш ишлари умумий ҳажмининг 76,8 фоизи) бажарилди ва 2016 йилнинг январ-декабрига нисбатан 116,3 фоизни ташкил қилди;

- автомобил транспорти юк айланмасининг 102,8 фоизга (умумий юк айланмасига нисбатан 85,7 улуши), йўловчи айланмасининг эса 103,7 фоизга (умумий йўловчи айланмасига нисбатан 95,7 улуши) кўпайиши таъминланди;

- чакана товар айланмаси умумий ҳажмининг 85,5 фоизи ёки 6152,1 млрд. сўми (ўсиш 99,8 фоиз) ва хизматлар умумий ҳажмининг, мос равишда 71,9 фоизи ёки 4198,0 млрд. сўмни ташкил қилди;

- 87,3 млн. АҚШ доллари (умумий экспорт ҳажмининг 38,6 фоизи) миқдорида маҳсулотлар (товар ва хизматлар) экспорт қилинди.

Ислоҳотларни янада чуқурлаштириш кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, корхоналар фаолияти самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва экспорт қилиш, мавжуд

захиралардан тежамкорлик билан фойдаланиш асосида сифатли ва арзон халқ истеъмоли товарлари ишлаб чиқариб, халк турмуш фаровонлигини ошириш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Иқтисодиётда рақобат ва рақобатбардошлик муносабатларини ривожланиши учун етарли шарт-шароит ва имкониятлар мавжуд бўлиб, ҳар бир хўжалик субъекти ўз фаолиятини рақобатчи корхоналар билан солиштирган ҳолда, бозордан ўзининг ўрнини топиши ва барқарор фаолият юритиши шу кун талабларидан келиб чиқади.

Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик каби ўта мураккаб ва нозик соҳани янада ривожлантириш келажакда уни иқтисодий салоҳиятини ошишиға олиб келади.

Ўзбекистон миллий иқтисодиётининг барча тармоқларида, мулкнинг аксарият қисми давлат тасарруфидан чиқарилди ҳамда хусусийлаштирилди. Тармоқни ва ундаги корхоналарни бошқариш тизими ўзгартирилди, янги мулк эгалари - мулкдорлар синфи шаклланиши жадаллашмоқда ҳамда уларга хизмат кўрсатувчи бозор инфратузирмалари фаолияти такомиллашмоқда.

Мамалакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг ҳозирги босқичида айниқса кичик бизнес ҳамда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш масалаларига жуда катта эътибор берилмоқда. Бугунги кунга келиб, Ўзбекистон Республикасида бозор муносабатларининг барча элементларининг ўз ичига олган мустаҳкам бозор замини яратилди. Бундан ташқари мустаҳкам бозор инфраструктураси ҳам (тижорат банклари, инвестиция фондлари, биржалар ва ҳакозолар) яратилди. Буларнинг хаммаси мамлакатимизда мустаҳкам бозор заминининг яратилганлигидан далолат беради.

Қулай иш мухитини яратишга қаратилган чора-тадбирлар кичик бизнеснинг иқтисодий ўсишдаги хиссасининг ошишига, янги иш ўринларининг ташкил этилишига, иш билан бандлик кўрсаткичининг ошишига ва иқтисодиётнинг ушбу мухим йўналишида сифат ўзгаришлари амалга оширилишига сабаб бўлди.

Хусусий мулкчилик тармоғини кснгайтириш, бизнес учун қулай муҳит яратиш ва унинг кафолатларини мустаҳкамлаш вазифаларини амалга оширишдан асосий мақсад - аввало, иқтисодиётимизни жадал ва барқарор ривожлантириш, юртимизда эркинлик ва фаровон ҳаёт барпо этиш, халқимиз учун муносиб турмуш даражасини яратиб бериш имконияти яратилди.

Юксак даражадага ривожланган хорижий мамлакатлардаги кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик тажрибасини, алоҳида эътибор билан ўрганиш ҳамда уларни бизнинг мамлакатимиз амалиётида қўллаш алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улардаги кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни шакллантириш ҳамда ривожлантириш тажрибасини ўрганиб, уни бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтиш даврида бизнинг мамлакатимиз хўжалик юритувчи субъектларда ҳам қўллаш ва ёйиш келажакда уларни

иш фаолияти самарадорлигини ошишига олиб келади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарида ишлаб чиқарилган маҳсулотларни фақат вилоят миқёсида эмас, балки ташқи савдога ҳам етказиб бериш, бунинг учун Ўзбекистоннинг бошқа ҳудудлари ва хориж мамлакатларида юқори даражадаги инфратузилмага эга бўлган савдо уйлари ишини йўлга қўйиш орқали хусусий тадбиркорликнинг экспорт-импорт фаолиятини замон талаблари асосида амалга ошириш чора-тадбирларини кўриш лозим. Бу фаолиятни амалга ошириш борасида тадбиркорлар учун қулай имкониятлар ва шароитлар яратиб берувчи ҳуқуқий-норматив хужжатлар мажмуини ҳам қайтадан кўриб чиқиш керак.

Банкларда ташқи савдо шартномаларини қайд қилиш жараёнларини, экспорт шартномалари бўйича амалга ошириладиган ҳисоб-китобларни савдолаштириш лозим. Шунингдек, вилоятга олиб келинадиган янги технологик жиҳозларга белгиланган божхона тўловлар даражасини камайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлар субъектлари фаолияти учун зарур фан маҳсули бўлган юқори технологик маҳсулотлари экспорти учун субсидиялар ажратиш лозим.

Z.S.Shoxo‘jaeva – QarMII, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.,
N.Halilova – QarMII, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

QISHLOQ XO‘JALIGINI SANOAT BILAN INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Mustaqillik yillarida respublika agrar sohasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar xo‘jalik yuritish, mulkchilik, mehnatga xaq to‘lash, mahsulot yetishtiruvchilar, ularga xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida yangi bozor munosabatlari yuzaga keladi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida manfaatlarni o‘zaro mos kelishi amalga oshirilgan huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va institutsional tadbirlar bevosita bozor munosabatlarining chuqurlashuvi uchun asos yaratdi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalarining ishlab chiqarish kooperatsiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalar qatoriga qo‘ymoqda.

Shu bilan bir vaqtda O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev imzolagan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi[1] Farmonida “qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zR qonun hujjatlari to‘plami, 2017y.6-soni.

asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish” bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Shularni inobatga olib halqaro amaliyot asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kooperatsiya asosida chuqur qayta ishlash va agrar sohada ham sanoat korxonalarining ishlab chiqarish kooperatsiya tizimini yo‘lga qo‘yishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatib beradi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar samaradorligi nafaqat xo‘jaliklarda ichki mehnat taqsimoti tamoyillariga asoslangan kooperatsiyaga, balkim mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotishning tarmoqlararo kooperatsiyasi va integratsiyasiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan bizning mamlakatimizda, ayniqsa uning hudud-lari miqiyosida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ihtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini ichki xo‘jalik kooperatsiyasini hamda ularni yirik qayta ishlovchi sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini rivojlantirish bozor raqobati sharoitida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy yo‘li hisoblanadi. Buning yana bir afzallik tomoni shundaki, kooperatsiyaga kirishgan tomonlar bir-birini kafolatli buyurtma bilan ta’minlaydi, bu ularni moliyaviy faoliyatini barqaror bo‘lishini garovi hisoblanadi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida sanoat kooperatsiyasi yarmarkalarini o‘tkazish asosida ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil qilish rivojlanib bormoqda. Bu sanoat ishlab chiqarishini tarmoqlararo taqsimlanishiga yo‘l ochib bermoqda. Shu orqali sanoat va boshqa tarmoq korxonalari o‘rtasida uzoq muddatli shartnomalarga asoslangan o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqalar mustahkamlanmoqda. Bunga daromad manbai va foyda olishga qaratilgan kafolatlar mehanizmi asos yaratmoqda. Ushbu ijobiy tajribaga tayangan holda hamda mamlakatimizda amal qilayotgan yirik sanoat korxonalari bilan oila kooperatsiyasi shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirish tajribalari, ushbu yo‘nalishlarda agrar sohada ham fermer va dehqon xo‘jaliklari va boshqa shakldagi qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni ichki va tarmoqlararo sanoat koperatsiyasini tashkil etish va rivojlantirish mumkin.

Kooperatsiya, tarixan yuzaga kelgan va doimiy ravishda takomillashib boruvchi ijtimoiy-xo‘jalik faoliyat shakli sifatida, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ushbu jamiyatning ma’lum qatlamlari yoki guruhlarining ehtiyojlarini qondirish usuli bo‘lib ishtirok etdi. Kooperatsiya maxsus xo‘jalik tizimi sharoitida o‘z ishtirokchilari (paychilari)ning oddiy ehtiyojlarini qondirishdan tortib to bozor iqtisodiyoti tizimi sharoitida ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashgacha bo‘lgan uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kooperatsiya samarali tadbirkorlik faoliyati yo‘li bilan o‘z a’zolari va aholiniig mahsulot, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga asoslangan ijtimoiy xo‘jalik yuritish shaklini namoyon etadi.

Kooperatsiyaning eng asosiy vazifasi kooperatsiyaga kirishgan korxonalarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmlariga asoslangan bunday kooperatsiya va integratsiya bozor talabi tasiri ostida rivojlanadi va u istemol qilinadigan tovarlar va xizmatlarni yetkazib bergan holda o‘z shaklini o‘zgartirishi mumkin. Ammo bunda kooperatsiya o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, xo‘jaliklarni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishining asosiy tamoillarini saqlab qolishi lozim.

Ishlab chiqarish sohasidagi kooperatsiyaning turli shakllari va usullarining rivojlanishiga quyidagi omillar tasir ko‘rsatadi:

- muayyan mintaqa ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanish darajasi va tarmoqlararo ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyalashuv darajasi;
- tovarlar, mehnat, sarmoya va xizmatlar bozorining shakllanish darajasi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va uning holati;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish, shuningdek turli xildagi xizmatlarni ko‘rsatish sohasida raqobatning rivojlanganlik darajasi.

Tadbirkorlik tuzilmasi sifatida ishlab chiqarish kooperatsiyasining iqtisodiy negizi bo‘lib, iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi fermer va dehqon xo‘jaliklari hisoblanadi. Ular nisbatan kichik o‘lchamdagi korxonalar hisoblansada, bozor konyukturasiga moslashish nuqtai nazardan yirik korxonalar oldida ayrim ustunliklarga ega. Ushbu ustunliklarning asosiylari shundan iboratki, mazkur korxonalar birinchi galda ishlab chiqarishni qayta yo‘naltirish hajmlarining chegaralanganligi tufayli: o‘zgarib turuvchi talabga muvofiq boshqa mahsulotni ishlab chiqarishga tez o‘tish; bozor talablariga yo‘naltirilgan tovarlar ishlab chiqarish, tez amaliy samara berishga qodir bo‘lgan har qanday g‘oyani amaliyotga joriy etuvchi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining birinchi qo‘llov funktsiyasini bajarish imkoniyatiga ko‘proq egadirlar. Shuning uchun kichik va yirik biznes korxonalari, jumladan fermer va dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini takomillashtirish va rivojlantirish qo‘yidagi afzalliklarini beradi.

1. Kooperatsiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy negizini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy hamkorlik muhiti o‘sishiga qulay shart-sharoitlar yaratadi.
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi, kooperatsiyalashgan korxonalar bozor munosabatlariga to‘liq jalb etiladi va buning oqibatida ular marketing, menejment, investitsiyalarni jalb qilish va boshqa vazifalarni samarali hal etish imkoniga ega bo‘ladi.
3. Ishlab chiqarish kooperatsiyasining asosiy negizi bo‘lib uning boshlang‘ich bo‘g‘ini-kooperatsiyaga kirishgan korxonalar, xo‘jaliklar (birlashmalar) hisoblanadi. Ushbu boshlang‘ich bo‘g‘inlar mintaqa darajasida amalda o‘zlarining manfaatlariga xizmat ko‘satuvchi tuzilmalar bo‘lishi lozim.
4. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi tizimini shakllantirish korxonalar tomonidan yagona marketing kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish

imkonini beradi va bu korxonalar faoliyatining samaradorligini va raqobotbardoshligini oshirishning bozor talablariga javob berishi lozim.

Shunday qilib, islohotlarni hozirgi bosqichida agrosanoat majmuasi doirasida fermerlar, dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, oilalar ishtirokida mamlakkatimizda kengayib borayogan kooperatsiya shakllarini qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida ham rivojlantirish hududlar aholisini ish bilan taminlash va ular turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning diversifikatsiyalash sharoitida kooperatsiya tizimida agrofirma, agroxolding kabi xo‘jalik birlashmalarining yangi shakllarini barpo etish mumkin. Bunday birlashmalar orqali kooperatsiya o‘z tizimi tashkilotlari va korxonalarining to‘liq mustaqilligini, ular mulkining butligini saqlab qolgan holda mulkchilikning boshqa shakllari bilan integratsiyalashishi mumkin. Muvaffaqiyatli rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan chet mamlakatlarda ushbu tizimni rivojlantirish tajribasidan foydalanilsa, kooperatsiyalashgan xo‘jaliklarni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy samarasi katta bo‘ladi.

У.Х.Худайбердиев – СамИСИ доценти, и.ф.н.,
К.Р.Мухамадиева – СамИСИ магистранти

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ

Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиёти ривожланиши учун хусусий тадбиркорлик, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини ошириш ва республикамизда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни дунё бозорига олиб чиқиш масаласи қуйилган. Бу тадбирларни самарали амалга ошириш мақсадида ишлаб чиқариш корхоналарида халкаро ИСО стандартлари талаблари асосида сифатни бошқариш тизимларини жорий этиш бугунги куннинг долзарб масаласига айланган.

Ҳар қандай мамлакатнинг дунё миқёсидаги ўрни ва мавқиени бегиловчи муҳим омиллардан бири унинг экспорт салоҳиятидир. Шу боис ҳам 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаркатлар стратегиясида экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркибини ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларнинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш ва сафарбар этиш вазифасини алоҳида кўрсатилиши мустақилликнинг дастлабки йилларидан бу борада катта ишлаб бошлаб юборилганлигини тасдиғидир. Экспорт ҳажмининг 1990 йил ҳолатини пахта толаси мисолида кўрадиган бўлса 60 фоизи пахта толасидан иборат бўлган, 2016 йилда бу кўрсаткич деярли 12 баравар қисқарган. Аксинча, хизматларнинг улуши 1 фоиздан 25,5 фоизгача, яъни 25 баравардан кўпроқ ўсган. Шунингдек, озиқ-овқат

маҳсулотлари – 4 фоиздан 8,5 фоизга, кимёвий маҳсулотлар ва буюмлар – 2 фоиздан 6,7 фоизга ошган. Бошқа асосий экспорт йўналишлари бўйича ҳам ижобий ўзгаришлар кузатилган. Ўтган йил давомида экспорт фаолиятига 877 та янги корхона жалб қилиниб, маҳаллий маҳсулотларни четга сотиш учун 60 та янги бозор очилган.

Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга, соҳа вакилларини ҳар томонлама рағбатлантиришга, ҳақ-ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоялашга, эмин-эркин фаолият юритишлари учун қулайликлар яратиб, енгилликлар беришга ҳамиша жиддий эътибор қаратиб келинмоқда.

Шу асно ишбилармонларимиз ва фермерларимиз янги узилган, қуритилган ҳамда қайта ишланган мева-сабзавотларни, узум ва полиз маҳсулотларини экспорт қилишларини қўллаб-қувватлаш, уларнинг турли давлатларда ўтказилаётган йирик халқаро ярмаркаларда, бизнес-форум ва кооперацион биржаларда қатнашишларига, янги-янги харидорлар топишларига кўмаклашиш борасида ҳам диққатга сазовор ишлар амалга оширилаяпти. Алқисса, юртимизда инвестиция ва ишбилармонлик муҳити тобора яхшиланиб, экспортчи корхоналар сафи кенгаймоқда. Масалан, 2015 йили уларниг сони 147 тани ташкил этган бўлса, бултур 298 тага, жорий йилнинг ўтган даврида қарийб 400 тага етди. Шу тариқа “Made in Uzbekistan” ёрлиғи муҳрланган маҳсулотлар жаҳон бозорида муқим ва ҳар қачонгидан-да мустаҳкамроқ ўрин эгаллай бошлади.

Албатта, бундай натижаларга эришишда Президентимизнинг охирги пайтлардаги экспортни янада рағбатлантиришга, ташқи бозорларда маҳаллий товарлар рақобатбардошлигини таъминлашга, экспортёр ташкилотларни янада қўллаб-қувватлашга ва ташқи иқтисодий фаолиятни такомиллаштиришга оид фармон ва қарорларимуҳим омил вазифасини ўтамоқда. Бу ҳужжатлар, аввало, экспортчиларимиз мушкулини осонлаштиришга йўналтирилган. Чунончи, 1 июндан эътиборан уларга ўзлари ишлаб чиқарган товарларни умумий миқдори 100 минг АҚШ доллари эквивалентидан ошмаган шартномалар асосида чет эл валютасида олдиндан тўловсиз, аккредитив очмасдан, банк кафолатини расмийлаштирмасдан ҳамда экспорт шартномаларини сиёсий ва тижорий хавфлардан суғурта полисисиз экспортга чиқаришга рухсат берилди[1] . Шу шарт билан экспорт қилинган товарлар бўйича валюта тушумини таъминлаш муддати 90 кун қилиб белгиланди.

Хўжалик субъектлари соҳибларини беҳад қувонтирган навбатдаги янгилик шундан иборатки, муқаддам улар экспорт қилишдан тушган валюта маблағларининг 50 фоизини давлатга сотишга мажбур эдилар. Жорий йил февралида бу миқдор 25 фоизга қисқартирилди, 1 августдан эътиборан эса батамом бекор қилинди. Демак, эндиликда экспортчи

[1], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 10 октябрдаги 1871-сонли Фармони 2-иловасида кўрсатилган хомашё товарлари, шунингдек, янги мева-сабзавотлар, полиз ва узум маҳсулотлари бундан мустасно

корхона-ташкилотлар ўз валюта тушумларини тўлиқ ва эмин-эркин истифода қила оладилар.

Юртбошимизнинг шу йил 21 июндаги “Маҳаллий экспорт қилувчи ташкилотларни янада қўллаб-қувватлаш ва ташқи иқтисодий фаолиятни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори айни йўналишдаги саъй-ҳаракатларни янги босқичга кўтарди.Унинг шарофати ўлароқ, тадбиркорлик субъектлари 1 июлдан янги мева-сабзавот, узум ва полиз маҳсулотлари ҳақини олдиндан 100 фоиз тўлаш шарти билан тўғридан-тўғри экспорт қилиш ҳуқуқини қўлга киритишди. Қолаверса, ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотларни экспорт қилувчи ташкилотлар учун амалда бўлган имтиёзлар ва преференциялар ўзлари эгаси бўлган маҳсулотларни экспорт қилувчи ташкилотларга ҳам татбиқ этилди. Келтирилаётган ва ишлаб чиқарилаётган товарларнинг мувофиқлик сертификатини расмий-лаштириш муддатлари эса уч иш кунига қадар қисқартирилди. Муҳими, ишлаб чиқарувчи-экспортчиларга берилган имтиёз ва қулайликлардан бундан буён уларнинг маҳсулотларини хорижга етказиб берувчи барча тадбиркорлик субъектлари ҳам фойдаланишлари мумкин бўлди.

Бу ўзгаришлар бевосита ташқи иқтисодий фаолиятни янада либе-раллаштириш, экспорт ҳажмини ошириш, маҳаллий экспортчиларнинг рақобатдошлиги ва молиявий барқарорлигини таъминлаш, ортиқча ва эскирган рухсат бериш тартиботларини бекор қилиш орқали ишбилармонлик муҳитини такомиллаштириш ва мамлакатимизниг экспорт салоҳиятини юксалтиришдек эзгу мақсадларга хизмат қила бошлади.

Ўзбекистон ўрик, олхўри, узум, ёнғоқ, карам сингари талай мева-сабзавотларни экспорт қилиш бўйича дунёдаги ўнта етакчи давлат қаторида туради. Саховатли заминимизда униб-ўсган ва пишиб етилган мева-сабзавотлар, узум ва полиз маҳсулотлари сархиллиги, хуштаъмлиги, фойдали ва тўйимлилиги билан алоҳида ажралиб туради. Қолаверса, айнан шу хусусиятларига кўра жаҳон бозорида юқори нуфузга эга, ўта харидоргир ва рақобатбардошли ҳисобланади. Инчунин, сўнгги уч йил мобайнида экспорт қилинган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми уч бараварга ошди. Ҳозир эса мамлакатимиз 180 турдан ортиқ мева-сабзавотларни ва уларни қайта ишлаш эвазига тайёрланган маҳсулотларни чет эллик мижозларга етказиб бермоқда.

Албатта, тажрибали ишбилармонларимиз, омилкор деҳқонларимиз ва миришкор боғбонларимиз фақат шу билан чекланиб қолган эмас. Турли минтақаларда бўлаётган йирик халқаро кўргазмаларда мунтазам қатнашиб, харидорларини кўпайтиришмоқда. Масалан, “World Food Expo Korea – 2016” кўргазмасида тадбиркорларимиз жами қиймати 200 минг доллардан, “Food Moscow – 2016” озиқ-овқат маҳсулотлари кўргазмасида 2 миллион доллардан зиёд экспорт шартномалари тузишди. Берлинда уюштирилган “GreenWeek – 2017”халқаро ярмаркаси давомидаги келишувларга биноан, Ўзбекистон ўнга яқин мамлакат компанияларига 151,2 миллион долларлик озиқ-овқат маҳсулотлари етказиб бериш мажбуриятини ўз зиммасига олди.

Москвадаги“Продэкспо – 2017” халқаро кўргазмасида эса ялпи қиймати 64 миллион долларга тенг экспорт битимлари расмийлаштирилди.

Юртимизга хорижий инвестицияларни янада кўпроқ жалб этиш, жаҳон бозори талабларига монанд истиқболли лойиҳалар ишлаб чиқиб амалга ошириш, қишлоқ хўжалиги саноатининг мавқеини том маънода мустаҳкамлаб, Ватанимизнинг экспорт салоҳиятини юксалтиришга хизмат қилади, деб ўйлаймиз.

Я.М.Суюнова – СамДАҚИ катта ўқитувчиси,
Ф.М.Рахмонова– СамДАҚИ катта ўқитувчиси,
Б.А.Суюнов – СамДАҚИ ўқитувчиси

ҚУРИЛИШ КОНСТРУКЦИЯЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ ТЕЗКОР НАЗОРАТ ТИЗИМИ

Ушбу ишда биз тадқиқот ватаҳлиллар асосида темирбетон конструкциялари заводи маҳсулотини сифатини тизимини тезкор бошқариш ечимларига самарали ёндашиш учун завод маҳсулотига таълуқли компонентларни ўрганиб, таҳлил қилиб чиқдик. Бу компонентларни таҳлил қилишда, таъсир даражасини аниқлашда замонавий усуллардан бири бўлган “Тизимли таҳлил” усулидан фойдаландик. Чунки, бу усул ёрдамида долзарб техник-иқтисодий ва ечими қийин бўлган муаммоларни аниқлаш осон кечади.

Сифатни тезкор (оператив) назоратқилиш тизимини жорий килиш учун аввало бир қатортайёргарлик ишларини олиб бориш зарур:

1) Завод ишлаб чиқараётган ҳамма темир-бетон конструкциялар учун "бирлик сифат кўрсаткичлари"(БСК)ни аниқлаш лозим;

2) Бирлик сифат кўрсаткичларини аҳамиятлилигини эътиборга олиб тартиблаштириш (ранжировка) қилиш ва завод учун аниқ бир маҳсулотда қайси БСК асосий эканлигини аниқлаш лозим (бу эксперт сўрови натижасида аниқланди);

3) Хар бир бирлик сифат кўрсатгичи учун характерли бўлган нуқсонларни бартараф этишга ўртача меҳнат ҳаражатлари меъёрини аниқлаш керак. Ўртача меҳнат ҳаражатларини аниқлашда бир кишинингнуқсон ва камчиликларни бартараф қилишдаги бир соатда сарф қилган меҳнат ҳаражатлари асос қилиб олинади.

Тизимли таҳлилнинг ижобий томони шундаки, устивор йўналишларни ҳар бирини алоҳида таҳлил қилиб чиқиш, ижобий ва салбий таъсирлар доирасини белгилаб олиш имкониятини борлигидир.

Маҳсулот сифатини ошишига тезкор(оператив)механизациялашган назорат тизимини таъсирини яъни сифатли маҳсулот чиқишига ўз

таъсирини кўрсатувчи омилларни алоҳида-алоҳида кўриб чиқдик, улар жумласига қуйидаги натижаларни киритиш мумкин:



Бошқариш тизимида маҳсулот сифатини тезкор назорат қилишнинг асосий натижалари

1.Ўз вақтида камчиликларни аниқлаш ва бартараф этиш.Агар камчилик ва нуқсонлар тезкор аниқланмаса камчилик бошқа постларга ўтиб кетади ва қурилиш ҳамда эксплуатация жараёнида ўзини салбий номаён этади.

2.Ҳамма маҳсулотларни тўлиқ назорат қилиш.Ҳозирги пайтда хам иш сменасида техник назорат бўлими ходимлари айрим маҳсулотларни назорат қилади.Тўлиқ назорат қилишга вақти етишмайди.

3. Назоратчилар сонини икки мартага қисқартиришга олиб келади**.**Бу дегани тезкор механизациялашган тизим ёрдами натижасида

ТНБ ходимларини иши енгиллашади,уларни сонини қисқартиришга имкон яратилади деганидир.

4. ТНБ ходимлари вақти 50-70% тежалади.Улар энди маҳсулот сифатини тўлиқ назорат қилишга ўтади.

5. Назоратчилар иши 2-3 марта осонлаштирилади.Чунки улар 5-6 тагача бўлган назорат журналларини тўлдирмайди.Машина(кампьютер) ўзи қайд этиб боради.

6. Цех,завод маҳсулоти тезкор баҳоланади. Ҳар сменадан сўнг раҳбарнинг столига маҳсулот сифати даражаси ва бажарувчиларни(ишчиларни) сифат коэффицентлари кўрсатгичлари тезкор келиб тушади ва ўз вақтида баҳосини олади.

7. Камчиликларни асосийлари ўз вақтида аниқланади. Кўп харажат талаб қиладиган (созлаш ва таъмирлаш учун) “асосий” нуқсонлар кампьютер дастурлари ёрдамида тез аниқланади.

8. Нуқсон ва яроқсизликдан ҳосил бўладиган шартли йуқотишлар аниқланади.Ҳар смена охирида қанча йўқотишлар бўлиши топилади (пул бирлиги кўринишида).Махсус масалалар ечилади,дастурлари мавжуд.

9. Рағбатлантириш такомиллашади. Чунки ишчиларни меҳнатини сифат коэффиценти топилади ва шу орқали моддий рағбатлантирилади.

10. Нуқсонларни пайдо бўлиши 60-70 % камаяди. Чунки 3-4 та “асосий” нуқсонлар йўқотилишига эришилса сифат 80% гача ошиши мумкин. Бу нуқсонларни ранжировка қилиш ёрдамида аниқланади.

11. Сифатсиз маҳсулот чиқариш 30% камаяди.Бу албатта яхши кўрсатгич ҳисобланади ва хоказолар.

Ушбу сифатни бошкаришни тезкор механизациялашган тизими темирбетон конструкциялари заводига ўрнатилса олинадиган йиллик иктисодий самараси қуйидагича бўлади:

Э = Эс - С -Ен х К = 108000 – 22350 - 0,15*3300 = 85155 минг сўм.

(бу битта цехдаги иқтисодий самара ҳисобланади).

Бу ҳисоблардан кўриниб турибдики,тезкор(оператив) назорат тизимини бошқа турдаги заводларда хам жорий этиш мақсадга мувофиқ экан.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ефименко И.Б., Плотников А.Н. Тармоқ иқтисодиёти (қурилиш): ўқув қўлланма. – М.: Вузовский учебник, 2011г. .
2. Инновационний менеджмент: учеб. пособ. /Под ред. Л.Н. Оголевой. – М.: ИНФРА-М, 2012 г.
3. Суюнов А.С. Модернизация систем управления качеством продукции в строительном комплексе Узбекистана. Монография.-Ташкент: « Фан ва технология» 2011,132 с.
4. СуюновА.С. Қурилишни ташкил этиш. Ўкув қўлланма.Самарқанд, СамДАҚИ. 2014,148 б.

О.Ю.Ашурова, Х.Ю.Абдуқодиров, Ш.Т.Очилов – Самарқанд молия ва иқтисодиёт коллежи ўқитувчилари

МЕҲНАТ ИНТИЗОМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Бозор иқтисодиёти шароитида корхона, ташкилот ва муассасаларда ишлаб чиқаришнинг юқори кўрсаткичлари ва хизмат кўрсатиш сифатининг юқори бўлишининг асосий омиларидан бири меҳнат интизоми ҳисобланади. Мамлакатимизда меҳнат интизомини мустаҳкамлашнинг ижтимоий-иқтисодий ва хуқуқий асослари такомиллаштирилиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Танқидий таҳлил қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” номли маърузасида интизомнинг ҳар бир соҳадаги тутган аҳамияти хусусида атрофлича тўхталиб ўтилган. Унга кўра, ”2018 йил ва ундан кейинги даврга белгиланган вазифаларни амалга ошириш учта энг муҳим талабга ҳал этувчи даражада боғлиқдир. Биринчи-давлат раҳбари–Президентдан бошлаб барча бўғиндаги раҳбарларнинг якуний натижалар учун шахсий жавобгарлиги. Иккинчи-ҳамма соҳада аниқ тартиб ва каттиқ интизомни таъминлашимиз даркор. Яна бир бор тиъкидлайман, ишни биргаликда бажарамиз, натижа учун эса ҳар биримиз шахсан жавоб берамиз. Учинчи талаб - сафларимиз ва кадрларимизнинг софлигини таъминлаш, ишдаги ҳар қандай салбий ҳолатларнинг олдини олиш ва бундай иллатларнинг илдизини қуритиш”, деб таъкидланган.

Иқтисодиётнинг барча тармоқларининг илмий-технологик ютуқлари корхоналарда ишлаб чиқариш муносабатларини мураккаблаштиради, бу эса барча ишлаб чиқариш алоқаларининг ўзаро таъсирини ташкил этишда аниқлик ва аниқликни оширишда меҳнат интизомини тўғри ташкил этишни талаб этади.

Корхона, ташкилот ва муассасаларда рақобатбардошликни оширишда, молиявий барқарорликни таъминлашда, ишлаб чиқариш самарадорлиги ва меҳнат унумдорлигини оширишда меҳнат интизоми муҳим аҳамият касб этади.Аммо бугунги кунда корхона ва ташкилотларда меҳнат интизомининг ҳолати, хусусиятлари ва корхоналарнинг фаолиятига иқтисолий самарадорлигига таъсири етарли даражада ўрганилмаган.

Меҳнат интизомини мустаҳкамлашга йўналтирилган муҳимлик ва заруриятни англаш мулк шаклидан қатъий назар, турли соҳаларда фаолият юритадиган кўплаб корхоналар учун долзарб масала бўлиб қолади. Инсон омили мураккаб ижтимоий-иқтисодий ҳамкорлик тизимда ҳал қилувчи рол ўйнайди, чунки интеллектуал ва жисмоний фаолият натижасида техника, технология ва капитални яратади. Меҳнатни ташкил этишни такомиллаштириш ва меҳнат интизомини кучайтириш, инсон омилининг

барча даражалари ва ходимдан корхона бошлиғига қадар ҳар қандай инвестицияларни талаб қилмайди ва иқтисодий тикланишнинг реал ва муҳим резервини ташкил этади.

Меҳнат интизоми ташкилотнинг барча ходимларининг маҳаллий меъёрий ҳужжатлар, меҳнат шартномасига мувофиқ белгиланадиган юриш-туриш қоидаларига амал қилиши шарт бўлган меҳнат тўғрисидаги тартибдир.

Хулқ-атвор қоидаларини тартибга солувчи маҳаллий норматив хужжатни ташкил этишдаги энг муҳим вазифалардан бири ички меҳнат қонунчилиги қоидалари ҳисобланади. Ишчиларнинг умумий вазифаларига эришиш учун ишчиларни бирлаштириш ишда мустаҳкамлик ва ишончни таъминлашни талаб қилади, бу фақатгина ташкилий қоидалар қатъий амалга оширилиши орқали таъминланиши мумкин.

Корхона учун меҳнат интизомининг аҳамиятини ошириш бир қатор омилларнинг таъсири билан боғлиқ:

-ишлаб чиқариш алоқаларининг мураккаблиги барча ишлаб чиқариш алоқаларининг ўзаро таъсирини ташкил қилишда аниқлини талаб этади;

-меҳнат унумдорлигини оширишнинг объектив талаби иш вақти бирлиги нархининг ошишидадир, шунинг учун уни янада самарали ишлатиш кераклигига олиб келади.

Корхонадаги интизом ташкилотнинг даражаси, жамоанинг ахлоқий саломатлиги кўрсаткичидир.

Корхоналарда меҳнат интизомининг бузилиши ёки паст бўлишига таъсир этувчи омиллар қуйидагилардир:

1. Ходимларнинг иш ҳақи ва иш ҳақини баҳолашда адолатсизликнинг мавжудлиги;
2. Комплекс ишлаб чиқариш ва ташкилий тузилмадаги тафовутлар;
3. Иш тавсифлари сифатининг паст бўлиши;
4. Ходимларни ишга ёки лавозимга тайинлаш тизимининг нотўғрилиги ва бошқалар.

Меҳнат интизомининг пастлиги сабабли иқтисодий йўқотишлар қуйидагилардан иборатдир:

-ишга кеч келиш, ишга умуман келмаслик, ишдан вақтли кетиш оқибатида иш вақтини йўқотиш;

-меҳнат интизомининг бузилиши туфайли ишчиларнинг ишдан бўшатилиши ва янги ишга ўрганмаган ишчиларни ишга йўллаш, шу билан бирга иш вақтининг йўқотилиши;

-ишчиларнинг пост алмашинуви сабабли, коллектив иш натижаларининг пасайиши;

-ишлаб чиқариш технологиясини бузганлиги, асбоб-ускуналарнинг бузилиши сабабли, сифатсиз маҳсулотларни ишлаб чиқариши.

Фикримизча, меҳнат интизоми ўзида корхона ёки ташкилот ходимларини ва иш берувчиларнинг ўзаро мажбуриятларини сидқидилдан ва аниқ бажаришга йўналтирилган ҳаракатларини ифодалаши зарур, деб

ҳисоблаймиз.

Агар жамоада меҳнат интиоми юқори бўлмаса, бозор иқтисодиёти шароитида рақобат қилишда корхона муваффақиятга эриша олмаслиги мумкин. Корхонада меҳнат, технологик ва ишлаб чиқаришда меҳнат интизоми паст бўлиши иқтисодий йўқотишларга олиб келиши мумкин.Ушбу йўқотишлар қуйидагича бўлиши мумкин:

-Барча тоифадаги ишчилар меҳнат унумдорлиги ва меҳнат қилиш иштиёқи тушиб кетиши, бу эса ўз навбатида фойданинг камайишига олиб келади;

-Сабабсиз ишчининг ўз жойида бўлмаслиги, ишчининг йўқлиги иш вақтининг йўқотилишига олиб келади ва кадрлар қўнимсизлиги натижасида ҳам иш вақтининг йўқотилишига сабаб бўлади;

-ишлаб чиқаришда технологик жараён билан боғлиқ хатоликлар, ишлаб чиқариш ускуналарининг туриб қолиши, таъмир талаб бўлиб қолиши, маҳсулот ва хизмат сифатининг тушиши натижасида корхонанинг имижи ва рақобатбардошлигининг пасайишига олиб келади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса ўрнида таъкидлашимиз мумкинки, меҳнат интизоми тушунчасининг назарий жиҳатдан ривожланиши ва босқичлари асосан илмий технологик ютуқларнинг ривожланиши билан такомиллашиб келган. Бунга мамлакатимиздаги меҳнат қонунчилигига асосан меҳнат интизомини бузган шахсларга нисбатан бериладиган интизомий жавобгарлик масалаларини ҳал қилишда иш берувчилар томонидан мажбуриятларнинг ўз вақтида ва тўғри бажарилиши ҳамда ходимлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун иш берувчиларнинг ички меҳнат тартиби қоидаларини ишлаб чиқиш ва таъминлаш, хусусан, корхона ва ташкилотларда ички меҳнат тартиби қошдалари билан ўз ходимларининг таништирилишига алоҳида қатъий талаб қўйилиши муҳим аҳамият касб этади.

Н.Т.Парпиева – ТМИ, “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, илмий раҳбар,
У.Д Файзуллаев – ТМИ, ММ-74ИҚ талабаси

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Замонавий одамни ҳаёт фаолияти товар ва хизматларни истеъмол қилинишига асосланган. Уларни яратилиши, ишлаб чиқарилиши ва тақсимланиши ва истеъмол қилиниши одамлар эҳтиёжларини қондирилишини динамик ривожланишини таъминлайди. Давлат иқтисодида хизматлар соҳаси ва товар ишлаб чиқариш соҳаси органик ўзаро бир-бирини тўлдирувчи тармоқлар ҳисобланади. Хизматлар соҳаси жамият ҳаётини муҳим соҳаларидан бири ҳисобланади ва бизни фаолиятимизни барча

томонларига сезиларли таъсир қилади. Шу сабабли сервис фаолияти одамларни моддий ҳаёт таъминотида маълум рол ўйнайди, бу эрда уларни энг турли туман маънавий фаолият турлари амалга оширилади.

Хизматлар соҳаси – бу бир томондан аҳолига кўрсатиладиган сервис хизматларини ассортименти бўлса, иккинчи томондан ташкилотлар ва якка ижрочилар мажмуаси бўлиб, улар сервис фаолияти доирасида истеъмолчиларга моддий ва ижтимоий-маданий хизматларни кўрсатишади.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг ҳозирги босқичи кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни, ҳамда хизмат кўрсатиш корхоналарининг ривожлантириш, унга кенг иқтисодий эркинлик бериш билан тавсифланади. Хизмат кўрсатиш корхоналарини ривжлантириш соҳасига давлаттомонидан катта эътибор берилиши ҳамда қўллаб-қувватланиши натижасида унинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улуши йилдан-йилга ортиб бормоқда.

Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш бўлимининг асосий вазифа ва функтсиялари.[1]

Бўлимнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

Хизматлар бозорини таҳлиллари асосида қисқа, ўрта муддатлик хизматларни ривожлантириш прогнози, ҳажмларини кўпайтириш дастурлари, кўрсатилаётган хизматларнинг сифатини кўтариш, хизматлар ҳажмининг ялпи ички маҳсулот таркибидаги улушини ошириш, савдо ва маиший хизмат кўрсатиш шахобчаларини ривожлантириш, бозор талабига мос хизмат турларини жорий этиш, қишлоқ жойларда хизматларни кенгайтириш каби масалаларни ўз ичига олган кўп шаклли кўринишдаги прогнозларни ишлаб чиқиш;

Келгуси йилга асосий озиқ-овқат маҳсулотларини сотиб олиш бўйича ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори лойихасини ишлаб чиқиш;

Бир қатор истеъмол товарлари бўйича прогноз ва фойдаланиш балансларини ишлаб чиқиш;

Ички бозордаги айрим истеъмол товарлар бўйича барча ҳисоб-китобларини тайёрлаш, захиралардаги республикада ишлаб чиқарилмайдиган товарлар бўйича етишмовчиликларни аниқлаш;

Хизматлар бозорида ҳудудлар ўртасидаги тафовутлар даражасини тенглаштириш ҳақида таклифлар тайёрлаш, худудларда хизматларни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар консепсияларини, дастурларни ишлаб чиқиш;

Бюджет, солиқ, монополияга қарши, демпингга қарши ва хорижий валюталар ёналишларига, бозор принсипларига асосан хизматларни ривожлантиришга қаратилган сиёсатларни олиб бориш бўйича тайёрланадиган таклифларни ишлаб чиқишда қатнашиш;

Вазирликлар, ташкилотлар ва худудларни тармоқлар ва худудий дас-

[1] http://mineconomy.uz/ru/node/341

турларни бажарилишида, муаммоларни аниқлашда бир бирлари билан келишилган равишда фаолият юритиш методик қўлланмалар билан таъминлаш;

Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш бўйича хукумат қарорлари лойихаларини тайёрлашда қатнашиш;

Аниқ бир тармоқ ёки худуднинг хизматлар бозорини ўрганиш;

Республика миқёсида хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш дастурининг мониторингини олиб бориш;

Белгиланган муддатларда қабул қилинган дастур бўйича олиб борилган мониторинг натижалари юзасидан ўзбекистон республикаси ҳукумати раҳбариятига якуний ҳисоботлар тайёрлаш;

Улгуржи ва чакана савдо тармог`ини ҳамда "ўзулгуржисавдоинвест" уюшмаси фаолиятини ривожланиши бўйича мониторинг олиб бориш, уларни такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш;

Ҳудудлар ва тармоқлардаги хизматлар бозорининг ривожланиши бўйича таҳлиллар қилиш, соҳага тегишли меъёрий хужжатлар базасини такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш;

Хизмат кўрсатиш ва сервисни ривожлантиришни жадаллаштириш дастурининг бажарилиши бўйича мониторинг олиб бориш механизмини ташкил этиш;

Вазирликлар, ташкилотлар ва ҳудудлар томонидан ё`лланилаётган якуний ҳисоботларнинг тўг`рилиги юзасидан назорат ўрнатиш;

Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш бўйича вазирликка ё`лланган таклифларни, дастур лойихаларини кўриб чиқиш ва хулосалар тайёрлаш.

Иқтисодий глобаллашув шароитида мамлакатларнинг ўзаро интегратсиялашуви ва халқаро ихтисослашувнинг кучайиши ҳар бир миллий иқтисодиёт олдига ишлаб чиқариш тармоқларини модернизатсия қилиш ва диверсификатсиялаш, аҳолига кўрсатиладиган хизматларнинг рақобатбардошлиги ва сифатини ошириш ҳамда шу орқали ҳудудлар молиявий салоҳиятини юксалтириш вазифасини қўймоқда.

Мамлакатимизда миллий иқтисодиётни таркибий ўзгартириш ва диверсификатсия қилишни чуқурлаштириш, бандликни таъминлаш, аҳолининг даромади ва турмуш сифатини оширишнинг муҳим омил ва йўналишларидан бири тариқасида хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш устувор масалалардан биридир. 2016-2020-йилларда мамлакатимизда хизматлар соҳасини ривожлантириш ҳисобига ялпи ички маҳсулотни кўпайтириш, унинг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улушини 48,7 фоизга етказиш кўзда тутилган. Ҳудудлар иқтисодий салоҳиятини юксалтириш, ички бозорни қўшимча қийматга эга маҳсулотлар билан тўлдириш, энг муҳими, янги савдо йўлаклари очишда эркин иқтисодий зоналар муҳим ўрин тутади. Шу боис мамлакатимизда ана шундай ҳудудлар ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жойларда барпо этилган «Навоий», «Жиззах», «Ангрен» эркин иқтисодий

зоналари юқори технологияли ишлаб чиқариш қувватларини йўлга қўйиш, ҳудудларда замонавий саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни рағбатлантириш, тўғридан-тўғри хорижий инвеститсияларни жалб этишни кенгайтиришга салмоқли ҳисса қўшиб келмоқда. Давлатимиз раҳбарининг 2017-йил 12-январдаги «Ургут», «Ғиждувон», «Қўқон» ва «Ҳазорасп» эркин иқтисодий зоналарини ташкил этиш тўғрисида»ги фармони мамлакатимиз иқтисодий салоҳиятини янада юксалтиришда муҳим қадам бўлди.

Хулоса килиб шуни айтиш лозимки, миллий иқтисодиётда инновацион иқтисодиётни шакллантириш. Барча жабхаларда самарали амалга ошириш тарққиёт сари етаклайди. Бугунги кунда хизмат соҳасида инновацияни ташкил етиш инсон манфаатлари учун хизмат қилади. Таъбир жоиз бўдлса шуни айтиш лозимки, бизнинг бош мақсадимиз ҳам инсон турмуш фаровонлиги. Хизмат сохасини ривожлантириш чет эл андозаларига мос ҳолда ташкил етиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хизмат кўрсатиш соҳасида инвеститсион мухитга мойиллиги туфайли бугунги кундаги давлат дастурида хам инвеститсион ҳолатни яхшилаш кўзда тутилган. Хизмат кўрсатиш сохасида чет ел инвесторларини жалб қилиш орқали хизмат кўрсатиш соҳаси ривожлантирилади.

Н.У.Мурадова – ассистент СамИЭС,
Х.А.Бегматов – студент II курса, СамИЭС

ЗНАЧИМОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ НА РЫНКЕ ЛИЗИНГА

Статья раскрывает потребность использования потенциала рынка лизинговых услуг с учетом инструментами маркетинга. Кроме того, в ней отражены уникальные аспекты лизинговых услуг, позволяющие способствовать решению инновационных лизинговых вопросов.

Ключевые слова: рынок лизинговых услуг; инновационные инвестиционные проекты; инновационные лизинговые услуги; лизинг.

«…систематический анализ рынка и изучение спроса на инновационную продукцию (работы, услуги), оценку срока окупаемости, рентабельности и рисков, связанных с коммерциализацией инновационных продуктов» [1] . Тогда еще перспектива формирования инновационной системы страны отмечался первым президентом РУз И.А.Каримовым. Несомненно, современный этап мирового экономического развития требует формирование экономических стратегий, основанную на распространение и использование модернизированных подходов.

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию механизмов внедрения инноваций в отрасли и сферы экономики» №ПП-3698 от 7 мая 2018 г. www.lex.uz – национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. Дата обращения 20 августа 2018 года.

Одним из востребованных финансовыми услугами является лизинг, так как ее наличие дает массу благоприятных условий развития привлечения капитала и конкурентоспособности. Несомненно, что формирование и развитие рынка лизинговых услуг требует максимального удовлетворения ожиданий как лизингополучателя, так и лизингодателя. В связи с этим, в последнее время можно заметить тенденцию инновационных подходов перспективного развития рынка лизинговых услуг. Данная тенденция была замечена и подчеркнута указом Президента РУз «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»: «…расширение объемов страховых, лизинговых и иных видов финансовых услуг за счет внедрения их новых видов и повышения качества, а также развитие фондового рынка как альтернативного источника привлечения капиталов и размещения свободных ресурсов предприятий, финансовых институтов и населения»[1].

Наблюдая тенденции развития рынка финансовых услуг замечется, что процесс оказания инновационных лизинговых услуг становится менее предсказуемым. А это, нередко негативно влияет не только на устойчивость лизингополучателей, но и на уязвимость всего лизингового отношения лизингополучателя. Поэтому постоянное изучение лизингового рынка и лизинговых сделок, хорошее знание работниками лизингодателей специфики создаваемых ими элементов лизинга или услуг, умелое прогнозирование развития и определение перспектив развития рынка приобретают особую актуальность. Большое значение при этом имеет учет внешних и внутренних факторов, влияющих на уровень уязвимости лизинговых операций лизингополучателей.

Механизм регулирования лизинговых операций в Узбекистане во многом связан с уровнем развития маркетинга и устойчивой концепции маркетингового исследования в реальном секторе экономики, способным снизить риски заемщиков на разных стадиях реализации инновационно-инвестиционных проектов. Устойчивая концепция, которая должна поддерживаться составителями лизинговой сделки, должна составляться в зависимости от их финансового состояния. Поэтому реализация комплекса маркетинговых исследований в рамках осуществляемых лизинговых сделок должна базироваться на комплексе взаимосвязанных эффективных действий лизингодателя и лизингополучателя.

Особенности эффективных их действий заключается в: необходимости, наряду с мониторингом и контролем его реализации, создания условий для рентабельной работы лизинговых компаний в рамках лизингового рынка; обеспечении их ликвидности; максимальном удовлетворении потребностей лизингополучателей, структуре и качестве лизинговых услуг в целях достижения максимальной устойчивости деловых связей между лизингодателем и лизингополучателем.

[1] Указ Президента РУз «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70, № 20, ст. 354.

В условиях усиливающейся конкуренции усилия лизингодателей должны быть направлены на своевременное налаживание каналов сбыта предмета лизинга. При этом лизинговые компании должны как можно шире использовать как собственные, так и несобственные каналы сбыта предмета лизинга.

Активная деятельность лизинговой компании по продвижению предметов инновационного лизинга согласно лизинговой сделки или услуг будет предопределяться:

- значимостью предоставляемых инновационно-лизинговых услуг для лизингополучателей;
- ценами на предметы инновационного лизинга; удобством использования предмета инновационного лизинга или услуг;
- качеством и уровнем устойчивого обслуживания предмета инновационного лизинга или услуг;
- репутацией и имиджем лизинговой компании в деловом мире.

В целях удержания и увеличения доли на рынке лизинговых услуг или услуг специалистам лизинговой компании необходимо осуществлять постоянную сегментацию рынка лизинговых услуг путем их анализа и возможных клиентов по определенным характеристикам, которые предлагают отдельным сегментам востребованные ими оборудования или лизинговые услуги и занимаются расширением их видов и повышением качества. В основе сегментации рынка лизинговых услуг должны лежать содержание и характер создаваемых лизинговых услуг, клиентурный признак (юридические и физические лица, предприятия), а также географическая, демографическая, психокультурная и поведенческая сегментация.

Таким образом, качественное формирование инновационных лизинговых сделок должно начинаться с принятия взвешенных бизнес-планов, которые характеризуют не столько виды или этапы деятельности лизингополучателя, сколько его цели и стратегию освоения рынка лизинга или услуг. Если лизингополучатель выбрал их правильно, он может использовать самые разные формы организации работы по реализации лизингового оборудования в зависимости от конкретных внутренних обстоятельств и тех внешних условий, в которых осуществляет свою деятельность лизингополучатель.

Маркетинговое исследования инновационного развития лизинговых услуг, как правило, исходят из разграничения двух исторически сложившихся и хорошо изученных моделей использования имущества на условиях аренды и на условиях лизинга. При этом отождествление аренды с лизингом приводит к резкой поляризации взглядов на проблему выбора пути развития и характер проводимых мероприятий модернизации экономики.

Список использованной литературы:

1. Концепция дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране. Доклад Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 12 ноября 2010 года. www.press-service.uz – официальный сайт пресс-службы Президента Республик Узбекистан. Дата обращения 3 октября 2017 года.
2. Указ Президента РУз «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70, № 20, ст. 354.

Б.О.Дусматов – СамИСИ, “Иқтисодиёт” кафедраси ассистенти,
С.Т.Сайдуллаев – СамИСИ талабаси

МАМЛАКАТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

Инновация – янгиликларни амалий (илмий-техник) ўзлаштириш натижасида янгилик киритишни англатиб, инновацияларга янги маҳсулотлар, илм талаб технологик жараёнлар маҳсулот ва хизматлар модификацияси (ижтимоий инновациялар) киради.

Маълумки, бир сифатдан бошқасига ўтишда энергия, вақт, молиялар ва шунга ўхшаш ресурслар сарфини талаб этади. Янгиликларни инновацияларга ўтказиш жараёни ҳам асосан инвестиция ва вақт каби турли ресурлар сарфи орқали амалга оширилади. Бозор шароитларида иқтисодий муносабатлар тизими сифатида, талаб, таклиф ва баҳо шаклланадиган доирада товарлар олди сотдисида янгилик ва инвестициялар асосий инновацион фаолият компенентлари булиб иштирок этади. Янгилик новациялар бозорини, инвестициялар-капитал бозорини (инвестициялар), янгиликлар (инновациялар)- соф рақобат бозорини шакллантиради, улар 1- чизмада келтирилган.

Бозор шароитларида ишлаб чиқариш самарадорлигини, унинг рақобатбардошлигини оширишнинг обьектив зарурати, хўжалик тизимларининг моддий асосини илмий техник янгилаш мотивацияси бўлиб хизмат қилади. Унинг намоён бўлиши инновацион имкониятларни амалга оширишнинг юқори потенциал самародорлиги билан ифодаланган. Шунинг учун давлатнинг бирламчи вазифаси корхонани иқтисодий ўсиш омили сифатида инновацион фаолиятга чорловчи асосий ички ва ташқи мотивларни яратиш ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш корхонасида инновацион фаолиятни амалга ошириш учун турли ресурслар йиғиндиси сифатида тавсифланучи корхонани инновацион салоҳияти мавжуд бўлиши зарур, шунингдек:

-интелектуал (технологик хужжат, патентлар, лицензия, янгиликларни ўзлаштириш бўйича бизнес-режа, корхонани инновацион дастури);

-моддий (тажриба-анжомли асос, технологик жихозлар, майдонлар ресурси);

-молиявий (шахсий, қарзга, инвестицион ва бошқалар);

-кадрларга оид (етакчи-новатор, персонал,инновациялардан манфатдор; ходимларнинг ИТИ ва ОТМлар билан ҳамкорлик қилиши ҳамда шахсий алоқалари);

-инфратузилмали (янги маҳсулот маркетинг бўлими, патент-ҳуқуқий бўлим, ахборот бўлими ва бошқа).

Ишлаб чиқариш самарадорлиги ўзининг техник даражасига боғлиқлиги бозор муносабатлари аксиомаси ҳисобланади. Объектив тарзда рақобат кураши ҳам бозор муносабати аксиомасидир. Объектив рақобатши кураши ишлаб чиқаришнинг техник технологик даражасини оширучи инновацион фаолиятнинг асосий рағбати ҳисобланади.

Бозор иқтисодиётининг муҳим қонуниятини қуйидагича таърифлаш мумкин: ишлаб чиқаришнинг қиёсий технологик даражасини ошириш унинг рентабиллиги ҳамда товар ва хизматлар рақобатбардошлигини мос равишда ошириш шароитларини яратади. Инновацион сустликни намоён этувчи саноат корхонаси рақобат курашига дош бера олмайди.

Корхонанинг инновацион салоҳияти замирида юқори инновацион фаоликни максимал даражада генерациялаш имкониятини тушуниш лозим. Бунда инновацион фаоллик корхона томонидан инновацион фаолиятни шиддат билан амалга ошириш сифатида кўриб чиқилади.

Ҳозирги иқтисодиётнинг амал қилиши инновацион салоҳият ва ундан фойдаланишда олинган салоҳият ва иқтисодий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш омилларига асосланади. Шунинг учун ҳозир жаҳонда етакчи ўринни эгаллашда юқори инновацион даражага эга бўлиш талаб этилади. Шу сабабли маҳаллий инновацион соҳанинг етарлича ривожланмагани қайд этиш мумкин. Турли рейтинг тадқиқотларига кўра, у технология инновацияларни ишлаб чиқиш ва жорий этишни амалга оширувчи умумий инновационлик, корхоналар сони, инновацион маҳсулот ҳажми бўйича жаҳоннинг ривожланган мамлакатларидан ортда қолади. Бундан маҳаллий иқтисодиётда рақобатбардошликни таъминлаш учун, нафақат шахсий инновацион соҳани ривожлантиришдан орқада қолишни йўқ қилиш, балки энг қисқа муддатларда уни етакчилар қаторига чиқариш талаб этилади. Бу вазифа иқтисодиётнинг ҳамма босқичлари, авваламбор, инновацион ютуқлар асосида рақобатбардош ишлаб чиқариш ва турмушни таъминловчи жамият, иқтисодий ва ижтимоий фаровонликни яратиши лозим бўлган саноат, унинг корхоналари учун янада муҳим ҳисобланади.

Бугунги кунда саноат баъзи мавқеини йўқотди, меҳнат унумдорлиги бўйича етакчи мамлакатлардан ортда қолмоқда, ноодий иқтисодий ҳолатда бўлади, лекин у кучли илмий инновацион ишлаб чиқариш салоҳияти ҳисобланади ҳамда уни модернизацияланган иқтисодиёт шароитларида жадал сурьатларда фаоллаштиришга талаб яққол намоён бўлмоқда.

Инновацион ва шу тариқа ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш

асосида масалаларни ҳал этиш саноатдан, ҳар қачонгидек, бозор тури бўйича модернизацияланган иқтисодиёт билан очилган имкониятлар, интелектуал мулк захираси, ресурсларини максимал тарзда харакатга келтиршни талаб этади.

Мазкур босқичда саноат миқиёсида уни бозор иқтисодиётига фаол тарзда киритишни кўзда тутувчи инновацион фаолиятни функционал таркибини ривожлантиришнинг барча шарт-шароитлари мавжуд. Инновацион ривожланиш муамоларини ҳал этиш унинг инсонлар фаровонлигига таьсирини кучайтириш масалаларини ҳал этиш билан боғланади. Шунинг учун инновацион жараёнларни, биричидан, ҳозирги вақтда мавжуд бўлган ривожланиш турлари бўйича узилишга йўл қўймайдиган, иккинчидан инсонларнинг турмуш сифатини ошириш бўйича ортиб борувчи натижага келтирувчи иқтисодий ва ижтимоий жараёнлар билан уйғунликда самарадорликни таъминлаш борасидаги тадқиқотлар ва чора-тадбирлар муҳим ҳисобланади. Ушбу масалаларни ҳал этиш, ривожланишдан манфаатдор бўлган фойдаланувчилар учун ҳозирги иқтисодиёт ва жамият ривожи қонунларини чуқур билишга асосланган ишлаш усули ва мотивацияларидан фойдаланишга эҳтиёж ва ресурсларни ривожлантириш йўналишлари бўйича оқилона мос келувчи инновацион фаолиятни режалаштиришга янги ёндашувларни кўзда тутади.

Ушбу барча масалалар, модернизацияланувчи иқтисодиёт концепцияси ва талаблари даражасида уларнинг ечимини таъминлайдиган ҳамда бунга самарали фойдаланиши нафақат унинг ривожланиши, балки бутун миллий иқтисодиёт ривожига боғлиқ бўлган саноатнинг инновацион салоҳиятини сарбар эта олувчи бошқарув муамоси билан боғлиқ.

Мазкур масалаларни ечими саноат учун замонавий назария, услубият ҳамда унинг инновацион соҳаси ривожини бошқариш усулини яратиш имконини берувчи илмий билимларни шакллантиришни долзарблаштиради. Ушбу тадқиқотдан кўзланган мақсад ҳам уларни ишлаб чиқишдан иборат. Мақсаддан келиб чиққан ҳолда қуйидаги вазифалар белгилаб олинган:

1.Ҳозирги иқтисодиётда инновацион фаолият ва инновацион бошқарувни тадқиқ этишнинг долзарб жиҳатларини аниқлаш (инновациялар назариясининг тушунча аппарати, назарий базис, ривожланиш ресурсини шакллантиришга илмий ёндашувлар);

2. Инновацион жараёнларнинг уларга ёндош иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш жараёнлари билан уйғунликда тизимли комплекс ёндашиш услубиятини шакллантириш (тарихий жиҳат ривожланиш турлари синтезининг концептуал модели, мураккаб тузилган ривожланиш жараёнларини амалга ошириш шартлари);

3. Саноатда модернизацияланган иқтисодиётнинг хусусиятларини акс этирувчи инновацион фаолиятни бошқариш услубиятини ишлаб чиқиш (бошқарув вазифаларини таъминлашдаги янгиликлар, функционал-жараён-ли бошқариш назарияси концепцияси, мотивациянинг тармоқли модели);

4. Бозор иқтисодиётига унинг диверсификациясини фаоллаштирувини кўзда тутувчи инновацион фаолиятни бошқариш услубиятини расмийлаштириш (амалий мазмунийликни баҳолашнинг иқтисодий-математик модели, фаолият турлари бўйича ресурсларни тақсимлаш, инновацион жараёнлар иштирокчиларининг манфаатлари мувозанатига эришиш);

5. инновацион жараёнлар вазифалари ва унда иштирок этувчи хўжалик юритувчи субьектлар ва давлатнинг стратегик мақсад ва эҳтиёжларини синтезловчи инновацион фаолият бошқарувини ташкил этиш бўйича ўриндош режалаштириш услубиятини ишлаб чиқиш;

6. корхонанинг ҳаётийлик даври ва унинг инновацияларини таъминловчи оптималлаштириш услубиятини шакллантириш;

7. ҳаётийлик даври кўрсаткичлари бўйича самарага эришишга мўлжалланган инновацион жараёнларни бошқариш услубиятини ишлаб чиқиш;

8. бозор шароитларига мослаштрилган, саноатда инновацион инвестициялаш билан бошқариш услубиятини ишлаб чиқиш.

Саноат корхоналарининг инновацион сиёсати доирасида техник такомиллаштириш, илмий –техник ва ташкилий бошқарув инновацияларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш орқали амалга оширилади. Саноат корхоналарида уларнинг корпоратив бирлашмаларининг турли шаклларида барқорарлаштиришнинг якунланиши ва иқтисодий фаолликнинг бошланғич ўсиш даврида муайян саноат обеьктларининг модернизацион ва инновацион сиёсати вариантлари мазмуни ва алоҳида йўналиш ҳамда босқичларни шиддатли амалга ошириш бўйича фарқланади.

О.Ю.Ашурова, Х.Ю.Абдуқодиров, Ш.Т.Очилов – Самарқанд молия ва иқтисодиёт коллежи ўқитувчилари

ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМИ

Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишини давлат томонидан қўллаб қувватлаш ва тартибга солиш жаҳон амалиётидан келиб чиқиб ҳамда республикамизга хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Республикамизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши давлат томонидан бевосита, билвосита ва ташқи иқтисодий дастаклар асосида тартибга солинади. Бунда бевосита таъсир қилиш усулларига қонун ва бошқа ҳуқуқий-меъёрий хужжатларни қабул қилиш асосида уларнинг фаолият юритиши қоидаларини яратиш киради.

Давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг билвосита таъсир қилиш усулларига иқтисодий дастаклар ҳамда давлат имтиёзлари орқали таъсир кўрсатиш киради. Иқтисодий восита, дастаклар орқали тартибга солиш ўз ичига солиқ тизими, давлат бюджети, пул-кредит тизимлари ҳамда нарх орқали тартибга солишни олади. Давлат имтиёзларига қисман ёки тўлиқ солиқдан озод қилиш, субсидиялар бериш, кредит ва божхона имтиёзлари киради. Ташқи иқтисодий усулларга тадбиркорларга қўшма корхоналар тузиш, ўз маҳсулотларини экспорт қилишга кўмаклашиш ва бошқалар киради.

Давлатнинг кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожланишини тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашдан кўзланган мақсади иқтисодиётнинг мутаносиб, барқарор ривожланиши, аҳолининг иш билан бандлигини таъминлаш асосида турмуш даражаси ва сифатини оширишдир.

Давлат томонидан соғлом рақобат муҳити, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун қулай ишбилармонлик муҳити ва кенг эркинликлар яратилиши, тадбиркорлар фаолияти давлат бошқаруви ва назорат органларининг ортиқча, ноўрин аралашувини қисқартириш, ортиқча маъмурий бюрократик тўсиқларнинг бартараф этилиши муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистонда давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб қувватлаш тизими яратилган бўлиб, у ўз ичига қуйидагиларни олади:

-КБХТ субъектларини рўйхатга олиш ва тугатиш тизими;

-солиқ имтиёзлари тизими;

-имтиёзли кредитлаш тизими;

-божхона тизими;

-давлат харид тизими;

-кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш;

-КБХТ фаолияти эркинликлари ва кафолатларини ҳуқуқий \ҳимоялаш тизими;

-суғурталаш тизими;

-хорижий инвестицияни жалб этиш тизими;

-ахборот билан таъминлаш, консультатив-ҳуқуқий кўмак бериш тизими;

- моддий-техника, хом ашё ва хизматлар таъминоти тизими;

-ташқи иқтисодий фаолиятни рағбатлантириш.

Тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан рағбатлантириш:

а) тадбиркорлик фаолиятига инвестицияларни, замонавий технологиялар ва ускуналарни жалб этиш, шунингдек, бозор инфратузилмаси институтларини ривожлантириш учун шароитлар яратиш;

б) экспорт-импорт операциялари, халқаро кўргазмалар ва ярмаркаларда, ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги дастурлар ва лойиҳаларни амалга оширишда тадбиркорлик фаолияти субъектларининг иштирокини кенгайтириш чора-тадбирларини кўриш;

в) тадбиркорлик фаолияти субъектларини уларнинг самарали фаолият

кўрсатиши учун зарур бўлган ҳуқуқий, иқтисодий, статистик, ишлаб чиқариш технологик, илмий-техник ва бошқа ахборот билан таъминлаш;

г) солиқлар, бошқа мажбурий тўловлар ва тарифлар бўйича имтиёзлар ҳамда преференциялар белгилаш орқали амалга оширилади.

Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишида мустаҳкам қонунчилик ва ҳуқуқий базанинг шакллантирилиши, яратилган турли имтиёзлар ва қулай шарт – шароитлар муҳим аҳамият касб этади. Бу борада солиқ юкини камайтириш, солиққа тортиш тизимини соддалаштириш ва унификация қилиш масалалари муҳим ўрин тутади. Мамлакатимизда 1993-2018 йилларда солиқ юки ЯИМга нисбатан 45%дан 12%га камайтирилди. Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи ставкаси 1995 йилги 38%дан 2018 йилда 7.5%га пасайтирилди. Шу билан бирга, давлат томонидан ўз маҳсулотларини экспортга йўналтирувчи корхоналарга ҳамда инвестицияларни жалб этувчи ва янги маҳсулот ишлаб чиқарувчи кичик бизнес субъектларига бир қатор имтиёзлар яратилди. Солиқ юки ва солиқ ставкаларининг камайтирилиши кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини янада рағбатлантиради ва қўшимча даромад олишини таъминлайди.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожи учун тижорат банклари томонидан ажратилган кредитлар ҳажмининг ошиб бориши ҳам муҳим роль ўйнамоқда. Ўзбекистон тижорат банклари томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига ажратилган кредитлар 2010 йилда 2690.2 миллиард сўм, 2011 йилда 4200 миллиард сўм, 2012 йилда 5346 миллиард сўм, 2013 йилда 6982 миллиард сўм, 2014 йилда 9200 миллиард сўм, 2015 йилда 12112.6 миллиард сўмдан ошиб кетди. Бу 2014 йилга нисбатан 32.3% га кўпдир. 2017 йилда 15.9 триллион сўмлик кредит ажратилди ва ўсиш 2015 йилга нисбатан 1.3 баробарни ташкил қилди. Жумладан, қиймати 3.3 триллион сўмлик микрокредитлар ажратилди, халқаро молия институтларининг 206.7 миллион АҚШ доллар миқдоридаги кредит линиялари ўзлаштирилди.

Хусусан, оилавий тадбиркорлик ва ҳунармандчиликни ривожлантириш учун 367.2 миллиард сўм, хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантириш учун 1647.0 миллиард сўм, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарга 2752.6 миллиард сўм, ноозиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарга 2993.0 миллиард сўм, касб-ҳунар коллежлари битирувчиларининг бизнес лойиҳаларини молиялаштириш учун 362.1 миллиард сўм миқдорида кредит маблағлари ажратилган. 2017 йилда 2011 йилга нисбатан микрокредит олган коллеж битирувчилари сони 3 баробардан зиёдга, ажратилган микрокредитлар миқдори эса 8.9 баробарга ошган.

Тижорат банклари томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига берилган ушбу кредитлар 2017 йилда иқтисодиётимизнинг турли соҳаларида 200 мингдан зиёд иш ўринлари ташкил этишда муҳим омил бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида “Конституциямизда муҳрлаб қўйилган “Ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли” ҳамда “Хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби сиз ва давлат ҳимоясида” деган нормаларни амалда рўёбга чиқариш мақсадида янги институт- Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил институти таъсис этилди” деб таъкидлади.

Эндиликда кичик хусусий тадбиркорлик корхоналарининг ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишлари учун молиявий ресурслар билан таъминлашларида қулай шароитлар яратиш мақсадида республика банк тизимида рақобат муҳитини шакллантириш, кредит олиш шартларини бирмунча юмшатиш, хорижий инвестицияларни янада кўпроқ жалб қилиш лозим бўлади. Моддий техника, хом ашё ресурслар бозорини шакллантириш, биржа ва биржадан ташқари савдосини ривожлантириш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда рақобат муҳити шаклланаётган ҳозирги шароитда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари ўз фаолиятларида фақат имтиёзлар ва преференцияларга суяниб қолмасдан, ўз имконият ва салоҳиятларига таяниб, рақобатбардошликни оширишга интилишлари мақсадга мувофиқ бўлади, Шу боисдан, ўз кучи, маблағи, имконият ва салоҳиятига таяниб, фаолият юритадиган оилавий тадбиркорлик корхоналари истиқболда рақобатбардош хўжалик субъектлари сифатида миллий иқтисодиёт ривожланишида муҳим роль ўйнаши мумкин.

Ш.М.Латипова – СамИСИ ўқитувчиси,
Ф. Муродуллоев– СамИСИ, МК-117 гуруҳ талабаси

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА ЛИЗИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Миллий иқтисодиётда ишлаб чиқарувчилар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, фан-техника тараққиёти ва инновацион жараёнларни жадаллаштиришда лизинг хизматларининг аҳамияти ниҳоятда катта. Шу сабабли сўнгги йилларда хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятига инвестицион ресурсларни жалб қилишнинг ноанъанавий усули ҳисобланган лизинг хизматларига алоҳида аҳамият берилиб, ишлаб чиқаришни ривожлантириш, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш зарурияти лизинг хизматлари ҳажмини оширишни талаб этмоқда.

Лизинг хизматлари инвестиция бозорида маблағларни аккумуляция-лаш, ишлаб чиқаришни техник жиҳатдан қайта қуроллантириш имконият-

ларини кенгайтириш, айниқса хўжалик субъектлари фаолиятини инновацион ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бунинг асосий сабаби сифатида хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида дастлабки капиталнинг етарли бўлмаслиги шароитида уларга лизинг хизмати орқали ўз фаолиятларини бошлаш ва ривожлантириш имкониятининг яратилишини қайд этишимиз мумкин. Гарчи миллий молия бозорини ривожлантиришга берилаётган эътибор йил сайин ошаётган экан, аммо лизинг хизматларининг ЯИМдаги улушининг 1,0 фоизни ҳам ташкил этмаётганлиги бу соҳани тараққий эттириш учун керакли шарт-шароитлар яратишни талаб этади.

Молиялаштиришнинг ноанъанавий шаклларидан бири сифатида лизинг хизмати ўз олдига қуйидаги мақсадларни амалга оширади:

- лизинг бўйича давлат инвестиция сиёсати самарадорлигини такомиллаштириш ва ошириш;
- саноат, ишлаб чиқариш ва транспорт инфратузилмасини ривожлантириш;
- мамлакат иқтисодиётига ташқи ва ички инвестицияларни жалб этиш ва жойлаштириш бўйича молиявий институтлар билан ҳамкорлик қилиш.

Ушбу мақсадларга эришиш учун лизинг хизмати ҳам анъанавий, ҳам сифат жиҳатдан янги бўлган вазифаларни бажаради. Лизинг хизматининг анъанавий вазифаларига молиялаштириш, ишлаб чиқариш ва сотиш вазифалари кирса, жонлантириш, такрор ишлаб чиқариш, суғурта ва инновация вазифалари сифат жиҳатдан янги вазифалар бўлиб ҳисобланади.

Юқорида келтирилган мақсадларга эришиш учун 2017 йилда миллий лизинг бозоридаги ҳолат олдинги йилларга нисбатан ижобий ўзгаришга эга бўлди. Хусусан, янги лизинг битимларининг ҳажми 1,5 трлн.сўмни ташкил этди, лизинг амалиётларининг умумий портфели эса қарийб 2,7 трлн.сўмга етди[1].

2017 йилнинг биринчи ярим йиллиги якунлари бўйича янги лизинг битимларининг ҳажми ўтган йилнинг шу даври билан солиштирганда 65,1% га ошиб, 710,9 млрд.сўмни ташкил қилди. Иккинчи ярим йилликда ҳам ўсиш тенденцияси сақланиб қолди ва 2017 йил якунлари бўйича ушбу ҳажм 59,6% га ўсиб, 1 трлн. 553 млрд.сўмни ташкил қилди, бу 2016 йилга қараганда 581 млрд.сўмга кўп (1-диаграмма).

2017 йилда тузилган лизинг битимлари сони ҳам Ўзбекистондаги лизинг фаолияти тарихи давомидаги рекорд кўрсаткичга етди ва 7 729 тани ташкил қилди. Шундай қилиб, тузилган лизинг битимлари сонининг тузилмаси қараб чиқиладиган бўлса, битимларнинг 85% ёки 6 592 таси қишлоқ хўжалик секторига тўғри келади, улардан 6 575 таси «O‘zagrolizing» ДЛК томонидан тузилган (2-диаграмма).

[1] Ўзбекистон Лизингга берувчилар уюшмаси маълумотлари.

1-диаграмма

Янги лизинг битимлари ҳажмининг ўсиш динамикаси (млрд.сўмда)



2-диаграмма

Янги лизинг битимлари сони динамикаси



Янги лизинг битимлари ҳажмининг ўсиш тенденцияси асосан лизинг компаниялари доирасида кузатилиб, лизинг компаниялари ва тижорат банклари орасидаги тақсимоти қуйидагича бўлди (1-жадвал):

1-жадвал

Лизинг битимлари ҳажмининг лизинг компаниялари ва тижорат банклари орасида тақсимланиши

	2013	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**
Лизинг компаниялари					
- мулк қиймати, млрд. сўм	560,2	592,6	668,2	630,8	963,8
-улуши	69,6%	71,7%	78,5%	64,8%	62,0%
Банклар					
- мулк қиймати, млрд. сўм	244,9	233,6	183,0	342,3	589,8
-улуши	30,4%	28,3%	21,5%	35,2%	38,0%
Жами	**805,2**	**826,2**	**851,2**	**973,1**	**1 553,6**

Аммо шунга қарамай, бугунги кунда молия бозорида лизинг операцияларининг ҳажми ҳамда мамлакат ЯИМдаги улуши пастлигича

қолмоқда. Лизинг хизматлари рақобатни ривожлантиришга, асосий фондларнинг янгиланишини тезлаштиришга ижобий таъсир кўрсатар экан, бу соҳани ривожлантириш учун қуйидаги таклифларни амалиётда қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади деб ҳисоблаймиз:

- лизинг объекти сифатида берилаётган жиҳозлар, ҳар хил маиший техника воситалари, автомототранспорт воситаларидан кенг даражада фойдаланишлари учун жисмоний шахсларга имконият бериш лозим. Бунинг учун эса қонунчиликка ўзгартириш (“Лизинг тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни) киритиш лозим;
- келажакда лизингга олувчилар талабини қондириш мақсадида лизинг операциясининг барча босқичида лизинг компанияси мутахассислари томонидан уларнинг хатти-ҳаракатини кузатиб бориш;
- лизингга олувчиларни рағбатлантириш механизмини ишлаб чиқиш;
- лизинг компанияларига молиявий ресурсларни жалб қилишда хорижий мамлакатлар амалиётидан фойдаланиш. Бу борада Ирландия амалиёти қўл келиши мумкин. Ирландияда тижорат банкларининг шуъба бўлими сифатида лизинг компанияларига аҳолидан омонатларни жалб қилиш орқали лизинг операцияларини молиялаштириш имконияти яратиб берилган. Аҳолига омонатларни қайтариш қисман банк ва лизинг объекти ҳисобига амалга оширилиши кафолатланади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, юқорида келтирилган таклифларни лизинг соҳасида қўллаш молиялаштиришнинг ноанъанавий турини ривожлантиришга хизмат қилади.

M.Sh.Bektemirov – O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi magistranti

ISLOM IQTISODIYOTI, ISLOMIY MOLIYA SANOATI VA UNING JAHON MIQYOSIDAGI O‘RNI

Oxirgi bir necha o‘n yilliklarda butun dunyodagi musulmonlar jamoasi o‘z hayotlarini islomiy qonun-qoidalar asosida barpo etishga astoydil harakat qilmoqda. Dubaydagi Al-Huda Center Of Islamic Banking & Economics (CIBE) Boshqaruv Kengashi kotibi Muhammad Zubair Mughalning tadqiqotlariga ko‘ra, Islomiy moliya aktivlarining o‘sish sur’ati yiliga 10-15% ni tashkil etib kelmoqda va 2020-yilda ularning jami hajmi 3 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda[1].

Islom iqtisodiyoti – islom shariati ahkomlarga asoslangan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, uning a’zolari orasidagi iqtisodiy munosabatlarni belgilab beradigan hamda tartibga soladigan yaxlit tizimdir.

O‘tgan asr musulmon iqtisodchi olimlari islom iqtisodiyotiga quyidagi ta’riflarni beradilar:

[1] http://www.alhudacibe.com/

S.M.Hasan uz-Zaman: Islom iqtisodiyoti bu shariat hukmlari va qonun-qoidalarining amalga tatbiq etilishi bo‘lib, u insonlarning talablarini qondirish uchun iqtisodiy resurslardan noto‘g‘ri va isrofgarchilik bilan foydalanishning oldini oladi. Shuningdek, ularni Alloh va jamiyat oldidagi burchini bajarish uchun qodir qilib qo‘yadi. (Hasan uz-Zaman, 1984, p.52).

M.A.Mannan: Islom iqtisodiyoti bu insonlarning Islom qadriyatlari bilan sifatlangan iqtisodiy muammolarini o‘rganadigan ijtimoiy ilm hisoblanadi. (Mannan, 1986, p. 18).

Xurshid Ahmad: Islom iqtisodiyoti bu iqtsodiy muammoni tushunish maqsadida tizimli harakat qilish va bu muammoga insonning islom dini jihatidan bo‘lgan munosabatidir. (Ahmad, 1992, p., 19).

Islomiy moliya sanoati shakllanganiga yarim asrdan oshgan bo‘lishiga qaramay, bu sanoat o‘zining rivojlanish darajasi va qamrov ko‘lamining kengayishi bilan rivojlangan mamlakatlarning ham e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Global miqyosda, Islomiy moliya sanoati hajmi ICD Thomson Reuters Islomiy Moliya Rivojlanish indikatorining ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda 2,417 trillion AQSh dollariga teng bo‘ldi va bu ko‘rsatkich 2022-yilga borib 3,8 trillion AQSh dollariga erishishi kutilmoqda. Islomiy moliya sanoati butun dunyo moliya sanoatining 1 foizinigina tashkil etishiga qaramay, so‘nggi 30 yil davomida yuqori o‘sish ko‘rsatkichlarini qayd etdi.



1-rasm. Islomiy moliya sanoati aktivlarining o‘sishi[1]

Islomiy moliya sanoati aktivlari o‘sishi 2013-yilda biroz sustlashgan bo‘lsada (-2,5%), 2014-yil oxirlaridan boshlab bu ko‘rsatkich yana yaxshilana boshladi. 2014-yilda o‘sish 13,7% ni, 2015 va 2016-yillarda mos ravishda 6,8 va 6,9 % ni qayd etdi. Mazkur Report hisob-kitoblariga ko‘ra, 2022-yilga qadar Islomiy moliya sanoati yiliga o‘rtacha 9,5% dan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ladi. An’anaviy moliya sanoatini Islomiy moliya sanoati bilan

[1] ICD Thomson Reuters IFSR asosida tayyorlandi.

solishtiriladigan bo‘lsa, Islomiy moliya sanoati o‘zining yuqori sur’atlarda jadallik bilan rivojlanish xususiyatiga ko‘ra % ko‘rsatkichlari jihatidan ancha ustunlik qiladi. Islamic Finance Bulletinning 2016-yil mart oyidagi hisobotlarida ta’kidlanishicha, an’anaviy moliya sanoati 2011-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida yiliga 1,5 % o‘sishga erishdi, xolos.

Islomiy moliya sanoati aktivlari duyoning 67 mamlakatini qamrab olgan bo‘lib, Eron, Saudiya Arabistoni va Malayziya jami aktivlarning 65% iga yoki 1,4 trillion AQSh dollari qiymatidagi qismiga egalik qiladi.



2-rasm. Islomiy moliya sanoati aktivlariga egalik qiluvchi top 10 mamlakat, 2016-yil (mln. AQSh dollarida)[1]

2016-yil yakunlariga ko‘ra, Eron Islomiy moliya sanoati aktivlariga egalik qilish borasida peshqadamlikni Saudiya Arabistonidan tortib oldi. Bungacha Saudiya Arabistoni yetakchilik qilib kelayotgan edi. Malayziya 472,654 mlrd. AQSh dollarlik aktivlarga egaligi bilan kuchli uchlikni yakunladi. BAA, Quvayt, Bahrayn, Indoneziya, Turkiya va Iroq keyingi pog‘onalardan joy olgan bo‘lsa, kuchli 10 likning oxirgi pog‘onasi 30,87 mlrd. AQSh dollarlik aktivlari bilan Bangladeshga nasib etdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Islomiy moliya sanoati nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki Yevropa hamda dunyoning boshqa hududlarida ham o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Hatto, islom iqtisodiyotini axloqiy (moral, ethical) moliyalash tizimi sifatida ham qabul qilish holatlari kuzatilmoqda.

[1] ICD Thomson Reuters IFSR asosida tayyorlandi.

Н.Э.Эрназаров – СамИСИ ассистенти,
Ш.Н.Болтабоев – СамИСИ, Мк-317 гуруҳ талабаси

МАМЛАКАТИМИЗДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК КОРХОНАЛАРИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Инновациялардан фойдаланиш асосида Ўзбекистон иқтисодиётнинг барча соҳаларини ривожлантириш болзарб бўлса, шу жумладан қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларнинг фаоллашувини таъминлаши зарур. Ушбу масалаларга Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича Ҳаракатлар стратегияси туғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармонида хам алоҳида эътибор қаратилган[1].

Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг инновацион йулига утиш нафақат Ўзбекистон иқтисодиётининг қишлоқ хўжалиги тармоғидаги мавжуд муаммоларни, балки ушбу тармоқ олдида турган асосий вазифаларни бартараф этиш зарурлиги билан боғлиқ. Ҳозирги шароитда инновацион фаолият қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий омили ҳисобланади. Мазкур жараёндан имкон қадар купроқ фойдаланиш мамлакатимизда агросаноат тармоғининг барқарор ривожланишини таъминлашнинг ягона йулидир. Ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар жадаллашиб, жахон иқтисодиётининг глобаллашуви кучайиб бораётган шароитда мамлакатимиз қисқа муддатда қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг инновацион йулига утишни амалга ошириши, иқтисодиётнинг ушбу стратегик ахамиятга эга булган тармоғини замон талабларига жавоб берадиган янги техник-технологик асосда тиклаши лозим. Акс ҳолда қишлоқ хўжалиги тармоғи ривожланишдан ортда қолади ва ўзининг рақобатбардошлигини таъминлай олмайди.

Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги, мамлакатимизнинг иқтисодий ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, нафақат қишлоқ ахолиси, балки мамлакатимиз аҳолисининг моддий фаровонлигини оширувчи бойликларимиз булган табиий ресурсларнинг унумдорлиги, унинг сифатини мунтазам яхшилаб бориш билан узвий боғликдир.

Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги тармоғининг барқарор ривожланиши кўп жихатдан инновацион фаолиятнинг муаммоларига боғлиқ. Инновацияларни ўзлаштириш натижасида қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш базаси технологик, техник ва ташкилий-иқтисодий жихатдан янгиланиб боради. Бу эса ўз навбатида, Ўзбекистоннинг жахон бозорига интеграциясини кучайтиради.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Узбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича Харакатлар стратегияси тугрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони

Иқтисодиётнинг аграр секторидаги таркибий ўзгаришлар ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ислоҳ қилишни инновацион янгилаш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, замонавий юқори самарали технологияларни жорий этиш хамда хўжаликларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш буйича амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида, 2018 йилнинг якунларига кўра, қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида 1,3 % дан юқори даражада ижобий ўсиш суръати қайд этилди. Мазкур тармоқнинг ЯИМ мутлоқ ўсиш суръатига таъсири 0,2 фоизни ташкил этди.

Ўтган йилнинг мос даври билан таққослаганда ЯИМ тармоқлари бўйича таркибида саноатнинг улуши 26,6 % дан 30,3 % га ўсиши билан бир пайтда қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигининг улуши 18,3 % дан 17,5 % га, қурилишнинг улуши 7,3 % дан 7,1% га камайди.

Қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш иқтисодиётнинг энг юқори ривожланган сахаси ҳисобланади ва у учун кадрлар билим салоҳияти хам мухимдир. Ҳозириги кунда фан -техника ютуқларини кенг жорий этиш ва ундан самарали фойдаланиш учун турли механизмлар ва институционал тузилмалар, яъни миллий инновацион тизим шаклланмоқда. Қишлоқ хўжалигини барқарорлаштиришда қишлоқ хўжалигини технологик жихатдан янгилаш устувор йуналишлардан биридир.

2018 йил учун ЯИМ таркибида қишлоқ хўжалик тармоғининг салмоғи*(жамига нисбатан % ҳисобида)*[1]



Қишлоқ хўжалигининг машинасозлик корхоналари фаолиятини бошкаришни янада такомиллаштириш, уларнинг самарадорлиги ва рентабеллигини ошириш, соҳада ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жихозлаш, агросаноат комплекси учун замонавий, унумдорлиги юқори, ички ва ташқи бозорларда рақобатбардош

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотлари.

техника ва ускуналар ишлаб чиқаришни ташкил этишга қаратилгандир. Бугунги кунда Ўзбекистонда инновацион жараёнларни чуқурлаштиришга ва инновация базасини мустаҳкамлаш учун барча зарур ижтимоий-иқтисодий асослар мавжуд. Ишлаб чиқаришда замонавий техника ва технологияларнинг қўлланилиши қуйидаги имкониятларни келтириб чиқаради. Жахон миқёсидаги талабларга жавоб берувчи, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқарилиши; маҳсулот таннархи ахамиятли даражада пасайтирилиши ҳисобига корхонанинг молиявий натижалари юқори булиб, имкониятлари кенгайиши; хомашё ва ресурслар тежалиши; атроф-муҳитга салбий таъсир қисқариши.

Агар мазкур техника ва технологиялар инновацион тавсифга эга, яъни илгари амалда қўлланилмаган ишланма ва ғояларга асосланган булса, у ҳолда улардан фойдаланишнинг иқтисодий-ижтимоий ахамияти янада юқорирок булади. Инновацион технологияларнинг ишлаб чиқаришга татбиқ этилиши ушбу соҳада фойдаланиб келинаётган технологияларга нисбатан юқорироқ самарага эришиш имконини беради.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарида таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш орқали ишлаб чиқаришни изчил ривожлантириш, ахолини озиқ-овқат маҳсулотлари, қайта ишлаш саноатини хомашё билан узлуксиз таъминлаш орқали мамлакатимиз озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, аграр секторнинг экспорт салохиятини сезиларли даражада ошириш истиқболда амалга оширилиши кўзда тутилган энг мухим вазифалардан саналади. Бу борада:

- етарли олий маълумотга эга бўлмаган аммо қишлоқ хўжалик соҳасида фаолият кўрсатиб соҳа учун зарур бўлган қўшимча технологияларни яратган қишлоқ хўжалик ходимларининг ихтироларини мукамаллаштириш мақсадида соҳа олимлари билан хамкорлигини мустаҳкамлаш;

-суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, мелиорация ва ирригация объектларини ривожлантириш, тармоққа интенсив, сув ва ресурсларни тежайдиган замонавий агротехнологияларни жорий этиш, унумдорлиги юқори техникалардан фойдаланиш;

- қишлоқ хўжалиги экинларининг касаллик ва зараркунандаларга чидамли, махаллий иклим ва экологик шароитларга мос янги селекция навларини ва юқори махсулдорликка эга хайвонот зотларини яратишда қишлоқ хўжалик корхоналарининг фаолигини кенгайтириш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш асосида озиқ-овқат ва қадоқлаш маҳсулотларини ишлаб чиқарадиган замонавий қайта ишлаш корхоналарини куриш, мавжудларини реконструкция ва янгилаш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, тайёрлаш, сотиш, курилиш ишлари ва хизматлар кўрсатиш билан шуғулланувчи куп тармоқли фермер хўжаликларини ривожлантириш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш, ташиш, сотиш, агрокимё, молиявий ва бошқа замонавий бозор хизматлари кўрсатиш инфратузилмаларини ривожлантириш;

Инновацион ривожланиш муаммолари Ўзбекистон учун алохида долзарблик касб этади, чунки фақатгина янги тежамкор, илғор технологиялардан кенг ва самарали фойдаланган холда инновацион ривожланиш атроф-муҳитни сақлаб қолишни ҳисобга олиб иқтисодиёт барқарорлигини жадал суръатларда усишини таъминлайди.

Замонавий технологияларнинг турли вариантларини таққослаш натижалари шуни кўрсатмоқдаки, ерга энг кам ишлов бериш, жорий ва инвестициявий харажатларни тежаш, таннархи анча паст булган маҳсулотни ишлаб чиқариш ва нархларнинг бир хил даражасида хар бир экин буйича бир гектар ердан купроқ даромадлар олиш имконини беради.

Аммо, технологияларни узгартириш - тизимли ёндашувни, анъанавий технологиялардан янги ресурсни тежовчи технологияларга утишда корхонанинг технологик тизимида юз берадиган барча узгаришлар хақидаги билимларни талаб килувчи мураккаб жараёндир. Шу муносабат билан қишлоқ хўжалиги корхоналарида технологик ва ташкилий-иқтисодий инновацияларни жорий этишнинг жараёнли алгоритмларини ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича Харакатлар стратегияси туғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

2.Эргашев Р.Х., Хамраева С.Н. Қишлоқ хўжалиги инфратузилмаси иқтисодиёти. Ўкув кулланма, -Т.: Янги авлод, 2012 -332 бет.

3.Хамраева С.Н. Қишлоқ инфратузилмасини инновацион ривожлантириш. Монография - Тошкент: 2017 - 73 бет.

4.Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси. Тошкент - 2017 й.

5.Мамбетназаров Б.Б. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида ишлаб чиқаришни модернизациялаш ва диверсифкациялашнинг узига хос хусусиятлари // Агросаноат мажмуи тармоқларида инновацион бошқарув фаолиятини модернизациялаш ва ривожлантириш муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Т.:ТДАУ, 2014.- 32 бет.

6.Икромова С.А. ва бошкалар. Республикамиз агроиқтисодиётини ривожлантиришнинг замонавий концептуал асослари. // Агросаноат мажмуи тармоқларида инновацион бошқарув фаолиятини модернизациялаш ва ривожлантириш муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. -Т.:ТДАУ, 2014.- 46 бет.

М У Н Д А Р И Ж А :

I ШЎЪБА. “ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ВА АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ”		
Пардаев М.Қ., Пардаева И.М.	Туризмни ривожлантириш концепциясининг айрим йўналишлари	3
Хамраева С.Н., Тўхтаева М.	Хизматлар соҳасида инновацияларни ривожлантиришнинг илмий-назарий асослари	6
Aliboyev J.T., Gulyamova G.P.	Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyot va aholi farovonligini oshirishdagi o‘rni	9
Равшанов А., Худойбердиев С.	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни инновацион ривожлантиришда хизмат кўрсатиш соҳасининг тутган ўрни	12
Бабаназарова С.А., Пирманова Н., Абдукаримов С.	Аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламига кўрсатиладиган тиббий хизматлар ва таълим хизматлари, уларнинг ҳозирги кундаги аҳамияти	14
Файзиева И.И.	Маиший хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятининг илмий-услубий муаммолари	17
Ниматов И.Х., Шодмонов Ш.Ф.	Роль и значение сферы услуг в экономике, в повышении уровня и качества жизни населения	20
Алимов А., Суяров А.Ш., Гадоева М.Х.	#BeGuest Стартап лойиҳаси асосида овқатлантириш хизматини ривожлантириш	24
Марданова З.	Инвестицион механизмнинг бошқариш йўналишлари	26
II ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ, РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”		
Пардаев М.Қ., Бердикулова И.Р., Ғаппаров А.Қ.	Самарқанд вилоятининг туризм салоҳияти ва улардан самарали фойдаланиш имкониятлари	29
Пардаев М.Қ., Хидирова У.С.	Тадбиркорликнинг туризм соҳасини ривожлантириш омили эканлиги	31
Бердиқулов В.	Ўзбекистон: туризмнинг бугунги ҳолати ва яқин келажак уфқлари	34
Nasimov D.A., Rabbimov M.	Turizm sohasining iqtisodiyot va aholi farovonligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati	38
Низомов А. Н., Муинжонов Ю.	Проблемы развития транзитного туризма	41
Исломова Р.А.	Навоий вилоятининг туристик салоҳияти ва унинг аҳоли фаровонлигидаги роли	44

Yo‘ldoshev B.O., Abdullayev R.V.	Xizmatlar bozori rivojlanishida turizmning ahamiyati	46
Исломов Ш.М., Ибрагимов С.Х.	Меҳмонхона хизматлари сифатини бошқа-ришда мижоз билан ҳамкорлик масалалари	49
Ташматов Ш.У., Абдуқобилов Ш.Х.	Ижтимоий туризм: ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари	52
Абдусаидова Ш.Я.	Туризм - стратегическая отрасль развития инновационной экономики Узбекистана	55
Taylakova D.B., Eshmamatova A.M.	O‘zbekistonda turizm biznesini innovatsion loyihalar asosida rivojlantirish yo‘llari	58
Djumayev B.A.	Turizm sohasida Xalqaro mehmonxona biznesi	60
Saydaliyeva U., G‘ulomova G.	Turizmni innovatsion rivojlantirishda klaster ahamiyati	64
Kosse R.B.	Iqtisodiyotni rivojlantirishda ekologik sayohatlarning tutgan o‘rni	66
Уразов С.Ш., Асқарова Н. Эгамбердиев С.	Таълим хизматлари тизимини бошқариш усулларининг ўзига хос хусусиятлари	69
Базаров З.М., Гадоева М.Х.	Ресторанларда хизмат кўрсатиш фаолиятини халқаро стандартлар асосида ривожлантириш	71
Ашурова А.Ж.	Механизмы повышения эффективности, тенденции и перспективы развития туризма в условиях стратегического развития экономики	74
Ниматов И.Х., Саидов А.Ш.	Ўзбекистонда “Ҳалол туризм” стандартининг жорий қилинишининг аҳамияти	77
III ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Мирзаев Қ.Ж., Мусаев Б.Ш., Сатторова Н.	Замонавий менежмент тизимида кадрлар масаласи ва раҳбарларга қўйиладиган талаблар	81
Турдиев Б.О., Хатамов Ғ.Т.	Ташқи савдони божхона воситасида тартибга солишни либераллаштириш жараёнлари	86
Xurmamatov M.A., Isadjanov A.	Xizmatlar sohasining innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi o‘rni	91
Суюнов А.С., Жуманов Ш.Н., Суюнов Б. А.	Маҳсулот сифатини бошқариш тизимини такомиллаштириш йўллари	94
Холиқулов А.Н., Бурхонова Н.	Корхонада сифатни бошқаришнинг замонавий услубларини жорий этиш	97
Мусаева Ш.А., Усмонова Д.И.	Ишлаб чиқариш ва саноат корхоналарида маркетинг ва унинг хусусиятлари	100

Xoliqulov A.N., O‘rozov S., Usmonova L.	Korxonani boshqarishda liderlik qobiliyatidan foydalanishning samarali yo‘llari	105
Коссе Р.Б.	Инновацион иқтисодиётни шакллантириш шароитида истеъмолчилар маданияти ва маркетинг хизматларининг ўрни	108
Бердиёров Т.А.	Маркетинг логистикасини ташкил қилиш ва назорат қилиш	111
Шарипова Г.Т.	Ўзбекистон енгил саноатида бошқариш тизимининг шаклланиши ва уни ривожлантириш	116
IV ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Зайналов Ж.Р., Алиева С.С.	Качество услуг, как важный фактор финансового успеха туристских предприятий	119
Эргашев Т.Қ., Саидмуродова М.Ў.	Замонавий банклар фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари ва менежментнинг унга таъсири	123
Эрматов Т.	Суғурта компаниялари молиясини самарали ташкил этиш ва бошқариш истиқболлари	125
Mardonova A.T.	Bank xizmatlari sifatini oshirish masalalari	127
Sadiqova R.A., Muxtoraliyev A.M.	Takoful (islomiy sug‘urta) va uning tamoyillari	130
Husanov B.SH., Ochilova D., Farmonov E.	Mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalarning roli	132
Бозорова С., Комилов Д. Муродова А.	Иқтисодий тараққиётни таъминлашда хорижий инвестицияларнинг ўрни	134
Расулов Ш.Ж., Алиева С.С.	Активизация финансовых аспектов регулирования социальных услуг – как важный фактор повышения уровня жизни населения в динамично развивающихся условиях	138
Нозимов Э.А., Абдуҳолиқова Ф.А., Давронов Т.	Ўзбекистон иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилишда фонд бозорларининг ўрни	142
Хамроев М.С., Усмонов П.Ш., Худоёров Д.О.	Хорижий инвестицияларни Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этишни такомиллаштириш	147
Алиева С.С., Абдуллоев Ф.О.	О налоге на имущество физических лиц	150
Ахроров З.О., Тураев А.А., Пўлатов С., Хазраткулов Х.	Корхоналарда молиявий муносабатларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари	152

Нозимов Э.А., Раҳимов А.А., Улуғбеков О.	Инвестицион капитал оқимини таъминлашда эркин иқтисодий ҳудудларни ривожлантириш	157
V ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ, АУДИТ ВА СТАТИСТИКА ФАНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ”		
Уразов К.Б., Норқулов Ф.Т.	Автотранспорт воситалари иш фаолияти кўрсаткичларининг аудит объектлари сифатидаги таснифи ва тавсифи	163
Ибрагимов М.	Узумчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш	167
Xoliqulov A.N., Yorkulova Z.A.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilayotgan imkoniyatlarning statistik natijalarining tahlili	171
VI ШЎЪБА. “ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ”		
Худайбердиев У.Х., Назаров М.И.	Билим – муваффақият калитидир	176
Kamolova S.S., Qarshiyeva M.M.	Kafedralarning o‘quv uslubiy ishlarini yuritish tartibi	177
Адилова С.А.	Некоторые вопросы обучения нерусских студентов интонации русского языка, как средству коммуникативного общения	180
Маматкулова К.А.	Инновационные технологии как средство обучения иностранным языкам	182
Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A., Pardaboyev O.B.	O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim tizimidagi ba’zi muammolar va yutuqlar	185
Қаршиева М.М., Камолова С.С.	Сифатли кадрлар тайёрлашда ахборот технологияларнинг ўрни	188
Султонова У.Н., Султонов С.Н., Турдиев Б.	Ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил этишда мустақил ишларнинг турлари ва шакллари	190
VII ШЎЪБА. “МАМЛАКАТИМИЗДА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ”		
Эргашев Р.Х., Шоматова Ш.Х.	Замонавий корхоналарнинг инвестицион фаолиятини яхшилаш йўллари	194

Арипов О.А.	Рақамли иқтисодиётнинг ишбилармонлик муҳитига таъсири	198
Шохўжаева З.С.	Сув –иқтисодий аҳамиятга эга бўлган неъматдир	201
Ниёзов З.Д., Каримова А.М., Маликова Д.М.	Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида мамлакатимизда кўрсатилаётган хизматларга инновациялар жорий этиш	204
Худайбердиев У.Х., Худайбердиева М.У	Ижтимоий соҳа – устувор йўналиш	206
Мусаева Ш.А., Усмонова Д.И.	Қишлоқ чакана савдосида электрон тижоратни ривожлантириш йўллари	208
Эргашев Р.Х., Маманазарова Н.Ж.	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарида маҳсулотлар рақобатбардошлигини такомиллаштириш йўллари	212
Shoxo‘jaeva Z.S., Halilova N.	Qishloq xo‘jaligini sanoat bilan integratsiyasini rivojlantirish yo‘llari	215
Худайбердиев У.Х., Мухамадиева К.Р.	Ўзбекистоннинг экспорт салоҳияти	218
Суюнова Я.М., Рахмонова Ф.М., Суюнов Б.А.	Қурилиш конструкциялари ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот сифатини тезкор назорат тизими	221
Ашурова О.Ю., Абдуқодиров Х.Ю., Очилов Ш.Т.	Меҳнат интизомини ривожлантириш йўналишлари	224
Парпиева Н.Т., Файзуллаев У.Д.	Инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳаси самарадорлигини ошириш йўналишлари	226
Мурадова Н.У., Бегматов Х.А.	Значимость инновационных услуг на рынке лизинга	229
Дусматов Б.О., Сайдуллаев С.Т.	Мамлакатни модернизациялаш шароитида саноат корхоналарида инновацион ривожлантириш асослари	232
Ашурова О.Ю., Абдуқодиров Х.Ю., Очилов Ш.Т.	Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб қувватлаш механизми	235
Латипова Ш.М., Муродуллоев Ф.	Миллий иқтисодиётда лизинг хизматларини такомиллаштириш масалалари	238
Bektemirov M.Sh.	Islom iqtisodiyoti, Islomiy moliya sanoati va uning jahon miqyosidagi o‘rni	241
Эрназаров Н.Э., Болтабоев Ш.Н.	Мамлакатимизда қишлоқ хўжалик корхоналарини инновацион ривожлантириш йўналишлари	244

ҚАЙДЛАР УЧУН

2019 йил. Қоғоз бичими А5,
Офсет қоғози. Times New Roman” гарнитураси
Босма табоғи 16
Буюртма № 5, Адади 87 нусха

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
Босмахонасида чоп этилди
Манзил: А. Темур кўчаси, 9-уй